

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

SAMADOV AKTAMKUL RAFIKOVICH

GEOSIYOSAT ASOSLARI

O'quv qo'llanma

Samarqand davlat universiteti Kengashining 2021 yil 24 avgustdagi 1-bayonnomaga qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

SAMARQAND - 2021

Geosiyosat asoslari: tuzuvchi f.f.d. dots. A.R.Samadov. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 344 bet.

Hozirgi globallashuv davrida talabalar tomonidan geosiyosatni o'rghanish juda zarur bo'lib, geosiyosiy bilimlarning asoslarini o'zlashtirish, zamonaviy geosiyosatdagi mavjud tushunchalar to'g'risida nazariy g'oyalarmi, shuningdek dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalaridagi siyosiy vaziyatni tahlil qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini oladilar. Ushbu o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi geosiyosatning barcha asosiy muammolarini qamrab olish, talabalarda geosiyosiy voqelikning murakkab masalalarini anglash qobiliyatini shakllantirish, mustaqil fikrlash va tarixiy davlatlararo jarayonlar va institutlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Ushbu tajribaviy o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarida 5111600 - Milliy g'oya, ma'naviya asoslari va huquq ta'limi va 5120500-Falsafa (yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishlarida o'qitiladigan "Geosiyosat asoslari" fani yuzasidan tayyorlandi. U Samarqand davlat universiteti tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur hamda ishchi o'quv dasturidagi mavzularni qamrab olgan bo'lib, talabalarga ma'ruza va seminar darslariga tayyorgarlik ko'rishda hamda dunyonin geosiyosiy manzarasini tushunish uchun amaliy yordam beradi.

Shuningdek, mazkur o'quv qo'llanma universitetning balakavr bosqichida ta'lim olayotgan talabalar, magistrantlar, shuningdek, o'rta maxsus ta'lim o'quvchilar hamda geosiyosat bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljalangan.

Mas'ul muharrir: f.f.d., prof. J.Ya. Yaxshilikov.

Taqrizchilar:

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

proffessori

s.f.d. V.Qo'chqorov

SamDU Falsafa va milliy g'oya

kafedrasi dotsenti

f.f.d.Sh.Sh.Negmatova

Samarqand chet tillar instituti

yoshlar masalasi bo'yicha prorektor

f.f.d., prof O.G'aybullayev

ISBN 978-9943-7042-1-3

KIRISH

XXI asrda kechayotgan global integratsion jarayonlar dunyoning g‘oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o‘zgartirib, yangicha tafakkur uslubini taqoza qilmoqda. Hozirgi kunda biz uchun nisbatan yangi fanga qiziqish ortib bormoqda, u XX asr boshlarida geosiyosat fani nomini oldi. Jahon tarixining zamonaviy bosqichi ko‘plab vaziyatlar, ham jahon siyosiy jarayoni, ham Markaziy Osiyo davlatlari rivojlanishi tufayli jahon arenasidagi kuchlar muvozanatidagi kuchli siljishlar bilan tavsiflanadi. Davrning o‘tishi dunyo voqealari rivojini har tomonlama tushuntirish va uzoqni ko‘ra bilishni talab qiladi. Zamonaviy geosiyosat davlatlarning xalqaro munosabatlardagi xulq-atvorini belgilovchi asosiy omillar to‘plamini kengaytirish orqali analitik fan sifatida geografik, iqtisodiy, mafkuraviy determinizmni yengib o‘tagidani bejiz emas.

Hozirgi mamlakatlar uchun geosiyosat dolzarbdir. Chunki u jamoat ongida tashqi va ichki siyosiy jarayonlarini idrok etishning mafkuraviy mohiyatini anglashga yordam beradi. Geosiyosat geografiya, tarix, iqtisod, etnologiya va boshqa fanlar chegaralarida ma’lum bilimlarni talab qiladi. Bu esa professional tahlilchi uchun nafaqat makon va zamon hodisalarni malakali tahlil qilish uchun, balki bashorat, ssenariylar va rivojlanishning strategiyasini ishlab chiqish uchun ham zarurdir. Shu bilan birga geosiyosat klassikalari guvohlik bergenidek, geosiyosatchi yuqori umumiyligi madaniyati va eng muhimi, yangi g‘oyalalar generatori bo‘lishi kerak. Geopolitikaning izchil rivojlanishi o‘z sohasiga nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ekologik va boshqa jihatlarni kiritish yo‘lidan boradi.

Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonni har tomonlama salohiyatini oshirish, geosiyosiy kelajagini yaratish, tashqi “katta o‘yinlar”dan himoyalash asosiy maqsad qilib olingan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “...dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus”¹ оlayotganligi, geosiyosiy raqobat, egallab turgan mavqemizni xolisona va tanqidiy tahlil qilishimiz, tobora globallashuv talablariga javob berishimiz dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Bugun butun dunyoda va har bir mamlakatda keng va strategik dunyoqarashga, global tafakkurga, konkret makon va vaziyatlarda operativ qaror qabul qilish qobiliyatiga, to’g’ri yo’l tanlash imkoniga ega bo’lgan professional geosiyosatchi va siyosatshunoslarning yetishmasligi his qilinmoqda.

Bugungi kungacha jiddiy o‘zgarishlarga uchramagan geosiyosat, davlatlararo aloqalar bo‘lmasa kerak. Bu esa o‘z navbatida, xalqaro munosabatlarga amaliy

¹ Мирзиёев Ш.М.Жисмоний ва маънавий барқамол ёшлар – бугунги ва эртаниги кунимизнинг ҳал қилувчи кучидир// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. –Б.505.

ta'sir o'tkazib kelmoqda. O'z milliy va ijtimoiy manfaatlarini ilgari surar ekan, har bir davlat bu bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda jahon darajasiga ko'tarmoqchi bo'ladi. Bu uchun ichki va tashqi konfliktlarni, boshqa geosiyosiy vazifalarni hal etish uchun o'z milliy xavfsizligi doktrinasi negizida ham xalqaro imkoniyatlardan, ham milliy imkoniyatlaridan hamda kuch-qudratidan foydalanishga harakat qilmoqda.

Katta imperiyalar, strategik maqsadlar yo'lida birlashadigan davlatlar ittifoqlari, buyuk derjavalar va boshqa jahoniy kuchlar xalqaro munosabatlar ruhi va dunyo siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab bergen va belgilab bermoqda. Haqiqatda ayni shu davlatlar bevosita yoki bilvosita o'z azmu irodasini boshqa davlatlarga zo'r lab o'tkazmoqdalar, jahonning geosiyosiy xaritasini tuzmoqdalar, uning tuzilmasini shakllantirmoqdalar, davlatlararo boshqaruvchi va hakamlik vazifasini bajarmoqdalar, shu tariqa ular yashash, xalqaro yurish-turish qoidalarini belgilab bermoqdalar. Ular mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarni, geoijtisodiy va strategik xom ashyo resurslarini taqsimlash, geosiyosiy ta'sir o'tkazish sohalarini, jahon miqyosida tovarlar va xizmatlar narxini belgilashda asosiy vazifani hal etmoqdalar. Boshqa davlatlarga kelsak, ular paydo bo'lgan vaqtidan boshlab bugungi kungacha o'z milliy manfaatlarini ta'minlash yo'lida har biri o'z-o'zicha yoki boshqa davlatlar bilan birgalikda mustaqillik, hur hayot, buyuk davlatlardan himoyalanish uchun kurash olib bormoqdalar.

Mazkur o'quv qo'llanmani tarbiyaviy ahamiyati shundaki, dunyodagi geosiyosiy vaziyatga nisbatan mustaqil qaror qabul qilish, tashqi siyosatdagi barqarorlik, ijtimoiy-siyosiy birdamlik, sabr-toqatlilik omilini targ'ib qilinishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Geosiyosat asoslari fanini o'qitish yoshlar ongida dunyoda qadimgi davrdan buyon bugungi kungacha bo'lgan vaqtarda geosiyosat asosiy tushunchalarining paydo bo'lishi, shakllanish va rivojlanish tarixini bilib oladi, turli-tuman geosiyosatchi olimlarlarning qarashlarini tahlil qiladi, asosiy manbalar, qonuniyatlar, geosiyosatning ob'ekti, predmeti, kategoriyalari, aktorlarini mavjudligini e'tirof etadi, har xil davr va geosiyosiy maktablarga mansub siyosatshunoslarning fikrlari va nazariyalari ko'rib chiqilib, qiyosan O'zbekistonning geosiyosiy kelajagi to'g'risida fikrlay boshlaydi. Ushbu fan talaba yoshlarning Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda katta xizmat qiladi.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda tadqiqotchi O.Maxamatovning "Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarda yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi masalalari" nomli ilmiy tadqiqot ishi bilan qatnashdi. Unining ilmiy ishidan o'quv qo'llanmani milliy manfaatlat va milliy xavfsizlik degan V bobida foydalanildi.

I-BO‘LIM

GEOSIYOSAT ASOSLARI FANINI METODOLOGIK JIHATLARI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI

I-BOB.GEOSIYOSAT ASOSLARI FAN SIFATIDA

- 1.1. “Geosiyosat asoslari” fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari
- 1.2. «Geosiyosat asoslari» fanining kategoriyalari, qonunlari, metodlari va funksiyalari

Tayanch iboralar: geosiyosat, siyosiy faoliyat, jahon urushlari, siyosat, tarix, geografiya, kategoriyalar, ekosiyosat, davlat tuzilishi, qonunlar, geografiya, funksiyalar, yondashuvlar.

1.1. “Geosiyosat asoslari” fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari

Siyosat olamining tarixi insoniyat tarixi bilan uzviy bog‘langan. Qadimgi dunyo mutafakkirlari siyosat, siyosiy faoliyat (ular asosan hukmdorlarning harakatlarini tushungan) va bu faoliyatlarni amalga oshirishda yerni qulay joyi va yashash makoni bilan tabiiy aloqasini payqashgan. Darhaqiqat, uzunlik o‘lchovi, maydon, relef, o‘simlik, iqlim, daryolar suv to‘sislari va aloqa yo‘llari, dengiz qirg‘og‘i siyosatdagi alohida geografik omil bo‘lib, ularni bilmasdan turib, siyosiy tadbirlarni rejalashtirish mumkin emas. Mamlakatning iqtisodiy qudrati va armiyaning harbiy kuchini bilmasdan, hech bo‘limganda fazoviy omilning asosiy xususiyatlarini va qarama-qarshi tomonlar kurashni o‘ziga xos tomonini bilmasdan va ishlatmasdan urushda yoki hatto bitta jangda g‘alabaga erishish mumkinmi? Bundan tashqari, egallab olingan hududni uning aholisi - uning miqdori, zichligi, boshqa demografik xususiyatlari va milliy xususiyat xususiyatlari qanday ekanligi haqida tasavvurga ega bo‘lmasdan uni saqlab qolishni mumkin emas.

Shu ma’noda, geosiyosat siyosiy faoliyatning (tinchlik yoki harbiy) muvaffaqiyatini geografik, tarixiy, ijtimoiy-psixologik, etnografik, iqtisodiy omillar bilan belgilash sifatida siyosatning fazoviy-ijtimoiy munosabatlari tizimida azaldan mavjud bo‘lib kelgan. Aslida bu atama ikki qismdan iborat bo‘lib “geo” yer, “politika” siyosat degan ma’nolarni bildirib siyosatni geografik ma’noni anglatadi. Umuman olganda, geosiyosat geografik omillarni davlat siyosatiga ta’sirini o‘rganadi. Ushbu ta’sir etuvchi omillar orasida asosiysi bular:

♦ hudud;

- ◆ geografik joylashuvi, ya'ni davlatning qit'adagi joylashuvi;
- ◆ chegaralarning uzunligi, ularning tabiiy yoki sun'iy chegaralardagi o'rni;
- Geosiyosatni asosiy tushunchasi va predmeti bu:
- ◆ suv to'siqlari va aloqa yo'llari sifatida daryolarning mavjudligi;
- ◆ mamlakatning dengizga nisbatan pozitsiyasi, qirg'oq chizig'ining uzunligi va suvgaga chiqish shartlari;
- ◆ iqlim (sovuv, mo'tadil, issiq, quruq va boshqalar);
- ◆ tuproqlar (ular qishloq xo'jaligi, infratuzilma, sanoat rivojiga qay darajada ko'maklashadi);
- ◆ mineral resurslar, ularning boyligi, aholining iqtisodiy o'sishini va ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash qobiliyatini;
- ◆ aholi, uning miqdori, zichligi, ijtimoiy tarkibi va boshqa xususiyatlari¹.

Geosiyosat fan sifatida XIX asr oxirlari - XX asr boshlarida vujudga keldi. Uning vujudga kelishi yirik mustamlakachi davlatlarning vujudga kelishi, dunyon bo'lib olishga intilish, jahon savdosining yuksalishi, sanoat inqilobining tugallanishi, sanoat va moliya kapitalining rivojlanishi, jahon bozori uchun kurashning avjiga chiqishi, yangi bozorlarga, mustamlakalarga ega bo'lishga intilish va uning ustiga qurilgan siyosatning hosilasi sifatida kechdi. Geografik kashfiyotlar davri tugab "geo-grafiya" atamasi siyosat predmetiga aylanib ulgurgan edi. Aynan o'sha davrlarda "geo" atamasini ildizi ikkinchi ma'nosи tez-tez ishlatiladigan bo'lган. U tobora siyosatning "sayyora", "global" o'lchovi sifatida talqin qilinib, super kuchlar yoki harbiy bloklar (AQSh va SSSR, NATO va Varshava shartnomasi) o'rtasidagi munosabatlarni "sivilizatsiyalar to'qnashuvi" (A. Toynbi, S. Xantington) yoki o'zgarish sifatida tavsiflanadi. Bu atama dunyo tizimining umumiy konfiguratsiyasi, masalan, bipolyar tizimdan to monopolitsentrikgacha o'z ichiga olgan edi.

Atamaning ikkinchi qismi – "siyosat" - bu mazmunda hukmronlikni amalgaloshirish, hokimiyatni egallash, makon va uning rivojlanishini anglatadi. So'nggi paytlarda u zamonaviy geosiyosat sub'ektlari yangi hududlarni egallash va rivojlantirishni juda istamasliklari, chunki ular mumkin bo'lган bo'shliqlarni boshqarishga intilishlari va bu zamonaviy geosiyosatning o'ziga xos xususiyati - umuman hududni emas, balki aksariyat hollarda ushbu hududlar va ulardan o'tuvchi savdo oqimlarning aloqa yo'naliishlari (moliviy, tovar, ishchi kuchi va boshqalar), shu bilan ularning rivojlanishi va farovonligi uchun eng qulay sharoitlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Shunday bo'lsada bugungacha uning shaklu shamoyiliga, tadqiqot doirasiga, ob'yektiga aniq bir ta'rif berilmadi. Bu bir tomonidan yangidan shakllangan har bir

¹ Исаев Б. А. Геополитика: Учебное пособие.— СПб.: Питер, 2006. — С.6.

fan uchun o‘ziga xos xususiyat bo‘lsa, ikkinchi tomondan geosiyosiy jarayonlarning naqadar murakkabligi bilan izohlanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda, ayniqsa sovuq urushi tugashi arafasida «Geosiyosat» atamasi ommabop atamaga aylandi. Fransuz olimi Iv Lakostning e‘tirof etishicha geosiyosat atamasi 1980 - yillardan boshlab, ayniqsa «sovutq urush» davri tugaganidan keyin nihoyatda keng qo‘llanila boshlandi. “Geopolitikani o‘ziga xos muammoli ilmiy yo‘nalish sifatida ta’riflash mumkin, uning asosiy vazifasi asosan turli darajadagi (harbiy, iqtisodiy, siyosiy, sivilizatsion, ekologik) kuch maydonlarining fazoviy chegaralarini belgilash va prognoz qilishdir”¹. N.A Nartovning. ta’rifiga ko’ra geosiyosat - bu fan, yerdagi makonni boshqarish haqidagi bilimlar tizimidir². Yana uning fikricha geosiyosat oraliq fan bo‘lib, maxsus o‘ziga xos tadqiqot maydoniga ega emas. Siyosatga, siyosiy hodisalarga ko‘proq e‘tiborini qaratsada, ularni geografik omillar, aspektlar asosida umumlashtiradi. O‘z navbatida geosiyosat davlatning ichki, tashqi siyosatini tushuntirishda, asoslab berishda bir qator geografik omillardan keng foydalanadi: chegara tafsifi, tabiiy va qazilmalar resurslarga boyligi, u joylashgan orol yoki quruqlikning qulayligi, iqlimi, relefi va boshqalar. Uzoq yillar davomida geosiyosatda hal etuvchi omil metropoliyaning geografik makonda kengayib borishi asosiy ahamiyat kasb etib kelgan edi. Vaqt o‘tishi bilan bu omil o‘z ahamiyatini davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikka, tenglikka asoslangan o‘zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlarga bo‘shatib bera boshladи.

K. Xausxofer unga quyidagicha ta’rif beradi: geosiyosat geografig kenglikni davlat nuqtai nazaridan o‘rganadigan fandir. A.Dugin geosiyosatni dunyoqarash deb biladi va quyidagi majoziy ta’riflarini beradi:

- geosiyosat bu hokimiyat dunyoqarashidir, hokimiyat uchun fan;
 - siyosiy elita intizomi;
 - hukmdor haqida qisqa qo‘llanma, kuch egalik qilish darsligi;
- Geosiyosat- bu g‘oliblik haqidagi fandir³.

Amerikalik geosiyosatchi Kolin Filint o‘zining 2006 yilda nashr etilgan “Geosiyosatga kirish” kitobida Geosiyosat - bu tasavvurlarni uyg‘otadigan so‘z. Bir ma’noda, bu so‘z urush, imperiya va diplomatiya g‘oyalarini qo‘zg‘atadi. geosiyosat - bu hududlarni boshqarish va raqobatlashadigan davatlarning amaliyotidir. Geopolitika obrazlarni yaratishni nazarda tutadigan yana bir ma’no bor: geosiyosat, nazariya, til va amaliyotda hududlar va odamlar massasini tasniflaydi. Masalan, Sovuq Urush - bu hududni boshqarish ustidan ziddiyat bo‘lib,

¹ Колесов В.А., Мироненко Н.С. Геополитика и политическая география: Учебник для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2001 С.18.

² Нартов Н.А. Геополитика: Учебник для вузов / Под ред. Проф. В.И. Староверова . –2-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Единство, 2004.С.12.

³ Макошев А.П. Политическая география и geopolitika: Учебное пособие. – Горно –Алтайск, 2005, - С.53.

u “temir pard” va “erkin dunyo” va kommunizmning “tahdidi” ning geografik asosidagi tasvirlari orqali qo‘zg‘atilgan va oqlangan¹.

Bugungi kunda bu atama barcha davlatlarning OAV larida jurnalistlar nafaqat Yevropa davlatlari o‘rtasidagi hududiy raqobatchilikni, ayni damda unga qarshi jamoatchilik fikridagi e‘tirozlarni ham ko‘tarib chiqishmoqda. Ba‘zan esa geosiyosat atamasi turli hodisalarga, jumladan hech qanday aloqasi yo‘q hodisalarga nisbatan ham ishlatilmoqda. «The Economist» jurnalida e‘tirof etilishicha geosiyosat atamasi fundamental hodisa hisoblansada, uni shunday bir yorliqqa qiyoslash mumkinki, bu yorliqni istalgan hodisaga ilib q o‘yish mumkin.

O‘zida iqtisodiy va siyosiy geografiyani umumlashtirgan geosiyosat harbiy yoki diplomatik tarixga shunchaki qo‘shilgan oddiy hodisa emas. Geosiyosiy uslub ularni o‘zlashtirgan holda namoyon bo‘ladi. Alohida tadqiqot, masho‘ulot sohasi sifatida, dunyoga nazar tashlash uslubi sifatida geosiyosat asoslari fanining istiqbollari quyidagi holatlar bilan o‘z dolzarbligini namoyon qiladi:

1) jamiyatning demokratik, fuqarolik siyosiy madaniyatini shakllantirishda, aholii tafakkurini qaramlik tafakkur tarzidan xalos bo‘lishida, radikal geosiyosiy hatti - harakatlar mohiyatini anglab yetishda geosiyosatning asoslarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi;

2) geosiyosiy paradigmalar, alohida faoliyat turi sifatidagi geosiyosat shakllanayotgan ko‘p qutbli dunyoda, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi;

3) endigma shakllanayotgan geosiyosat fani oldida g‘arb geosiyosati erishgan yutuqlarni o‘zlashtirish, uning asosiy tendensiyalarini, hozirgi zamon geosiyosiy jarayonlarining rivojlanish xusiyatlarini o‘rganish kabi masalalar turibdiki, ularning yechimi O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda, jahon hamjamiyatida tutgan maqomini belgilab olishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Fransuz geosiyosatchisi Mishel Fushe ingliz va nemis geosiyosati xususida fikr yuritib, jahonda iqtisodiy va siyosiy hukmronlikni qo‘lga kiritish ustida kurash natijasidagi ehtiyoj natijasida yuzaga kelganligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha geosiyosat faqatgina uslub hisoblanmasdan, ayni damda tasavvur va amaliyot ham hisoblanadi². Negaki dastlabki geosiyosatchilar sifatida turli davrlarda turli hukmdorlar maydonga chiqishgan. Geosiyosatni tasavvur sifatida shu ma‘noda e‘tirof etiladiki qator geosiyosiy maktablar ilgari surgan nazariy muhokamalar dunyo haqidagi tasavvurlarni inikos ettirgan, u yoki bu davlatning olib borayotgan siyosatini belgilab bergen. Geosiyosat metod sifatida ilmiy, pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar mohiyatini ifoda etgan.

¹ Colin Flint. Introduction to Geopolitics. Madison Ave, New York, 2006 P-13.

² Дугин А. Основы geopolитики. Арктоэя. – Москва. 1997-С.35.

Insoniyatning kelajagi to‘g‘risida har xil farazlarni o‘rtaga qo‘yayotgan turli siyosiy va ilmiy doiralar – siyosatshunoslar, tarixchilar, faylasuflar, futuroologlar, astrologlar va boshqalar XXI asrda insoniyatning taqdiri qanday bo‘lishi haqida har kuni turli-tuman farazlarni ilgari surmoqdalar. Global dunyo tartibotini, zamonaviy geosiyosiy va xalqaro munosabatlarni yaxshilash uchun ayrim tadqiqotchilar liberal-demokratik qadriyatlarni rivojlantirishni taklif qilsalar, boshqalar insoniyatga tahdid solayotgan milliy-etnik va shu asosda kelib chiqadigan etnik ziddiyatlar, madaniyatlararo konfliktlar, ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy va ekologik va hokazo ofatlarga qarshi turishning keskin yo‘llarini izlamoqdalar. Biroq, geosiyosatchi olim V.A.Dergachevning so‘zлari bilan aytganda, insoniyatga xavf tug‘dirayotgan jadal rivojlanayotgan, o‘zgaruvchan va globallashib borayotgan jahon hodisa va jarayonlari chuqur geosiyosiy tafakurga, jiddiy global yondashuv va professional tadqiqotlarga asoslangan javoblarga ehtiyoj sezayotgani ularning hammasiga birday xos xususiyatdir. Uning fikricha, XX asrda, garchi ilmiy-texnika taraqqiyoti tantana qilgan bo‘lsa-da, yer kurrasi va har bir mamlakatda sodir bo‘ladigan global o‘zgarishlarning oqibatlari to‘g‘risida mantiqiy va malakali fikr yuritish hamda xulosalar chiqarish imkonini beradigan fan asoslari yaratilgani yo‘q.

“Geosiyosat” so‘zi garchi yunon tilidagi “geo” (yer) va “politika” (davlatni boshqarish san’ati) ma’nolarini anglatsada, babs etayotganimiz geosiyosat nazariyasi ham avvalo nemis geosiyosiy maktabida shakllanganligi barchaga ma’lum.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida asos solingen siyosiy geografiyadan insonlar o’sha vaqtлari mutlaqo boshqacha vazifalarni hal qilib berishini kutgan edilar. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida olingan ko’pdan-ko’p ma’lumotlarni umumlashtirish, yangi geografik va siyosiy aloqalar, maqsadlarni sistemalashtirish, eski va yangi dunyolarning geografik xaritasini yangidan tuzish va hokazolar, ayniqsa, dolzarb edi.

Bularning hammasi geograflardan jiddiy harakat va mehnat talab qilar edi. Ayni shuning uchun ham ko’pgina tadqiqotchilar “siyosiy geografiya” “geosiyosat”dan oldin paydo bo’lgan va asosan “qayd etuvchi” vazifasini bajargan, deb hisoblaydilar. Klassik geosiyosatchilar bu fanga birinchi navbatda yangi hududlar va yangi geosiyosiy sharoit xususida davlatning “qaror qabul qilish” hamda “buyurish” funktsiyasini amalga oshirish sohasi deb qaraganlar. “Siyosiy geografiya”ga nemis olimi Fridrix Rattsel (1844-1904) 1897 yilda yozgan “Siyosiy geografiya” asarida asos solgan. «Geosiyosat» so‘zini asarlarida ishlatmasada, geosiyosat fanining «otasi» deb nemis olimi Fridrix Ratselni aytish mumkin.

Rattselning aytishicha, geosiyosat davlatning o‘z atrofiga, qo‘snilanriga, birinchi navbatda, joylashgan makoniga munosabatini o‘rganadi va geografik makon munosabatlaridan (atrofdagi olamdan) kelib chiqadigan masalalarni hal etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shuningdek, Rattsel geosiyosatni geografik jihatdan izohlangan siyosat, o‘z mustaqil tadqiqot sohasi bo‘lmagan oraliq ilm sifatida baholagan, uni ko’proq siyosatga yaqin bo’lgan, siyosiy sharoitlarga, uning

geografik jihatlarining tahliliga va geografik sharhiga yo'naltirilgan soha deb hisoblagan.

“Geosiyosat” tushunchasini bo’lsa, taxminan yigirma yildan so’ng asli shved bo’lgan germanshunos olim Rudolf Chellen (1864-1922) ilmiy adabiyotga kiritgan, deb hisoblashadi. Rudolf Chellen o’zining “Davlat hayotning shakli sifatida” asarida geosiyosatni “konkret makonda joylashgan, doim kengayadigan va rivojlanadigan, geografik va biologik organizm – davlat haqidagi ta’limot” sifatida ta’riflagan. Shuningdek, geosiyosat “... makonni fundamental asosda tadqiq qilish bo‘lib, tadqiqot yer va undagi foydali qazilmalar bilan bogliq. Bu esa o‘z navbatida imperiyalarning tashkil topishini, mamlakatlarning yuzaga kelishini va davlatlar hududlarini o’rganish demakdir” deydi.

Jahon hamjamiyatining, butun insoniyatning kelajakdagi taqdiri va ehtiyojlari bugungi kunda geosiyosatchilar oldiga klassik geosiyosatning asos tamoyillari, baholash mezonlari, geosiyosiy bilim va qoidalarini tubdan qayta baholash va hozirgi zamon talablariga uyg’unlashtirish vazifasini qo’ydi. Rossiyalik tadqiqotchi E.A.Pozdnyakovning fikricha, geosiyosat geografik muhitning siyosiy omillaridan foydalanish yo’li bilan unga ta’sir ko’rsatish imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga, ularni o’rganishga, davlatning iqtisodiy, ekologik, harbiy-strategik xavfsizligi ta’min etilishiga xizmat qiladi. Amaliy geosiyosat davlatning hudud muammolari, sarhadlari, aholisi bilan birga, u molik bo’lgan strategik zahiralarning joylashtirilishi va foydalanilishiga oid barcha narsalarni o’rganadi. Shunday qilib, Pozdnyakovning fikricha, geosiyosat – makon ustidan nazorat haqidagi bilimlar tizimini o’rganadigan fandir.

Y.Tixonravov fikricha geosiyosatni siyosatni geografik muhit tomonidan yaratilgan – joylashgan atrof - makon, iqlim, landshaft, foydali qazilmalar, ekologiya, demografiya, va h.k siyosiy bo’lmagan tizim o‘zaro ta’siri qonuniyatlarini o’rganuvchi fan sohasi sifatida olib qaraydi. Ba’zilari esa geosiyosatning jamiyatdagi, ma’lum bir mintaqqa yoki davlatlardagi harbiy - siyosiy, madaniy va iqtisodiy omillarni tadqiq etuvchi fan ekanligini isbotlashga urinishadi. N.Starikov mazkur fan nimani o’rganishini ushbu formula asosida tushuntirishga harakat qiladi: geosiyosat= siyosat+tarix+geografiya. Eng ahamiyatlisi tartibi aynan mana shu: geografiyani bilmasdan turib, ozmi-ko’pmi muvaffaqiyatli harakat qilish mumkin, ammo dunyo siyosati va ushbu sohadagi tarix tamoyillarini tushunmasdan muvaffaqiyat deyarli mumkin emas. Bu xuddi xokkeydagi kabi - konkida ucha olmaslik ushbu sport turi bilan shug’ullanishga imkoniyat bermaganidek. Bizning holatlarimizda siz siyosatni tushunishingiz, tarixni o’rganishingiz va geografiyani bilishingiz kerak¹.

Geosiyosatga o‘ziga xos ta’rif o‘z vaktida «*Geopolitika*» nomli nemischa jurnalda berilgan: Geosiyosat yer va siyosiy jarayonlar o’rtasidagi munosabatlarni o’rganuvchi fandir. U geografik fundamentga ega. SHuningdek, geosiyosatdagi siyosiy organizmlar va ularning tuzilishini urganuvchi fan — siyosiy geografiyaga asoslanadi. Geosiyosatning maqsadi siyosiy harakatlarni kerakli vositalar bilan ta’minlash va umuman siyosiy hayotga yo’nalishni ko’rsatadi. Bu jihatdan

¹ Старикив Н. В. Геополитика. Как это делается / Н. В. Старикив — «Эксмо», 2019 9-10-с

geosiyosatni amaliy siyosatni boshqarish hakidagi fan deyish mumkin. Geosiyosat — davlatning geografik aqidir. Ko‘plab tadqiqotchilar geosiyosatga davlatning geostrategik qudratiga ta’sir o‘tkazuvchi geografik, tarixiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillarni o‘rganuvchi fan sifatida qarashadi. Ba’zilari esa geosiyosatning jamiyatdagi, ma’lum bir mintaqa yoki davlatlardagi harbiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy omillarni tad etuvchi fan ekanligini isbotlashga urinishadi.

Umuman geosiyosatga nisbatan berilgan ta’riflarni shartli ravishda uchta asosiy qismga ajratish mumkin. Bular:

- 1) geografiya va siyosat o‘rtasidagi munosabatlarga katta e’tibor beriladi. Bu yo‘nalishdagilar geografiyaga birlamchi omil sifatida qarab, uning siyosatga ko‘proq ta’sir etishini uqtirishadi;
- 2) muayyan mintaqa yoki jahonda hokimiyat uchun siyosiy kuch markazlarining o‘zaro kurashlariga kengroq e’tibor beriladi. Bu yunalishdagilar asosan davlatlararo raqobatga e’tibor berib, fanning umumbashariy xususiyatlari bo‘yicha bahs olib boradilar;
- 3) xalqaro maydonda hokimiyat uchun kurashni geografik asosda tadqiq qilgan va ishlayotgan geosiyosatshunos tadqiqotchilar fikrlari. Bu yunalishdagilar geosiyosiy konsepsiyalarning davlatlar tashqi siyosatining ko‘rinishi sifatida qabul qilishadi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, ikkinchi yo‘nalishdagi tadqiqotchilar fikrlari uchun ushbu yo‘nalishga oid olimlarning fikrlari genetik asos bo‘lishi mumkin.

Umuman siyosiy borliqdagi asosiy geosiyosiy omillar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon buladi:

Siyosiy - davlatning siyosiy tuzilishi va uning uziga xos xususiyatlari, davlatdagi ijtimoiy qatlamlar, davlatning chegaralari.

Geografik – borliqda joylashuv holati, tabiiy resurslari, fauna va flora dunyosi va iqtisodiy aholining turmush darajasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar qudrati, tuzilishi va madaniy -milliy an'analar, madaniy qadriyatlар fan va ta’lim taraqqiyoti darajasi va demografik-aholi tarkibi va joylashuvi, aholini o‘sish darajasi va harbiy-qurolli kuchlarining qudrati va harbiy tayyorgarligi, harbiy mutaxassislarni tayyorlash darajasi va ekologik-aholining davlatlar va mintaqalar tabiiy resurslarining chegara munosabati, xom-ashyo zahiralarining kamayishi va geosiyosat o‘z qamrovi jihatidan ko‘p qirrali va juda kengdir.

Zamonaviy geosiyosat mundarijasi jahon siyosati, hokimiyat muammosi va jamiyatdagi ustuvor mafkuralar omillari bilan bevosita bog‘liq. Bu jihatdan geosiyosatga — geosiyosat jamiyatdagi boshqaruv muammolarini tadqiq etadigan fan deb ta’rif berish mumkin. Bundan tashqari, geosiyosat fan sifatida bir qator mustaqil fan va fan sohalarining xususiyatlarni, o‘zida mujassamlashtirgan. Bular - geografiya, siyosatshunoslik, tarix, etnografiya, dinshunoslik, ekologiya, milliy g‘oya, mafkuralar tarixi, sosiologiya, harbiy bilimlar nazariyasi va amaliyoti, demografiya va boshqalar. Ko‘rinib turibdiki, geosiyosat shunchaki bir fan emas, balki ko‘plab fanlarga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan tarmoqlararo fan tizimidir.

*Yuqoridagi mulohazalar asosida geosiyosat tushunchasiga quyidagi ta’rifni berish mumkin: **geosiyosat** — davlatning strategik qudratiga ta’sir etuvchi geografik-siyosiy fizalogiyasini rivojlanrishga qaratilgan, tabiiy makon ustidan boshqarish, nazorat haqidagi tarmoqlararo fandir.*

Geosiyosat asoslari fanning ob’ekti va predmeti

“Siyosiy geografiya” va “geosiyosat” fanlari paydo bo’lgan vaqtidan to bugungi kungacha ularning predmeti, funktsiyalari va qonuniyatları to’g’risidagi uzoq munozaralar davom etmoqda. Aytish mumkinki, geosiyosat bilan shug’ullanadigan har bir tadqiqotchi bu ilmiy sohalarning ob’ektlari va predmetlari, umumiylar xususiyatlari va tafovutlari to’g’risida o’z qarashi va o’z mulohazalarini ilgari surmoqda.

Biroq geosiyosatning asosiy vazifasi uni boshqa fanlar bilan taqqoslashda emas, balki uni tushunishning hamma tomonidan qabul qilinadigan shaklini topishda, ob’ekti, predmeti va tadqiqot metodolgiyasini aniq ta’riflashdadir. Mana bir asrdirki, siyosatshunoslar “Geosiyosat nima, u nimani tadqiq etishi kerak?” degan asosiy savollarga qaysidir jihatni bilan o’xshash, qaysidir jihatni bilan esa tamomila bir-biiriga zid javoblar berishmoqda.

Fan ob’ekt va predmetini belgilashda geosiyosatchilar aniq ikki guruhga bo’linadi. Bular – klassik geosiyosatchilar va hozirgi sivilizatsiya geosiyosati tarafdarlaridir. Klassik mualliflar orasida F.Rattsel va R.Chellen geosiyosatning vazifalari, ob’ekti va predmetini eng to’la shaklda bayon etib berishgan.

F.Rattselning aytishiga ko’ra, geosiyosat siyosiy omillarning makon bilan o’zaro munosabatlarining mamlakat hududi, aholisi va sub’ektlarining madaniy xatti-harakatiga ta’sirini o’rganadi. R.Chellen bo’lsa, geosiyosatning tadqiqot ob’ektlari va tarkibini uch qismga bo’lib, bunday taqdim qilgan: *monosiyosat* – konkret davlatning siyosiy muhofazasini, tashqi olamning va siyosiy ittifoqchilarining unga ko’rsatadigan ta’siri va tazyiqini o’rganadi; *morfosiyosat* – davlat yerining shakli, o’lchamlarini o’rganadi; *fiziosiyosat* – davlat yerining geostrategik mazmun va xarakteristikasini, fizik-geografik holatlari va hokazolarni o’rganadi.

Shunday qilib, klassik geosiyosatchilarning qarashlarini umumlashtiradigan bo’lsak, geosiyosatning ob’ekti va predmeti quyidagilardan iborat:

1) *sayyoraviy makon* – quruqlik, suv (dengiz va okeanlar, daryolar va ko’llar), Yer kurrasini o’rab olgan havo qatlami, dengiz va quruqlik, havo va yer o’rtasida ming yillardan beri mavjud qarama-qarshilik, sivilizatsiyalar va jamiyatlar orasidagi aloqalar, chegaralar, tabiiy zahiralar va boyliklar ustida davlatlar orasida borayotgan kurash; 2) jahon geosiyosiy tuzilmasining shakllanishiga va uni yana o’zgartirishga sabab bo’ladigan geosiyosiy jarayonlar

va hodisalar;) amaliy geosiyosiy faoliyat. davlatlar va xalqlar, ularning sifat xarakteristikalari va o'zaro munosabatlari bu jarayonga jalgan etilgandir; 4) konkret tarixiy sharoitdagi tafakkur (bilish), milliy ruh, ijtimoiy faollik va psixologik muhit.

Geosiyosat ob'yekti sifatida jahonning geosiyosiy xaritasi turishi birinchi navbatda, dunyoning ko'p qutbli dunyoga aylanishi bilan va xalqaro munosabatlarning yangi bir transformatsiya – davlatlarning o'z ta'sir doiralari uchun kurash bosqichiga ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, xalqaro maydonda ko'pqirrali global dunyoviy siyosat tushunchasining shakllanishi bilan ham bog'liqidir. Mazkur masalalar geosiyosat ob'yektida yaxlit holatda turishi mumkin, biroq geosiyosat ularni tahliliy jihatdan o'rganishni bir qator bosqichlarda ko'radi. Geosiyosatning tarixiy - tadrijiy taraqqiyotiga e'tibor bersak, uning predmeti ham zamonga mos tarzda takomillashib, o'zgarib borganligiga amin bo'lamiz. Chunki jamiyatdagi geosiyosiy jarayonlar mavjud davlatlar manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan real voqealarni o'zida aks ettiradi. Shu boisdan har bir davrda geosiyosat predmeti sifatida jamiyatdagi ustuvor sohalar va xalqaro siyosatga daxldor bo'lgan strategik masalalar namoyon bo'lgan.

Geosiyosat predmeti. Xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal etishda geosiyosiy sub'yektlar va tabiyat o'rtasida, shuningdek geosiyosiy sub'yektlarning o'zaro munosabatlari, jamiyatda kechayotgan har xil darajadagi ijtimoiy - siyosiy jarayonlar, ularning yuzaga kelishi, harakatlanishi va o'zgarib borishini o'zida aks ettiruvchi voqealar rivoji geosiyosat predmeti sifatida olindi. Zamonaviy geosiyosatning asosiy muammolari bo'lib kelayotgan quyidagi masalalarni geosiyosiy tadqiqotlarning predmeti sifatida ko'rish mumkin: ilmiy - texnika inqilobi rivojining samarasi bo'lgan harbiy - texnikaviy vositalar va ular turlarining ko'payib va takomillashib borayotganligi; o'z navbatida davlatlarning harbiy - texnika vositalaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarish yoki chiqarmaslikka nisbatan munosabatlari; shuningdek, insoniyatning ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarishga kirishishi bilan bog'liq jarayonlar.

XXI asrda harbiy va moliyaviy axborot oqimi, axborot texnologiyalari va yangiliklari, ma'naviy-madaniy ehtiyojlar va boshqa omillar birinchi qatorga chiqdi. Bularning hammasi davlat, uning harbiy tizimi, iqtisodiy boshqaruv global kompyuter sistemalarida ishlataladigan axborot-kompyuter texnologiyalariga yuqori darajada bog'liq bo'lib qolganini bildiradi.

O'tmishda ham, hozirgi vaqtida ham, odatda, jahon va mintaqalari muammolarini hal etishda geosiyosiy sub'ektlarning o'zaro munosabatlarini ham geosiyosat predmeti sirasiga kiritishadi. Hozirgi bosqichda, shuningdek, axborot urushi, sub'ektlararo axborot-psixologik ta'sir, jamoatchilik fikrini shakllantirish va boshqa masalalarni ham geosiyosat predmeti qatoriga kiritish lozim bo'ladi.

Geosiyosatning aktorlari

Geosiyosat fani tadqiqotlarida siyosiy sosiologiyaning “aktor”¹ tushunchasidan keng foydalilanadi. **Geosiyosiy aktor** – konkret hudud va makon haqidagi o‘z tasavvurlari doirasida maqsadini aniqlashtiradigan, uni turli shaklda, jumladan har xil talablar shaklida ifodalaydigan hamda makonga ta’sir o’tkazadigan, kishilar, tashkilotlar va hududlarni o‘z ichiga oladigan o‘zaro harakat tarmog‘ini tuzadigan kishilar yoki tuzilmalar majmuasidan iboratdir.

Globallashtirish, liberallashtirish, demokratiyani yanada rivojlantirish sharoitida, shuningdek geosiyosiy transformasiya talablari va ta’siri ostida geosiyosiy aktorlar safiga kundan kunga yangi-yangi sub’ektlar qo’shilmoqda. Jahon siyosiy fanida hozirgacha mavjud bo‘lgan va bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha geosiyosiy aktorlarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Hududiy aktorlar. Har qanday siyosiy faoliyatning harakatga kelishida muayyan hudud muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda hududning quyidagi bir qator imkoniyatlari, xususiyatlari keng e‘tibor beriladi: joylashgan o‘rni, iqlimi, tabiiy boyliklari, o‘simplik va hayvonot dunyosi, transport - kommunikativ imkoniyatlari va boshqalar. Jahon savdosi vujudga kelib yuksalib borishi bilan unda asosiy o‘rinni dengiz transporti egallay boshladi. Buyuk Britaniya dengizda o‘z hukmronligini o‘rnatadi. Kuchli zamonaviy armiya va flotga ega bo‘lgach Gibraltar, Adan, Keyptaun, Singapur singari muhim bo‘g‘ozlar ustidan o‘z nazoratini joriy qiladi.

Albatta ushbu muhim yo‘llar Buyuk Britaniyaga jahon savdosini o‘z nazoratida ushslashga, boshqa yirik davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatiga ta’sir etish, ularni nazoratda ushslashga imkon berdi. Yoki e‘tiborni Yaqin Sharqqa qarataylik. Quddusda joylashgan Iso Masih qabrini muslimmonlardan ozod qilish bahonasi ostida deyarlik uch asr davom etgan salib yurishlari bo‘lib o‘tdi. 1930-yillarda Boliviya va Paragvay o‘rtasida yangi neft konlari topilgan Chakao - Boreal viloyati ustida urush kelib chiqadi. Qrim yarim orolini Rossiya qaytarilishi (2014), Tog‘li Qarabog‘ ustida Armaniston va Ozarbayjon davlatlarini qonli to‘qnashuvlari (2020). Ko‘rinib turibdiki hududning turli mazmundagi geosiyosiy hatti-harakatlarga undovchi imkoniyatlari beqiyos.

2. Klassik yoki an’anaviy geosiyosiy aktorlar. Davlat, armiya, diniy va milliy muassasalar shular jumlasidandir.

3. Yangi geosiyosiy aktorlar. Siyosiy partiyalar, nodavlar notijorat tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar (XT), kuch ishlataladigan jangari ekstremistik tashkilotlar, millatchi ijtimoiy guruqlar, transmilliy korporasiyalar (TMK), global

¹ U yoki bu maqsadni ko‘zlashi, uni aniqlashi, ifoda etishi va shu maqsadga muvofiq faoliyat yuritishi bilan boshqalardan ajralib turadigan ob’ektga – individga yoki tuzilmaga aktor deyiladi.

korporasiyalar (GK) OAVlar va kommunikasiya vositalari ana shular sirasiga kiradi.

xalqaro tashkilotlar (XT) - muayyan maqsadlarga erishish uchun kelishuvlar asosida tuzilgan davlatlararo yoki nodavlat tabiatdagi birlashmalar, ular o‘z navbatida xalqaro hukumatlararo (davlatlararo) tashkilotlar tomonidan bo‘linadi. Xalqaro nodavlat (nodavlat, jamoat) tashkilotlar;

- transmilliy (transmilliy yoki xalqaro) korporatsiyalar (TMK), global korporatsiyalar (GK);

- xalqaro ekstremistik guruhlar (xalqaro nodavlat tashkilotlarning maxsus turi);

- ommaviy axborot vositalari (ommaviy axborot vositalari) - geosiyosiy jarayonning mustaqil aktyori.

Shu bilan birga, xalqaro maydondagi yangi geosiyosiy aktyorlar faoliyatining ahamiyati va roli tobora ortib borayotganiga qaramay, bizning fikrimizcha, ular hanuzgacha geosiyosiy jarayonning ikkinchi darajali sub'ektlari bo‘lib, davlat esa geosiyosiy jarayonning asosiy ishtirokchisi bo‘lib qolmoqda.

4. Inson. Har qanday geosiyosiy g‘oyalarni amalga oshishi unda kishilarning ishtirokisiz mumkin emas. Kishilik jamiyati, unda ishtirok etayotgan kishilik birlashmalari, uyushmalari rang - barang, murakkab bo‘lib, ularning ichida geosiyosiy ahamiyatliligi bilan etnos, irq, millat muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning manfaatlari, intilishlari turli mazmundagi geosiyosiy harakatlarga sabab bo‘ladi.

Geosiyosiy aktorlar masalasi “hududiy tasavvur” (*represantations of space*) va “makon amaliyoti” (*special practices*) tushunchalari bilan bog‘liq ravishda o‘rganiladi va yoritiladi. Shu bilan birga, geosiyosiy makon formatidan, aktorning kelib chiqish xususiyatidan qat’iy nazar, aktorning asosiy maqsadi ushbu makonda rivojlanish uchun hayotiy va zarur bo‘lgan resurslarni rivojlantirishdir. Resurslarni insoniyat jamoalarining yashashi va rivojlanishi vositasi sifatida tushunish kerak. Ushbu resurslarga tabiiy resurslar (xom ashyo), tabiiy va ijtimoiy resurslar (aholi), ijtimoiy resurslar (siyosiy va iqtisodiy tizim elementlari), aqliy resurslar (hayot tamoyillari va hukmron mafkura) kiradi. Resurslarni ishlab chiqish zarurati ma'lum bir xarakterdagi aktor tomonidan amalga oshiriladigan geosiyosiy makonning o‘ziga xos turini boshqarish sohasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Shuni ta'kidlash kerakki, davlatning umumiyligini quvvati hajmiga qarab, bunday o‘zgarishlar nazorat zonasining kengayishi (ekspansiyai) yoki torayishi (kontraksiya), kamayishi shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Turli xil bo‘shliqlar mavjudligiga asoslanib, navbati bilan farqlanadi:

- ekspansiya yoki kontraksiya turlari: geografik, iqtisodiy, axborot-kibernetik va axborot-mafkuraviy;

- ekspansiya yoki kontraksiya darajalari: kengayish yoki qisqarish hajmi va miqyosiga qarab - global daraja, mintaqaviy daraja va mahalliy daraja.

Xulosa qilib aytganda, *birinchidan*, hozirgi kunda biz geosiyosiy jarayonda yangi aktorlarning paydo bo‘lishi va xilma-xilligi bilan ajralib turadigan jahon tartibi tizimida sezilarli o‘zgarishlarga guvoh bo‘lishimiz mumkin;

ikkinchidan, shu bilan birga, davlat geosiyosiy jarayonning asosiy (yetakchi) ishtirokchisi bo‘lib qolmoqda. Geosiyosiy jarayonning boshqa barcha aktorlari ikkinchi darajali aktorlardir;

uchinchidan, har qanday dunyo tartibi akyorlar, birinchi navbatda davlatlar ierarxiyasi bo‘lib, unda davlat tegishli joy yoki darajani egallaydi (davlatning geosiyosiy holati);

to‘rtinchidan, davlatning geosiyosiy holati uning umumiy kuchi va davlatning geosiyosiy jarayonning ma'lum bir tarixiy davrida harbiy, iqtisodiy, demografik, axborot-kibernetik va axborot-mafkuraviy makonda kengaytirish (ekspansiya) yoki qisqartirish (toraytirish) qobiliyati bilan belgilanadi;

beshinchidan, kengayish yoki qisqarish hajmi va miqyosiga qarab, global, mintaqaviy va mahalliy darajalari farqlanadi;

oltinchidan, faqatgina qudratli davlatgina mutlaq geosiyosiy kuchga ega, bu uning global miqyosda kengayishiga va geosiyosiy jarayonning ma'lum bir tarixiy davrida jahon tartibi tuzilmasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishiga imkon beradi.

1.2. Geosiyosat asoslari» fanining kategoriyalari, qonunlari, metodlari va funksiyalari

Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari. Ijtimoiy - siyosiy fanlarning barchasida bo‘lgani singari geosiyosat ham mustaqil fan sifatida o‘zining nazariy kategoriyalariga ega. Ushbu fan o‘zining ushbu kategoriyalari orqali o‘z tadqiqot ob‘yektini tahlil etadi, xulosalar beradi. Geosiyosatning asosiy kategoriyalari sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqamiz: geosiyosiy makon, geosiyosiy maydon, geostrategik mintaqa, geosiyosiy mintaqa, geosiyosiy liniya, geosiyosiy raqobat, geostrategiya chegara, davlatning milliy xavfsizligi, milliy manfaat, hudud, ekaspansiya va sh.k.

Geosiyosiy makon. Siyosat har doim qator geografik makondagi omillarga tayangan holda ish yuritishiga hech qanday shubha yo‘q. F.Ratsel tabiiy - fizik, geografik makondagi faoliyat yo‘nalishlarini geosfera, gidrosfera, atmosfera ketma - ketligida tahlil ostiga olgan edi. Albatta, geosfera, gidrosfera, atmosferalar, insoniyat hayotida o‘rni, imkoniyatlari turli darajada siyosatning asosiy

yo‘nalishlarini belgilab beradi. Geosfera xos omillar: yerning o‘lchamlari; iqlimi, dengizga yaqinligi, hosildorligi, tabiiy boyliklari va h.k. Gidrosfera xos xususiyatlar: quruqlik ahamiyatiga moliklik, suvosti dunyosi boyliklari, hayvonot dunyosi, savdo-sotiq, turizm va h.k. Atmosferaga xos omillar: yer sirtida turli to‘siqlarning yo‘qligi, dengiz kengliklaridan o‘tishning qulayligi, yuqori tezlik, geosferani tadqiq qilishdagi qulayliklar, harbiy ahamiyatga moliklik, kosmos imkoniyatlari. Albatta bugungi kunda kosmosni alohida qayd etib o‘tish lozim. Bugungi kunda kosmos yerning sun‘iy yo‘ldoshlari orqali, xalqaro kosmik stansiya imkoniyatlari bois quyidagilarga ega bo‘lmoqda: yer sayyorasining barcha nuqtalari ustidan sifatli nazorat o‘rnatish; yerning ustki va yerosti qatlamlarini samarali o‘rganish va o‘zlashtirish; axborot - kommunikatsiyalari xizmatining yangi bosqichga ko‘tarilishi; gallaktika kengliklarini o‘rganish; sohaga doir fan va texnik kashfiyotlarning amalga oshirilishi va shu kabilar.

Geosiyosiy maydon - ushbu atama odatda ma‘lum bir davlat tomonidan yoki ittifoqchilar tomonidan nazorat qilinayotgan makonni anglatish uchun qo‘llaniladi. Xalqaro munosabatlardan tarixidan ma‘lumki, geosiyosiy borliq ustidan nazoratni o‘rnatishning turli shakllari mavjud. Bular harbiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, kommunikatsion va boshqa turlari bo‘lishi mumkin. Yangi ming yillik boshlariga kelib xalqaro munosabatlarda geosiyosiy borliqni nazorat qilishda yangicha yondashuvlar – rangli inqiloblarni amalga oshirish, informatsion mafkuraviy, texnologik va madaniy - sivilizatsiyaviy nazoratlar yuzaga kelib, ularning amaliyatdagi o‘rni sezilarli bo‘lmoqda. Rangli inqiloblarni muayyan bir davlatdagi ichki ziddiyatlardan, kelishmovchiliklardan foydalanilgan holda amalga oshirilmoqda: Qирг‘изистон, Грузия, Украина, Ливия, Иордания, Сирия, Египет бўнга misol bo‘ladi. Geosiyosatda odatda “rangli inqilob” hokimiyatini qon to‘kish evaziga o‘zga hukmronlarga berish deb tushuniladi. Geosiyosat siyosiy institutlar tomonidan, birinchi navbatda davlatlar va davlatlar ittifoqi tomonidan borliqni nazoratga olishining asoslari, imkoniyatlari darajasi, amaliy mexanizm va shakllarini o‘rganadi. Davlat nazoratida turgan yoki nazoratga olishga intilayotgan borliq umumiyligi markazida bo‘lishi, rivojlanish darajasi, u yerning tashqi dunyo bilan aloqalari ko‘lami, tabiiy imkoniyatlari bilan ahamiyatli bo‘lishi mumkin. Geosiyosatda davlat yoki davlatlar ittifoqi nazoratida bo‘lgan borliq geosiyosiy maydon tushunchasi bilan izohlanadi.

Geosiyosiy maydon tushunchasiga nisbatan ko‘plab ta‘riflarni uchratish mumkin. Rus geosiyosatchisi K.V.Pleshakov geosiyosiy maydon tushunchasi keng ma‘noga ega bo‘lganligi bois uni tadqiq etish ko‘lamiga qarab quyidagicha klassifikatsiyalashni taklif qiladi:

- **endemik maydon** – uzoq vaqtlardan beri ma‘lum bir davlat tomonidan, ma‘lum bir milliy guruh tomonidan nazorat qilib kelinayotgan borliq bo‘lib, o‘sha

borliqning aynan shu jamoaga tegishli ekanligini boshqa qo'shnilar tomonidan tan olinishini nazarda tutadi.

- **cheгаравиј майдон** - bunday maydonda ma'lum bir milliy jamoa istiqomat qilsada, davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo'lib, yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo'ladi. Masalan, Shimoliy Qozog'istonagi rus millati vakillarining Rossiya davlati turmush tarzi bilan, Shimoliy Tojikistondagi, Qirg'izistonning O'sh viloyatidagi yoki Janubiy Qozog'istonagi o'zbeklarning O'zbekistondagi xalqlar turmushi bilan nafaqat tarixan, balki ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar asosida bir - biri bilan uyg'unlashgan. Ular yashayotgan makonni chegaraviy maydonga aylantirgan omil - ularning turli davlatchilikka oidligi bilan izohlanadi; -

chorrahaviy maydon – turli milliy jamoalarning yashashidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ko'proq davlatlar da'vegar bo'lgan geosiyosiy borliq. Biroq u chegaraviy maydondan milliy jamoaning atrofida emas, endemik maydon ichkarisida joylashgan bo'lishi bilan (Tog'li Qorabog'), mintaqadagi jamoaning etnik va diniy tarkibi tarixan o'sha jamoaga mansub bo'lsada, borliqning bugungi davlatlar chegarasida chorrahaviy xarakter kasb etayotganligi bilan farqlanadi. Masalan, Turkiya, Eron, Iraq va Suriya davlatlarining geografik jihatdan tutashgan muayyan kengliklarida - chorrahaviy maydonda 40 mln.ga yaqin kurd xalqining yashab kelayotganligi va bunday geosiyosiy bo'shliqdan chiqish uchun milliy mustaqillik yo'lida olib borayotgan harakatlarini eslashimiz mumkin;

geosiyosiy mintaqa – geostrategik mintaqaning bir qismi. U siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo va boshqa aloqalar uchun qulay imkoniyatlarga va istiqbollarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi. Masalan, Janubiy - Sharqiy Osiyo, Yevropa, Xitoy va b.

Geostrategik mintaqa – o'zining geografik joylashuvi, turmush tarzi, xarakteri, savdo va madaniy - mafkuraviy aloqalarining yo'nalishi bilan qo'shni yirik xorijiy davlatlar tashqi siyosatida munosabatlar o'rnatish uchun ustuvor yo'nalishda ko'rilib turadigan makon. Shuningdek, geostrategik mintaqa – bu davlat yoki chegaradosh davlatlar (mintaqa) hududlari ham bo'lishi mumkin. Uning geostrategik ahamiyati muhim transkommunikatsion yo'llarga tutashganligida b'o'ladi. Dengizga chiqishga qulay hududda joylashganlikda va boshqa shu kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Siyosiy borliq - bu geosiyosatning asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Davlat geosiyosatning markaziy tushunchalaridan biri hisoblansa, siyosiy borliq davlatning siyosiy holati va hayotiy mazmunini ko'rsatib beruvchi muhim omildir. Siyosiy borliq davlat turmush tarzini ko'rsatib turuvchi dastlabki nishona ham hisoblanadi. Shuning uchun geosiyosatda davlatlar o'rtasidagi borlig'iy (makoniy) munosabatlarga katta e'tibor beriladi. Chunki borliq

tushunchasi geosiyosat nazariyasining asosini tashkil etadi. Har qanday davlatning siyosiy borlig'i chegaralangan, ya'ni u muayyan chegaralar doirasida bo'ladi.

Chegara esa davlat xavfsizligini ta'minlovchi, siyosiy borliqni ko'rsatib turuvchi geosiyosiy funksiyani bajaradi. Siyosiy borliqda chegaraning bajaradigan funksiyalari: a) siyosiy; b) suverenitetni himoya qilish; v) harbiy - strategik bo'lishi mumkin; d) fuqarolik, soliqlar, boj va shu kabilar. Geosiyosatda chegara muammosiga ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Chunki qachon borliq uzra nazorat boshlansa siyosiy borliqlar chegarasi buziladi. Yoki biror kuchning borliq uzra nazoratni o'rnatishi, siyosiy borliqlar chegaralarini inkor etish, buzish evaziga bo'lishi mumkin.

Total maydon - bu milliy hamjamiyat nazorati ostidagi uzlusiz makon (hozirgacha bunday maydon Rossiya Federatsiyasining aksariyat hududlarini qamrab oladi).

Geosiyosiy tayanch nuqta - bu ma'lum bir davlat tomonidan boshqariladigan umumiyo aloqa maydonidan tashqaridagi hudud bo'lib, uning aloqalari milliy jamoat tomonidan boshqarilmaydi. Shunday qilib, Vietnam, Kuba, Laos, Kambodja va boshqa mamlakatlar SSSRning geosiyosiy nuqtalari edi.

Metapole - bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlar tomonidan zabit etilayotgan makon (Zyuganovning fikriga ko'ra, bu tur Rossiyaning butun hududini o'z ichiga oladi) (Pleshakov, 1994; Zyuganov, 1997). Meta (gr. - keyin, uchun, orqali) - ergashish, o'tish, o'zgartirish, o'zgartirish.

Milliy manfaat. Manfaatga muayyan guruhlarga moddiy va ma'naviy tomonidan foyda keltiruvchi omil sifatida qarash mumkin. Biroq geosiyosatda milliy manfaat tushunchasi kengroq ma'noda – xalqlar, davlatlar manfaatlariidan kelib chiqib talqin etiladi. Bizningcha, milliy manfaatning geosiyosiy tus olishi avvalo o'sha davlatda olib borilayotgan ichki siyosatning tarkibiy qismini tashkil etuvchi asosiy vazifalar va maqsadlardan boshlanadi. Negaki, har bir davlat aniq bir tarixiy sharoit, taraqqiyot va barqarorlik manfaatlari, milliy - tarixiy xususiyati va qadriyatlaridan kelib chiqib, uzoq va yaqin kelajakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy vazifalari va maqsadlarini belgilaydi. Masalan, bugungi kunda O'zbekistonning oldida turgan asosiy ustuvor masalalar – jamiyatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan erkinlashtirish; jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish; xalq turmush darajasini oshirish; iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarga erishish; barqarorlik, tinchlik, totuvlik va davlatimiz hududining daxlsizligini ta'minlash va boshqalar hisoblanadi. Ushbu vazifa va maqsadlar davlatimiz milliy manfaatlari tizimida o'z aksini topgan. Har bir davlatning milliy manfaatlari evolyutsiyasi oxir oqibat jahon siyosati bilan bog'lanadi. Shuning uchun ham jahon siyosati asosida nafaqat manfaat tushunchasi turadi, balki har bir milliy manfaatlар amaliyoti jahon siyosatini harakatga keltiradi. Shu tariqa davlatlarning o'z manfaatlariga erishish

yo‘lidagi harakatlari, unga intilishi jahonda muayyan kuchlar muvozanatini yuzaga keltiradi. Ana shu bosqichda geosiyosatning manfaat kategoriyasi kuchlar muvozanati kategoriyasi bilan amaliy jihatdan o‘zaro tutashadi. Aytish joizki, geosiyosatning mohiyatiga va fanning tuzilishiga ko‘ra mavjud bo‘lgan kategoriyalari, ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

Geosiyosat asoslarining asosiy qonunlari.

Jamiyat va tabiat haqidagi boshqa fanlar kabi, geosiyosat ham ijtimoiy, iqtisodiy, geografik, siyosiy, harbiy va boshqa sistemalarning geosiyosiy jihatlarini o‘z qonuniyatlari asosida o‘rganadi. Har qanday ilmiy soha singari, geosiyosat ham o‘z qonunlariga egadir. Klassik geosiyosatning birinchi va asosiy qonuni sayyoraning geografik tuzilmasi va sivilizasiyalarning tarixiy tipologiyasida namoyon bo‘ladigan “fundamental dualizm” qonunidir. Aytish mumkinki, G‘arb klassik geosiyosatining deyarli barcha olimlari – R.Chellen, A.Mehen, X.Makinder, K.Haushofer, rus tadqiqotchilari – N.Ya.Danilevskiy, V.P.Semenov Tyanshanskiy, P.N.Saviskiy, L.N.Gumilev va boshqalar u yoki bu shaklda bu qonunga murojaat qilgan va ularning har biri buni o‘z dalillari bilan asoslashga harakat qilgan.

“Fundamental dualizm” qonuniga muvofiq, barcha davlatlar va xalqlar o‘z hududiy-geografik xarakteristikasiga ko‘ra ikkita katta guruhga – quruqlik (tellurokratiya) va dengizga (talassokratiya) bo‘linadi va insoniyatning butun taraqqiyot tarixi mobaynida ular orasida doimiy ziddiyat bo‘lgan va kurash borgan. Bu nazariya tarafdarlarining fikricha, Qadimgi Sparta, Rim imperiyasi quruqlik qudrati davlatlariga, Qadimgi Afina va Karfagen dengiz qudrati davlatlariga oiddir. Geosiyosiy makon ustida o‘sha vaqtлari boshlangan kurash hozirda ham davom etmoqda va aftidan, G‘arbning dengiz davlatlari va Yevroosiyoning quruqlik davlatlari orasida yana davom etadi shekilli.

Geosiyosatning asosiy qonuni bu fundamental dualizm qonuni. Geosiyosatning asoschilari, xususan ingliz Xelford Makinder va amerikalik general Alfred Mehan bu dualizm quruqlik (tellurokratiya) va dengiz kuchlari (talassokratiya) qarama-qarshiligidagi ifodalangan deb hisoblashgan;

- bu dualizm dastlab o‘zida dushmanlik urug‘ini, ikki elementning murosasiz kurashini (suyuq, qattiq va doimiy) olib borishi;

- ikki turdagи madaniy va tarixiy sivilizatsiyalar (demokratiya va mafkura).

<i>Tellurokratiya</i> (yunoncha) - "Yer orqali kuch" yoki "quruqlik kuchi"	<i>Talassokratiya</i> (yunoncha) - "dengiz orqali kuch" yoki suyuqlik kuchi"
<i>Tayanch tushunchalar</i>	
Quruqlik, yer, qit'a, aniq chegaralar, belgilangan joy. Kuchlilik, barqarorlik, qat'iylik	Suv, dengiz, okean, suyuqlik.
<i>Sivilizasiya</i>	
Hukmron mafkura harbiy-avtoritar sivilizatsiya. Aholi yashash joyi, cheklangan ish joyini tanlash, konservativizm, qat'iy axloqiy yoki huquqiy normalar va qonunlar	Demokratiya. Tijorat sivilizatsiyasi yanada dinamik va texnologik taraqqiyotni qabul qiladi. Ushbu turdag'i sivilizatsiya yanada faol rivojlanadi, axloqiy va madaniy qadriyatlarni, belgilarni osongina o'zgartiradi
<i>Axloq, qonunlar, urf-odatlarning, urf-odatlar</i>	
Axloq va qonunning qat'iyligi, an'analar va urf-odatlarning qat'iyligi. Axloqlar birlashtirilib, meros orqali o'tadi, axloqiy me'yorlar kodeksi shakllanadi. Kollektivizm, ierarxiya hissi	Axloqiy va huquqiy normalar, tamoyillar, qonunlar nisbiyidir. Individuallik, foyda, tadbirkorlik ruhi. Shaxs juda katta ahamiyatga ega
<i>Shartli belgilari</i>	
Fil (quruqlik maxluqi)	Kit (dengiz maxluqi)
<i>Misollar</i>	
Qadimgi Sparta, qadimgi Rim, qadimgi Turon, Yevrosiya, Rossiya, Germaniya	Qadimgi Afina, Karfagen, Atlantizm, AQSh, Buyuk Britaniya

Tellurokratiya va talassokratiya, dualizm - almashtirib bo'lmaydigan fundamental dualizm, geosiyosatning asosiy qonunidir. Dualizm turli daraja va (mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy) sohalarda abadiy, mutlaq kurash sifatida, tinchlikni nisbiy tushuncha sifatida etirof etishadi.

"Makon omili" klassik geosiyosatning ikkinchi qonuni hisoblanadi. Bu qonun insoniyat taraqqiyotida atrof muhitning alohida rol o'ynashini ifodalaydi. Amerikalik olim A.Mehen ijtimoiy taraqqiyotda makon omilining rolini geosiyosatning ikkinchi qonuni sifatida ilgari surgan edi. Keyingi davrlarda boshqa geosiyosatchilar bu qonunni rivojlantirdilar. Mehen "Dengiz kuchining tarixga ta'siri" asarida davlatlar va xalqlar hayotida, rivojida makonning roli ayrim shaxslar, kishilar va xalqlarning roldan kam emasligini isbotlashga harakat qildi. Uning fikricha, xarakteri va hukmron boshqaruv sistemasidan qat'iy nazar, davlatlar va xalqlar qulay tabiiy geografik sharoitda (makon omili) ancha jadalroq

rivojlanadilar. Olim o‘z fikrini Angliyaning XIX asrdagi taraqqiyoti misol keltiradi.

Rossiyalik geosiyosatchilar A.Dugin, N.A.Nartov va boshqa olimlar geosiyosatning quruqlik va dengiz kategoriyasidan tashqari ularning har ikkalasining alomatlari va afzalliklarini o‘zida birlashtirgan “*sohil zonasi*” makoni ham mavjud, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bu “zona” har ikkala makon elementlarini birlashtirgani sababli bir makonli davlatlardan ustunroq bo‘lib, faolroq rivojlanadi. Biroq, shuni aytish kerakki, Rossiya ilmiy markazlaridan boshqa joyda deyarli hech qaysi olim bu g‘oyani geosiyosatning uchinchi qonuni sifatida tan olgan emas. Klassik geosiyosatda jahon geosiyosiy rivoji, davlatlarning jahoniy kuchi, ularning dunyodagi ta’sir doiralarini egallahlarining asosi sifatida qaraladigan geosiyosiy qonunlar hozirgi amaliy geosiyosatda mutlaqo ishlatilmayapti, deb aytish mumkin. Bu qonunlar bugungi kunda faqat ilmiy geosiyosatda jahonning geosiyosiy rivoji, uning asosiy bosqichlari va umumiy qonuniyatlarini tadqiq etishda qo‘llanmoqda.

Geosiyosat asoslарining asosiy metodlari

Geosiyosat o‘z tadqiqotlarida asosan umumiy ilmiy metodlardan, shuningdek siyosiy geografiya, tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik va h k kabi fanlarga xos bo‘lgan usullardan foydalanadi.

Tizimli uslub. Iqtisodchilar, sotsiologlar va siyosatshunoslар tomonidan keng qo‘llaniladigan strukturaviy-funksional yondashuvdir. Ushbu uslubning mohiyati ijtimoiy hayotning har qanday sohasini, ilm-fanni geosiyosatni ajralmas, kompleks organizm deb hisoblashdan iborat. Ushbu organizm atrof-muhit bilan doimiy ravishda tizimning "kirish" va "chiqishlari" orqali ta’sir o‘tkazadi. Ma'lumki, har qanday tizim o‘z-o‘zini himoya qilishga intiladi (geosiyosiy tizim bundan mustasno emas) va ma'lum funktsiyalarni bajaradi, ulardan eng muhimi qadriyatlar va resurslarni fuqarolarga taqsimlash va qarorlarni majburiy ravishda qabul qilishlarini ta'minlashdir. Tizimli yondashuv uslubi ilmiy doirada birinchi bor XX asrning 50 - 60 yillarda amerikalik olimlar T.Parsons (1902-1979) va D.Iston tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur uslubga geosiyosatdan tashqari deyarli barcha ijtimoiy - siyosiy fanlarda murojaat qilinadi. Jamiyatda milliy davlatchilik strategiyasini va umuman geosiyosiy jarayonlarni tizimli yondashuv asosida o‘rganishni modernizm oqimi vakillari (K.Rayt, M.Kaplan, K.Doych va b.) mazmun jihatdan yanada boyitdi. Ya‘ni ular mavjud ma'lumotlarni matematik hisoblar va modellashtirish orqali tizimli tadqiqotlarni olib borishni joriy qilishgan.

Faoliyatli (harakat) uslub. Mazkur uslubdan foydalanish geosiyosat ob‘yekt va predmetida turgan muammoli vaziyatning umumiy tavsifi hamda uning harakatlanishi bilan bog‘liq tomonlarni o‘rganishda qo‘l keladi. U shaxslar yoki guruhlarning xulq-atvorining ularning ko‘proq global jamoalarga qo‘shilishiga

bog‘liqligini, shuningdek, millatlar, sinflar, guruhlar va boshqalarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Geosiyosatda dinamik usulda geosiyosiy manzarasini tahlil qilishda faol usul qo‘llaniladi. U buni tirik va moddiylashtirilgan faoliyat sifatida, turli bosqichlar, davriy jarayon sifatida ko‘rib chiqadi: faoliyat maqsadlarini aniqlash, qarorlar qabul qilish; ommani tashkil qilish va ularni amalga oshirish uchun resurslarni safarbar qilish; guruhlar, massalar faoliyatini tartibga solish; belgilangan maqsadlarga erishilishini nazorat qilish; ishlash natijalarini tahlil qilish va yangi maqsadlarni belgilash. N.A. Nartovning ta’kidlashicha, faoliyatli uslub geosiyosiy qarorlar nazariyasining metodologik asosini tashkil etadi. Geosiyosat qiyosiy usuldan keng foydalanadi. Hayotda bir xil turdag'i hodisalarni ularning umumiyligi xususiyatlarini va o‘ziga xosligini ta'kidlash, muammolarni hal qilishning maqbul yo‘llarini topish va boshqalarni taqqoslashni nazarda tutadi. Ushbu usul, uning oqilona qo‘llanilishi sharti bilan, boshqa xalqlar va davlatlarning tajribasidan foydalanishga imkon beradi.

Tarixiy uslub barcha ijtimoiy fanlarda qo‘llaniladi. Bu hayotdag'i barcha hodisalarni izchil vaqtinchalik rivojlanishda o‘rganishni, o‘tmish, hozirgi va kelajak o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashni talab qiladi. Geosiyosatda bu usul eng muhimlaridan biri hisoblanadi.

Normativ-qadriyatli uslub ma'lum faktlar, hodisalar, davlatlar, shaxslar uchun ma'nosini ochib berish bilan tavsiflanadi. Faktlarni baholash nuqtai nazaridan, masalan, adolat yokiadolatsizlik, o‘z yoki boshqa mamlakatdagi xalqlar erkinligini hurmat qilish yoki oyoq osti qilish kabi nuqtai nazaridan berilgan. Shu bilan birga, siyosatchilar o‘z faoliyatida axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni boshqarishi kerak deb taxmin qilinadi. Siyosat va axloq turli xil tekisliklarda yotganligi sababli, ushbu uslubni qo‘llashda ma'lum chegaralar mavjud. Normativ usul, qoida tariqasida, ba'zan dunyoning geosiyosiy manzarasiga ta'sir ko‘rsatadigan, ochiqchasiga, o‘ylamagan qarorlarni qabul qiladigan siyosat va siyosiy rahbarlarni idealizatsiya qiladi. Masalan, mamlakatlar chegaralarini aniqlashda dimilitatsiya va demarkasiya qilishda milliy-etnik birlik va do‘stlikni asos qilib yoki tashqi qarzni mamlakatni mavjud yer mulkini berish orqali to‘lash noto‘g‘ri qarorlar hisoblanadi. Ushbu uslubning kuchsizligi shundaki, qadriyatlarga oid hukmlar nisbiy bo‘lib, muhim siyosiy qarorlarni qabul qilish uchun to‘liq asos bo‘lib xizmat qila olmaydi. Shunga qaramay, geosiyosatchilarning ushbu uslubga tayanishi davlat siyosatiga insoniy o‘lchov, axloqiy tamoyil sifatida baho beradi.

Funktsional uslub asosida jamiyat hayotining turli sohalari o‘rtasidagi munosabatlar yoki mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhi o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganiladi. Geosiyosatda esa ko‘proq davlatlarning iqtisodiy - siyosiy, harbiy, madaniy munosabatlarini, urbanizatsiya darajasi va aholining zichligini, ijtimoiy

guruqlar va institutlarning siyosiy faolligi va boshqa shu kabi masalalarni nazarda tutadi. Funksional uslub siyosiy hodisalar yoki geosiyosiy jarayonlarni o‘rganishda diniy dogmatik yoki axloqiy qadriyatlarga asoslanib qolishni yoqlamaydi. Balki muammolarda ularning tashqi muhit bilan bog‘lanishi, izchilligi va nechog‘li real hayot bilan uyg‘unlashganligini tahlil etishning zarurligiga katta e‘tibor beradi. Funksional uslub jamiyat, davlat, davlatlar ittifoqlariga murakkab tuzilmalar sifatida qaraydi va ularning har biri mavjud tuzumda o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, funksional uslub jamiyat va davlatdagi siyosiy institutlar – xalqaro tashkilotlar, davlatlar uyushmasi, davlatlar, partiyalar, siyosiy harakatlar va boshqa ijtimoiy guruhlarning faoliyatini ham o‘rganadi. Ijtimoiy - siyosiy fanlarga funksional uslubni italyan mutafakkiri, tarixchi va davlat arbobi Nikollo Makiavelli (1469 - 1527) olib kirgan va u o‘z asarlarida mazkur uslubni keng qo‘llagan. Ba‘zi tadqiqotchilar geosiyosat fanining uslublari qatoriga institutsional, antropologik, mantiqiy va empirik uslublarini ham qo‘shishadi. Bizningcha, geosiyosatda mazkur uslublar tuzilishi va muammolarni tadqiq etish ko‘lamijihatidan funksional uslub doirasiga kiradi.

Geopolitikaning ko‘plab masalalari funksional usul bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bixevoirizm uslub asosida muvaffaqiyatli ko‘rib chiqilishi va tahlil qilinishi mumkin. Siyosatga tatbiq etiladigan bixevoirizm usuli 1880 yilda amerikalik olim va prezident Vudrou Uilson (1856-1924) tomonidan tavsiflangan. Uning xususiyatlarining mohiyatini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Siyosat (va geosiyosat) shaxsiy o‘lchovga ega. Odamlarning harakatlari (ularning manfaatlari) aniq bir shaxs tomonidan yo‘naltirilgan va ifoda etilgan. U tadqiqotning asosiy ob'ekti.

2. Odamlarning xulq-atvori, harakatlarining asosiy motivlari psixologik motivlardir. Ular ijtimoiy shartli bo‘lishi mumkin, lekin ular o‘ziga xos individual xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

3. Tabiiy fanlar metodlari, xususan, matematik, statistik ma'lumotlarni, kompyuter texnologiyalari imkoniyatlarini va hokazolarni qo‘llash mumkin bo‘lganda, miqdoriy o‘lchovlar keng qo‘llaniladi. Strukturaviy va funksional tahlil ushbu usullarni birlashtiradi. U jamiyatni, davlatni, davlatlar birlashmasini har bir elementi tizimning ma'lum ehtiyojlari va kutishlarini qondiradigan aniq funksiyalarni bajaradigan murakkab tuzilishga ega tizim sifatida qaraydi. Tizim elementlari tashkilotning o‘zi tuzgan biron bir dasturga muvofiq ishlaydi. Tashkilot (birlashma) ning asosiy vazifasi tizimning muvozanatini saqlash, uning elementlari tomonidan funksiyalarni (rollarni) to‘g‘ri bajarishdan iborat.

Institutsional uslub siyosiy faoliyat olib boriladigan institutlar - davlat, partiyalar, tashkilotlar faoliyati va hokazolarni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu usul XX asrning boshlariga qadar siyosatshunoslik, sotsiologiya va geosiyosatda deyarli

yetakchi edi. Geosiyosatda ham qo'llaniladigan antropologik usul inson tabiatiga e'tibor beradi. Ushbu uslubning tarafdarlari odamda umumiy mavjudotni ko'rishadi. Shuning uchun ular inson tabiatini bilan belgilanadigan inson xattiharakatlari motivlariga ustunlik berishadi. Empirik tadqiqotlar usullari geosiyosat va umuman fanga sotsiologiya, statistika, kibernetika va boshqa ba'zi fanlardan kelib chiqqan. Bunga hujjatlar tahlili, so'rovnomalari, tajribalar, o'yin nazariyasi va boshqalar kiradi.

Qiyosiy uslub. Qiyosiy uslubning ilmiy doirada qo'llanilib kelinishi antik davrlarga borib taqaladi. Masalan, Aristotel yoki undan keyinroq yashab o'tgan Farobi ijodlariga e'tibor bersangiz, ular asarlarida muammolarni o'rganish asnosida qiyosiy uslubdan keng foydalanganligiga amin bo'lasiz. Zamonaviy geosiyosatda qiyosiy uslubning ahamiyati shundaki, u orqali tadqiqotchi jamiyatdagi xalqlar va davlatlar turmushini o'rganadi, ularni bir-biriga taqqoslaydi. Yoki ma'lum bir geosiyosiy maydonlarning boshqasidan farqli jihatlari qiyosiy asosda o'rganiladi. Muammolarni shu yo'llar orqali o'rganish asosida tegishli xulosalarni chiqaradi.

Geosiyosatning asosiy funksiyalari. Geosiyosat fan sifatida jamiyat hayotini, unda kechayotgan turli mazmundagi geosiyosiy jarayonlarni tahlil etadi, tegishli taklif - xulosalar beradi, bir so'z bilan aytganda ushbu jarayonlar bilan bevosita bog'langandir. U real hayotdagi voqealari - hodisalar va jarayonlarning o'zaro aloqadorligini va ularning bir - biriga bog'liqligini ifodalovchi qonuniyatlarni o'ziga qamrab olgan. Shuningdek, geosiyosat borliqdagi jarayonlarni o'zida aks ettiribgina qolmay, ularga bog'liq tarzda jamiyatda muayyan funksiyalarni ham bajaradi. Mazkur funksiyalar geosiyosat fanida o'ziga xos izchillika, mantiqiylikka, afzalliliklarga ega.

Gnoseologik funksiyasi. Gnoseologiya – bilish nazariyasi, bilish haqidagi fan demakdir. Bilish nazariyasi borliqni, uning aniq bir holatlari, manbalari va shakllarini o'rganishga qaratilgandir. Aniqroq aytadigan bo'lsak, gnoseologik funksiya davlatlar va xalqlarning geosiyosiy joylashuvi, turmush tarzi hamda ular hayotining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish bilan bog'liq. Dunyoning mafkuraviy manzarasini, xalqaro munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini, bu jarayonning asosiy ishtirokchilarini, ularning tub manfaatlarini, shuningdek bu manfaatlarni amalga oshirishga asoslangan hattiharakatlarni, insoniyat rivojining bugungi darajasi va istiqbollarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Va olingan natijalar, xulosalar har bir davlatning istiqboldagi rejalarida o'z aksini topadi. Albatta, gnoseologik funksiya amaliyotida geosiyosatning davlatlar va xalqlar turmushini o'rganishda qo'llaydigan bir qator uslublari – taqqoslash, ekstrapolyatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan

xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish), empirik (tajriba qilish) va shular singari uslublarining o‘rni kattadir.

Bashorat qilish funksiyasi. Geosiyosatning prognoz qilish funksiyasi bevosita gnoseologik funksiya asosida olingen natijalari asosida shakllanadi. Chunki insoniyatning ertangi kuniga daxldor har bir muammo xususida bashorat qilish uchun o‘sha muammoni yuz berishi bilan bog‘liq jihatlar obdon o‘rganilmog‘i lozim. Ob‘yektda turgan masalaning qanchalik chuqur o‘rganilganlik darajasi tadqiqotchi uchun tegishli xulosalarni chiqarish hamda uning kelajakdagi kechmishi haqida ham muayyan prognozlarni aytish imkonini beradi. Bashorat qilish funksiyasining ahamiyati qachonki olib borilayotgan geosiyosiy tadqiqotlar quyidagi jihatlarni o‘zida namoyon etsagina bo‘ladi, ya‘ni: muammoga nisbatan bildirilgan fikr - mulohazalarning qanchalik darajada ilmiy tomondan isbotlanganligi bilan; bildirilgan sharhlarning xalqlar, davlat va mintaqalarning geosiyosiy turmushiga qanchalik darajada o‘zgarishlarni olib kelishi bilan; bashoratlarning yaqin yoki uzoq muddatga mo‘ljallanganligi bilan; bashoratning ob‘yektivligi va h. Prognoz qilish – siyosiy jarayonlarning rivoji va ko‘rinishlari, ular amalga oshishining muqobil yo‘llari va muddatlari haqida ilmiy asoslangan mulohazalarni ishlab chiqish jarayonlari, shuningdek, ularning o‘sha voqeliklar sharoitida amalga oshishi uchun aniq tavsiyalarni berish demakdir. Prognoz qilish funksiyasi bir qator tamoyillarga asoslanadi, ya‘ni batartiblik, muvofiqlik, uzuksizlik, muqobillik va rentabellik. Tabiiyki, ushbu prinsiplar jamiyatning iqtisodiy - siyosiy, ijtimoiy - siyosiy, siyosiy - mafkuraviy va harbiy - siyosiy doiralarini o‘rganishda qo‘l kelishi mumkin. Bundan tashqari, amaliy jihatdan geosiyosatning prognoz qilish funksiyasi quyidagi bosqichlardan iborat: mavjud ijtimoiy - siyosiy vaziyatni tahlil qilish; olingen ma‘lumotlarni o‘rganish, tahlil etish; tayanch andazalarni ishlab chiqish; qidiruv modellarini tanlash; qiyosiy taqqoslash; tahlilning aniqligi va ishonchlilagini baholash; Borliqdagi geosiyosiy jarayonlar kelajagi va ularning qay ko‘rinishda rivojlanishini oldindan prognoz qilish qanchalik murakkab bo‘lmisin, prognoz qilish funksiyasi tadqiqotchilar nigohidan chetda qolayotgani yo‘q. Balki unga qiziqishning ortishi orqasida geosiyosiy tadqiqotlarni o‘rganish va tahlil qilish mazmun va ma‘no jihatidan takomillashib bormoqda.

Boshqaruv funksiyasi. Jamiyatdagi har qanday jarayonlarda boshqaruv elementlarini ko‘rish mumkin yoki ijtimoiy jihatdan ham boshqaruv elementlarisiz kundalik hayotimizni tasavvur eta olmaymiz. Boshqaruv yangi - yangi axborotlar tizimiga asoslanadi. Chunki boshqaruvchi (o‘z sohasi yoki doirasida) barqaror faoliyat olib borishi uchun ham (o‘ziga tegishli) informatsiyalarga ehtiyoj sezib boradi. Jumladan geosiyosatning boshqaruv funksiyasi ham shunga asoslangan. Boshqa sohalardan farqli tarzda, geosiyosat boshqaruvga tegishli qarorlar va

tavsiyalarni berish uchun doimiy ravishda mavjud informatsiyalarni (xalqlar, davlatlar va mintaqalar va b.) yig‘ib boradi va tahlil etadi. Faqt shu asosdagina masalaga nisbatan tegishli bo‘lgan assosiy xulosalarni chiqaradi. Masalan, birinchidan, har qanday jarayonlarda boshqarishga oid qarorlarni chiqarish uchun muammoli holatni atroflicha tahlil qilmoq kerak. Ikkinchidan, muammoga ob‘yektiv baho berish uchun turli kuchlar (sub‘yektlar) va omillarni hisobga olmoq lozim (siyosiy, iqtisodiy, geografik va b.). Uchinchidan, sub‘yektlarning voqeaga ta‘sir etish darajalarini o‘rganish kerak va b. Tabiatan geosiyosat boshqaruv haqidagi, xalqlar va davlatlar turmushida boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni, ularning boshqalarga qay yo‘sinda ta‘sir etishi va ularni bartaraf etishning yo‘l - yo‘riqlarini, o‘rganadigan fandir. Shunday ekan uning jamiyatdagi boshqaruv funksiyasiga ham quyidan yuqoriga qarab yo‘naltirilgan hodisa sifatida qaramoq kerak.

Mafkuraviy funksiyasi. Mafkuraviy funksiya geosiyosatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Xo‘s, mafkuraning o‘zi nima? Mafkuralar asosini ma‘lum bir maqsadlarni, manfaatlarni o‘zida mujassam etgan g‘oyalar tizimidir. Mafkura o‘zida aks ettirayotgan muayyan jamiyatning tuzilishi, u haqidagi falsafiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy, diniy nazariyalar, qarashlar, shuningdek ularni amalga oshiruvchi vositalar, eng asosiysi, jamiyatning umumiyl rivojlanish yo‘llari haqidagi muayyan bilimlar majmuasidir. Bunday qarashlar, nazariyalar, uslub va vositalar real ijtimoiy - siyosiy vaziyat qarab shakllangan, aholining psixologiyasiga faol ta‘sir etadigan motivlarga ega bo‘lishi lozim. Geosiyosatni bilimlar, g‘oyaviy ta‘sir kuchlari kimlar yoki qaysi kuchlarning manfaatini himoya qilishi masalasi qiziqtiradi. Mafkuralar qanday ko‘rinish va shakllarda bo‘lmisin, ular asosida umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarning turishi xalqlar va davlatlar turmushi bilan bog‘liq bo‘lgan geosiyosiy jarayonlarda qarama - qarshiliklar, konfliktlar o‘rniga konsensusning shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Siyosiy kuchlar jamiyat o‘z oldiga qo‘ygan ichki va tashqi siyosatdagi o‘z geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishda, bu boradagi vazifalar oldida aholi turli qatlamlarini birlashtirishda, uyushtirishda, safarbar etishda, o‘zi olib borayotgan, faol targ‘ib qilayotgan hatti - harakatlarini omma tomonidan qo‘llab - quvvatlanishiga erishadi.

Skeptitsizm funksiyasi. Unutmaslik kerakki, geosiyosat fanining asosiy tadqiqot ob‘yektini, kategoriyalarini, funksiyalarini, qonuniyatlarini, siyosiy jarayonlarga ta‘sir qilish mexanizmlarini ilk ko‘tarib chiqqan tadqiqotchilar G‘arbnинг yirik yetakchi mutamlakachi davlatlarining nazariyotchi mutaxassislari edi. Albatta ular xalqaro maydonda o‘z davlatlarining manfaatlarini himoya qilishga, yanada ta‘sir doiralarini mustahkamlashga harakat qilishgan. Yanada

aniqroq qilib ayttadigan bo‘lsak, ular o‘z tadqiqotlarida ustuvor yo‘nalish sifatida o‘z diqqat - e‘tiborlarini nimalarga qaratishgan: xalqaro maydonda o‘z hukmronligini o‘rnatish; rivojlanayotgan o‘lkalarni asoratga solish; ularni asoratda ushlab turish; o‘z manfatlariga xizmat qiladigan turli ziddiyatlarni keltirib chiqarish usullarini, mexanizmlarini tahlil etishgan. Agar biz geosiyosatchilarni barrikadaning o‘ng tomonida turgan deb faraz qilsak, barrikadaning chap tomonida turib manzarani tahlil qilgan geosiyosatchilar yo‘q. To‘g‘ri mustamlakachilik tizimi tugadi. Lekin xalqaro maydonda o‘z hukmronligini yangicha ko‘rinishda o‘rnatish, uni o‘z manfaatlariga mos ravishda tashkil etish, o‘z manfaatlarini ko‘proq amalga oshirish hissi yirik davlatlarning hukmron toifalari fikri xayolini tark etgani yo‘q. Qolaversa mustamlakachilikka intilish yangicha ko‘rinishlarda davom etmoqda: xalqaro tashkilotlar; xalqaro huquqiy normalar; Juhon sog‘liqni saqlash tashkiloti; siyosiy-ijtimoiy bitimlar, iqtisodiy-savdo bitimlari, kollektiv mudofaa va boshqacha ko‘rinishlarda. Turli mazmundagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy birlashmalarga ko‘r - ko‘rona ergashmaslik, kerak bo‘lsa turli mazmundagi iqtisodiy, texnologik ko‘mak, ilmiy - texnik hamkorlikka asoslangan dasturlarda ongli ishtirok etishni zamon talab qilmoqda. Ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish, unga qanday munosabatda bo‘lish zarur, zaruriyab bo‘lsa bu jarayonlarga shubha bilan qarash, ehtiyyotkorlik singari ko‘nikmalarni skeptitsizm funksiyasi o‘zida ifoda. Ushbu sabab qator yirik davlatlarning yirik geosisyoatchilari o‘z tadqiqotlarida geosiyosat fanida bunday funksiyaga ehtiyoj sezishmagan.

Nazorat savollari

1. Siyosiy geografiyadan geosiyosat asoslari fanini farqi nimada?
2. Geosiyosat otasi deb qaysi mutafakkirni aytishadi?
3. Mumtoz geosiyosiy aktorlani aytib o‘ting?
4. Geosiyosat asoslari fan sifatida qachon paydo bo‘ldi?
5. Inson geosiyosiy aktor bo‘lishi mumkinmi?
6. Zamonaviy geosiyosiy aktorlarga nimalar kiradi?
7. Geosiyosatning fan sifatida shakllanish tarixini aytib bering?
8. Boshqa fanlar tizimida geosiyosatning o‘rni qanday?
9. Geosiyosatning ob'ekti va predmeti nima?
10. Geosiyosatning asosiy qonunlari qanday?
11. "Geosiyosiy davrlar" tushunchasining mohiyatini kengaytiring?
12. Geosiyosatning asosiy kategoriyalari qanday?
13. Geosiyosiy fanning usullarini sanab bering?
14. Geosiyosatning asosiy funktsiyalarining mohiyatini ko‘rsating?

Foydlanilagan adabiyotlar ro‘yxati

1. Исаев Б. А. Геополитика: Учебное пособие.— СПб.: Питер, 2006. — С.6.
2. Колесов В.А., Мироненко Н.С. Геополитика и политическая география: Учебник для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2001 С.18.
3. Нартов Н.А. Геополитика: Учебник для вузов / Под ред. Проф. В.И. Староверова . –2-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Единство, 2004.С.12.
4. Макошев А.П. Политическая география и geopolitika: Учебное пособие. – Горно –Алтайск, 2005, - С.53.
5. Colin Flint. Introduction to Geopolitics. Madison Ave, New York,2006 P-13.
6. Дугин А. Основы геополитики. Арктогея. – Москва. 1997-С.35.
7. Старикин Н. В. Геополитика. Как это делается / Н. В. Старикин — «Эксмо», 2019 9-10-с
8. Жалилов А., Туленова Г. “Геосиёсат” фанидан услубий қўлланма. Т. 2008
9. Жалилов А.Т. Геосиёсат. Тошкент. Akademiya. 2020 й. 244 б.

II-bob. Geosiyosiy qarashlar tarixi: mакtablar, oqimlar, kontsepsiylar va tamoyillar

- 2.1. Mumtoz geosiyosatning asosiy g‘oyalari va tamoyillari
- 2.2. Geosiyosiy oqimlar va maktablar
- 2.3. Yangi davr geosiyosiy nazariyalari va maktablari
- 2.4. Turkiston hududida vujudga kelgan dastlabki geosiy bilimlar va harakatlar
- 2.5. XVI-XIX asrlarda vujudga kelgan geosiyosiy bilimlar va harakatlar
- 2.6. «Katta o‘yin» kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati (1-bosqich)

Tayanch iboralar: mumtoz geosiyosat, Ratsel, Challen, X.Makinder, Kartlend, rimland nazariyasi va «Katta o‘yin» kontseptsiyasi,. K.Xausxofer A.Mexen, Turkiston mutafakkirlari, A.Temur, bosqinchilik, jadidlar.

2.1. Mumtoz geosiyosatning asosiy g‘oyalari va tamoyillari. Zamonaviy geosiyosatning kashfiyotchilari mumtoz geosiyosatchilar bo‘lib, ularda G‘arb olimlari F. Ratsel, R. Challen, A. T. Mexen, X. Makkinder, K. Xaushofer, P. Vidal de la Blanche, A. Demanjon va boshqalardir. Mumtoz geosiyosatchilar ikki jahon urushi yillarida katta obroga ega bo‘ldilar. Bu birinchidan, ular davlat va suverenitetning xavfsizligi, davlatning gullab-yashnashi, uning kuchi, qudrati va dunyodagi ta’siri nimaga bog‘liqligini o‘ylab, yangi ilmiy bilimlarni yaratdilar; ikkinchidan, ular davlatlarning dunyodagi qudratini ta’minlovchi omillar va

usullarni tahlil qilishga e'tibor berishdi. Bu asosan davlatlarga geosiyosiy kodlarini shakllantirishda yordam berdi; uchinchidan, ular siyosiy voqealarning ma'nosini tushuntirishga fazoviy yondashuvni yaratish tashabbuskori bo'lib, "makon", "katta bo'shliq" kabi asosiy kategoriyalarni yaratdilar; to'rtinchidan, Makinderdan boshlab deyarli barcha mualliflar global miqyosdagi geosiyosiy ssenariylarni taqdim etishdi.

Geosiyosatni fan sifatida shakllanishida klassik qarashlar katta rol o'ynagan edi. Ammo uning ma'lum kamchiliklari ham bor, ularning aksariyati tarixiy cheklovlar bilan izohlanadi.

Birinchidan, bu aslida geografik determinizmdan foydalanish, bu uning geografik omil ekanligini tan olishga asoslangan geosiyosatni o'rganishning asosiy uslubiy tamoyili sifatida, ya'ni hududning kattaligi, mamlakatning joylashishi, uning tabiiy-iqlim sharoiti, dengizlar va okeanlarga yaqinligi yoki uzoqligi va boshqa geografik parametrlar ma'lum bir xalqning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini, uning xarakterini, xalqaro siyosiy maydonda o'zini tutishini belgilaydi. Garchi allaqachon klassik geosiyosat doirasida bo'lgan bo'lsa-da, frantsuz maktabi vakillari geografik determinizmni yengish uchun birinchi urinishlarni amalga oshirgan va u muvaffaqiyatsiz tugamagan;

ikkinchidan, bu sayyoraviy dualizm – "kontinental kuchlarga" qarshi "dengiz kuchlari" yoki talassokratiyaga (dengiz orqali kuch) tellurokratiyaga (quruqlik orqali kuch) qarshi kurashish uchun haddan tashqari berilish;

uchinchidan, geosiyosatni makonda davlat hokimiyatining timsoli sifatida tushunish, ular hududlarni to'g'ridan-to'g'ri harbiy yoki siyosiy nazorat qilish istagini kuchaytirdilar va shu nuqtai nazardan, ko'pincha "anakonda" strategiyasini ilgari surildi. Dushman hududlarini dengizdan va qirg'oq bo'ylab to'sib qo'yish, bu asta-sekin kerak dushmanning strategik charchashiga va iqtisodiy bo'g'ilishiga olib kelishi kerak edi;

to'rtinchidan, davlat tomonidan boshqariladigan hududiy makonni uning kuchi va qudratining asosiy omili deb hisoblab, davlatning dinamik hududiy o'sishga intilishi, yashash maydonini kengaytirishga intilishini zarurligini asoslab, ba'zi klassik geosiyosat vakillari (Ratsel, Chellen, Mexen) harbiy ekspansiyani geosiyosiy egallashning mutlaqo tabiiy usuli deb tan oldilar.

Klassiklar geosiyosatning asosiy kategoriyasini makon deb hisoblashgan, uni faqat o'zlarining doimiy chegaralariga ega bo'lgan cheklovchi hudud makoni deb tushunganlar. Davlatning gullab-yashnashi, ularning fikriga ko'ra, butunlay uning hududining xususiyatlariga asoslanadi. O'zining mayjudligi va farovonligi uchun davlat o'zini yashash maydoni bilan ta'minlashi va doimiy dinamik fazoviy va hududiy o'sishga intilishi kerak. Faqatgina muhim hududiy makongina davlatni

xavfsizlik, suverenitet, siyosiy hokimiyat va dunyodagi hukmron mavqe bilan ta'minlaydi, gullab-yashnagan davlatlarni chirigan davlatlardan ajratib turadi. Shu munosabat bilan ular strategik va taktik usullarni ishlab chiqdilar, ular yordamida o'zlarining hududiy makonini kengaytirish, dunyoda ustun mavqeni ta'minlash va boshqa mintaqalar ustidan nazoratni ta'minlash mumkin edi.

Klassik geosiyosatning asoschilari, nemis geografi F. Ratsel (1844-1904) va Shvetsiya davlati olimi va geografi R. Chellen (1864-1922) uchun geosiyosat davlatning makonda mujassam bo'lgan geografik organizm sifatida ta'limotidir. Ular uchun davlat bir makonda rivojlanib, "chegaralar daxlsizligi" tamoyilini tan olmaydigan tirik, murakkab organizmdir. Davlat tirik mavjudot kabi tug'iladi, o'sadi, o'ladi. Bundan tashqari, davlatning rivojlanishi ob'ektiv ravishda mamlakat ichkarisida yetarlicha yerga ega bo'limgan va ular tashqi mustamlakaga shoshilgan odamlar sonining ko'payishi bilan bog'liq. Odamlar tomonidan sotib olingan "yangi makon" davlat tuyg'usini yangi kuch oladigan manbadir. Har bir holatning parchalanishi katta bo'shliqdan voz kechganda sodir bo'ladi. Ratselning so'zlariga ko'ra, agar davlat "haqiqiy" buyuk davlat bo'lishni istasa, uning fazoviy assosi sifatida taxminan 5 million kvadrat metr maydonga ega bo'lishi kerak. Agar davlat o'z hududiy makonini kengaytirishning qat'iy talabiga bo'ysunadigan tirik organizm bo'lsa, demak, davlatning kengayishi, shu jumladan urush F. Ratsel va R. Chellen uchun tabiiy edi.

F.Ratsel o'zining shoh asari bo'lmish «Siyosiy geografiya» («Politische Geographie» 1897), «Davlatlarning makoniy o'sish qonunlari» (1897), «Dengiz xalqlar qudratining omili sifatida» (1900) asarlarida o'z geosiyosiy qarashlarini bayon etadi. Fridrix Ratselni garchi "geosiyosat" atamasini asarlarida ishlatmasa ham, u birinchilardan bo'lib geosiyosiy uslubda fikr yuritganligi uchun geosiyosat fanining otasi deb nomlanadi.

Fridrix Ratsel, taniqli nemis geografi va ushbu fanga asos solgan birinchi geosiyosatchi. Maktabni tugatgandan so'ng, u Karlsruhe Universitetida tabiiy fanlar bo'yicha ma'lumot oldi. Keyin u Geidelberg universitetining geografiya fakultetini tugatdi, u yerda uning o'qituvchisi va boshqalar taniqli geograf E.Gekkel edi. Ratselning siyosiy geograf va geosiyosatchi sifatida rivojlanishiga I. Kant, Charlz Darwin va ijtimoiy darvinistlar, shuningdek K. Ritter, A. Gumboldt, G. Spenser, F. Tennis g'oyalari katta ta'sir ko'rsatdi.

1870 yilda Ratsel Frantsiya-Prussiya urushida ko'ngilli sifatida qatnashdi va hattoki Temir xoch bilan taqdirlandi. Harbiy harakatlar tugaganidan keyin u geografiyaga qaytdi. U Xitoyda demografik vaziyat to'g'risida dissertatsiya tayyorladi va himoya qildi (1876), Yevropa va Amerikada ko'plab sayohat qildi, geografik muhitning turli jamiyatlarning hayoti va rivojlanishiga ta'sirini o'rganib chiqdi. XIX asrni 80-yillarning o'rtalarida Ratsel dastlab Myunxen Texnik

institutida, so‘ng Leypsig universitetida o‘qitishni boshladi, u yerda u vafotiga qadar ishladi.

Ratsel hech qachon hukumatning siyosiy lavozimida ishlamagan va uni jamoatchi siyosatchi deb ham atash mumkin emas. Lekin u har doim o‘ng millatchi pozitsiyasini egallab, siyosat bilan qiziqar edi. 1891 yilda u Pangerman ittifoqiga qo‘sildi va Yevropaning etnik nemislar yashagan barcha yerlarini Germaniya imperiyasiga qo‘shilishini, shuningdek Sharqiy Afrika va Janubiy hududlarini o‘z ichiga olgan mustamlaka imperiyasini yaratishni nazarda tutgan pangermanchilik geosiyosatini shakllantirishda faol ishtirok etdi¹.

Nemis geosiyosatchisi Otto Maullyuning fikricha, geosiyosatni Ratselsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. U o‘z asarlarida siyosiy geografiyadan bahs etadi va bu boradagi asosiy ilmiy ishi ham “Politische Geographie” deb nomlanadi. Uning ta‘kidlashicha, har qanday xalqning manfaatlari zamin ustida kechadi. Shu bois zaminda joylashgan ma‘lum bir hududlar tarix harakatini ko‘rsatuvchi bosh vosita sanaladi. Davlatlar muayyan hududlar ko‘rinishida zaminda aks etadi. Zamin abadiy bo‘lishi mumkin, hududlar (davlatlar) o‘zgarib turadi. "Davlatlar misoli tirik organizm" bo‘lib ularning o‘zagi "zaminiy asos"da bir - biri bilan tutashadi.

Davlatlarning zaminda paydo bo‘lishi uchta asosiy omil bilan bog‘liq. Bular - hududiy relyef, hududiy masshtab va muayyan turmush tarzga ega xalqlar. Shu asosda, ya’ni ob‘yektiv geografik makon va sub‘yektiv umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida aks etirgan davlat siyosati shakllanadi. Risoladagi davlat bo‘lish uchun, - deydi F.Ratsel, - avvalo davlatda geografik, demografik va etnomadaniy parametrlari o‘zaro uyg‘unlashmog‘i kerak.

F. Ratsel “Davlatning fazoviy o‘sish qonunlari” (1896) asarida davlatlarning fazoviy o‘sishining ettita asosiy qonunlarini shakllantirgan, ularning aksariyati shu paytgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan:

- 1) makon millat madaniyati o‘sishi bilan o‘sib boradi.
- 2) davlatning o‘sishi g‘oyalar, savdo-sotiqning yanada rivojlanishini nazarda tutadi, ya’ni jamiyatning barcha sohalarida faollikni oshirish.
- 3) davlatning o‘sishi kichik davlatlarning qo‘silishi va madaniy singishi orqali amalga oshiriladi. Davlatning o‘sishi boshqa davlatlarni o‘ziga qo‘sib olish va bo‘ysindirish evaziga bo‘lishi mumkin.
- 4) chegara - bu davlatning periferik organi bo‘lib, unda uning o‘sishi, kuchliligi yoki kuchsizligi va davlat organizmidagi barcha o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi. Kuchli davlat - bu chegara zonalari va yadrosi o‘rtasida yaqin aloqalarni saqlashga qodir. Ushbu o‘zaro ta’sirni susaytirishga qaratilgan har qanday moyillik muqarrar ravishda davlatni zaiflashtiradi va markazdan mustaqilligini e’lon qilishi

¹ Исаев Б. А. Геополитика: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. — 62 с

yoki boshqa davlatga qo'shilishi mumkin bo'lgan chegara zonasini yo'qotishiga olib keladi.

5) o'zining o'sishida davlat fizik-geografik muhitning eng qimmatli elementlarini o'zlashtirishga intiladi; qirg'oq bo'yłari, daryo bo'yłari, tekisliklar, tabiiy resurslarga boy joylar.

6) hududiy o'sishga birinchi turtki qoloq davlatlarga tashqi tomondan, yuqori sivilizatsiyalardan keladi.

7) hududlarni birlashtirishga umumiy tendentsiyasi, tarmoqlanib, davlatdan davlatga o'tadi va kuchayib boradi. Davlatlar fazoviy kengayishlarida tabiiy ravishda yopiq konfiguratsiyalarga intilishadi. Tabiat chegaralarida o'sishni istagan bu qit'alar chegaralarida qondirilishi mumkin.

Ratsel dengizning geosiyosiy ahamiyatini birinchilardan bo'lib qayd etgan. Ratzel o'zining "Dengiz, xalqlar kuchining manbai" (1900) kitobida to'la-to'kis kengayishning sayyora miqyosida dengiz kuchlarini rivojlantirish uchun qudratli kuch talab etilishini ta'kidlagan. U Tinch okeanini foydali strategik mavqega, noyob resurslarga va ulkan hajmga ega bo'lgan "kelajak okeani" deb atadi. Aynan Tinch okean zonasida Ratzel dunyoning beshta yetakchi davatlari: Angliya, AQSh, Rossiya, Xitoy va Yaponiyaning to'qnashuvini bashorat qilgan, shu bilan birga bu mojaroda fazoviy qit'a kuchlari geosiyosiy manba sifatida yetarli joyga ega bo'limgan dengiz kuchlari ustidan ustunlikka ega ekanligini ta'kidlagan.

R.Chellen. Shvetsiyalik geopolitik, davlat va siyosat arbobi Rudolf Chellen Skaraborg okrugida (viloyat) ruhoniy oilasida tug'ilgan. Maktabni tugatgach, Uppsala universitetida huquqshunoslik bo'yicha o'qigan (1878-1888), u yerda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1890); Gyoteborg (1901-1916) va Uppsala (1916-1922) universitetlarida dars bergan. U davlat boshqaruvi tizimlarini o'rghanishga ixtisoslashgan, buning uchun nafaqat davlat fanlari, balki tarix, siyosiy geografiya va siyosatshunoslik bo'yicha ham keng bilimga ega bo'lishi kerak edi.

Ratsel asarlari bilan tanishgan Chellen butun hayoti davomida uning ixlosmand muxlisiga aylandi, u o'zining geosiyosiy g'oyalalarini rivojlantirdi, fanga "geosiyosat" atamasini kiritdi, uni makonda mujassam bo'lgan geografik organizm - davlat to'g'risidagi ta'limot deb ta'rifladi. Biroq, Chellen ustozidan farqli o'laroq, geosiyosatni mustaqil ilmiy tarmoq emas, balki ijtimoiy va siyosiy fanlarning ajralmas qismi deb hisoblagan.

Uning siyosiy qarashlarida Chellen konservativ va germanofil edi. U Shvetsiya va barcha german xalqlarining kelajagini faqat Markaziy Yevropada hukmronlik qiladigan, ko'plab mustamlakalarga, ya'ni xom ashyo manbalari va savdo bozorlariga egalik qiluvchi yagona kuchli (shu jumladan harbiy) Germaniya bilan yaqin ittifoqda ta'minlash mumkin deb hisoblagan. Ittifoqchilar (shu jumladan Shvetsiya) bilan birgalikda jahon kuchlari orasida munosib o'rin

egallaydi. Riksdag (Shvetsiya parlamenti)ga saylangan Chellen aynan shunday konservativ, nemisparast, buyuk davlat, militaristik va mustamlakachilik siyosiy dasturini amalga oshirdi. U o'sha paytda salbiy qabul qilinmadi va ko'plab tarafdarlarini topdi.

Buyuk davlatlar (1910) kitobida Chellen geografik joylashuvi tufayli kichik davlatlar buyuk kuchlar tomonidan jalb qilinib, umumiyligi iqtisodiy faoliyatga jalb qilinib, siyosiy va iqtisodiy "kompleks"ni shakllantiradi, degan fikrni ilgari surdi. Agar Angliya, Rossiya imperiyalari va AQSh kabi "kompleks" XVIII-XIX asrlarda shakllangan bo'lsa, unda nemislar va Germaniya davlatlarining vazifasi XX asrda. yagona bozorni mustahkamlashga, Yevropaning qit'asida siyosiy va iqtisodiy "kompleks" - Germaniya-Shimoliy Ittifoqining qurilishiga aylanadi. Ushbu "kompleks" yoki "yosh" millatlar birlashmasining shakllanishiga Chellenning so'zlariga ko'ra, Yevropaning "keksa" xalqlari - inglizlar va fransuzlar to'siq bo'ladilar.

R.Chellen geosiyosatga siyosatshunoslikning muhim bir qismi sifatida qaragan. "Buyuk kuchlar: zamonaviy katta siyosatdan ocherklar" (1914), "Davlat hayotning muhim shakli sifatida" (1916), "Siyosiy tartiblar asoslari" (1920) nomli asarlari olim ijodining asosini tashkil etadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "geosiyosat" atamasi ilmiy doirada birinchi bo'ulib shved olimi Rudolf Chellen tomonidan ishlatalgan. R.Chellen professional geograf bo'lmagan va geosiyosatga siyosatshunoslikning muhim bir yo'nalishi sifatida qaragan. U geosiyosatga "borliqda geografik organizm sifatida mujassamlashgan davlatlar haqidagi fan" tarzida ta'rif bergan.

R.Chellen davlatning qudratini unda mavjud bo'lgan beshta jihat bilan bog'laydi, bular: 1. davlat geografik makon sifatida; 2. davlat muayyan xalq sifatida; 3. davlat o'ziga xos ho'jalik sifatida; 4. davlat jamiyat sifatida; 5. davlat boshqaruva sifatida.

Chellen davlatning kuch - qudratini ushbu omillardan kelib chiqib belgilaydi. Shundan kelib chiqib davlat haqidagi fanlar ham beshta bo'lishi kerak. Uningcha, bu atamalar bir vaqtning o'zida siyosatshunoslikning ham muhim bo'limlaridan sanaladi, ya'ni: **geosiyosat** - davlatni kuch va borliqdagi geografik organizm sifatida o'rganish; **ekosiyosat** - davlatlarni iqtisodiy kuch markazi sifatida o'rganish; **demosiyosat** - davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarni, ularning turmush tarzini tadqiq qilish; **sotsiosiyosat** - davlatning ijtimoiy jihatlarini o'rganish; **kratosiyosat** - davlatlarning hokimiyat va boshqaruva shakllarini va ularning davlatdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan munosabati muammolarini o'rganish.

Ushbu tahlilar asosida R.Chellen davlat kuch - qudrati tushunchasi va uning formulasini yaratishga harakat qiladi: **Davlatning qudrati = Tabiiy-geografik omillar + ho'jalik + xalq + boshqaruv shakli**

Shuningdek, R.Chellen geosiyosat fanining quyidagi bo'limlardan iboratligini aytadi:

toposiyosat - davlatning siyosiy jihatdan qanday muhit bilan qurshalganligini o'rghanadi. Bu jihatdan R.Chellen davlatning geografik joylashuvini "davlat siyosatining kalitidir", - deydi;

morfosiyosat - davlatning hududiy shakllarini o'rghanuvchi bilimlar majmuasi. Bunda davlat hududan qanday ko'rinishga ega, yoysimon, dumaloq yoki uzunchoq holatda joylashganligi, davlatda markaz bilan joylar o'rtasidagi aloqalarning geografik tizimi va davlatning tashqi dunyoga geografik jihatdan chiqish imkoniyatlari masalasiga e'tibor beriladi. Masalan, Norvegiya, Italiya davlatlarining geografik joylashuvi. R.Chellen fikricha, davlatning katta - kichikligi uning qudratiga poydevor bo'lishi mumkin;

fiziosiyosat – davlat hududlarining markazga qanday pozitsiyada ekanligini, ular munosabatlari ko'lамини tadqiq etuvchi bilimlar. R.Chellen fiziopolitikani davlatning, davlatga qarashli boshqa hududlarning qay darajada jismoniy kuchga egaligi yoki ega emasligi bilan bog'laydi. Joylarning (davlat hududlarining) davlat siyosatiga ta'sir etuvchi jismoniy - geografik xususiyatlarini o'rGANISH va tahlil etish fiziopolitikaning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Chellen har qanday davlatda o'zini-o'zi asrab qolish, o'sish va hukmronlik qilish tuyg'usi mavjud bo'lib, davlatning eng oliy darajasi imperiya, deb hisoblagan. Insoniyat tarixi hududlarni egallash uchun kurashlar tarixidan iborat, deb hisoblagan Chellen, buyuk davlat o'zining harbiy qudratiga tayanib, o'z chegaralaridan uzoq-uzoqlarda bo'lgan hududlarga ham da'vogarlik qiladi va o'z ta'sirini o'tkazadi. Buyuk davlatlarning barchasida bosqinchilik ustuvorlik qilishini ta'kidlagan Chellen, dunyoda bugun kimadir tegishli hududlarning barchasi kimdandir tortib olingan hududlardir, degan xulosaga keladi¹.

Xelford Makkinder (1861-1947) geografiyadan oliy ma'lumot olgach, London Iqtisod maktabi (oliy uquv yurti) direktori etib tayinlangunga qadar 1887 yildan boshlab Oksford universitetida dars bergan. 1910-1922 yillarda parlamentning umumiyl palatasi a'zosi, 1919-1920 yillarda esa Britaniyaning Janubiy Rusiyadagi muxtor vakili vazifasida faoliyat olib borgan. Geosiyosatchi ingliz jamiyatini maxfiy a'zosi.

Ingliz-sakson klassik geosiyosat maktabining asosiy siymolari va asoschilaridan biri, o'z davrining buyuk geosiyosatchisi bo'lgan. U geosiyosatning Hearland-Xartlend, Pivot Area- asosiy o'lka, Outer Crescent-tashqi yarim oy davlatlari, Midland Ocean

¹ Жалилов А.Т. Геосиёсат. Тошкент. Akademiya. 2020 й. 34 б.

Area-ichki okean zonasasi, ichki okean zonasasi, o'q mintaqasi va shu kabi ko'pgina geosiyosiy tushunchalar va kategoriyalar muallifidir.

Makinder jahon siyosiy tarixiga oid juda ko'p original va inqilobiy g'oyalar muallifi hamdir. Makinder 1904 yilda e'lon qilgan "Tarixning geografik o'qi" maqolasida "siyosiy geografiya" va geosiyosatga ko'pgina yangi tushunchalarni olib kirdi, geosiyosatning asosiy qonunlaridan hisoblangan "tarixning geografik o'qi" g'oyasini ta'riflab berdi. U geosiyosatning asosiy qonunini ishlab chiqib uchta yarim konsentrik doiralar ko'rinishidagi dunyo modelini taqdim qildi.

1. Heartland (heartland) – "tarixning geografik o'qi", "o'q maydon", "yerning yuragi". Yevroosiyoning kontinental massasi, dunyoning yuragi, yadro mamlakati, o'q maydoni - geografik jihatdan Rossiya imperiyasi va Markaziy Osiyonidagi bir qismini qamrab oladi.

2. Rimland (rimland) – "ichki yarim oy", "yarim oy chekkasi". Yevroosiyoning materigining qirg'oq bo'shliqlariga to'g'ri keladigan kamar.

3. World island – jahon orolining materik qismidan tashqaridagi "tashqi yarim oy" - geografik jihatdan Amerika, Afrikaning janubiy qismi, Avstraliya va Okeaniyani o'z ichiga oladi.



"Asosiy o'lka" geografik jihatdan juda katta kenglik bo'lib, Shimoliy Muz okeanidan to Osiyoga yo'nalgan hududlarni, Germaniya va butun G'arbiy va Shimoliy Yevropadan sharqqa Tinch okeanigacha bo'lgan makonni qamrab oladi. Bundan tashqari, olim yana bir yangi yondashuv - Adriatikadan (Venetsiyadan sharqda) to Shimoliy dengiz (sharqiy Niderlandiya)ga vertikal chizma tortib Yevropani ikkiga -

Xartlend va Kauslend (qirg‘oq bo‘yi yerkari)ga bo‘ladi. Sharqiy Yevropa esa bu ikki kenglik o‘rtasida nobarqaror hudud sifatida namoyon bo‘ladi.

X.Makkinder shular asosida Sharqiy Yevropaning jahon siyosatini nazorat qilish uchun kurashlardagi o‘rniga e‘tibor berib quyidagi asosiy xulosaga keladi, ya‘ni: "Kim Sharqiy Yevropani nazorat qilsa, butun "Heartland"ga hokimlik qiladi. Agar kim "Heartland"ni boshqarsa, butun Jahon oroliga hokimlik qiladi. Bundan kelib chiqadiki, kim jahon orolini boshqarsa, butun dunyoga hokimlik qiladi".

X.Makkinder ilgari surgan g‘oyalar o‘tgan yuz yil maboynida vaziyatdan kelib chiqib, ba‘zi bir davlatlar tashqi siyosatining olib borilishida ma‘lum darajada qo‘l kelgan bo‘lsa, ba‘zilar tomonidan faqat nazariy fikrlar sifatida qaraldi. Shunday qilib Makinder o‘z asarlaridagi tadqiqotlar natijasida quyidagi konseptual g‘oyalarni ilgari suradi:

1. Geografik omillar bevosita tarixiy jarayonlarning rivojiga, yo‘nalishiga o‘z ta‘siri doimo o‘tkazib boradi;
2. Har bir davlatning zaif yoki kuchli bo‘lishi u joylashgan geografik makonning xususiyatlaridan kelib chiqadi;
3. Texnik progress davlatning geografik joylashviga o‘z ta‘sirini o‘tkazib uning qudratiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir etishi mumkin;
4. Yevrosiyo – global siyosiy jarayonlar markizidir.

Yuqorida dunyoning geosiyosiy xaritasiga etibor berisa Makinder o‘zini uchta qismdan iborat siyosiy tartibotini kiritgan:

Pivot Area – asosiy o‘lka. Kaspiy va Orol dengizi havzalaridan Shimoliy muz okeani qirg‘oqlarigacha bo‘lgan hududlar;

Outer Crescent – tashqi yarim oy davlatlari. Unga AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya hududlari kiradi; Tashqi yarimoy (yoki orol yarimoyi) – Talassokratik ta‘sir zonasiga kiruvchi geosiyosiy makonni (Buyuk Britaniya, Shimoliy va Janubiy Amerika, Janubiy Afrika, Yaponiya) bildiruvchi atama. Hozirgi vaqtida – atlantizmning strategik nazorati ostidagi zona.

Inner Crescent – ichki yarim oy. U o‘z ichiga Xitoy, Janubiy - sharqiy Osiyo va Hindistonni oladi. Oradan qancha vaqt o‘tmasin Makinderning o‘ziga xos ta‘limoti o‘z ahamiyatini yo‘qtGANI yo‘q. Uning qarashlari qator geosiyosatchilarni, amaliyotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ichki yarimoy (qit‘a yarimoyi yoki Rimland) – Yevroosiyoning qirg‘oq zonasini bildiruvchi atama. Germaniya, Turkiya, Hindiston, Xitoy va ochiq dengizga chiqadigan boshqa mamlakatlar Rimlandga kiradi.

XIX asrda Rossiyaning Buyuk Britaniya bilan “Katta o‘yin”i aynan Markaziy Osiyo mintaqasida borgan edi. XXI asrda esa u AQSH va Xitoy harakatlarini mintaqada cheklash maqsadida faol siyosat olib borishi tabiiy. Mintaqaga nisbatan “ta‘sir zonasasi” atamasini qo‘llashi ham buning yaqqol isbotidir.

1943 yilda Makinder o‘z geosiyosiy mulohazalari va modeliga tuzatishlar kiritdi. U yuzaga kelgan yangi voqelik – sobiq SSSR, Buyuk Britaniya va AQSh ittifoqini, bu ittifoqning mushtarak geostrategik maqsadlarini va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini hisobga olishga majbur bo‘ldi. Uning yangi formulasida “Hartland”ga endi Shimoliy Atlantika (Atlantika okeanining shimoliy qismi) ham kiritildi. Bu yerga G‘arbiy Yevropa, Angliya va Karib havzasi mamlakatlari bilan birga Amerika ham kiritildi.

Makinder faqat qulay geografik makongina emas, balki geosiyosiy va geostrategik nuqtai nazardan sayyorada eng o‘rta, markaziy mavqeda joylashuvi davlat uchun eng foydali joylashishdir, deb hisoblagan. U o‘z davrining geosiyosiy bilimlariga asoslangan holda, dunyoning geosiyosiy va harbiy-stretegik ma’nodagi markazi Yevroosiyo qit’asi, uning markazi esa “jahonning yuragi” hisoblanishi mumkin bo‘lgan “Hartland” ekanligini da’vo qilib, o’zining mashhur “Hartland” nazariyasini ilgari surdi. Makinder “Hartland” – Yevroosiyoning quruqlikdagi qismi (hozirgi Sharqiy va G‘arbiy Yevropa, Osiyo va Afrikaning qit’ a qismi, Rossianing Yevropa qismi va boshqa hududlar) jahonni nazorat etish uchun eng qulay hudud ekani to‘g’risidagi fikrni asoslashga uringan¹.

Makinderning ta’kidlashicha, davlat uchun eng foydali geografik joylashuv o‘rta, markaziy joylashuv bo‘ladi. Markazlik nisbiy tushunchadir va har qanday geografik sharoitda farq qilishi mumkin. Ammo sayyora nuqtai nazaridan dunyoning markazida Yevroosiyo qit’asi joylashgan bo‘lib, uning markazida “dunyo yuragi” yoki “heartland” joylashgan. Heartland - bu Yevroosiyoning kontinental massalarining kontsentratsiyasi. Bu butun dunyoni boshqarish uchun eng qulay geografik tayanchdir.

Xorazm, So‘g‘diyona va Baqtriya aholisining asosiy mashg‘uloti o‘sha vaqtida sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik edi. Agar ushbu davlatlarning joylashgan o‘rniga e‘tibor beradigan bo‘lsak barchasida geografik omillar birlamchi asos talab etgan: daryo bo‘ylarida, jilg‘alar bo‘ylab, tog‘oldi vohalarida va shu kabilar.

Miloddan avvalgi VII asrda tashkil topgan Qadimgi Baqtriya davlati Markaziy Osiyo hududida Qadimgi davlatlardan biri sanaladi. Marg‘iyona, So‘g‘diyona Baqtrianing siyosiy va madaniy ta‘sirida bo‘lgan. Shuning uchun u qadimda bir - biriga qarindosh bo‘lgan elatlarning davlat birlashmasi deyilgan. Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari va O‘zbekistonga chegaradosh viloyatlar Qadimgi Baqtriya davlati ta‘sirida bo‘lgan. Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on va Afrosiyob o‘rnida Baqtriya va So‘g‘dning markaziy shaharlari joylashgan. Bu shaharlar O‘zbekiston hududida eng qadimgilari bo‘lib, ularning yoshi 2700 yildan kam emas.

Yana bir qadimiy davlat Xorazm hududida tashkil topgan. Bu davlat Xorazmdan tashqarida bo‘lgan yerlarni ham birlashtirgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri Ko‘zaliqir shahri bo‘lgan. U qalin va mustahkam mudofaa

devorlari bilan o‘ralgan. Uning dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan aholisi turli xil uy - qo‘rg‘onlarda va qishloqlarda yashagan. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo - sotiq yuksak darajada rivojlangan.

Mahalliy kulolchilik, quroloszlik, zargarlik buyumlarining dovrug‘i o‘zga yurtlarga ham tarqalgan edi. Shaharlarda savdo - sotiq rivojlangan. Xorazmliklar mohir quruvchi, hunarmand va dehqon bo‘lganlar. Shunday qilib, miloddan avvalgi IX - VIII asrlarda O‘zbekiston hududida ilk temir asriga o‘tish boshlangan. Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda bu yerda qadimgi yirik davlatlar mavjud bo‘lgan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo taraqqiy etgan. Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqalar o‘rnatilgan. Qadimgi davrda O‘zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga asoslangan edi.

Miloddan avvalgi VI asr o‘rtalarida Qadimgi Fors shohlari sulolasidan bo‘lgan Ahamoniylar tarkibiga jahonning barcha yirik mamlakatlari va shaharlari kirgan imperiya barpo etishga kirishadi. Kir II Markaziy Osiyon bosib olishga harakat qilgan ilk fors hukmdori hisoblanadi. Old Osiyodan boshlangan ulkan saltanatni boshqarishda ular satraplik tizimi joriy qilishadi. Markaziy Osiyo esa o‘z navbatida uchta satraplikka bo‘linadi. Keyinchalik bu hududda Makedoniyalik Aleksandr o‘z hukmronligini o‘rnatadi. Bu intilishlardan maqsad shuki Markaziy Osiyo, Old Osiyo, Shimoliy Afrika, Yunon - Rimni Sharqdagi Xitoy va Hind bilan bog‘lagan.

Buyuk Ipak yo‘li va Sharq va G‘arb munosabatlari. Miloddan avvalgi II asrdan milodiy XVI asrga qadar Sharq bilan G‘arb xalqlari o‘rtasidagi tarixiy - madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida Markaziy Osiyo hududi bo‘ylab o‘tgan Buyuk Ipak yo‘li muhim o‘rin tutgan. Buyuk Ipak yo‘li 12 km uzunlikda bo‘lgan. Sariq dengiz sohillaridan boshlanib Sharqiy Turkiston, Markziy Osiyo, Eron, Mesopatamiya, Old Osiyo orqali o‘tib O‘rtayer dengizi sohillariga qadar davom etgan. Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarcand, Buxoro, Termiz, Marv, Tabriz, Damashq kabi bir qator shaharlarni o‘zaro bog‘lagan. Buyuk Ipak yo‘li Sharq va G‘arb xalqlarining keng miqyosdagi madaniy aloqalari va savdo ayirboshlashi yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tarix o‘zaro hamkorlik va madaniyatlar boyitilishi tarixi bo‘lib, tinchlik va taraqqiyot asosini tashkil etgan.

Buyuk ipak yo‘li atamasi qadimda ishlatilmagan. Buyuk ipak yo‘lini tarixiy, geografik va madaniy jihatlarini ilmiy o‘rganish amalda ko‘plab mamlakat olimlari tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Uni tadqiq etishga G‘arbiy Yevropa, Rossiya va Yaponiya olimlari salmoqli hissa qo‘shdilar. Xususan, Yaponiyada «Buyuk ipak yo‘li entsiklopediyasi» nashr qilindi. 1877 yil mashhur nemis olimi Karl Rixtgofen o‘zining «Xitoy» nomli yirik ilmiy asarida ulkan

Yevroosiyo materiganing turli qismlarini bog'lovchi yo'llar tizimini «Ipak yo'li» deb atagan, keyinchalik «Buyuk ipak yo'li» atamasi qabul qilingan.

Markaziy Osiyo xalqlari Buyuk Ipak yo'li tufayli Sharq va G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati bilan oshno bo'lganlar. G'arb mamlakatlari xalqlari esa Markaziy Osiyo xalqlarining yuqori darajada rivojlangan madaniyatini o'zлari uchun kashf qildilar. Markaziy Osiyo hududlarida antik davrdan boshlab, rivojlanish jarayonlari Buyuk ipak yo'li bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, mil. avv. II asrdan boshlab Xitoy va O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari bilan savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Farg'on, So'g'd va Baqtriyaga ipakchilik kirib keldi. Karvon yo'li rivojlanib borgan sari savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Kushonlar va eftalitlar davriga kelib (I-VI asrlar), O'rta Osiyo orqali o'tuvchi Ipak yo'li tarmoqlari nazoratini mahalliy so'g'diy aholi qo'lga oladilar. Qo'shni davlatlar ham Ipak yo'lidan manfaatdor bo'lganligi sababli ilk o'rta asrlarda Eron va Vizantiya hukmdorlari so'g'diyalar bilan qonli kurashlar olib bordilar.

Milodning boshlarida qadimgi dunyoning ilg'or madaniyatli davlatlari asosan to'rttaga: Rim, Parfiya, Xitoy va Kushon davlatlariga bo'linar edi. o'arbdan Britan orollaridan sharqda Tinch okeani sohillarigacha cho'zilgan bu zabardast saltanatlar insoniyat tarixida birinchi bo'lib «Buyuk ipak yo'li» deb nomlanuvchi yo'l bilan bog'landilar. Ipak yo'li rivojlanib borgan sari podsholarning o'zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har xil sovg'alar in'om etishlari an'anaga aylandi. Savdo-sotiq misli ko'rilmagan darajada rivojlanib bordi. Shuningdek, Sharq bilan o'arb madaniyatining bir-biriga ta'siri kuchaydi. Davlatlar rivojlanishidagi ko'plab madaniy o'xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

Buyuk ipak yo'li bo'y lab ko'plab karvonsaroylar, shaharlar barpo etildi. Bu yo'lidan borayotgan savdogarlar ko'pincha yo'lning oxirigacha bormas edilar. O'rta Osiyo viloyatlari bu yo'lning o'rtasida joylashganligi sababli savdogarlar Korazm, Samarqand, Termiz va boshqa hududlarda o'z mollarini sotib, mahalliy mahsulotlarni xarid qilar edilar. O'rta asrlar O'rta Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko'plab mahsulotlar mavjud ediki, hozirgi kunda ipak yo'li ustidagi ko'hna shaharlar va manzilgohlardagi arxeologik qazishmalar natijasida topilayotgan topilmalar fikrimizning dalilidir.

Mil. avv. II asrda paydo bo'lib, milodning XVI asriga qadar faoliyat ko'rsatgan Buyuk ipak yo'li shu davr ichida Sharq va o'arb xalqlarining keng miqyosidagi o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l orqali aloqalar qilgan qadimgi xalqlarning o'zaro hamkorlik, almashinuv va madaniyatla-rining boyib borishi, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston hududlari bu yo'lning chorrahasida joylashgan

bo'lib, bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me'morlar tashrif buyurgan-lar.

YuNESKO tomonidan «Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li» dasturining ishlab chiqilishi Yevrosiyodagi 30 dan ortiq yetakchi davlatlarning 2000 yilga qadar ilmiy-madaniy faoliyati uchun yo'nalish bo'ldi. Respublikamiz hududlarida ham ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi. Buning natijasida ko'pgina tarixiy-madaniy obidalar o'rganildi, qadimgi yo'llar va yo'nalishlar aniqlandi, milliy va ma'naviy boyligimiz hamda an'analarimiz o'rganildi. Juda ko'pchilik tadqiqotchilar ishtirok etayotgan «Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li» dasturining asosiy vazifasi Sharq va o'arb xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan hamda rivojlantirgan bu yo'lni xalqlarning birodarlik, o'zaro hamkorlik va samimiy muloqot yo'liga aylantirishdan iboratdir. Kushon davlati haqida shuni aloxida takidlash joizki, davlat bir nechi hududlar va ko'plab qadimgi xalqlarni birlashtirgan. Uning tarkibida Markaziy Osiyo, Xuroson va Hindning ma'lum bir qismi birlashtirilgan edi. Ular orasida o'zbek xalqi ajdodlari ham kushon madaniyati yuksalishiga o'z xissasini qo'shgan. Kushon davlati IV asrlarga kelib og'ir ichki va tashqi kurashlar iskanjasida qoldi va asosiy hududlaridan ajraldi. Bu vaqtda uning hududlari qisman Shimoliy Hindistondagina saqlanib qoldi.

Qadimgi davlatlar. O'zbekistonda qadimgi mahalliy davlatchilik tarixi Qang', Dovon, Xorazm davlatlari rivoji bilan uzviy bog'langan. Qang' davlati miloddan avvalgi III asrning boshlarida paydo bo'ldi. Uning dastlabki davrlardagi hududlari Toshkent vohasidan iborat bo'lган. Qang' davlatining tashkil topishi asosiy sabablaridan biri tashqi harbiy hujumlardan himoyalanish zaruriyati bo'lган. Miloddan avvalgi 329 - yilda Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Bekobod va Xo'jand oralig'ida Sirdaryodan kechib o'tib, bosqinchilik qilganda mahalliy aholi unga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bundan natija chiqara olmagan Aleksandr ortga qaytishga va Xo'jand yaqinida Aleksandriya Esxata shahriga asos soladi. Miloddan avvalgi II va milodiy I asrda Qang' davlatining hududi kengayib, Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chudaryolarining quyi oqimidagi yerlarni o'z tarkibiga kiritadi. Qang' davlatining ikkita poytaxti bo'lib, biri Qang'diz (Oqqo'rg'on) va ikkinchisi O'tror bo'lган.

Qang' davlati aholisi tarkibini asosan dehqonlar va chorvadorlar tashkil etadi. O'troq aholi shaharlarda va vodiylarda yashab, dehqonchilik, hunarmandchilik va sado bilan mashg'ul bo'lган. Dasht tumanlarida esa chorvachilik rivojlangan. Miloddan avvalgi II sarda qang' qabilalari eng qudratli davlat birlashmasiga aylandi, uning hukmdorlari o'z nomlaridan tangalar zarb qildiradi. Qang' davlatining iqtisodiy taraqqiyotiga Buyuk Ipak yo'lining davlat hududlaridan o'tgan shimoliy tarmog'i vatta ta'sir o'tkazdi.

Shi - szi solnomasiga ko‘ra, Qang‘uy dastlab kuchsizgina davlat bo‘lgan paytda, Hukmdor oqsoqollar orasidan tanlangan va u oqsoqollarning birlashgan qo‘shinlariga tayangan. Ko‘chmanchilarda har bir oila boshlig‘i jangchi hisoblangan. Shuning uchun Qanguy qo‘shinlarining soni ulardagi oilalar soniga teng bo‘lgan. Qang‘uy qudratli davlatga aylangan vaqtda 120 ming qo‘shinga (demak, shuncha oilaga ham) ega bo‘lgan. O‘sha paytda aholisi taxminan 600000 kishidan iborat bo‘lgan. Xitoy elchilar o‘z hukmdorlariga qang‘uylar haqida —mag‘rur, qo‘rsı - deb ma‘lumot bergenlar. Bu davlatning siyosiy tarixi haqida ma‘lumotlar asosan Xitoy manbalarida uchraydi. Jumladan, Xitoy qo‘mondoni Li Guan - li qo‘shinlari mil. avv. 101 y. Dovonga bostirib kirganida qanguy dovonliklarni qo‘llab quvvatlagan. Solnomalar Qang‘yni ko‘chmanchilar davlati deb atasalarda, unda shaharlar bo‘lganligi haqida ham ma‘lumot beradilar. Xalqi —Tuproqdan qilingan devor ichida yashaydigan Yansay shaharlari shular jumlasidandir. Qanguy poytaxtini juda qadim zamonlarda Qangxa joylashgan Sirdaryo deltasi hududida deb hisoblaydilar. Manbalarda ko‘rsatilgan jug‘rofiy o‘rinlargacha to‘g‘ri kelmasada mamlakat poytaxti bo‘lgan Bityan shahri Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumani o‘rnida bo‘lgan degan fikrlar mavjud.

Qanguy davlati bir - biriga teng bo‘lgan o‘troq - xo‘jalik hududlaridan iborat beshta kichik hokimiyatni o‘z ichiga olgan. Ular Qang‘uy ittifoqi ishtirokchilariga qaram bo‘lgan Suse, Fumu, Yuni, Gi, Yuegyan hududlaridan iboratdir. A.N.Bernshtamning fikricha Yuni-Toshkent vohasida, Suse –Sirdaryo va Arisning o‘rtal oqimida, Fumu - Yangiqo‘rg‘on atroflari, Gi - Sirdaryo etaklarida, Yuegyan esa - Xorazmda joylashgan. Bu ittifoqning umumiyligi chegaralari Xorazm, Shosh, Sug‘d viloyatlari bilan bir qatorda Sirdaryo etaklarini va Orol dengizi shimolidagi hududlarni o‘zida birlashtirgan. Shuning uchun ham o‘lkaning janubida joylashgan boshqa davlatlar (jumladan, Parfiya, Kushon va b.)dan farqli o‘laroq Qang‘uy davlatida ko‘chmanchilar davlatiga xos belgilari saqlanib qolgan.

O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi bo‘yicha kam o‘rganilgan masalalardan biri Dovon davlati tarixidir. Xitoy manbalarida Dovon nomi bilan atalgan davlat boshqa manbalarda Parkana nomi bilan yuritilgan. Dovon davlati taxminan miloddan avvalgi III asrda paydo bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra, Farg‘ona - Dovon davlatida 300 ming aholi yashagan katta - kichik shaharlar mavjud bo‘lgan. Shaharlar orasida Ershi shaxri aloxida ahamiyatga ega bo‘lgan va davlat poytaxti xisoblangan.

Miloddan avvalgi 104-101 chi yillarda Xitoy qo‘shinlari jang qilib, Ershini bosib olgan vaqtda davonliklarga Qang‘ davlati qo‘shinlari yordamga yetib keldi va ikki o‘rtada tuzilgan sulx shartnomasiga ko‘ra, xitoyliklar Dovon davlati hududidan chiqib ketdilar. Farg‘ona vodiysi hududlaridan qadimgi davrga oid ko‘plab uy - qo‘rg‘onlar, qishloqlar, shaharlar xarobalari topib o‘rganilgan. Dovon

davlatining aholisi asosan dehqonchilik, savdo - sotiq bilan shug‘ullangan. Dovon dehqonlari arpa, sholi, bug‘doy va beda yetishtirishda mashhur bo‘lganlar.

Farg‘ona - Dovon davlatining o‘ziga xos boyliklaridan biri uning —samoviy otlari bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra Xitoy imperatorlarining dovonga bosqinchilik uyuştirishlarining asosiy sabablaridan biri ham ana shu —samoviy ot larni qo‘lga kiritish bo‘lgan. Dovon davlati Xitoy, Xindiston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan olib boriladigan xalqaro savdoda muxim o‘rin egallaganlar. Dovon davlati milodiy II asrgacha mavjud bo‘lgan. Miloddan avvalgi IV-II asrlarda Qadimgi Xorazm mustaqil davlat bo‘lib, Aleksandr, Salavkiylar, Yunon - Baqtriya davlatlari tarkibiga kirmagan. Kirmasligining sabablaridan yana biri u Qizilqum va Qoraqum sahrolari o‘rtasida joylashganligi bo‘lib unga harbiy yurish qilishning murakkabligi bilan belgilanadi. Bunday siyosiy qulaylik Xorazmda o‘ziga xos mahalliy davlatchilik tizimiga ega bo‘lgan davlatning shakllanishida maxsus omil bo‘ldi. Aleksandr Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida hukmronlik qilgan vaqtida Xorazmda Farasman ismli odam podsholik qilgan. Yunon tarixchisi Arrian Farasmanning Aleksandr bilan bitimi tuzilganlagi haqida ma‘lumot qoldiradi. Xorazmdan topib o‘rganilgan qadimgi shahar xarobalaridagi xususiyatlar bu yerda mustahkam davlatchilik tizimi barpo qilinganligidan dalolat beradi. Shunday shaharlardan biri Jonbosqal‘adir. Bu shahar tuzilishiga ko‘ra to‘g‘ri burchakli bo‘lib ikki qator mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan va devorlarda shinaklar mavjud bo‘lgan. Jonbosqal‘a ikki qismidan iborat bo‘lib, bir qismida —olov uylari - ibodatxonalar, ikkinchisida aholi turar joylari bo‘lgan. Qo‘yqirilganqal‘a shaxri xarobalari boshqa shaharlardan farqli o‘laroq asosiy inshoati aylana shaklida bo‘lib, inshoatning markazidagi bino ikki qavatli bo‘lgan va shu binoning o‘zi ayni vaqtida rasadxona vazifasini bajargan

Tuproqqal‘a shahri to‘g‘ri burchakli mudofa devorlari bilan o‘rab olingan bo‘lib, devorlar ham g‘ishtdan ishlangan unda shinaklar bilan birga minorlar ham bo‘lgan. Tuproqqal‘a Xorazm hukmdorlari qarorgoxi vazifasini bajargan. Bu yerdan Xorazm davlati shoxlari boshqaruviga oid bir qancha moddiy manbalar hamda hukmdorlarning arxivlari xujjalardan na‘munalar ham topilgan. Xorazm davlati xo‘jalik hayotida dehqonchilik va hunarmandchilik asosiy o‘rin egallagan. Milodning dastlabki asrlaridayoq bu yerda mis tangalar zarb qilingan. Shuningdek Xorazmdan O‘rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv namunalarini ham topilgan bo‘lib, ular miloddan avvalgi 5 – 4 asrlarga oid oromiy yozuvlari asosida shakllangan Qang‘, Davon va Xorazm davlatlarida mavjud davlatchilik tizimi, xo‘jalik hayotining taraqqiy etib borishi keyingi davrlarda O‘zbekistonda yuzaga kelgan davlatlarning yuksalishiga ham o‘z ta‘sirini o‘tgazgan va ularning keyingi bosqichlarga ko‘tarishida muhim omillardan bo‘lgan.

O'rta asr mutafakkilari qarashlarida tabiat - jamiyat masalalari.

Arab xalifaligida VIII asr oxiri IX asr boshlarida xalifalikning qator shaharlarida ilm - fan, madaniyat kuchayib bordi, madaniy aloqalar avj oldi. Qadimgi Yunonistonning mashhur olimlari Aristotel, Aflatun, Gippokrat, Arximed, Yevklid kabilarning merosi keng o'rganildi. Xalifalikning turli o'lkalardan taniqli olimlar Bog'dodga keldilar, bu yerda IX asr boshida «Dor ul xikma» - Donolik uyi - ilm markazi tashkil topdi, unda turli ilmlar – falakiyot, riyoziyot, tibbiyot, tarixshunoslik, geografiya, kimyo, falsafa kabi fanlar bo'yicha tadqiqotlar keng yo'lga qo'yildi. Arab xalifaligida ijtimoiy taraqqiyotning turli darajasida bo'lgan ko'pgina xalq va qabilalar birlashgan edi. Unga Suriya, Misr, Xuroson, Mavarounnahr kabi ming yillik madaniy merosga ega bo'lgan xalqlar ham kirgandi. IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etishi empirik bilimlarni rivojlantirishga ehtiyoj tug'dirdi va shunga muvofiq Markaziy Osiyoning ilg'or kishilari matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot fanlarini chuqur o'rgandilar. Bu davrning o'z mazmuni, salmog'i, ahamiyati jixatidan Markaziy Osiyo Uygonish davri ham deyiladi. Uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat edi.

1. Dunyoviy ma'rifatga intilish, bu yo'lda o'tmish va qo'shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy - falsafiy, ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish.

2. Tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarining rivoji, ratsionalizm, aql kuchiga ishonishdan, asosiy e'tiborni haqiqatni topishga qaratilgan fanlarga berish, haqiqatni inson tasavvuri, ilmining asosi deb hisoblash.

3. Insonni ulug'lash, uning aqliy, tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarini asoslash, insonparvarlik, yuqori ahloqiy marosimlar va qoidalarni takomillashtirish, komil insonni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yish.

4. Universallik - qomusiylik, barcha narsa bilan qiziqish bu davr madaniyatining muxim tomonlaridan biri edi.

Shu davrda ilg'or falsafiy fikrlar rivojlanishida Ibn Zakariy ar-Roziy, Al Kindi, Muhammad Muso al - Xorazmiy, Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy, Abu Abdulloh al - Xorazmiy Mafotix, Qoshg'ariy, Yusuf xos Xojib, Mirzo Ulug'bek, Navoiy kabi mashhur mutafakkirlarning roli kattadir. Uyg'onish davri falsafasi tabiiy - ilmiy fanlar rivoji bilan uzviy bog'lanib ketgan. Chunki tabiatdagi xodisalar, inson organizmining xolatidagi o'zgarishlar sabablarini o'rganish jarayonida ijtimoiy fikrda o'rnashib qolgan olamga aqidaviy - diniy qarashlarga putur yetib, olamning ilmiy manzarasi haqidagi tasavvurlar ijtimoiy ongda muqim o'rin egallay boshladi.

Bu davrdagi jahonga mashhur olimlardan biri Muhammad ibn Muso al - Xorazmiy bo‘lib, uning matematika, astronomiya, jo‘g‘rofiya, tabobat, tarixshunoslik sohasidagi nodir asarlari falsafiy fikrlar rivojiga ham katta hissa bo‘lib qo‘sildi. Olimning eng mashhur asarlari: «Al - jabr va - 1 muqobala», «Kitob surat al arz», «Yer surati», «Astronomik jadvallar», «Quyosh soati to‘g‘risida risola», «Hind hisobi haqida risola», «Usturlab qurish haqida kitob», «Zij», «Astronomik jadval», «Musiqa bo‘yicha risola», «Tarix bo‘yicha risola» kabi asarlari uning ilmiy tafakkuri benixoya kengligi, qomusiy alloma ekanligi, nafaqat o‘z davrining, balki hamma zamonlarning eng buyuk qomusiy olimi ekanligidan dalolat berib turibdi.

Sharqda va jahonda tabiiy va aniq fanlar rivojiga salmoqli xissa qo‘sghan buyuk allomalardan yana biri Ahmad al - Farg‘oniyidir. Farg‘oniyning asosan oltita kitobi butun dunyoga ma‘lum va mashxur: «Kitob fi usul ilm an - nujum», ya‘ni «Astronomiya ilmining usullari haqidagi kitob»; «Al - Farg‘oniy jadvallari»; «Oy Yerning ustida va ostida bo‘lganida vaqtini aniqlash risolasi»; «Usturlab bilan amal qilish haqidagi kitob»; «Yetti iqlim hisobi»; «Usturlab yasash haqidagi kitob». Uning ushbu asarlarida koinot xaritasi tuzilgan, Yer va fazoviy sayyoralar hajmi, iqlimlar, jo‘g‘rofiy kengliklar to‘g‘risida kuzatuvlar orqali asoslangan yangi ma‘lumotlar berilgan, ilm - fanning yangi yo‘nalishlariga asos solingan. Qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlarni umumlashtirish, tadqiqotda xissiy va aqliy mushohada mushtarakligi allomaga xos xususiyatlar sifatida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim omillari bo‘lib keldi.

Abu Nasr Muhammad Forobiy Sirdaryo bo‘yidagi Forob qishlogida tug‘ilib, o‘z Vatanida va so‘ngra Bog‘dod va Damashqda bilim oldi. U Markaziy Osiyo xalqlari va butun sharqning mashhur faylasufi va olimlaridan biri edi. Forobiy yirik faylasuf, tilshunos, mantiqshunos, matematik, astronom, ximik, medik, psixolog, musiqa san‘atining yirik nazariyotchisi, grek madaniyati, fani va falsafasini egallagan edi. Forobiy eng yirik Aristotelshunos, uning falsafasi, tabiiy - ilmiy nazariyasi va asoslarini chuqur bilgan faylasuf edi. Shuning uchun Forobiyni hayotligidayoq «Al muallim as - soniy» (2 - ustoz), ya‘ni 2 - Aristotel deb faxriy nom bilan atagan edilar. Forobiy Aristotel asarlarini arab tiliga tarjima qilib, unga sharxlar yozadi, shu bilan birga 160 dan ortiq nodir asarlar yaratdi. Forobiy «Falsafani o‘rganishda nimalarni bilish kerak?», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «She‘r san‘ati», «Shoirlarning she‘r yozish san‘ati qonunlari haqida», «Ilmlarning kelib chiqishi to‘grisida», «Musiqa haqida so‘z», «Ohanglar tasnifi haqida kitob», «Masalalar bulog‘i», «Aql to‘g‘risida», «Inson a‘zolari haqida risola», «Fozil shahar aholisining qarashlari», «Davlat haqida risola» kabi qimmatli asarlarini bizga meros qilib qoldirdi. Inson aqli tafakkur yordamida tabiatni, borliqni, materiyani, ijtimoiy xodisa va jarayonlar moxiyatini, ma‘nosini

biladi. Forobiy o‘zining ijtimoiy qarashlarida insoniyat jamiyatini vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy sabablarini, axloqning shakllanishini, inson va jamiyatning o‘zaro munosabatini, insoniylik, adolat, yetuk jamoa, komil inson kabi masalalarni nazariy jihatdan asoslashga harakat qiladi.

O‘rta asr buyuk olimlaridan biri, ensiklopedist olim, geograf, geolog, astronom, matematik, filosof, tilshunos, etnograf, tabib Muhammad Ibn Ahmad Abu Rayxon Beruniy 973 - yil 4 - oktabrda qadimgi Xorazmning markaziy shahri Qiyotda tug‘ildi. Beruniy o‘z umri davomida 150 dan ortiq asar yaratdi. Shulardan eng mashhurlari «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Ma‘sud qonuni», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Saydana»dir. Beruniy o‘z davrida tajribaviy bilimlarni puxta egallagan olimlardan bo‘lib, bu uning tabiiy - ilmiy va falsafiy qarashlarining muayyan tomonlarini aniqlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Umuman, Beruniyning tabiiy - ilmiy merosi, aniq fanlar bo‘yicha ko‘targan muammolari o‘z davrida olamning umumiy manzarasini yaratishda, ya‘ni falsafiy dunyoqarash shakllanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Beruniy o‘z astronomik jadvalida olamning markazi Yer emas, balki quyoshdir, hamma planetalar, shu jumladan Yer ham quyosh atrofida aylanadi, degan gelotsentrik gipotezani olg‘a surdi. Beruniyning bu ilmiy xulosasi 500 yildan keyin ulug astronom Kopernikning gelotsentrik sistemasida ilmiy asosda tasdiqlandi. Beruniy Abu Ali ibn Sino bilan qilgan munozarasida koinotdagi planetalar, shu jumladan Yer ham o‘zaro tortishish kuchiga ega, degan xulosaga keladi. Uning bu ilmiy taxmini XVIII asr boshida ingliz olimi Nyuton kashf etgan butun dunyo tortilish qonuni bilan ilmiy jixatdan asoslandi.

Firdavsiyni Shohnoma dostonini yozishdan maqsadi fors zaminidan arab tilini siqib chiqarish bo‘lgan. Buni Fitrat o‘z maqolasida keltirib o‘tgan. Fors tilining bu silkinishi Eron shoiri Firdavsiyning arabchalikka qarshi qaynag‘an, qizig‘on eronli bir millatchi edi. O‘ttiz yil tirishdi, dongli «Shohnoma» kitobini yozib chiqardi. «Shohnoma» yozib chiqaruvdan Firdavsiyning ikkita tilagi bor edi: Eron ulusining arabdan sovutib, eronli tuyg‘usini bermak va arab tilini Erondan surib chiqarmoq. Yana shuning uchundirki, Eronda arabcha hokim bo‘lg‘onir zamonda yozilg‘on «Shohnoma»da arabcha so‘zlar yo‘q darajada ozdir. Firdavsiy bu ikki tilakni bilib, onglab, ishga kirishganini bildirmakchi o‘lib, yozadirkim: Bas, ranj burdam soli si, Amam zinda kardam ba dini forsiy — demishdir. Turkchasi: Bu o‘ttiz yil ichida ko‘p emkardim (azob chekmoq), Eronni forsicha yozganim shu kitob ila turgizdim, demakdir. Forsi ishda shunday qilib yoqasini qutqormish. Lekin, bizning baxtsiz turkchamiz bir Firdavsiy yetishtira olmamish.

Alisher Navoiyning Saddi Iskandariy” dostoni dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandarga

bag‘ishlangan bo‘lib, "Xamsa"ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn (ikki shoxli yoki kun chiqish va kun botish hukmdori) nomi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus "Iskandarnoma" degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostoniga javob tarzida "Oyinayi Iskandariy" asarini yozgan bo‘lsa, Abdurahmon Jomiy o‘z dostonini "Xiradnomayi Iskandariy" deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o‘z asariga "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori") deb nom beradi. "Saddi Iskandariy" "Xamsa"dagi eng yirik doston bo‘lib, 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 14 bobni o‘z ichiga oladi

Insoniyat Abu Ali ibn Sinoni jahon fani va Uyg‘onish davri madaniyatining yirik arboblaridan biri sifatida biladi va e‘zozlaydi. Ibn Sino 400 dan ortiq asarlar yozdi. Uning yozgan asarlari ilm-fanning barcha sohalariga taalluqlidir. Shundan 242 tasi bizgacha yetib kelgan. Alloma asarlardan 80 tasi falsafa, iloxiyot, tasavvufga, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 tasi esa ruxshunoslikka bag‘ishlangan. Ibn Sino o‘z asarlari bilan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyatlarining oldingi qatoriga olib chiqdi. Shuning uchun ham «Shayxurrais» - «Olimlar boshlig‘i» deb atalishi beziz emas. Olimning asosiy falsafiy asari «Kitobat shifo», «Donishnama», «Najot», «Kitobul insof», «Kitob al qonun fittib» kitoblaridan iborat. Ibn Sino «Donishnama» nomli falsafiy kitobi 5 xil ilmni-mantiq, tibbiyot, astronomiya, musiqa, iloxiyotni o‘z ichiga oladi. Ibn Sino o‘z zamondoshlari singari Alloho olamni yaratgan birinchi sabab hisoblaydi.

Ibn Sinoning aytishicha, falsafa borliq haqidagi fandir. Borliq esa abadiydir, u shaklini o‘zgartirishi, bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tishi mumkin, lekin uning o‘zi - materiya yo‘qolmaydi. Uni tekshirish uchun zaruriyat, imkoniyat va sabab kategoriylarini asos qilib olish zarur. Ushbu kategoriylar orqali inson olam to‘grisida falsafiy fikrlarga ega bo‘ladi. Ibn Sinoning fikricha, olamda zaruriy vujud va imkoniy vujud bor bo‘lib, ularning birinchisi hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan bir butunlikdir; u qudratli, dono, irodali va hamma narsani biluvchi Tangridir. Ikkinchisi imkoniy vujud bo‘lib, u tangridan kelib chiqadi va uni namoyon etadi. Bu kelib chiqish emanatsiya tarzida, ya‘ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida mavjud bo‘lgan aql, jon va jism, ular bilan bog‘liq holda osmon jismlari kelib chiqadi. Bu javhar (cubstansiya) bo‘lib, undan tashqari borliqda araz (aksidensiya), ya‘ni narsalarning belgilari, rangi, hajmi, xidi va boshqa xislatlari mavjud. Jism shakl va materiyadan tashkil topadi. Moddiy jixatdan bir butun bo‘lgan tabiat o‘z ichki qonuniyatları asosida rivojlanadi, binobarin, tabiiy xodisalar sababli boglanishga ega bo‘lib, ularni o‘rganish mumkin.

O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan yana bir olim Abu Abdulloh al - Xorazmiy edi. Uning bizgacha yetib kelgan «Mafotix al - ulum» («Ilmlar kalitlari») asari

bo‘lib, unda o‘rta asrlardagi fanlarning rivojlanishi va holatini ancha mukammal aks ettirgan. Muallif asarda o‘z davridagi har bir fanning mazmunini, uning atamalarini sharhlash yo‘li bilan tushuntirib beradi. Ushbu asarda falsafa, mantiq, tib, ilmu - nujum, musiqa va boshqa fanlarning asoslari berilgan, al - Xorazmiy o‘sha davrda yuqori darajada rivojlangan fanlarni ma‘lum tartibga tushirish va tasnif qilishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

Abu Abdulloh al - Xorazmiy falsafaning nazariy qismiga tabiatshunoslik fanlarini, amaliy qismiga etika, siyosatshunoslik va boshqaruvni qo‘yadi. Zaruriy borliqni xudo va uning qudrati (birinchi sabab) bilan izohlasa, imkoniyat darajasidagi borliqni moddiy olam va undagi sababli bog‘lanishlar bilan izohlaydi. Materiya uning nazarida 4 unsurdan tashkil topadi va ular fazo va vaqtida mavjud bo‘ladi. Harakat materiyaning atributi ekanini tan oladi. Ammo u aql, ruh, jon kabi nomoddiylik bor, deb hisoblaydi. Aqlni «faol aql», «moddiy aql» va «o‘zlashtirilgan aql»ga bo‘ladi.

Geografik determinizmdan bahs etib, ushbu mulohazalarni o‘rtaga tashlashimizdan maqsad quyidagi fikrlarni aytishdir. Agar bugun geosiyosat yoki siyosiy geografiyadan so‘z ketsa, ko‘pchilik mutaxassislarimiz birdaniga g‘arbdagi qaysidir davlatda qachondir yashagan olimning bu boradagi sistematik fikrlarini keltirishadi. Aytmoqchimizki, zamonaviy geosiyosat yoki siyosiy geografiya asosida turuvchi geografik determinizm borasida o‘zimizda ham yetarli manbalar mavjud. Ularni G‘arb dunyosi bizdan ko‘ra oldinroq o‘rganib bo‘lishgan. Bugun esa ular yangicha ko‘rinishlarda yana bizga qaytib kelmoqda.

Umuman olganda uyg‘onish davri haqida gap ketganida quyidagi geografik omillarni hisobga olish zarur. Avvalambor Xalifalik yagona hudud sifatida birlashtirildi; Atlantika sohilidan (Piriney yarim oroli) Qashqargacha bo‘lgan hududda yagona fuqarolik o‘rnatildi; yagona boj - soliq tizimi joriy etilishi turli xalqlarning erkin - emin harakatlanishini, tajriba almashishini ta‘minladi; ilmiy markazlar tashkil etilib turli xalqlarning ulamolari bu markazlarga taklif etildi; yagona tilning joriy etilishi ular o‘rtasida ilmiy aloqalarning yanada kuchayishini ta‘minladi

2.5. XVI-XIX asrlarda vujudga kelgan geosiyosiy bilimlar va harakatlar

Geosiyosiy bilimlar rivojida Amir Temurning xizmatlari. Amir Temur va temuriylar davri o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa egadir. Amir Temur nomi bilan O‘zbekistonda davlat va huquq o‘zining eng rivojlangan bosqichiga ko‘tarilgan edi. Bu sultanatning chegaralari Sharqda Xitoy devorigacha g‘arbda O‘rta yer dengizigacha, janubda Hindiston va Shimolda Moskov Knyazligi hududlari bilan chegaralangan edi. Markazlashgan o‘z davrida dunyodagi eng kuchli davlatga aylangan edi. Amir Temur davrida davlat va qonunchilikni

yuksalishi o‘z navbatida siyosiy dunyoqarash ham yuksaklikka ko‘tardi. Markaziy Osiyo xalqlari uchun Amir Temurning xizmati ulkandir:

- Birinchidan, u mamlakatni mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod etdi;
- ikkinchidan, mustaqil o‘zbek davlatchiligiga asos soldi;
- uchinchidan, mamlakatni tuzuklarga (qonunlarga) asosan boshqarishni ta‘minladi;
- to‘rtinchidan,adolat va ma‘rifat ishlarini yo‘lga qo‘ydi. «Kuch - adolatda» degan shiorga asosan;
- beshinchidan, qo‘shni davlatlarni ham bosqinchilardan, zulm va zo‘ravonlik o‘tkazayotgan diktatorlardan tozaladi va u yerlarda qonuniy tartib o‘rnatdi;
- oltinchidan, Samarqandni dunyo markaziga aylantirdi. Bu yerga uzoq Ispaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy kabi mamlakatlardan ko‘plab elchilar, sayyoxlar, savdogarlar, olimlar kelib ketadigan poytaxtga aylantirdi.

Amir Temur o‘rta asrlarda Turkistonda shunday shart - sharoit yaratdiki, unda Ulug‘bek abservatoriysi, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar o‘z asarlari, odil siyosatlari bilan dunyo jamoatchiligining diqqat e‘tiborini tortishga muvaffaq bo‘ldi. Bu buyuk ishlarni amalga oshirilishining boshida, so‘zsiz, Amir Temur turar edi. U davlat va jamiyat qurilishida, uni boshqarishdaadolat va qonuniylikka asoslandi. O‘z zamonida xalqlar orasida keng tarqalgan Islom siyosiy mafkurasi va uning qonunlar tizimi - shariatni amalda qo‘lladi hamda unga qo‘srimcha tarzda o‘z «tuzuklarini» yaratdi. Uning siyosiy va huquqiy ta‘limotlari, o‘gitlari, ko‘rsatmalari temuriylar davrida dasturi amal bo‘lib xizmat qildi.

Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar tashqi siyosatining yo‘nalishlari umuman xali fanda chuqur o‘rganilmagan. Haqiqatan ham bu mavzuni to‘laligicha ochib berish alohida va jiddiy tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi. Mazkur mavzu qisqa va umumiylar tarzda, ba‘zan qisman alohida tadqiqotlarda ochib berilgan. Bir tomonidan hali Chingiziy mo‘ng‘ullarning xavfi kuchli ekanligi, chegaralar xavfsizligini ta‘minlash, Chig‘atoy ulusiga egalik qilish, o‘zida siyosatni mujassam etgan Buyuk Ipak yo‘li tizginini qo‘lga olish kabi masalalarni davlat manfaatlari jihatidan to‘g‘ri hal etish nozik tashqi yo‘nalishlarini belgilashni taqazo etdi.

Sohibqiron Amir Temurning mo‘g‘ul zulmiga zarba berishi unga yangicha muammolarni tug‘dirdi. Sabab tashqi havf hali mavjud edi. Vaziyat Amir Temurdan Xorazm, Oltin O‘rda, Mo‘g‘uliston, Eron, Xuroson kabi o‘z davrining kuchli davlatlari bilan yangicha bir - biridan farqlanuvchi tashqi siyosat yo‘nalishlarini belgilashni taqozo etdi.

Amir Temur faoliyati uni uzoqni ko‘ra biladigan siyosatchi va diplomat sifatida tavsiflaydi. Qudratli davlat rahbari o‘z davri imkoniyatlari va chegaralaridan chiqib, yangi tizimlarning shakllanishiga olib keldi. U davlatchilikning yangi asoslarini yaratishda turk, mo‘g‘ul, arab-fors an'analaridan foydalangan. Keyingi asrlarda sharqiy mamlakatlarning barcha hukmdorlari ushbu siyosiy maktabni namuna sifatida ishlatishdi. Uzoqni ko‘ra bilish qobiliyati bilan Amir Temur progressiv tarixiy jarayonlarning katalizatori bo‘lib xizmat qildi. Masalan, Markaziy Osiyoda uning hukmronligi davrida tovar-pul munosabatlari rivojlanib, ijtimoiy mehnat qishloq va shahar o‘rtasida taqsimlangan. Yangi shakllangan savdogarlar tashqi savdoning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy rivojlanishni rag‘batlantirdi.

Sohibqiron nafaqat o‘tiroq, ko‘chmanchi, balki turli etnik qatlamlarini ham qo‘llab-quvvatlagan ko‘p madaniyatli tizimning yaratuvchisidir. Amir Temur hukmronligi davrida Yevropa mamlakatlari bilan integratsiyalashuvi kuzatildi. Yevropaning kichik bir qismi (Konstantinopol va boshqalar) Anqara jangidan so‘ng buyuk strategga hurmat bajo keltirishi va uning vassaliga aylanishi Yevropa madaniyati elementlari mavjudligidan dalolat beradi.

Sohibqiron umumbashariy yashash huquqini tan olib, dunyo xalqlarini yagona geosiyosiy makonda ko‘rib, global miqyosda fikr yuritdi. U birinchi bo‘lib Yevropa bilan do‘stlik va hamkorlik asosida aloqalarni o‘rnatgan. U Yevropa qirollariga yozgan xatlarida ikki tomonlama o‘zaro manfaatli aloqalarni shartnomalar asosida belgilashni taklif qildi.

Xabarlarda qayd etilishicha: “Siz o‘z savdogarlaringizni mening davlatimga jo‘natasiz. Biz ularni iliq kutib olamiz, barcha sharaflarni namoyish etamiz. Shuningdek, o‘z savdogarlaringizni yurtingizga jo‘natamiz. Siz ularga hurmat ko‘rsatasiz va ularni ta‘mirlashlariga yo‘l qo‘ymaysiz. Mening boshqalarim yo‘q, sizga talablarim bor, chunki savdo odamlari tufayli dunyo gullab yashnaydi”.

O‘rta asrlarda, ko‘plab urushlar va nizolar bilan, Sohibqironning harbiy qudratliligi mintaqalarda mudofaa va nazoratni amalga oshirishda muhim vosita bo‘lgan. Amir Temur kuchli razvedka maktabini yaratdi. U dunyoda birinchi bo‘lib armiyani etti bo‘linishga ajratdi. Inson o‘z jang san‘atini qanchalik ko‘p o‘rgansa, shunchalik ko‘p imkoniyatlar ochiladi. Mag‘lubiyatni bilmagan, yaxshi o‘qitilgan armiyaning rahbari harbiy fanni yangi bilim va tajriba bilan boyitib, uni san‘at darajasiga ko‘targan.

Amir Temur Chig‘atoy ulusining tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazmga davogarlik qilish bilan birga, uning o‘z davlati tarkibiga kiritish orqali u o‘z davlatining shimoliy chegaralarini mustahkamlash, bu yerda kuchli mudofaa makonini yaratish maqsadini ham amalga oshirishni istar edi. Chunki u o‘z davlatini Oltin O‘rdadan bo‘ladigan katta xavfdan himoya qilishni istar edi. Amir

Temurning Oltin O‘rdaga nisbatan tutgan tashqi siyosat yo‘nalishi quyidagi maqsadlarni o‘zida mujassamlashtirgan:

- birinchidan, shimoldagi - Oltin O‘rdadan bo‘ladigan xavfni bartaraf etish;
- ikkinchidan, Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i ustidan hukmronlikni qo‘lga kiritish;
- uchinchidan, Oltin O‘rdaning kuchli davlatga aylanishga yo‘l qo‘ymaslik va uni ikkinchi darajali mamlakatga aylantirish;
- to‘rtinchidan uni Eron va Ozarbayjon ustidan hukmronlik qilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- beshinchidan Dashti Qipchoqning shimoliy qismiga o‘z ta‘sirini o‘tkazish;
- oltinchidan, Xorazmni o‘z tasarrufida saqlab qolishga intilish. Negaki Temur Xorazmni Oltin O‘rdaning emas Movarounnahr bilan davlat birlashmasida bo‘lishi tarafdori edi.

Sohibqiron Amir Temurning Oltin O‘rda munosabatlari muhim siyosiy nuqtalardan biri bo‘lib, u bu bilan davlatni har tomonlama yuksaltirishga, muhofazalashga va xalqaro katta tayoq siyosatini olib borishga intilgan. Demak, u diplomatiyada geostrategiyani avvalgi o‘ringa qo‘ygan. Uning tashqi siyosat yo‘nalishi Misr, Usmoniyalar davlati katta muammolardan hisoblanar edi. Unga dunyoda yetakchi mavqega intilayotgan davlatlarning rahbarlari - Misr sulton Barquq, Usmoniyalar sulton Boyazid Yeldirim halaqit berayotgan, buning ustiga ular Oltin O‘rda bilan birga Amir Temurni yanchib tashlashga intilayotgan edi. Manfaatlar, hududlar ustidagi tortishuvlar xam ular orasidagi ziddiyatlarning keskinlashishiga katta tasir ko‘rsatgan. Shunisi aniqki, Amir Temur Boyazid Yeldirimni yengsada uning avlodlariga yana imkoniyat - ularning taxtda qolishlariga imkon berdi. Qariyb yigirma yillik ziddiyatlarga qaramay Misr va Amir Temur davlati o‘rtasida yirik janglar yuz bermaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Amir Temuradolatli tashqi siyosat olib borgan. Uni quyidagi fikrlar asosida izohlash mumkin:

- birinchidan, Amir Temur tinch aholi ustiga sababsiz bostirib kirmagan va u iloji boricha masalani tinchlik yo‘li bilan hal qilishga intilgan;
- ikkinchidan, u tinchlik talab davlatlarning osuda yashashini inson manfaati, huquqlarini kafolatlagan, uning diplomatiya g‘oyasi zaminida tinchlik, hamkorlik o‘rnatish maqsadlari yotadi;
- uchinchidan qoni, irqi, dini, mafkurasi Sharq uchun ziddiyatli G‘arb davlatlari bilan ham tinchlik va hamkorlik aloqalarini o‘rnatib, Yevroosiyo va integratsiya g‘oyasi tamal toshini qo‘ydi.

- to‘rtinchidan, agar jaloyirlar, qoraquyunlilar, Boyazid va boshqalar u bilan munosabatlarni buzmaganda, u bunchalik keng darajada g‘ayrat qilmas edi;
- beshinchidan, u g‘animlarining obdon mulohaza yuritishi uchun imkon berdi va uning dushmanlari bu imkoniyatni suiste‘mol qildi;
- oltinchidan, u diplomatiya ilmining nazariy asoslarini kuchaytirdi, uni yangi strategik taktika va amaliyot bilan chambarchas bog‘ladi;
- yettinchidan, u doimo xalqaro tenglik qoidasini avvalgi o‘ringa qo‘ydi;
- sakkizinchidan o‘ziga qarshi tuzilgan yirik blokni diplomatik zehni ila bartaraf etdi;
- to‘qqizinchidan, uning diplomatiyasida ezgu insoniy xislatlar mujassam;
- o‘ninchidan, uning diplomatiyasiadolatli va haqgo‘y diplomatiya edi;
- o‘n birinchidan - u raqibini ichdan qulatsada, butunlay yo‘q qilmadi. Chunki uning maqsadi raqibini yo‘q qilish emas, uni tartibga chaqirib qo‘yish edi;
- o‘n ikkinchidan, uning diplomatik tadbirdari Sohibqiron Movarounnahrga tahdid solayotgan tashqi ta‘sirlarni izchillik bilan birin - ketin yo‘q qildi. Davlat tevaragida dahlsiz hududlar yaratishga erishdi.

Sohibqiron Temur diplomatiya ilmini san‘at darajasiga ko‘targan va bu albatta xalqaro munosabatlarda o‘zining ijobi samarasini bergen. O‘sha davrda diplomatiyada eng maqbul yo‘llarning tanlanishi Temuriylar davlatchiligi san‘at darajasiga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi.

Shayboniylar davlatining tashkil topishi. XI asrdan boshlab arab va fors manbalarida «Dashti Qipchoq» deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi. Bu atama Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g‘arbiy yon - bag‘irlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho‘zilgan hududga nisbatan ishlatilgan. Dashti Qipchoqda Abulxayrxon davrida kuchli davlat tashkil etildi (1428 - 1468). Lekin uning vafotidan keyin o‘zaro janglar avj oladi. Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishi Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Abulxayrxon vafotidan so‘ng boshlangan o‘zaro qirg‘inlarning yana takrorlanishini aslo istamas edilar. Shu tufayli ular Muhammad Shayboniyxon timsolida bunday qirg‘inga yo‘l qo‘ymaslikka qodir shaxsni ko‘rdilar.

Bundan tashqari, Dashti Qipchoq qabilalari ko‘pdan buyon o‘troq hayot tarzida yashashni orzu qilib kelardilar. Bu orzuning ushalishi o‘zgalarning unumdar yerlarini bosib olish tufayligina ro‘yobga chiqishi mumkin edi. Qabilalar

rahnamlari Muhammad Shayboniyxonni o‘z orzularini ro‘yobga chiqarishga qodir deb hisoblardilar. Shu bois ham ular va ruhoniylar kuchli yollanma qo‘shinga ega bo‘lgan Muhammad Shayboniyxonni qo‘llab - quvvatlaydilar. Ular yerlari unumdar, hunarmandchiligi rivojlangan o‘lkalarning bosib olinishi o‘troq hayotga o‘tish imkonini berishini ham yaxshi bilganlar. Bu omillar Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishiga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrdagi ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi ham uning nufuzini yanada oshirdi.

Ayni paytda, Movarounnahr aholisi temuriyzodalarning toj - taxt uchun o‘zaro kurashlaridan charchagan ham edi. Shu tufayli Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va hatto aholining ma‘lum qismi ham Muhammad Shayboniyxon timsolida Movarounnahrdagi tinchlik o‘rnatishga qodir yagona shaxsni ko‘rganlar. Shu tufayli Muhammad Shayboniyxonni qo‘llab - quvvatlaganlar. Shu tariqa, Muhammad Shayboniyxonning Temuriylar davlati hududlarida ham o‘z hokimiyatini o‘rnatishi uchun barcha zarur shart - sharoit yetilgan edi. Amir Temur vafotidan keyin taxt uchun avj olgan kurash lar davlatning zaiflashishiga olib keldi. To‘g‘ri Shohruh, Ulug‘bek, Abusaid davrida davlatchilik ma‘lum darajada yuksaldi. Ulug‘bekning o‘limidan keyin Movarounnahrdagi, Shohruh o‘limidan keyin Xurosonda taxt uchun janglar kuchaydi. Bu esa Shayboniyxonga qulay vaziyatni yaratdi.

Muhammad Shayboniyxonning asosiy maqsadi Temuriylar sultanatiga butunlay barham berish edi. Bu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun u 1499 - yilda Movarounnahrni zabit etishga kirishdi. U bu o‘rinda temuriylarni sarosimaga solib qo‘ygan jang usuli – to‘lg‘amani qo‘lladi. 1500 - yilda Muhammad Shayboniyxon Samarqandni egalladi. Bu hodisa Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrobegi og‘aning xoinlar gapi bilan ish tutishi oqibatida sodir bo‘ldi. Xoinlar Zuhrobegi og‘ani Muhammad Shayboniyxonga maxfiy ravishda «Men ham O‘zbek urug‘idanman, agar siz meni nikohingizga olsangiz, o‘g‘lim bilan sizning hukmingizni tan olib, Samarqandni siz xon hazratlariga topshirurmiz» mazmunidagi xatni yuborishga ko‘ndiradilar. Ayni paytda, Zuhrobegi og‘a Shayboniyxon oldiga Termiz, Chag‘aniyon, Hisor va Badaxshon zabit etilgach, bu hududlarni o‘g‘li Sulton Ali Mirzoga berilishi shartini ham qo‘ygan edi. Muhammad Shayboniyxon o‘zini bu shartlarga rozidek qilib ko‘rsatdi. Samarqand taxti egallangach esa Sulton Ali Mirzo qatl etildi. Onasi Zuhrobegi og‘a esa boshqa kishiga nikohlاب berildi. Muhammad Shayboniyxon 1501 - yilda Samarqandni uzil - kesil egalladi. Katta qo‘shinga ega bo‘lgan Muhammad Shayboniyxon endi butun Movarounnahrni egallahsga kirishdi. 1503 - yilda Toshkent va Shohruhiya shaharlarini egalladi. Ularga Ulug‘bek Mirzoning Abulxayrxonga uzatilgan qizi

Robiya Sultonbeginning o‘g‘illari Ko‘chkunchi Sulton va Suyunchxo‘jalarni hokim etib tayinladi. 1504 - yilda esa Farg‘ona egallandi.

Shu tariqa butun Movarounnahrda shayboniylar sulolasiga hukmronligi o‘rnatildi. Samarqand shahri poytaxt etib belgilandi. Buxoro shahrini esa ukasi Mahmud Sultonga topshirdi. Shu tariqa, Muhammad Shayboniyxon Dashti Qipchoq, Xorazm, Movarounnahr va Xurosonning bir qismini o‘zi ichiga olgan o‘z davlatini tashkil etadi.

Xalqaro munosabatlardan tizimida geopolitik makon - Xuroson muammosi. XVI asrda Osiyoning bir - biriga tutash qismida uch siyosiy kuch kurash maydoniga chiqqan edi. Bular – Movarounnahrda shayboniylar, Eronda safaviylar va Hindistonda boburiylar edi. Xalqaro va o‘zaro munosabatlarda bu uch sulola manfaatlari to‘qnashib, raqobatchilik kuchayib bordi. Kelishmovchilik bir tomonidan sulolaviy kelishmovchilikka asoslansa, ikkinchi tomonidan hududiy asosda edi.

Ularning manfaatlari to‘qnashgan nuqta Xuroson edi. Chunki Xuroson ham harbiy - siyosiy, ham savdo - iqtisodiy jihatdan muhirn o‘rin tutar edi. Bundan tashqari, Xuroson – Movarounnahr, Eron va Hindiston yo‘nalishida o‘ziga xos darvoza vazifasini ham o‘tar edi. Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o‘rtasida keskin kurash ketgan. Ularning har ikkovi ham Xurosonni o‘z nazoratida ushslashga harakat qilgan. Albatta Hindni boshqarayotgan boburiylar ham o‘zlarini Xurosonning qonuniy merosxo‘ri deb bilishgan. Chunki, Bobur Hind yurishidan oldin uzoq yillar Qobulni boshqardi va uni katta o‘g‘liga meros qilib qoldirgan.

Bu masalada Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxonlar davrida shayboniylar ustunlik qilganlar. Keyinchalik safaviylarning qo‘li baland kelgan va oxir - oqibatda, ular Xurosonni Movarounnahrdan ajratib tashlashga muvaffaq boiganlar. Albatta, bu yirik sultanatlar o‘zaro hamkoriksiz yashashi mumkin emas edi. Shu bois XVI asrda shayboniylar bilan boburiylar o‘rtasida elchilik munosabatlari o‘rnatildi. Abdullaxon II boburiylar hukmdori Akbarshohga to‘rt marta elchi yuborgan.

1572 - yilda Abdullaxon Akbarshoh huzuriga o‘z elchilarini yuboradi. Maqsad o‘zaro munosabatlarni yaxshilash, kerak bo‘lsa harbiy ittifoq tuzish edi. 1577 - yilda Abdullaxon ikkinchi marta elchi yuboradi. Bunda boburiylar Erondan Qandahorni tortib olishni, Abdullaxon esa Badaxshonni bosib olishni rejorashtirgan edi. 1584 - yilda Abdullaxon badaxshonni bosib oladi. Abdullaxon Akbarshohga uchinchi marta elchi yuborib Badaxshonni bosib olish sababini tushuntirishga harakat qiladi. Aytishicha Badaxshonni Makkaga boradigan yo‘lini g‘ayridinlardan tozalash maqsadida amlga oshirilgani bayon etilgan.

1586 - yil 23 - avgustda Akbarshoh xam o‘z elchisini yuboradi. U Abdullaxonga Turkiyaga qarshi kurashayotgan Eronga yordam berishni taklif etadi. Afsuski Abdullaxon Eronga qarshi kurashda Turkiya bilan ittifoq tuzish niyatida edi. Elchilar 1589 - yilda vatanlariga qaytishadi. Bu paytda Abbas I Eronda vaziyatni mustahkamlab olgan edi. Ana shunday sharoitda Badaxshonda Abdullaxonga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Isyonda Akbarshohning qo‘li bor degan gumon paydo bo‘ldi. Badaxshon hukmdori Abdulmo‘min Akbarshohga maktub yo‘llab isyonchilarni qaytarishni, qizini nikohlab berishini, bitta viloyat tortiq kilishni talab etadi. Natijada munosabatlar chigallashadi. Abdullaxon elchi yuborib o‘g‘lining qilmishi uchun uzr so‘raydi.

Akbarshohning o‘g‘li Jahongirshoh (1605–1627) va Buxoro xoni Imomqulixon davrida ikkala davlat o‘rtasidagi elchilik munosabatlari davom etgan. Lekin Jahongirshohning o‘g‘li Shoh Jahon (1628–1658) davrida Hindiston – Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan. Bu Buxoro xoni Nodir Muhammadxon va uning o‘g‘li Abdulaziz o‘rtasida yuz bergan nizo bilan bog‘liq edi. Taxtdan ag‘darilgan Nodir Muhammad Balxga qochadi. U o‘g‘liga qarshi kurashish maqsadida Hindiston hukmdori Shoh Jahondan yordam so‘raydi. Shoh Jahon bu paytda qulay fursat kutib Balxni bosib olish niyatida yurar edi. Shoh Jahon darhol Balx ustiga «yordam» jo‘natadi. Biroq hind qo‘shinlarining Balxga yordamga emas, balki uni bosib olish uchun kelganligini tushunib yetgan Nodir Muhammadxon Eronga qochadi.

1645-yili Abdulazizzon Balxni qamal qiladi. Oxir - oqibat hind qo‘shinlari o‘z vatanlariga qaytib ketishga majbur bo‘ladilar. Avrangzeb Olamgir (1658–1707) bilan Abdulazizzon hamda Subhonqulixon o‘rtalarida elchilik munosabatlari davom etgan. Avrangzebdan keyin boburiylar sulolasini yana 150 yil hukmronlik qilgan bo‘lsa-da, bu sultanat tanazzul tomon yuz tutib bordi. Shunday bo‘lsada, Hindiston va Buxoro munosabatlari to‘xtab qolmagan. Savdo aloqalari ham to‘xtovsiz davom etgan.

Xonliklarning eng yaqin qo‘shnisi Afg‘oniston edi. Mustaqil Afg‘oniston davlati 1747 - yilda tashkil topgan. Yosh afg‘on davlati bilan Buxoro xonligi o‘rtasidagi munosabatlari do‘stona ruhda bo‘limgan. Bunga ikkala tomonning Amudaryoning janubiy qirg‘og‘idagi O‘zbeklar istiqomat qilib turgan hududlarni o‘z tasarruflarida saqlashga urinishlari sabab bo‘lgan cdi. Xususan, 1751-yili Afg‘oniston hukmdori Ahmadshoh (1747–1773) Amudaryoning janubida istiqomat qilib turgan O‘zbeklarning yerlarini bosib olish maqsadida qo‘shin yuboradi. Bu hududda joylashgan kichik - kichik O‘zbek bekliklari o‘zaro urushlar oqibatida zaiflashib qolgan edilar. Natijada, ular Afg‘onistonning vassaliga aylanib qolgandilar. Balx qal‘asini afg‘on garnizoni egallaydi. Balxni Ahmadshohning noibi boshqara boshlaydi.

1768 - yilda mahalliy O‘zbeklar afg‘onlarning jabr-zulmiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradilar. Qo‘zg‘olonchilarni Buxoro qollab-quvvatlaydi. Ana shunday vaziyatda Ahmadshohning o‘zi qo‘shin tortib kelib qo‘zg‘oloni bostiradi.

1789 - yili O‘zbeklar yana qo‘zg‘olon ko‘taradilar. Qo‘zg‘olonchilarga bu safar ham Buxoro amaliy yordam ko‘rsatadi. Afg‘oniston hukmdori Temurshoh (1773– 1793) 100 ming lashkar bilan Balxga qarab yuradi. Biroq Buxoroga qarshi yurish qilishga Temurshohning yuragi dov bermaydi va u Buxoro bilan sulh shartnomasi tuzishga majbur bo‘ladi. Shartnomaga ko‘ra Amudaryo har ikki davlat o‘rtasidagi chegara deb tan olinadi.

Buxoro va Afg‘oniston o‘rtasida savdo aloqalari uzluksiz davom etgan. Qobul shahri savdo aloqalarida alohida o‘rin tutgan. Qobul orqali Buxorodan Hindistonga, Buxoro orqali Afg‘onistonga Rossiya tovarlari, Hindistondan Buxoroga hind tovarlari ortilgan savdo karvonlari qatnab turgan.

O‘rta Osiyo xonliklaridan Qo‘qon xonligining Xitoy bilan munosabatlari ham do‘stona emas edi. Bir tomondan Sin imperiyasi 1755-1759-yillar mobaynida Sharqiy Turkistonni o‘ziga bo‘ysundirib, Qo‘qon xonligini kuchsizlantirishga urinardi. Ikkinci tomondan, Qo‘qon xonligi Sharqiy Turkistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatishga intilib, Sharqiy Turkiston sari o‘z chegarasini tobora kengaytirib borayotgan edi. Ayniqsa, XIX asrning 20-yillarida Qo‘qon – Xitoy munosabatlari yanada keskinlashdi. Bunga Qo‘qon xoni Muhammad Alixonning Sharqiy turkistonliklarning Jahongirxo‘ja boshchiligidida Sin imperiyasiga qarshi 1825 - yilda boshlangan milliy - ozodlik kurashiga aralashuvi sabab bo‘ldi.

Xitoy hukumati 1829 - yilda Qo‘qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi, o‘rta osiyolik savdogarlarning aksariyat qismini haydab, ularning mulkclarini musodara qildi. Bunga javoban Qo‘qon xoni Muhammad Ali sharqiy turkistonliklarning Xitoya qarshi ozodlik kurashi rahbari Jahongirxo‘ja va uning ukasi Yusufxo‘ja ixtiyoriga Haqquli boshchiligidida qo‘shin jo‘natadi. Natijada, Yusufxo‘ja Qashg‘arni egallaydi va Yorkentni egallah uchun harbiy harakatni davom ettiradi. Bu hol Xitoy hukumatini qattiq tashvishga solib qo‘yadi va Yusufxo‘jaga qarshi katta qo‘shin yuboradi. Qo‘zg‘olonchilarning safida mustahkam birlik yo‘qligi hamda Buxoro – Qo‘qon munosabatlari yomonlashuvi oqibatida Qo‘qon xonining Sharqiy Turkistonga yuborgan qo‘shinini chaqirib olishi tufayli Yusufxo‘ja mag‘lubiyatga uchraydi. Oqibatda, Yusufxo‘ja Sharqiy Turkistonni tashlab chiqadi.U bilan 70 ming uyg‘ur oilasi Farg‘ona vodiysiغا ko‘chib keladi. Qo‘qon xonligi o‘z chegaralarini tobora Sharqiy Turkiston tomon kengaytirish siyosatini davom ettirgan. Ayni paytda Sin imperiyasi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli Qo‘qon xonligiga qarshi ochiqdan ochiq urush harakatlari olib borishga qodir emas edi. Natijada, 1832-yilda Pekinda Xitoy - Qo‘qon

shartnomasi imzolangan. Unga ko‘ra, Qo‘qon Jahongirxo‘ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga o‘tkazmaslik majburiyatini olgan.

Markaziy Osiyoning jahon bozoridan uzilib qolishi va uning oqibatlari.

G‘arbiy Yevropaning ilg‘or mamlakatlarida sanoat ishlab chiqarishning yetakchi tarmog‘iga aylanib bordi. XVI asrning o‘rtalaridan boshlab to‘qimachilik, qog‘oz, shisha ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va qo‘l hunari texnikasiga asoslangan korxona–manufaktura (lotincha manus – qo‘l, faktura – tayyorlash)lar vujudga keldi. XVIII asrning ikkinchi yarmida asbob - uskunalarini harakatga keltiruvchi bug‘ mashinasi (motor) ixtiro qilindi. Natijada asosiy ishlarni mashinalar bajaruvchi fabrika - zavodlar vujudga keldi. Bug‘ mashinasi bilan harakatlanuvchi parovoz, paroxod, cho‘yan va po‘lat oluvchi domna pechlar yaratildi, temir yo‘llar qurildi. Yirik boy tabaqalarning tashqi savdodan, mustamlakalardan, manufakturadan orttirgan boyliklari sanoatni rivojlantirish uchun sarmoya sifatida qo‘yildi. Bu sanoatning rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. Eng muhimi xo‘jalik yuritish, harakatlanish uchun zarur bo‘lgan mashinalarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, og‘ir sanoat vujudga keldi.

Biroq bu jarayon jahon mamlakatlarida nihoyatda notekis bordi. Ko‘pgina mamlakatlar, jumladan, O‘zbek xonliklari ham bu jarayondan chetda qolib, taraqqiyotda orqada qolib bordi. Yurtboshimiz Islom Karimov xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: «Nega jahonga Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom al – Buxoriy, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergen bu millat XVII–XIX asrlarga kelib to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so‘nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Asrlar davomida bir butun bo‘lib kelgan mamlakatning, bir iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan aholining uchga bo‘linib ketishi, xonliklar o‘rtasida tinimsiz davom etgan urushlar mamlakatni qoloqlikka mahkum etdi. Har bir xonlik ichidagi hokimiyatni egallash uchun ichki kurash, o‘zaro nizo janjallar, boshboshdoqlik, Ig‘vo - fasodning avj olishi viloyat va tumanlari, qolaversa, butun mamlakatni xonavayron qilardi. Xonliklarning asrlar davomida o‘zgarmay kelayotgan davlat idora usuli taraqqiyotga g‘ov bo‘lib qolgan edi.

Xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, etnik nizolar urug‘ qabila jamoalarini bir joydan boshqa joylarga ko‘chishini keltirib chiqarardi. Yoki ular zo‘rlik bilan yashab turgan joylaridan ko‘chirilar edi. Bu jarayon etnik guruhbozlikni keltirib chiqarardi, aholini bir butun xalq bo‘lib jiplashishiga xalaqit berardi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi. Odamlarni, Turkistonni, xalqni birlashtirish g‘oyasi ostida uyushtira oladigan yo‘lboshchi, siyosiy kuch topilmadi.

Xonlar va saroy amaldorlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga xalaqit berayotgan eski ishlab chiqarish usulini himoya qilardi. Xonliklarning asosiy boyligi bo‘lgan yerga egalik qilishning, mulkchilikning eski usuli asrlar davomida o‘zgarmasdan kelardi. Yerning egasi xon edi, xonga alohida xizmat ko‘rsatgani uchun bir hovuch kishilarga yer hadya qilinardi. Yerni ijaraga olib ishlovchi dehqon yerning egasi emasdi. Shu boisdan dehqon yerni asrab - avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmasdi, manfaatdor emasdi. Dehqon yer egasi bo‘limgani sababli boshqa joylarga ketaverardi. Aholi og‘ir soliqlardan, g‘ayriqonuniy yig‘im va majburiyatlardan azob chekardi. Turmush darajasi past bo‘lib, aholi iste‘mol uchun eng zarur bo‘lgan tor doiradagi oddiy buyum va mahsulotlar bilan qanoatlanishga majbur edi. Ishlab chiqarish, asosan, iste‘molga yo‘naltirilgan bo‘lib, iqtisodiyotning o‘sishi uchun turtki bo‘lolmasdi.

Dehqonchilik nochor ahvolda edi. Yerga ishlov berish o‘sha - o‘sha bir juft ho‘kiz, so‘qa–omoch darajasida qolib ketgan edi. Sug‘orish ishlariga ahamiyat pasayib, sug‘oriladigan yer maydonlari qisqarib borardi. Xonliklarda sanoat ishlari rivojlantirilmadi. Rangli metallar, oltingugurt, marmar, toshko‘mir, neft kabi tabiiy boyliklarga mo‘l bo‘lgan konlar bo‘lsa-da, ularni izlab topish, tog‘ - kon ishlarini yo‘lga qo‘yishga e‘tiborsizlik qilindi. o‘lkada yirik daryolar bo‘lsa-da, baliqchilikni sanoat darajasiga ko‘tarish, kemasozlikni yo‘lga qo‘yishga e‘tibor berilmadi. Xon va aslzodalar boylikning asosi pul, oltin, kumush, qimmatbaho javohirlardan iborat, degan eski tasavvurlar ostida qolib ketdilar. Shu boisdan oltin, kumush, javohir va pullar ularning xazina to‘plash manbayi bo‘lib qolgan edi, iqtisodiyot rivoji uchun kapital (sarmoya) sifatida sarflanmadni, o‘lik mol sifatida saqlanardi.

Davlat xazinasiga tushgan daromad qo‘shin xarajatlarini zo‘ig‘a qoplardi. Buyuk ipak yo‘lining yopib qo‘yilishi natijasida tovar - pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Savdoda hamon mol ayirboshlash tarzi davom etardi. O‘rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgani ustiga, o‘zaro urushlar tufayli xonliklar o‘rtasida yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi. Dunyoviy fanlar keyingi o‘ringa tushirib qo‘yildi. Shayboniylar davrida so‘fizm davlat mafkurasi darajastga ko‘tarildi. Xon saroyida diniy ulamolardan iborat kengash tuziladigan bo‘ldi.

Qoloqlik oqibatlari: O‘zbek xonliklarining jahon taraqqiyotidan orqada qolishining oqibati yomon bo‘ldi. Iqtisodiy qoloqlik va harbiy nochorlik, ijtimoiy - siyosiy beqarorlik O‘rta Osiyoni o‘z tasarrufiga kiritib olishga intilayotgan davlatlarga qo‘l keldi. Taniqli O‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy o‘zining «O‘tgan kunlar» romanida o‘zaro urushlar girdobiga botib qolgan, vaqtini aysh - ishratda o‘tkazayotgan xonlar va amaldorlarning qilmishlari qanday oqibatlarga olib kelishini yaqqol tasvirlab beradi. Romanda Yusubbek hoji tilidan quyidagi alamli so‘zlar bayon qilinadi: «Maqsadlari juda ochiq... Bittasi mingboshi

bo‘lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o‘rniga o‘tirmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o‘ziga qaram qilmoqchi. Ittifoqning nima ekanligini, yolg‘iz o‘z manfaati, shaxsiyati yo‘lida bir - birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog‘idan yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holatda ketadigan, bir - birimizning tegimizga suv quyadigan bo‘lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar». Haqiqatan ham shunday bo‘ldi. Xonliklardagi o‘zaro nizo va urushlar, parokandalik, oxir - oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

2.6. «Katta o‘yin» kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati (1-bosqich) “Katta o‘yin” tushunchasi va kelib chiqish tarixi.

Qadim zamonlardan beri harbiy mojarolar odamlarni ikkiga bo‘lib yubordi. Ammo qonli to‘qnashuvlardan tashqari sivilizatsiya davlatlar, ijtimoiy jamoalar va shaxslar o‘rtasidagi hamkorlikning ko‘plab misollarini biladi.

Bunday kombinatsiya ko‘pincha o‘yin shaklida bo‘lib, o‘zga davlat tuzilmalari hududlarida, tabiiy boyliklari va aholisi ustidan hukmronlik qilishni rejalashtirgan xalqaro munosabatlar sub'ektlarining ikki, uch yoki undan ko‘proq tomonlar o‘rtasida raqobatlashishidi. Markaziy va Sharqiy Osiyodagi katta o‘yin fenomeni murakkab dixotomiyaning o‘ziga xos namunasi bo‘lib, uning asosiy ishtirokchilari XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida ikki imperiya – Britaniya va Rossiya edi.

Katta o‘yin - XIX-asrning sovuq urushining nomidir. Buyuk Britaniyaning Hindiston ustidan olib borgan siyosatining tarixiy ildizidir. Angliya shunchaki Rossianing unchalik katta kuchga ega emasligini bilgan holda unga Hindistonga da’vo qilishidan xavfsirar edi. Qadimgi katta o‘yin xuddi sovuq urush kabi, qariyb bir asr davomida misli ko‘rilmagan tashvish olib keldi. Mana shu katta o‘yin oqibatida Afg‘oniston atrofida geopolitik o‘q paydo bo‘ldi. Bu joy hozirgi kunda baxtsiz, xudo unutgan joy, zamonaviy dunyo geosiyosatining harakatlantiruvchi mexaniziga aylangan¹.

«Katta o‘yin» («Great game») konsepsiysi xalqaro munosabatlar tarixida ikki bosqich yoki ikki to‘lqindan iborat. Konsepsiya ob‘yekti Markaziy Osiyo mintaqasi, predmeti esa mazkur mintaqadagi siyosiy jarayonlar. Konsepsiya sub‘yektlari yetakchi xorijiy davlatlar hisoblanadi. Odatda —Katta o‘yin|| atamasi qayd etib o‘tilganidek Markaziy va Janubiy Osiyoda o‘z hukmronligini o‘rnatish uchun Buyuk Britaniya va Rossiya o‘rtasida olib borilgan qarama - qarshilikni tavsiflash uchun ishlatilgan.

¹ Леонтьев. М. Большая игра. – М.: ACT 2008. – С.9-10

«Buyuk o‘yin» konsepsiysi XIX asr II - yarmi va XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning Janubiy Osiyo orqali (janubdan shimal tomon) va Rossiyaning shimaldan Markaziy Osiyo mintaqasini bosib olish uchun intilishlari, olib borgan harbiy - diplomatik munosabatlari asnosida shakllangan. Xalqaro munosabatlar tarixida bu «Buyuk o‘yin» konsepsiyasining birinchi to‘lqini nomini olgan. Katta o‘yin sabab bo‘lgan hodisalar va jarayonlarni har tomonlama o‘rganish zarurati, bizning fikrimizcha, bir necha holatlar bilan belgilanadi. Avvalo, sovuq urushning tugashi rus tarix fanining uzoq vaqtdan beri eskirgan tashviqot targ‘iboti va "oq-qora" stereotiplarining tor doirasidan chiqib ketishini ramziy ma’noda ko‘rsatishidir. Bundan tashqari, XX asrning oxiri – XXI asrning boshlarida aniq bo‘lgan aralash etno-konfessional tarkibga ega sivilizatsiyalarning aloqa zonalari deb ataladigan geopolitik ta’sir vakuumi shartlarga yangicha nazar bilan qarash zarurligini yuzaga keltirdi.

Yevropa va Osiyoning aksariyat davlatlari arxivlariga mutaxassislarining kirishini osonlashtirish ularga qiyosiy va fanlararo yondashuvlar yordamida o‘zaro tekshiruvdan o‘tkazib, ilgari noma'lum manbalar korpusini ilmiy muomalaga kiritishga imkon berdi. Ma'lumki, nasroniy va muslimonlar o‘rtasidagi ziddiyatning boshlanishi arablarning Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Pireney yarim orolini bosib olgan davrlariga to‘g‘ri keladi. Ularning qurolli qarama-qarshiligi salibchilarning Muqaddas yer - Falastinga qilgan yurishlari paytida, shuningdek Rekonkistagacha davom etdi. Biroq, xristianlarning Sharqqa yurishi to‘xtatildi va hatto Usmonli imperiyasining qarshi hujumi orqaga tashlandi. 1453 yilda Konstantinopolning qo‘lga kiritilishi va 1529 yilda Venaning qamal qilinishi bu jarayonning ikkita eng yuqori nuqtasini bildiradi. Shunday qilib, nasroniy Yevropadasida jamiyatning barcha qatlamlari - dvoryanlar, ruhoniylar, shaharliklar va dehqonlar uchun - Islomni tan olgan xalqlarning bosqini xavfi ob'ektiv haqiqat sifatida qabul qilingan edi.

Angliya va Rossiyaning Yevroosiyo qit’asi ichkarisiga kirib borishi sabablari haqidagi savol to‘g‘ridan-to‘g‘ri g‘arbning mustamlakachilik ekspansiyasining genezisi haqidagi munozaralarga bog‘liq. Faktlar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon XIX asrning ikki yirik davlatining tabiiy chegaralarga bo‘lgan geostrategik intilishlariga asoslangan edi. Ushbu intilishlar an'anaviy ravishda davlatning obro‘sni bilan bog‘liq edi. Bu nafaqat davlatning ulug‘vorligiga yoki uning bo‘ysunuvchilari farovonligiga, balki monarxning nazorati ostidagi mulklarning kengligiga ham bog‘liq edi. Shu ma’noda Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalari ham bundan mustasno emas edi.

Buyuk Britaniyaning ketma-ket liberal va konservativ kabinetlari AQSh va Osiyo va Afrikada mulkka ega bo‘lish orqali yo‘qotishlarini qoplash uchun qo‘llaridan kelgan barcha ishni qildilar. XVIII asrning birinchi choragida Kaspiy

qirg‘og‘iga sayohat qilgan Pyotr I dan boshlab rus avtokratlar sharqiy va janubiy dengizlarga erishishni tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb e’lon qilishdi¹.

Buyuk Britaniya nafaqat Rossiyaning Qora dengiz havzasidan Turkiya va O‘rtal yer dengizi tomon ilgarilashini, balki Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘i bo‘ylab Turkistonning Buxorosigacha bo‘lgan sharqiy qirg‘oqlari bo‘ylab harakatini katta xavotir bilan kuzatgan. Ushbu mintaqalar uning hind imperiyasining shimoliy g‘arbiy chegaralariga yaqinlashishga tahdid nuqtai nazarida qabul qilingan.

Demak, inglizlar Hindiston yarim orolining shimoli-g‘arbiy qismida yashovchi jangovar qabilalarga qarshi olib borgan 1830 - 1840 yillardagi uzoq davom etgan mahalliy urushlarning sabablari aniq bo‘lib chiqadi. Katta o‘yinni boshlash uchun siyosiy va iqtisodiy zaruriyatlarni ko‘rib chiqib, ijtimoiy-madaniy va sivilizatsion motivlarni tahlil qilish kerak. 1850-yillarda Amerikaning yirik "Nyu-York Daily Tribune" gazetasining shtatdan tashqari muxbirini bo‘lgan K.Marks bu omillarga birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratganligi qiziq. Hindistondagi inglizlar hukmronligining kelajakdagi natijalarini bashorat qilgan holda, u 1853 yil 8-avgustda “Angliya Hindistonda ikki tomonlama vazifani bajarishi kerak: bir tomondan eski Osiyo jamiyatini yo‘q qilish, ikkinchidan, buzg‘unchi va konstruktiv g‘arb jamiyatining moddiy poydevorini Osiyoda o‘rnatish” degan fikrni keltirgan.

Sankt-Peterburg va London idolarining “o‘yinchilar” faoliyatini ma’muriy va moliyaviy usullardan foydalangan holda joylarda nazorat qilish bo‘yicha qadamlarini taqqoslaganda, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro tekshirish tizimini unutmaslik kerak. XIX-asrning oxiriga kelib ikkala imperiya, yig‘ilish paytida Rossiyada Bosh shtabning Harbiy-ilmiy qo‘mitasi va Buyuk Britaniyadagi Imperial mudofaa qo‘mitasi so‘zga chiqdi. Shu bilan birga, qiziquvchan ko‘zlardan yashiringan maxfiy razvedka faoliyati Britaniya va Rossiya matbuotida kuch elitalari uchun kerakli bo‘lgan tashqi siyosatga nisbatan munosabatni shakllantirishga qaratilgan shov-shuvli tashviqot kampaniyalari ortida sodir bo‘ldi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, bir necha bor ta’kidlab o‘tilganidek, Osiyo xalqlari vakillari ham katta o‘yinda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etib, topograflar, va mustamlaka ma’muriyatlarining xabarchilari sifatida qatnashdilar. Ular Angliya va Rossiya hukumatlari tomonidan asosan ushbu hududda, ayniqsa, yevropaliklarning tashqi qiyofasi ularning mol-mulki va hayoti uchun xavfli

¹ Davis L, Huttenback R. Mammon and the Pursuit of Empire. Cambridge: Cambridge University Press, 1986. P. 71.

bo‘lgan, borish qiyin bo‘lgan tog‘li va cho‘l hududlarida dastlabki tadqiqotlarni o‘tkazish uchun yollangan. Mamlakat ichidagi vaziyat o‘zgarishi va tashqi kuchlarning fitnalari to‘g‘risida ma'lumot to‘plash ham ularning vazifalariga kirgan.

Eron (forslar), Afg‘oniston va Markaziy Osiyo xonliklarida inglizlar va ruslar tomonidan olib borilgan bir qator tayyorgarlik diplomatik va siyosiy qadamlarni katta o‘yinning debochasi sifatida qaralishi mumkin. Boshqa tomonidan, London va Sankt-Peterburg yana bir maqsadni ko‘zladilar. XIX asr o‘rtalarida chuqur ijtimoiy va siyosiy inqiroz boshdan kechirayotgan Sin imperiyasining “merosi”ni bo‘linishga tayyorlash edi. Yevropalik kuzatuvchilarning aksariyati Sin davlatidagi London va Sankt-Peterburg o‘rtasidagi potentsial raqobatlashadigan ikkita mintaqani eslatib o‘tadilar: Sharqiy Turkiston va Manchuriya. Ulardan birinchisiga nisbatan boshqa nomlar ham ishlatilgan - Sharqiy Turkiston, Xitoyning Tartari, Ichki Tartari va hatto Ichki Osiyo. Keyinchalik Xitoy hokimiyati bu hududni Shinjon yoki “Yangi chegara” deb atadilar¹.

1850-yillarning boshlariga kelib, Yaqin Sharqdagi Rossiya va Angliya chegara postlari orasidagi masofa 1000 km ga qisqardi. Bu XVIII asrning boshlaridagi ko‘rsatkichdan besh baravar kam edi. Ikkala tomonning katta o‘yinga tayyorgarligi yakunlanmoqda edi. Yaqinda Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o‘rtasida sodir bo‘lgan qonli harbiy mojaro yangi kuchga kirgan davrni anglatadi, chunki ikki kuchning hukmron elitalari Yevroosiyoda mustamlaka mulklarini kengaytirish istagiga sho‘ng‘ib, sharqiy hukmdorlarni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy aloqalarning global tizimiga majburan jalg qila boshladilar.

XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari o‘rtasida Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari hududlari uchun raqobatchilik kuchayib, keskinlashib ketdi. Bu paytda jahonning yetakchi mustamlakachi davlatlari o‘z taraqqiyotining yuksak darajasiga erishdilar. Ularda sanoat to‘natarishi amalga oshirildi. Sanoat zamonaviy fan - texnika yutuqlari asosida qayta jihozlandi. Tovar ishlab chiqarish keskin o‘sib bordi. Kuchli dengiz flotlari tashkil etildi. Shunga mos ravishda armiya ham zamonaviy qurol-yarog‘ bilan ta‘minlandi. Ma‘lumki rus imperatorlari Rossiyani ayni damda janubdagisi iliq dengiz sohillariga olib chiqishga harakat qilishar edi. Bu esa ingliz manfaatlariga zid edi. Buyuk Britaniya nafaqat Markaziy Osiyoni qo‘ldan ketishidan havfsirar edi. Ayni damda ingliz Hindistoni ham havf ostida qolishi hech gap emas edi. Raqobatchilikning kuchayishiga quyidagilar sabab bo‘ldi:

¹ Сергеев Е.Ю. Большая игра, 1856-1907: мифы и реалии российско-британских отношений в Центральной и Восточной Азии. — М.: Товарищество научных изданий КМК, 2012. — С.27-28

- 1) Buyuk Britaniya va Rossiyaning O'rta Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari;
- 2) o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun Markaziy Osiyo bozorlarini egallash istagi;
- 3) Markaziy Osyoning boy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari.

Bu omillar dunyodagi ikki yirik mustamlakachi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib keldi. Yuqorida qayd etilgan ushbu Katta o'yinda dunyoning qolgan yetakchi davlatlari nega faol ishtirok etishmadi yoki bo'lmasa ular nega jum turishdi degan savol paydo bo'lishi mumkin. Gap shundaki bu paytda xonliklar faqatgina ingliz mustamlakalari va rus yerlariga tutash bo'lishgani uchun uchinchi ishtirokchining (Fransiya bo'ladimi, Germaniya bo'ladimi) kirib kelishining imkonini yo'q edi.

Hindistonda mustahkam o'rnashib olgan ingliz mustamlakachilari o'zlarini tuzgan Ost - Indiya (Sharqiy Hindiston) kompaniyasi vositachiligidagi Markaziy Osiyo tomon siljishga urindilar. Ularning maqsadi Rossiyaning O'zbek xonliklaridagi ta'sirini yo'qqa chiqarish hamda xonliklarni o'z ta'sir doirasiga olishdan iborat edi. Buyuk Britaniya hukmron doiralari xonliklarning ichki va tashqi ahvolini, ularni bog'lab turgan yo'llarni aniqlash, xonlar bilan aloqa o'rnatish maqsadida maxsus ekspeditsiyalar yubora boshladi.

Ekspeditsiyalar zimmasiga, ayni paytda, mahalliy nufuzli kuchlar bilan aloqa o'rnatish vazifasi ham yuklatilar edi. Ingliz ekspeditsiyalaridan biri U.Murkford boshchiligidagi uyushtirildi. Murkford ekspeditsiyasi 1825 - yil fevral oyida Buxoroga yetib keldi. Manbalarda qayd etilishicha, ekspeditsiya tarkibida 70 ta kishi bo'lib, ular olib kelgan 80 sandiq turli xil mollar Buxoro qushbegisiga ko'rsatilgan. Inglizlar Buxoro xonligini har tomonlama o'rganishga, mahalliy hukmdorlar orasida inglizlarga tarafdar guruhni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan edi. Murkford ekspeditsiyasidan xabar topgan Rossiya hukmron doiralari tashvishga tushdilar. Natijada Rossiya hukumati Buxoro amiri Haydarga inglizlarning Buxorodagi xatti-harakatidan norozilagini bildiradi. Rossiya hukmron doiralarida borgan sari Markaziy Osyoni bosib olish kayfiyatni kuchayib bordi. 1826 - yilda Rossiya hukumati polkovnik F. Berg boshchiligidagi Ustyurtga ekspeditsiya yuborib, Markaziy Osiyoga boradigan yo'llarni yanada aniqroq belgilab oldi. 1831-yilda inglizlar Markaziy Osiyoga ikkinchi marta elchi yubordilar. Elchilarga ingliz armiyasi leytenant Aleksandr Byorns boshchilik qildi. Ingliz ekspeditsiyasi vakillari odatda savdogarlar sifatida kirib kelishadi. A. Byorns 1832 - yilda Buxoroga kirib keldi. U o'zini arman savdogari deb tanitdi. Qo'lida hind va afg'on savdogarlarining tavsiyanomalari bo'lgan bu «tadbirkor» Buxoro xonligi qushbegisi bilan aloqa bog'lay oldi.

Buyuk Britaniya - Afg'oniston urushi. Ingizlar Hindistonda XVII asr boshlarida paydo bo'lishgan edi. Buyuk Britaniyaning Ost Indiya kampaniyasi Hindiston bilan olib boriladigan savdo munosabatlarini o'z qo'liga olgan edi. Bu savdo tashkiloti vaqt o'tishi bilan faqatgina savdo tashkiloti bo'lib qolmasdan, balki Buyuk Britaniyaning markaziy va janubiy osiyodagi olib boradigan siyosiy - diplomatik va harbiy harakatlarda muhim, hal qiluvchi instrument vazifasini ham o'tab boshladi. XVIII asr oxiriga kelib Hindistonni egallash deyarlik yakunlandi. Bu paytda ruslarning Kavkazda va O'rta Osiyodagi harakatlari kuchayib bordi. 1717 - yilda Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi rus ekaspeditsiyasi taqdiri fojeali tugagan bo'lsada, rus elchilarining kirib kelishlariga chek qo'ymadni. 1722-1723 yillarda rus qo'shining Eron qilgan harbiy yurishlarini ba'zi tadqiqotchilar Katta o'yin siyosatining boshlanishi deb ta'riflashadi. Negaki bu jangda fors qo'shinariga ingliz harbiy maslahatchilari yaqindan yordam berishadi.

1837 - yilda Afg'onistonga rus elchisi poruchik Vitkevich keladi. U afg'on amiri Do'st Muhammad qabulida bo'ladi. O'zaro muzokarolar natijasida Rossiya manfaatlariga xizmat qiladigan shartnoma imzolashga erishadi. Lekin Buyuk Britaniyaning talabi bilan Rossiya Vitkevichni Afg'onistondan chaqirib olishga majbur bo'ladi. O'rtada imzolangan shartnoma o'z kuchini yo'qotadi. Vitkevichdan bir yil oldin maxsus missiya bilan Afg'onistonga ingliz elchisi agent Byorns kelgan edi. Ingizlar 1838- yilda faol jangovar harbiy harakatlarni boshlab yuborishdi. Afg'onlarning uyushmaganligi, armiyaning harbiy - texnik qoloqligi inglizlarga qo'l keldi. Ingliz qo'shini tezda mamlakat ichkarisiga chuqur kirib bordi. Mamlakat poytaxti bosib olindi. Rossiyaparast amir Do'st Muhammad taxtdan ag'darib tashlandi. Afg'on taxtiga inglizlar o'z odamini qo'yishdi. Ingliz okkupatsiyasi uch yil davom etdi. Lekin 1841- yilda mamlakatda yana taxt to'ntarish amalga oshirildi. Ingizlar mamlakatdan haydab chiqarildi. Agent Byorns o'ldirildi. Bir yil o'tgach Buxoroda amir Nasrullo tomonidan ingliz agenti Konolli o'ldirildi. Bu ingliz elchiligining yakunidan darak berardi.

O'zbek xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlari. Markaziy Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtasidagi munosabatlar, savdo aloqalari tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Volgabo'yi orqali Rus savdogarlarini ham, Markaziy Osiyo savdogarlarini ham ikki mintaqaga o'rtasida savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaganlar. XVI asrda jahondagi yirik davlatlar tomonidan dunyonni bo'lib olish boshlangan davrda Rossiya Qozon, Astraxan, Sibir xonliklarini zabit etadi. Natijada Rossiya va O'zbek xonliklari bir - biriga bevosita qo'shni bo'lib qoladi. Bu holat ularning o'zaro munosabatlarini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratdi. Markaziy Osioning savdo - hunarmandchilik doiralari o'z mahsulotlarini, ayniqsa, ipak, paxtadan to'qilgan matolarni talab qilayotgan Rossiya bilan savdo - tijorat munosabatlarini rivojlantirishdan g'oyat manfaatdor edi. Rossiyaning

movut, temir, mis, mo‘yna, charm va boshqa mollari o‘rta Osiyoda xaridorgir edi. Savdo - sotiq ishlari uchun qulay shart - sharoit yaratishda O‘zbek xonliklari va Rossiya o‘rtasidagi elchilik munosabatlari muhim o‘rin tutardi.

Rossiya va xonliklar o‘rtasida XVIII asrda olib borilgan elchilik munosabatlari ham muhim ahamiyat kasb etdi. 1619 - yilda Imomqulixonning elchisi Odambiy Moskvaga boradi va podsho Mixail Romanov qabulida bo‘ladi. Podsho Odambiy bilan birgalikda Buxoroga Ivan Xoxlov boshchiligidagi elchilarini yuboradi. I. Xoxlovnin Imomqulixon qabul qiladi, rus podshosi iltimosiga binoan o‘z saroyidagi 23 nafar rus asirlarini ozod qiladi. I. Xoxlov 1620–1622 - yillarda Buxoro xonligining ichki va tashqi siyosati haqida qimmatli ma‘lumotlar to‘playdi. U qimmatli sovg‘alar bilan Moskvaga kuzatiladi. Yozma manbalarga ko‘ra, XVI–XVII asrlarda Buxoro va Xiva xonliklariga Rossiyadan 12 marta elchilar kelishgan. 1583–1600 - yillarda Moskvada 5 marta Buxoro elchilari, 2 marta Xiva elchilari bo‘lishgan. Bu misollar o‘rta Osiyo va Rossiya o‘rtasida savdo - diplomatik aloqalarning ancha faollashganligidan guvohlik beradi.

XVIII asrdan boshlab Rossiya imperiyasining O‘zbek xonliklari bilan bo‘lgan munosabatlarida tazyiq o‘tkazishi ustunlik qila boshladi. Bu Rossiya imperiyasining siyosatida Markaziy Osiyo xonliklarini savdo - sotiqda kamsitish, ularning tabiiy boyliklariga ko‘z olaytirish, strategik maqsadlarni ro‘yobga chiqarish kayfiyatining kuchayganligida yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Pyotr I Buxoro va Xiva xonliklarini siyosiy jihatdan Rossiyaga teng davlatlar emas deb hisoblab, ularga tazyiq o‘tkaza boshladi. Bunga xonliklardagi ichki siyosiy ahvol ham qulay sharoit yaratib bergen edi. Masalan, Xiva xoni Shohniyoz 1700 - yilda Pyotr I huzuriga yashirinchaligi elchi yuborib, Xivani Rossiya tobelligiga qabul qilishni so‘ragan. 1709 - yili toj - u taxt vorisi Muhammad ham shunday qilgan edi. Pyotr I Xiva xoniga jo‘natgan yorlig‘ida shunday gaplar yozilgan edi: «Shohona muruvvat ko‘rsatib, xonning qo‘l ostidagi jamiki narsalari bilan birga, abadiy tobelligimizga olamiz». Biroq bu niyat u davrda amalga oshmay qoldi. Xivada boshlanib ketgan ichki urushlar va chor Rossiyasining «Shimoliy urush» bilan bandligi bunga sabab bo‘ldi. 1713 - yili Astraxanga kelgan Xiva elchisi Xoja Nafas rus ma‘murlariga, Sankt - Peterburgga borgach, podsho Pyotr I ga Amudaryo sohillaridagi qumlar oltinga boyligini, sohilda istiqomat qiluvchi aholi ko‘p miqdorda oltin yuvib olayotganini aytadi. Ana shu ma‘lumotlar ta‘sirida Pyotr I O‘zbek xonliklariga kirib borish maxfiy rejasini tuzadi. U ikki harbiy ekspeditsiya tashkil etadi. Biriga Aleksandr Bekovich - Cherkasskiyni, ikkinchisiga kapitan Ivan Buxgolsni rahbar etib tayinlaydi.

Bekovich - Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi tarkibida katta harbiy qo‘shin bor edi. Ular 1717 - yilda Xiva xonligi hududlariga kirib keladi va harbiy to‘qnashuvlar bo‘ladi. Xiva xoni Sherg‘ozixon hiyla ishlatib Bekovich -

Cherkasskiyni qabul qiladi va uning qo'shinlarini qirib tashlaydi. Pyotr I uyuşhtirgan ekspeditsiyaning halokati Xiva – Rossiya munosabatlarini keskinlashtirib yubordi. Buxgols «ekspeditsiyasiga» kelsak, uning qo'shini 1715 - yili Toboldan Irtish bo'ylab Yorkentga yo'l oladi. Bu guruh Yamishchev ko'lida bo'lib, u yerda istehkom quradi. Biroq ular qalmoqlar hujumiga uchrab, orqaga chekinishga majbur bo'ladilar.

1717 - yili Buxoro xoni Peterburgga o'z elchisini yuboradi. Elchi Qulibek Abulfayzxonning Pyotr I ga shvedlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan yozilgan qutlov maktubini topshiradi. Abulfayzxon o'z maktubida ayni paytda Buxoroga Rossiya elchisi yuborilishini so'ragan edi. Bunga javoban Rossiya hukumati 1721 - yili Florio Benevenini elchi qilib jo'natadi. Rossiya elchisiga Sharq mamlakatlariga olib boradigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish; rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash; Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish; xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish; qayerda qancha oltin borligini aniqlash va ularni xaritaga tushirish; xonlikdagi qal'a va qo'shinlari ahvolini o'rganish hamda xonlikning Eron va Xiva bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish vazifalari yuklatilgan edi. F. Beneveni Buxoroga yetib keladi va Abulfayzxon qabulida bo'ladi. F. Beneveni Buxoroda 3,5 yil turdi va o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar toplashga muvaffaq bo'ladi.

XVIII asrning birinchi choragida Kichik, o'rta, Katta juzga bo'lingan qozoq sultonlari o'rtasida o'zaro kurash kuchaydi. Natijada ular nochor ahvolga tushib, tashqaridan yordam so'rashga majbur bo'ldilar. 1730 - yilda Kichik juz sultoni Abulxayr Rossiyaga elchi jo'natib, Rossiya tobeligiga o'tish istagini bildiradi. 1732 - yilda Kichik juz, 1739 - 1740 - yillarda Semekexon boshchiligidagi O'rtajuz, 1747 - yilda Katta juz ham Rossiya tobeligiga o'tadi. Natijada Rossiya hukumati uchun o'rta Osiyoni o'z ta'siriga bo'ysundirish yo'lida qulay imkoniyat yuzaga keladi. 1734 - yili senat kotibi Kirilov boshchiligidagi harbiy guruh tayinlanadi. U «Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarish», «Buxoro va undan Hindistonga» boradigan yo'lni ochishi, oltin konlarini izlashni davom ettirishi lozim edi. 1735 - yilda Kirilov guruhi Or daryosi bo'yida Or qal'asini qurdi (keyinchalik bu qal'a atrofida Orenburg shahri vujudga keladi), Yoyiq va Irtish sohillari (Sibir)da istehkomlar barpo etdi. Xonliklar savdogarlari Rossiya bilan Orenburgda savdo - sotiq qiladigan bo'lishdi.

XIX asr oxiriga kelib jahonning yetakchi lider mustamlakachi davlatlari dunyoni bosib olishni yakunlashdi. Asosiy yirik mustamlakalar Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya qo'lida to'plandi. Bu kurashga masalan Germaniya kech qo'shildi. Natijada dunyoning bunday taqsimlanishidan norozi davlatlar paydo bo'ldi, ularning manfaatlari turli joylarda to'qnash kela boshladi. Natijada 1882 -

yilda Germaniya imperiyasi, Avstro - Vengriya imperiyasi, Usmoniylar imperiyasi ishtirokida Uchlar Ittifoqi tuzilgan edi. Bu ittifoq birinyai galda Buyuk Britaniya va Rossiya qarshi qaratilgan edi. Markaziy Osiyo xonliklarining Rossiyaga qarshi turishda Buyuk Britaniyaga suyanishi mumkinligi ehtimoli ham o‘zini oqlamadi. Bunga Rossiya – Buyuk Britaniya munosabatlarida o‘zgarish yuz berganligi sabab bo‘lgan edi. Afg‘onistonga qarshi urushda mag‘iubiyatga uchragan Buyuk Britaniya Rossiya bilan kelishishga qaror qiladi. Bu kelishuvga binoan Rossiya Markaziy Osiyo bilan cheklanadi, Hindistonga chiqish niyatidan voz kechadi. Buyuk Britaniya esa Rossianing Markaziy Osiyoda olib borgan siyosatiga qarshilik qilmaydigan bo‘ladi. Afg‘oniston esa Buyuk Britaniya va Rossianing Osiyodagi mustamlakalari o‘rtasida ularni ajratib turuvchi hudud sifatida e‘tirof etiladi. Markaziy Osiyo xonliklari endilikda yakkalanib qolib, ularni faqat o‘zaro ittifoqlarigina saqlab qolishi mumkin edi. Afsuski, ularning o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyat shu darajada kuchli ediki, hatto tashqi hujum xavfi ham ularni birlashtira olmadi. Oqibati yomon bo‘ldi.

Nazorat uchun savollar

1. Geosiyyosatning klassik rivojlanish davri qachon va qanday nazariy asarlar bilan boshlangan?
2. Nega aynan 80-yillar davri. XIX asr. - 40-lar. XX asr geosiyyosatning klassik davri deb nomlanganmi?
3. Qaysi o‘zgarishlar klassik geosiyyosat davri nihoyasiga yetdi?
4. Germaniya geosiyyosat matabining asosiy vakillarini aytинг.
5. Klassik rivojlanish davrida qanday yo‘nalishlar ustunlik qildi?
6. Germaniya geosiyyosatining xarakterli xususiyatlarini sanab bering.
7. Klassik davr italiyalik geosiyyosat matabiga nimalar xosdir?
8. Buyuk Britaniya va Amerika geosiyyosat maktablari yuqoridagilardan nimasi bilan farq qildi?
9. Britaniya matabining asosiy yo‘nalishlari qanday?
10. Amerika geosiyyosati matabi va inglizlarning farqlari nimada?
11. Fransuz geosiyyosati matabi qanday siyosiy va geografik sharoitlarda rivojlandi?
12. Klassik davr rus geosiyyosati matabining asosiy yo‘nalishlarini aytib bering.
13. Rus geosiyyosiy matabining vakillari va oqimlarini aytib bering?
14. Yangi davr geosiyyosiy jarayonlariga nimalar kiradi?
15. Amir Temurning Yevroosiy va Markaziy Osiyo geosiyyosiy voqeligiga qanday ta’siri bor?
16. Katta o‘yin qanday davrlarga bo‘linadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и его - геостратегические императивы. - М.: Логос, 1998. – С.13.
2. Баттлер А. Контуры мира в первой половине XXI века и чуть далее // Мировая экономика и международные отношения. – 2002. - № 1.–С.7-8.
3. Желтов В.В., Желтов М.В. Геополитика: история и теория: Учебное пособие. М.: Вузовский учебник, 2009.С-259
4. Жалилов А.Т. Геосиёсат. Тошкент. Akademiya. 2020 й. 34 б.
5. Дугин А. Основы евразийства. - с 82-84, 98-100
6. Гаджиев К.С. Введение в геополитику. Учебник. – М.: Издательская корпорация «Логос», 2007. – С.5.
7. Гаджиев, К.С. Геополитика: учебник для академического бакалавриата -М. : Издательство Юрайт,2014. — 466 с
8. Зюганов Г. На рубеже тысячелетий. – М.: 2002. – С.374-377.
9. Маринченко А.В. Геополитика: Учеб. пособие. — М: ИНФРА-М, 2010. —С.5.
- 10.Теория политики: Учебное пособие / Под ред. Б.А. Исаева. — СПб.: Питер, 2009. — С.440.
- 11.Колосов В. А., Мироненко Н. С. Геополитика и политическая география: Учебник для вузов. М., Логос, 2006. – С.5.
- 12.Леонтьев. М. Большая игра. – М.: ACT 2008. – С.319
- 13.Сафоев С. Марказий осиёдаги геосиёсат. Тошкент. Publication was implemented under the UNESCO Participation Programme Request- 2005,11-бет.
- 14.Сергеев Е.Ю. Большая игра, 1856-1907: мифы и реалии российско- британских отношений в Центральной и Восточной Азии. — М.: Товарищество научных изданий КМК, 2012. - 454 с., 8 вкл.
- 15.Мэхэн А.Т. Влияние морской силы на историю: 1660-1783. М., 1941; Геополитика. Антология. М., 2006, с.221-243.
- 16.Исаев Б. А. Геополитика: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. — 62 с
- 17.Halford Mackinder "Geographical Pivot of History" in "Geographical Journal", 1904. Русский перевод в ж-ле
- 18.Дугин А. Основы геополитики. «Арктогея» Москва.1997. Часть первая. с.26
- 19.<http://casp-geo.ru/klassicheskaya-geopolitika/>
- 20.Spykman N. America's Strategy in World Politics. N. Y., 1942. P. 41
- 21.America's Strategy in World Politics: The United States and the Balance of Power. N. Y. :Harcourt, Brace and Company, 1942.

- 22.<https://nicbar.ru/politology/study/kurs-geopolitika/199-tema-5-russkaya-geopoliticheskaya-shkola>
- 23.<https://nicbar.ru/politology/study/kurs-geopolitika/199-tema-5-russkaya-geopoliticheskaya-shkola>
- 24.Бобоёров Ф. Илк ўрта аср манбаларида Туркистон атамаси. Интернет ресурс <https://shosh.uz/ilk-orta-asr-manbalarida-turkiston-atamasi> (мурожат санаси 04.02.2021)
- 25.Humboldt, A. de. Asie centrale. Recherches sur les chaines de montagnes et la climatologie compare. - Paris, 1843.
- 26.History of civilizations of Central Asia. - UNESCO Publishing, Paris, 1996.
- 27.Davis L, Huttenback R. Mammon and the Pursuit of Empire. Cambridge: Cambridge University Press, 1986. P. 71.

III-bob. Geosiyosiy bilimlar rivojida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining nazariy-metodologik ahamiyati

- 3.1. Ikki qutbli dunyoning barham topishi, dunyoning yangi geosiyosiy xaritasida Markaziy Osiyo: strategik muvozanat, yangi ming yillik muammolari va yondashuvlar
- 3.2. Insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar
- 3.3. Barqarorlik shartlari
- 3.4. Taraqqiyot kafolatlari

Tayanch tushunchalar: insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar, terrorizm, ekologiya, ekstremizm, fundamentalism, etnik nizolar, barqarorlik, beqarorlik, Markaziy Osiyo, ichki va tashqi xavf, xalqaro yushgan jinoyatchilik.

3.1. Ikki qutbli dunyoning barham topishi, dunyoning yangi geosiyosiy xaritasida Markaziy Osiyo: strategik muvozanat, yangi ming yillik muammolari va yondashuvlar

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgandan so’ng oradan o’tgan uzoq davr mobaynida ular integratsiyasi deyarli rasmiyatchilikdan iborat bo’lib, yagona bozor, bojxona ittifoqi va yagona valyutaning shakllanish jarayoni esa deklarativ bo’lib qolayotgan edi. Mintaqada yetakchilik uchun raqobatning kuchayib borgani milliy identitetni shakllantirish maqsadida umumiylar tarixni o’z millatini ustun qo’ygan holda talqin qilish, mamlakatlar islohotlar jarayonini sinxronlashtirish o’rniga turli islohot modellarini tanlashi ularni bir-biridan tobora uzoqlashtira boshladi va mintaqaviy hamkorlikni kun tartibidan chetga surib qo’ydi. Qayd etish joizki, integratsiya jarayoni “Turkiston – umumiy uyimiz” shiori ostida amalga oshirila boshlagan edi. Bu mintaqada tashkil topgan chegaralardan emas, aksincha, XX asr boshlaridagi hali milliy milliy-hududiy chegaralar tortilmasidan burungi davrdan kelib chiqib qilingan ish edi

Uchinchi ming yillikning o‘zida, SSSRning qulashi bilan, jahon va mintaqaviy kuchlarga qiziqish va manfaatlarini ilgari surish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar ochildi. Markaziy Osiyo uchun kurash global xarakterga ega bo’ldi. Jahon iqtisodiy va geosiyosiy aloqalariga yanada yaqinlashuvi bilan bog‘liq rivojlanishning yangi bosqichi boshlandi. Buyuk davlatlar – Rossiya, AQSh va Xitoy Markaziy Osiyoda strategik jihatdan to‘qnash kelishgan. Rossiya tarixan Yevroosiyo kengligining tabiiy qismi bo’lib, mintaqaning barcha ishlarida faol ishtirok etish va ishtirok etishning barcha oqibatlari bilan ajralib turadi. Afsuski, 90-yillarning boshida Rossiya o‘zining Markaziy Osiyodagi geosiyosiy

makonini ozod qildi, garchi uning sheriklari ustidan ko‘plab nufuzga ega bo‘lsa-da, bu erda Rossiyaning o‘rnini boshqa hech bir kuch jalb qila olmaydi..

Integratsiya bilan bog‘liq voqealarning rivojida mintaqaga tashqi aktorlar – o‘yinchilarning e’tibori oshishi rolъ o’ynadi. Masalan, Rossiya mintaqaga yaqin xorij postsovet makonining bir bo’lagi deb qaragan va bu yerda o‘z ta’sirini tiklashga urinayotgan edi. AQSh uzoq yillar mobaynida Afg’onistonni mintaqaning bir qismi deb hisoblovchi “Katta Markaziy Osiyo” kontseptsiyasini va “Janubiy va Markaziy Osiyo” kontseptsiyasini ilgari surib keldi. Xitoy esa ikki tomonlama munosabatlar o‘rnatishni afzal bildi, mintaqaviy yondashuvni ishlab chiqishga unchalik qiziqish bildirmadi. Markaziy Osiyodagi beshta davlatni birlashtiruvchi mintaqaviy tuzilma yo‘qligi sabab ushbu jug’rofiy makonda turli integratsiya va muloqot platmorfalarining turli-tuman mozaikasi shakllandi. “Insoniyat, mamlakatlar va xalqlar hayotida XX asr poyonida muhim o‘zgarishlar sodir etildi. Uzoq davom etgan ikki qarama - qarshi qutblarning siyosiy - mafkuraviy, harbiy - texnik sohadagi kurashiga chek qo‘yildi. Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So‘nggi vaqtarda jahonda yuz bergen, dunyoning jo‘g‘rofiy - siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilagan o‘zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to‘g‘ri baho berish, hamda to‘g‘ri xulosalar qilish juda muhim”¹.

Ikkita g‘oviy tizimning qarama - qarshiligi tugagach dunyoning qator mintaqalarida parokandalik boshlanib, olovli nuqtalar ham paydo bo‘ldi. Bunday sharoitda har bir davlat o‘zining geografik joylashgan o‘rni, geogstrategik mavqeい, xalqining milliy turmush tarzi, ijtimoiy - iqtisodiy vaziyati, tashqi siyosiy, harbiy omillarni hisobga olib o‘z xalqining azaliy orzu - umidlariga xizmat etadigan taraqqiyot dasturini yaratishi, uni izchil yo‘lga qo‘yishi muhim ahamiyat kasb etardi. Bu bilan bog‘liq ustuvor vazifalar, yo‘nalishlar, o‘z yo‘limizning shart - sharoitlari va zaminlari I.A.Karimovning O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li asarida chuqur bayon etilgan.

Mustaqil bo‘lgan har bir davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini izlaydi. Jahon va o‘zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o‘z taraqqiyot yo‘limizni tanlab olish respublikaning qat‘iy pozitsiyasi1 ekanligi ko‘rsatib o‘tildi. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy sohadagi vazifalar belgilab olindi. O‘zbekiston tashqi siyosatining qoidalari belgilab berildi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning besh tamoyili I.Karimovning «O‘zbekiston - bozorga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» (1993 - yil), O‘zbekiston - iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» asarlarida keng yoritildi. —O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавасизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.—Т.: Ўзбекистон, 1997.Б.3.

asariň da esa yangi ming arafasida insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolarni ilgari surilishi, tahlil etilishi, ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni bartaraf etish borasidagi vazifalarning yoritilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda ilgari surilayotgan masalalarngi mantiqiy ravishda uchta qismga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Ular, hozirgi til bilan aytganda, sotsialistik o‘tmishga ega bo‘lgan, o‘z siyosiy mustaqilligini tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo‘liga qadam qo‘ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o‘z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Tenglar orasida teng bo‘lishga, jahon maydonining tarkibiy qismiga aylanishga harakat qilmoqda. Bu davlatlar oldida muvaffaqiyatsiz, chippakka chiqqan tarixiy tajribaning fojiali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish vazifasi turibdi. Ular zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan, odamlar munosib turmush kechirishini ta‘minlay oladigan, insonning huquq va erkinliklarini himoya qila oladigan chinakam demokratik jamiyat qurishdek murakkab vazifani hal etishi zarur. O‘zbekiston ham ana shunday davlatlar jumlasiga kiradi. Asarda yangi asr bo‘sag‘asidagi vujudga kelgan ijtimoiy - siyosiy, geosiyosiy vaziyat chuqr tahlil etilgan xolda muhim metodologik ahamiyat kasb etadigan quyidagi muammolar ilgari suriladi:

XXI asr O‘zbekiston aholisi uchun qanday keladi? Kishilar turmushi kechagidan qanchalik yaxshiroq bo‘ladi? O‘zimiz uchun tanlab olgan islohotlar va yangilanish yo‘li o‘ta murakkab yo‘l ekanligini anglayapmizmi? Bu yo‘lda qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilyapmizmi?

Eng avvalo, odamlarning mana shu boy zaminda munosib hayot kechirishlarini ta‘minlashga qaratilgan maqsad va vazifalarni qay darajada ro‘yobga chiqara olamiz? Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo‘lida tahdid bo‘lib turgan muammolarni anglab yetyapmizmi? Xavfsizligimizga tahdid bo‘lib turgan muammolarga nimani qarshi qo‘ya olamiz? Jamiyatimiz to‘xtovsiz va barqaror rivojlanishiga, biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo‘g‘rofiy - siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo‘la oladi? Mamlakatimiz yangi ming yillikda mustahkam, og‘ishmay va barqaror rivojlanishni kafolatlaydigan qanday imkoniyatlarga ega? Jahonning barcha mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli, har tomonlama keng hamkorlik qilish uchun nimalarni taklif eta olamiz?

To‘g‘ri yangi mingyillik arafasida totalitar tuzum yemirilganidan keyin dunyoning qutblarga bo‘linishi barham topdi. Lekin shu tufayli dunyo ko‘pchilik kutganidek xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo‘lib qolgani yo‘q. Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasida vujudga kelayotgan

tashqi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish va eng avvalo: - bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtida demokratiya asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish.

Bunga misol tariqasida MDH hududida joylashgan davlatlardan Qirg'iziston, Gruziya, Ukraina, Modova kabi davlatlarni aytish mumkin. Xalqaro maydonda esa Liviya, Misr, Bolqon davlatlarini misol qilib keltirish mumkin;

- milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim elatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi va shu bilan bog'liq masalalar. Bu jarayon Turkiya, Iroq, Suriya, Ozarbayjon, Kosovo, Sudan kabi mamlakatlar hayotida sodir etildi;

- etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi. Buning ba'zi jihatlarini Kirg'iziston, Tog'li Qorabog', Sudan, Kosovo o'lkalarida kuzatish mumkin. Sobiq ittifoq davrida Farg'onada shu negizda janjal chiqarishga urinildi. I.Karimovning O'zbekiston hukumati tepasiga kelishi bilan bu masalani xal etishga jiddiy kirishildi. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik saqlandi;

- qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi. Bunday tusdagi kuchlar oldiniga Afg'oniston hududida qonli janglarni keltirib chiqarishdi. Uzoq payt Tojikistonda fuqarolar urushini sodir etishdi. Liviya va Suriyada barqarorlik buzildi. Million - million insonlar qochoqlarga aylanishdi;

- dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi;

- mamlakatlar, xalqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi - bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligi va avaylab munosabatda bo'lishni talab qilayotganligidan dalolat beradi.

Tahlillar asosida bizni qurshab turgan olam g'oyat murakkab va muammoli bo'lib keldi, shunday bo'lib qolmoqda va yaqin istiqbolda ham shunday bo'lib qolishi asoslاب beriladi. Hozirgi sharoitda, umumiylar xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa hozirgi kunda davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta'minlash uchun yangicha yondashuvlarni izlab topishni, yangi mingyillikda xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni tobora qattiq talab qilmoqda.

Suveren davlatning har bir rahbari, har bir yetakchisi oddiy kishilar ishonch bildirib uning zimmasiga yuklagan juda katta burch va mas'uliyatni teran anglab, o'y - xayolini hamisha tinchlik, osoyishtalikni saqlash, avaylash va

mustahkamlashga qaratmog‘i kerak. Ushbu murakkab, voqealarga boy yillarda poydevorini qo‘yishga muvaffaq bo‘lingan yangi uyni qurish va obod qilish uchun o‘rnimizga keladigan avlod oldidagi mas‘uliyatimizni bir daqiqa bo‘lsin, unutishga haqqimiz yo‘q.

Asarda o‘tgan yillarning mantiqi asosida hozirgi kunda uchta asosiy savolga murojaat qilinadi: xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim? Barqarorlikni qanday ta‘minlash darkor? Taraqqiyot yo‘lidan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin? Albatta bu savollarga javob izlanshanida qator siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy, diniy, mafkuraviy, tabiiy, geografik omillar bирgalikda olib tahlil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa tariqasida quyidagi fikrlarni ilgari surish mumkin: Birinchidan, Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning —O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarida esa yangi ming arafasida insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolarni ilgari surilishi, tahlil etilishi, ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni bartaraf etish borasidagi vazifalarning yoritilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Klassik geosiyosatning vakillari asarlarida esa muayyan mintaqaning manfaatlari oldinga o‘ringa surilgan.

Ikkinchidan, biz yashayotgan mintaqaning geostrategik, geosiyosiy manfaatlari nuqtai nazaridan har bir masalaning yechimiga e‘tibor qaratiladi.

Uchinchidan, tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik va ishonch olg‘a harakatlantirishiga alohida urg‘u berilgan. Va bu hamkorlikni ta‘minlashdagi vazifalar, uning istiqbollari keng yoritilgan.

3.2. Insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida mavjud tahdidlar to‘g’risida quyidagilarni qayd etdi: “Birinchidan. O‘zbekiston xavfsizlikning yaxlitligi haqidagi asosiy tamoyillardan birini to‘la qo’llab-quvvatlaydi. Xavfsizlik – uzliksiz holatdir, hadsiz-hududsizdir.

Ikkinchidan. “Sovuq urush” barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda.

Uchinchidan. O‘zbekiston o‘zining jo‘g’rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo‘lga qo‘yilmagan mintaqada joylashgan. Bu ham tahdid tug‘diruvchi sababdir. O‘zbekiston amalda Fors ko‘rfazi, Kaspiy dengizi havzasasi va Tarim havzasining neft va gazga boy konlari joylashgan yarim

halqaning strategik markazidir. Ya’ni, bu yarim halqa atrofida butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Yevroosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o’ynaydigan energiya zaxiralari mavjud.

To’rtinchidan. Mintaqaviy nizolar ko’pincha terrorizm va zo’ravonlik, narkobiznes va qurol-yaroq bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy suratda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda.

Beshinchidan. Shunga ishonchimiz komilki, xalqaro munosabatlar amaliyotida har bir mustaqil mamlakatning o’z milliy manfaatlariiga muvofiq, o’z mustaqilligi va barqarorligini ta’minalash maqsadi bo’lishi lozim. U yoki bu xalqaro tizimlarda va kollektiv xavfsizlik shartnomalaridaqay darajada qatnashishini ularning o’zi belgilash huquqi nazarda tutilishi zarur.

Oltinchidan. Bizning nazarimizda, ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e’tiborni talab qiladi¹.

Mintaqaviy mojarolar dunyoning rivojlangan mintaqalariga ham, rivojlanayotgan mintaqalariga ham xos tus oldi. Shunday ekan, mintaqaviy mojarolar jamiyatimiz farovonligi va respublikamiz taraqqiyoti uchun qanday xavf tug’dirmoqda? Bir qarashda, O’zbekiston chegaralariga yaqin joylarda yuz berayotgan barcha nizolar davlatimizdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlab turishga bevosita aloqasi yo’qdek tuyuladi. Bundan buyon ham tashvishli hodisalar bizni chetlab o’z yo’lidan rivojlanaveradi, barqarorlik o’z-o’zicha saqlanaveradi, mamlakatning kelajagi esa o’z-o’zidan ta’minlangan, deya fikr yuritishni ham siyosiy, ham fuqaroviylar kaltabinlikdir.

Mavjud mintaqaviy tanglik sharoitida O’zbekistonning xavfsizligiga tahdid xayoliy emas, balki yaqqol mavjuddir. Mintaqaviy mojaroni faqat taraflarning belgilab qo’yilgan doiralardagi qurolli qarama - qarshiligi, shu jumladan tinch aholi o’rtasida ko’plab qurbanlarga olib keladigan qarama - qarshiligi deb hisoblamaslik kerak. U muayyan jamiyat va qo’shni davlatlar hayotiga ta’sir ko’rsatadigan qarama - qarshilikdir. Agar masalaga shu nuqtai nazardan qaraladigan bo’lsa, bu tahdidning haqiqatan mavjudligi yaqqol ayon bo’ladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa har jihatdan bir - biriga bog’liq bo’lib qolgan hozirgi dunyo sharoitida, shundan aniq dalolat berib turibdiki, alohida olingan bir davlatdagi har qanday mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib keta olmaydi. Bir qancha sabablarga ko’ra bunday mojaro nazorat qilib bo’lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Chunki turli maqsadlarni ko’zlaydigan va tanglik chiqqan hududda o’z manfaatlarini ta’minalashga intiladigan tashqi kuchlar hamma vaqt shay turadi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Молия.2002. 11-14-бб.

Shunday qilib, alohida olingan davlatdagi ichki mojaroni, shu mojaro bilan qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqani bir - biriga bog'liq bo'lмаган hodisalar deb hisoblash xato bo'lur edi. Afg'onistonning milliy xavfsizligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Sobiq sovet qo'shinlari Afg'oniston hududini tark etgach u yerda vaziyat baribir tinchimadi. Navbat endi ichki guruhlar o'rtasidagi to'qnashuvlarga keldi. Tolibon 1996 yilda Qobul shahrini egallagach mamlakatning qator o'lkalarida o'z hokomiyatini o'rnatdi. Lekin tom ma'nodagi barqarorlikni ta'minlanmadi. Terrorichilik harakatlari, qon to'kishlar davom etaverdi. 2001- yil 11 - sentabr voqealaridan AQSH boshchiligidagi tinchlikparvar kuchlarning kirib kelishi ma'lum bir vaqt osoyishtalikni ta'min etdi. Lekin mujohid jangarilarning qarshiliginini butunlay sindirilmadi. 2014 - yilda xalqaro kuchlar afg'on hududini tark etgach norasmiy manbalarda keltirilishicha yana jangarilar afg'on - tojik chegarasiga yig'ilishini davom ettrimoqda.

Hozirning o'zidayoq ko'zga tashlanayotgan va keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf - xatarlar ko'lami keng. Mintaqaviy mojarolarning oqibatlari ancha sezilarli shaklga ham ega. Ularni davlatlarning milliy iqtisodiyotiga va xo'jalik aloqalariga ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda asarda ko'rsatib o'tilganidek mintaqaviy mojarolarning mintaqamiz havfsizligiga tahdidi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, Afg'onistonning shundoq ham yaxshi rivojlanmagan iqtisodiyotini boshdan - oyoq vayron qildi. Bu urush hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlariga "iliq dengizlar"dagi portlarga chiqish va shu yo'l bilan jahon xo'jalik aloqalari tizimiga qo'shilish imkonini beradigan yangi transport kommunikatsiyalarini ochish yo'lida asosiy g'ov bo'lmoqda.

Ikkinchidan, qurolli mojaro keskinlashgan taqdirda chegaralarni tan olmasdan, qo'shni davlatlar hududiga "yopirilib kirish"ga tayyor turgan qochoqlar muammosi vujudga keladi.

Uchinchidan, Afg'oniston cho'zilib ketgan mintaqaviy mojarolar salbiy hodisalarni keltirib chiqarmoqda, chegaradosh davlatlar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu salbiy hodisalar haqida gapirganda, qonunga xilof ravishda narkotik moddalar olib o'tilishi, xalqaro terrorizm va qurol – yarog' kontrabandasi kabi muammolarga ham to'xtalib o'tish lozim.

To'rtinchidan, Afg'oniston bilan Tojikistondagi mintaqaviy mojarolar hal bo'lmayotir. Bu esa mintaqadagi davlatlar, shu jumladan O'zbekiston oldiga terrorizm va qurol - yarog'lar kontrabandasi singari hodisalarning qo'shni davlatlar hududlariga yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan yangi va g'oyat xavfli muammolarni

ko‘ndalang qo‘ydi. Endilikda milliy xavfsizlikni va ichki barqarorlikni ta‘minlash darajasi ana shu muammolarni hal qilishga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 26-27 mart kunlari Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida¹ o‘tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqida shunday deyiladi:

O‘zbekistonda xalqaro konferensiya o‘tkazish taklifi va Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlasha qaratilgan sa‘y-harakatlarni birlashtirish zarurati quyidagi omillar bilan bog‘liq.

Birinchidan, bizning tashabbusimiz O‘zbekistonning tashqi siyosat konsepsiyasiga to‘la mos keladi. Bu konsepsiyada avvalo qo‘shni mamlakatlar bilan yaxshi qo‘schnichilik, do‘stlik va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash ustuvor vazifa etib belgilangan.

Ikkinchidan, O‘zbekiston va Afg‘oniston xalqlari asrlar davomida yagona madaniy-sivilizasion makonda yashab kelgan. Azal-azaldan Amudaryoning ikki tomonida o‘zaro o‘xshash tillar, umumiy muqaddas din va mushtarak ma’naviy qadriyatlar birlashtirib turadigan xalqlar yashab kelmoqda. Amudaryo biz uchun hamisha tiriklik manbai bo‘lib kelgan, ammo odamlarning erkin harakat qilishiga, savdo aloqalarini yaqindan rivojlantirishga, ilm-fan sohasidagi yutuqlar bilan o‘rtoqlashishga va bir-birini madaniy jihatdan boyitishga hech qachon to‘sinqinlik qilmagan.

Afg‘on zaminida Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining Abu Rayhon Beruniy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi buyuk namoyandalari va boshqa ko‘plab bizning ulug‘ ajdodlarimiz yashab ijod qilganlar. Bugungi kunda O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida yaqin siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Afg‘onistonda millionlab o‘zbeklar yashaydi. Afg‘oniston Konstitusiyasiga muvofiq o‘zbek tili mamlakatning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, barchamiz qat’iy ishonamizki, xavfsizlik yagona va bo‘linmasdir va uni faqat birgalikdagi sa‘y-harakatlar bilan ta‘minlash mumkin. Biz xavf-xatarlarning ba’zi birlarini “o‘zimizniki”, boshqasini esa “birovniki”, deb qabul qilmasligimiz kerak, aniqroq aytganda, bunday qilishga haqqimiz yo‘q. Afg‘oniston xavfsizligi – bu O‘zbekiston xavfsizligi, butun bepoyon Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi barqarorligi hamda taraqqiyotning garovidir. Xalqaro terroristik tashkilotlar Afg‘onistonni o‘zining doimiy makoniga aylantirib olishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

¹ <https://uza.uz/oz/posts/tinchlik-jarayoni-xavfsizlik-sohasida-hamkorlik-va-mintaqavi-27-03-2018>

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatishga ko‘maklashish bo‘yicha tajribaga ega. O‘zbekiston Qobul jarayoni doirasidagi ikkinchi majlis ishtirokchilarining Afg‘oniston hukumati bilan “Tolibon” harakatining “oldindan shart qo‘ymaslik va kuch ishlatish bilan tahdid qilmaslik” asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazishni boshlash haqidagi qarorini qo‘llab-quvvatlaydi. Ammo tinchlik sari harakatning eng asosiy sharti, bizningcha, avvalo mintaqa va global darajada kelishilgan, Afg‘oniston uchun yagona keng qamrovli tinchlik dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iboratdir.

Shundan kelib chiqqan holda, bizning birgalikdagi sa’y-harakatlarimizning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim: birinchi – afg‘on muammosini tinch yo‘l bilan hal etishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va ular bo‘yicha keng va qat’iy xalqaro konsensus – murosaga erishish; ikkinchi – Afg‘oniston hukumati va qurolli muxolifat o‘rtasida muzokaralarini boshlash mexanizmini ishlab chiqish; uchinchi – Afg‘onistonda milliy kelishuv jarayoniga xalqaro hamjamiyat tomonidan ko‘mak berish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish.

Mazkur asarda “Diniy ekstremizm va fundamentalizm” mintaqamiz uchun tug‘dirishi mumkin bo‘lgan xavf – xatarlar sifatida ta’kidlangan. O‘zbekistonga nisbatan fundamentalizmi-aqidaparastlikning tahdidi nimalarda namoyon bo‘lmoqda?

Birinchidan, aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo‘qqa chiqarishda ko‘rinmoqda. Yaxshilik yo‘lidagi o‘zgarishlarning ustuvor shartlari bo‘lgan barqarorlikni, milliy, fuqarolararo va millatlararo totuvlikni buzish yo‘lidagi urinishlarda namoyon bo‘lmoqda;

ikkinchidan, fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da‘vatlariga ko‘r - ko‘rona ergashuvchilar o‘zgalar irodasining quli bo‘lib qolishini anglashimiz lozim;

uchinchidan, mamlakat mintaqalari aholisi va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida “haqiqiy” va "soxta" dindorlik belgilari bo‘yicha qarama - qarshilik keltirib chiqarishda ko‘rinmoqda;

to‘rtinchidan, O‘zbekistonning janubiy chegaralaridagi qo‘sni mamlakatlarda fuqarolar urushi to‘xtamay, davom etib kelayotganligida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat o‘zlarini chin musulmon, din uchun kurashuvchilar deb hisoblaydigan, mudhish tasavvurlarini xalqimizga zo‘rlab qabul qildirishni istaydigan terrorchilar, jangarilarning yangidan - yangi avlodlarini vujudga keltirmoqda;

beshinchidan, musulmon va nomusulmon mamlakatlar, ularning jamoatchiligi orasida ham O‘zbekiston haqida ko‘ngilni sovutadigan fikr tug‘dirishga urinishlarda namoyon bo‘lmoqda;

oltinchidan, islom sivilizatsiyasi bilan islomiy bo‘lmanan sivilizatsiya o‘rtasida yalpi qarama - qarshilikni shakllantirishda namoyon bo‘lmoqda. Bu esa jahon hamjamiyatiga qo‘silish jarayonlariga g‘oyat salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Undan ham dahshatlisi shuki, odamlarni diniy zaminda "sivilizatsiyalar to‘qnashuvi" ni kutishga majbur qilmoqda. mana hozirgi kunda G‘arb va islom munosabatlari xavas qiladigan darajada deb bo‘lmaydi;

yettinchidan, ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishning universal vositasi degan fikrni qaror toptirishda ko‘rinmoqda.

XXI asr bo‘sag‘asida yangi mustaqil davlatlar juda katta ichki va tashqi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ular mavjud muammolarning yechimini, ichki manbalar va imkoniyatlarga tayangan holda va shu bilan birga, jahon hamjamiyatining manfaatdor ishtirokidan izlamoqda. Nafaqat yosh davlatlarning e‘tibor berishini, balki, eng avvalo, xalqaro jamoatchilik ishtirokini talab etadigan muammolar jumlasiga birinchi navbatda imperiyacha fikrlash va xulq - atvorning xurujlari tufayli kelib chiqayotgan muammolarni kiritish lozim. O‘zbekiston Respublikasi ham ana shu hodisalar ta‘siridan chetda qolgani yo‘q. Davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdidlar saqlanib qolmoqda. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va aggressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan xatti - harakatlarda aniq namoyon bo‘lmoqda.

Bir qarashda, go‘yo insoniyat XXI asr bo‘sag‘asida yetarli darajada aql - idrokli bo‘lib qolgan holda o‘zining tarixiy tajribasiga asoslanib, asrlar davomida tarkib topib kelgan ba‘zi bir andozalardan voz kechishi tabiiy bo‘lib ko‘rinadi. Biroq shovinistik va aggressiv millatchilik inersiyasining kuchi hali shu qadar zalvorlichi, bu kuch unga duch kelganlar uchun ham, uni boshqalarga qaratayotganlar uchun ham naqadar xavfli ekanligini payqamaslik mumkin emas.

Asarda buyuk davlatchilik shovinizmini va aggressiv millatchilik nima, uning hozirgi ko‘rinishlari nimalardan iborat degan masalaga e‘tibor qaratiladi. Tarixiy tajribaga asoslanib, bu hodisani muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo‘ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta‘riflash mumkin.

Shovinizm ba‘zi ko‘p sonli millatlarning nafaqat ko‘p millatli imperiya doirasida, balki uni o‘rab turgan jo‘g‘rofiy - siyosiy makonda o‘zining qator imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘zining mutlaq hukmronligini o‘rnatish uchun kurashida namoyon bo‘ladi. Odatda, hudud jihatidan kichik bo‘lgan va eng asosiysi - iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan va ichki beqaror davlatlar ana shunday kuchlarga nishon bo‘ladi.

Asarda buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o‘zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi konseptual fikr ilgari suriladi.

Bizning o‘lkamiz ham ana shunday qismatdan qochib qutulolmadi. Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik tahdidi haqida fikr yuritganda biz quyidagi xavfni nazarda tutamiz:

birinchidan, xalqaro, davlatlararo va elatlararo qarama - qarshilikni keltirib chiqarish; *ikkinchidan*, xalqaro - huquqiy va ichki davlat suverenitetimizni ro‘yobga chiqarishga qarshilik ko‘rsatish; *uchinchidan*, O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chegaralashga, ularni teng huquqli bo‘lmagan sharoitga solib qo‘yishga urinish; *to‘rtinchidan*, Mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo‘l bilan tazyiq o‘tkazish, jahon afkor ommasida O‘zbekiston haqida noto‘g‘ri tasavvur tug‘dirishga intilish; *beshinchidan*, agar buyuk davlatchilik shovinizmi bilan ekstremistik millatchilik abadiy hamrohlar ekanı nazarda tutiladigan bo‘lsa, u holda millatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchszilikni keltirib chiqarish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish; *oltinchidan*, yangi mustamlakachilik va yangi imperiyachilik yondashuvlarini zo‘rlab qabul qildirish, hamma sohalardagi o‘zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni sekinlashtirish xavfi.

Gapning sirasini aytganda, Rossiyada imperiyacha fikr yuritishdan voz kechish va O‘zbekiston bilan ana shunday hamkorlikka tayyorlikni izhor etish buyuk qo‘srimiz uchun g‘oyat samarali imkoniyatlar olib beradi. Avvalambor, ochiq ko‘rinib turgan bir haqiqatga e‘tiborni qaratmoqchiman. Mustaqil va kuchli sherikka ega bo‘lish "ukani boqish" yoki "kichik ittifoqchini chegaralab turish"ga qaraganda arzonroq va ishonchliroqdir. Boshqacha aytganda, zaif ittifoqchidan ko‘ra kuchli va barqaror sherik bilan ish olib borgan afzalroq.

Ikkinchidan, bir - birimizning manfaatlarimizni hisobga olish va muvozanatda saqlab turishga asoslangan teng huquqli, izzat - ikromli munosabat mamlakatimizning siyosiy rahbarlaridagina emas, balki butun xalqimizda ham hurmat hissini uyg‘otadi. Xalqning ezgu his - tuyg‘ulari va munosabati, aytish mumkinki, rossiyalik siyosatchilar bizning mintaqada topishlari mumkin bo‘lgan eng yirik kapitaldir. Va aksincha, xalq aksariyat qismining his - tuyg‘ulari "nafrat" degan birgina so‘zga jamlanganda nimalarga olib kelishi mumkinligini Chechenistondagi mojaro yaqqol eslatib turuvchi yorqin misoldir. Nihoyat, mintaqaviy qalqon vazifasini bajarishga qodir bo‘lgan mustaqil, yetarli darajada barqaror davlatlarni shakllantirish Rossiyaning jeografik - siyosiy manfaatlariga mutlaqo mos tushib, chiqimi ham ancha kam bo‘lishini tushunish juda muhimdir. Iqtisodiyoti barqaror bo‘lgan mintaqaga Rossiya yoki o‘zga birorta davlatga tahdid

solmaydi. Aksincha, bu hol juda ulkan iqtisodiy va boshqa istiqbollarga yo'l ochadi.

Eng muhimi - bu mintaqaning hech qachon sivilizatsiyalar to'qnashadigan joyga aylanmasligiga, balki ular bir - biriga ta'sir etib, bir - birini boyitishning ibratli namunasi bo'lib xizmat qilishiga kafolatdir. O'zbekiston Respublikasi ana shunday oljanob va tarixiy vazifani bajarishga har jihatdan tayyor. Rossiyada mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ana shunday istiqbolini ma'qullayotgan odamlar va sog'lom fikrli siyosatchilar tobora ko'paymoqda. Ular kelajagimizni faqat bir - birimizning manfaatlarimizni hisobga olgan holda, teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik asosida tashkil etishimiz zarurligini tushunib yetayotganligi muayyan darajada umid uyg'otmoqda.

Etnik va millatlararo ziddiyatlar Ma'lumki, hozirgi davlatlar asosan ikki turga polietnik (ko'p elatlari) va monoetnik (bir elatlari) davlatlarga bo'linadi. Aniqlani- shicha, saysramizda o'zining betakror madaniy va ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lgan 1600 dan ortiq etnik guruh yashaydi. Dunyoning haqiqiy boyligi, qadriyatlarni o'zaro ayrboshlash, bir-birini boyitish imko- niyata ana shu xilma-xillikkadir. Ammo hozirgi zamopnrg hal qilinishi mush- kul bo'lgan muammolaridan biri ham unga borib taqaladi. Dunyoda yashayotgan etnoslarning ko'pchi- ligi o'z milliy davlatchiligiga ega emas.

Dunyo siyosiy xaritasida atigi ikki yuzga yaqin davlat borligi ham buning dalilidir. Bu hol xalqaro hamjamiyat uchun bir orohlantirish bo'lib xizmat qilmog'i darkor. Zero, etnik o'zligini aiglashning o'sishi yana uzoq vaqt davomida hozirgi dunyo siyosiy taraqqiyotining dinamikasini bslgilab turadi. Shu sababli ko'p millatli va ko'p tilli mamlakatlarda o'z davlatlariga nom bergen asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluv chi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ichki siesiy ahvolning barqarorligi, milliy xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi kup millatli davlatda yashayotgan boshqa millatlar vakillarining siyosiy xayrixohligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Jahon tajribasidan millatlar yoki etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda an'anaviy uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p elatlilik omili davlatlarning siyosiy-iqtisodiy rivojlaiishiga samarali, ragbatlantiruvchi ta'sir etishini ko'rsatuvchi misollarni ko'plab kelsh- rish mumkin. Bu mamlakatlarda etnik guruhlar va irqlar urtasida ma'lum muammolar mavjud. Shunga qaramay, ko'p elatlilik omili ularning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi to'g'a- noqqa aylanib qolmagan. Aksincha, taraqqiyotning jadallashuviga yordam bergen. Millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma'naviy- aqliy boyishi uchun yaxshi manbaga aylangai.

Shunday qilib, bu mamlakatlarda ko‘p elatlilik omili demokratik o‘zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, fuqarolik jamiyat qurishning ta’sirchan vositasiga aylanib qolgan.

O‘zbekistonda va butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni saqlab turish uchun qanday etnik siyosat olib borish kerak?

Markaziy Osiyo aholisining asosiy qismi ni tashkil etadigan hozirgi tub etnoslar ildizlari o‘tmishda vujudga kelgan millatlar sifatida shakllanishning murakkab va o‘ziga xos yo‘lini bosib o‘tgan. Bu sohadagi ayrim ziddiyatli hodisalarga qaramay, aholisi kun millatli bo‘lgan milliy davlatlarning qaror tonishidan iborat qaytmas jarayoi davom etmoqda. O‘zbekiston aholisining kup millatligi o‘zbek xalkining milliy o‘zligini anglashi va ma’naviy kayta tiklanishining o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq xolla jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo‘r kuch bo‘lib xizmat kilmokda. Bu respublikaning jahon xamjamiyatiga qo‘shilishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.

Korrupsiya va jinoyatchilik. Har bir davlatning yangi ijtimoiy sifat holatiga o‘tish, afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch hodisa bilan birga yuz bergen. Shu bilan birga, jinoyatchilikning o‘sishi nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq, balki o‘gish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham qarshi bsvosita tahsid tug‘diradi. Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari singari O‘zbekiston Respublikasi ham bundan xoli emas. Korrupsiyaga va jinoyatchilikka qarshi kurash mu- ammolariga bizdagi qiziqish aslo bejiz emas. Albatga, bu borada keng tarqalgan va umum e’ti- rof etilgan bir fikrni, ya’ni totalitarizmdan demokratiya va bozor munosabashariga o‘tishdek mu rakkab davr mohiyatan asosiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmalarni sindirib tashlashni anglatadi, bu esa axloq-odob me’yorlariga salbiy ta’sir etadi va jinoyatchilik hamda korrupsiya muqarrar ravishda kuchayadi, degan xulosani eslatib o‘tish mumkin. Lekin bu hodisalar davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi va pirovardida yosh istiqlolimizga qanday tahdid solishini chuqur tushunish uchun, aftidan, birgina shu ta’rifning o‘zi kamlik qiladi.

Markaziy Osiyoda jinoyat va terrorizm bo‘g’ini paydo bo‘lishini 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshidan boshlab kuzatadi. Uzoq vaqt Afg’onistondan uzilib qolgan mintaqal sho’rolar bilan afg’on urushi tugagandan so’ng u yerdan kelayotgan turli ta’sirlar, jumladan, narkotiklar savdosiga ochiq bo‘lib qoldi. Afg’on urushi veteranlari boshlab bergan opiatlarning mayda-chuyda savdosidan boshlangan bu ishga tez orada yirik guruhlar mazaxo’rak bo‘lib oldi, ular sho’rolar davridayoq davlat bilan birga patronaj tarmoqlari tuzgan hamda korruptsiya amaliyotining yig’ilib qolgan merosidan foydalaniib, mustaqillik davrida ham to’laqonli faoliyat ko’rsatishni davom ettirgan edi.

Mintaqadagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, hal etilmagan mojarolar, ochiq chegaralar, korruptsiya va huquqni qo'llash amaliyotining zaifligi, mualliflar ta'kidicha, uyushgan jinoyatchilik va “siyosiy sabablarga ko'ra zo'ravonlik” gullab-yashnashi uchun qulay muhit yaratib berdi. Bular qatoriga noqonuniy iqtisodiyotning gullab-yashnashi ham kiradi – noqonuniy savdo-sotiqlar, narkotiklar, qurol-yarog' va odamlarning noqonuniy savdosi jinoyat va korruptsiyaning yo'lga qo'yilgan tarmoqlaridan foydalanib, bepoyon postsovet makoni bo'y lab bemalol bir joydan boshqasiga ko'chib yuradigan bo'ldi¹.

Jinoiy yoki ko'p hollarda “xufyona” deb atalayotgan, iqtisodiyot voqelik sifatida quyidagicha sharoitda o'sdi va rivojlandi: u ishlab chiqarish sohasidagi qonunlarni qo'pol ravishda buzib, o'ziga xon-o'ziga bek bo'lib olgan edi. Chunki unga eng yaqin raqobatchi bo'lgan davlatning iqtisodiy tuzilmalari qotib qolgan ko'rsatmalar va taqiqlar bilan cheklab qo'yilgan edi. Sovet davrida bu hodisa haddan gashqari kuchaydi, xunuk holga keldi va O'zbekistonga meros bo'lib qoldi. Jamiyatda jinoiy “xufyona iqgisodiyot”ning mavjud bo'lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat hokimiyati tuzilmalarining turli bo'g'lnlari va turli darajalari vakillari ham uniig yo'ldan ozdiruvchi ta'siriga tushib qoladi. Yashirin iqtisodiyot ko'rinishlari qo'yidagilarda namoyon bo'ladi:

iqtisodiyotni soxtalashtirish, ya'ni iqtisodiy ko'rsatkichlarni mavjud holatga nisbatan bo'rttirib ko'rsatish, soxta natijalarni haqiqiy natija sifatida kiritish (qo'shib yozishlar);

iqtisodiyotning norasmiy sektori, ya'ni tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonidagi norasmiy aloqalar tizimining amal qilishi. Bunda o'zaro manfaatdor shaxslarning birgalikdagi norasmiy munosabatlari iqtisodiy tizimni qaror toptiradi;

pinhoniy iqtisodiy munosabatlar, ya'ni taqiqlangan iqtisodiy faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lish, iqtisodiy faoliyat turini qonunchilik nazoratidan yashirish, rasman belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritish.

Mahalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari. Ko'pchilik lug'atlarda berilgan ta'riflarga ko'ra, urug'-aymoqchilik feodal jamiyatlarga xos hodisadir. Bu qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan odamlarning birligidir. Urug' jamoasi o'z boshlig'ining nomi bilan atalardi. U esa a'zolari uchun eng obro'li odam hisobla-nar, urugning manfaatlarini jamoasining nisbatan mahdud olamidan tashqarida ifodalar edi. Aynan urug'-aymoq o'z a'zolarini himoya etar, ularga homiylik qilar va yordam berar edi.

Qarindosh-urug'chilik hududiy yoki etinik prinsiplar asosida davlat tuzilmalarida yoki boshqa tuzulmalarda tor guruhchilik manfaatlari bilan ish

¹ Mariya Y. Omelicheva and Lawrence P. Markowitz. Webs of Corruption. Trafficking and Terrorism in Central Asia. Columbia University Press. 2019, P.232// <https://uzanalytics.com/kitob/5506/>

ko‘radigan. aynan shu manfaatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadigan uyushmalar (ko‘pincha norasmiy uyushmalar) umumiyligi ishga umumdavlat umumxalk manfaatlariga zarar keltirgan holla shakllanib o‘z maqsallariga erishish uchun a’zolarini mavjud davlat hokimiyat va boshka pog‘onalarda yuqori ko‘tarishga harakat qilar ekan. Bu hol xavfli bo‘lib koladi. Ana shunda jamiyatning barqarorligi va xavfsizligiga real tahdid soluvchi maxalliychilik va urug‘-aymoqchilik haqida gapirishga tug‘ri keladi.

Ekologik muammolar. Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof muhtni muhofaza qilish muammosi aloxida etiborga moliklir. Ochiq e’tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski ma’muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug‘ullanilmagan. Aniqrog‘i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o‘z mamlakatlarining kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa “qalb nidosi” bo‘lib kelgan. Biroq ularning vijdonga, fuqarolik burchiga, nihoyat, aql-idrokka da’vatlari to‘palanib ketgan sovet-partiya amaldorlarining sovuq, hatto aytish mumkinki, surbetlarcha loqaydligiga duch kelavergan. Bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. Tabiiy va mineral-xom ashyo zaxiralaridan och vahshiylarcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanishga asoslangan sosialistik xo‘jalik yuritish tizimining butun mohiyatiga mamlakat ixtiyoridagi beqiyos boyliklarga avaylab munosabatda bo‘lish g‘oyasi butunlay yot edi. Aksincha, boyliklardan bunday foydalanish ikki tuzumning iqtisodiy musobaqasida mamlakatning asosiy dastagi, eksport imkoniyatlarining negizi bo‘lib keldi.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ta’kidlaganidek: «Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqi, balki to’laqonli va sog’lom turmush kechirishi uchun zarur mo’’tadil atrof-muhit sharoitlariga ham bo’lgan huquqlarining muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar e’tirof etgan. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbli, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi...»

Shu sababli jahon hamjamiyati 1972 yildan boshlab 5 iyunni Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni deb e’lon qilib, mana 38 yildan buyon mavjud ekologik muammolarni hal etish borasida amalga oshirilgan ishlar yakunini baholab, kelgusi qadamlarni belgilab kelmoqda. Uchinchi ming yillikning boshlanishi muhim ikkita tamoyil (tendentsiya) bilan xarakterlanadi. Birinchidan, hozirgi sivilizatsiya global ekologik muammolar (iqlim o’zgarishi, ozon qatlaming yemirilishi, ichimlik suvining ifloslanishi va yetishmasligi, o’rmon va tuproqning inqirozi, bioxilma-xillikning qisqarishi, ortiqcha hajmdagi

chiqindilarning hosil bo'lishi hamda ularni zararsizlantirish muammolari va boshqalar) bilan to'qnash keldi. Ikkinchidan, dunyo jadal sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Shuning uchun kechagi mezonlar bilan ertangi istiqbolni belgilash u yoqda tursin, hatto bugungi hodisalarni ham baholab bo'lmaydi. Bu kabi muammolar O'zbekiston uchun ham xosdir.

3.3. Barqarorlik shartlari

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi. Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan.

Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini caqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, beba ho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, ma'naviy qadriyatlarni hamda biz uchun muqaddas bo'lgan diniy qadriyatlar va an'analarini qaytarish va tiklash, o'zligimizni anglash ancha murakkab sharoitlarda — zero imperiya tuzumi barbod bo'lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi.

Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoni tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rinn tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmokda. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy akd-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblar ko'p bo'lgan.

Davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash. Istiqlol yillari yangi mustaqil O'zbekistonning milliy davlatchiligi poydevorini barpo etish sohasida puxta va jiddiy ish olib borilgan davr bo'ldi. Ma'lumki,

davlatchiligidan ming yillik tarixi Rossiya imperiyasiga zo'rlik bilan qo'shib olinishimiz natijasida uzilib qolgan edi. Faqat mustaqillikka erishilgandan keyingina xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ektiga aylangan suveren O'zbekiston yangi davlatchiligini qurish va rivojlantirishga kirishdi. Boshqacha qilib aytganda, faqat istiklolgina xalqimizga o'z Vatanida o'zini erkin his qilish, chinakam milliy qadriyatlarni tiklash, o'z milliy davlatchiligini shakllantirish imkonini berdi.

Yangi mustaqil davlatlarda islohotlarni amalga oshirish shuni ko'rsatmoqdaki, bozor islohotlarini ro'yobga chiqarish iqtisodiyotda tanazzulga, aholining ko'pchilik qismi turmush sharoitining pasayishiga olib keldi. Bu jamiyatda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Amaliy ish yurita olmaydigan, ko'pincha mas'uliyatsiz va ekstremistik kayfiyatdagi, kalondimog' muxolifat bu muammoni ayniqsa keskinlanggarib yubordi. Demokratiya bayrog'i ostida o'zining hatti-harakatlari bilan jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqardi.

Konstitusiyaning qabul qilinishi, o'tgan yillar mobaynidagi jo'shqin qonunchilik faoliyati huquqiy davlatni shakllantiriishing barcha fuqarolar qonun oldida tengligini, qonunning ustuvorligini kafolatlaydigan mustahkam negizlarini yaratish imkonini berdi. SHu bilan birga, ularning mohiyagi butunlay, tubdan o'zgardi. Davlat dastlabki bosqich jamiyatni yangilashning eng faol kuchiga aylanishini holda, islohotlarning bosh tashabbuskori yo'naltiruvchisi, ijtimoiy hayotdagi yangi g'oyalarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lib qoldi. YAngi o'zbek davlatchiligini qaror toptirishning birinchi-bosqichidagi vazifalar bajarilishi O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tibor ortishi va mustahkamlanishida, jahon hamjamiyatidagi ko'plab mamlakatlar bilan do'stlik hamkorlik munosabatlarini o'rnatishda va rivojlantirishda o'z ifodasini topdi. O'zbekiston mustaqil, suveren davlat sifatida eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'ldi.

Eng asosiysi bu qurolli Kuchlar harbiy qudratining eng muhim qismi bo'lgan qurol-yarog'lar va harbiy texiikaning miqdori va sifati masalasidir. Davlat Qurolli Kuchlarni jangovar texnika va qurol-yarog'larning eng so'ngi namunalari bilan qurollantirish choralarini ko'rmoqda. ZOTAN, Qurolli Kuchlarni qurol-yarog' va jangovar texnika bilan qurollantirish, ularning sifatini potensial dushmanidan ustunlikni ga'minlashga erishadigan darajada tutib turish har qanday davlat uchun ham juda murakkab muammodir. YANA asosiy masala bu harbiy infrastruktura bo'lib, Qurolli Kuchlardan jangovar holatda foydalanishda uning roli beqiyosdir.

Qo'shilmaslik harakatining a'zosi bo'lgan O'zbekiston biron-bir harbiy-siyosiy blokda qatnashishni nomaqbul deb hisoblaydi, buni milliy xavfsizlikning, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlashning kafolati deb biladi. SHuningdek, MDH hududida harbiy-siyosiy blokini shakllantirish dunyoni eski, boshdan

kechirilgan “sovuz urush” davrlariga qaytarishini nazarda tutib, bunday blokni tuzishga qarshi chiqadi.

1994 yilda O‘zbekiston NATOning “Tinchlik yo‘lidagi hamkorlik” Dasturiga qushildi. Bu Dastur kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini, shu jumladai Markaziy Osiyo mintaqasida ham vujudga keltirishga qaratilgandir. NATO bilan hamkorlik qilish harbiy-siyosiy voqealardan xabardor bo‘lib turish, bu uyushma doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalardan bahramand bo‘lish uchun imkon beradi.

Demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyatini asoslarini shakllantirish.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o‘zgarishlar davri sifatida kiradi. Birinchidan mustamlakachilik va irqiy kamsitish tarixning yo‘kdek qa’riga ketdi. Sosializm va uning butun jahonni kommunistik mafkura vositasida bosib olishga bo‘lgan da’volari ham o‘tmishga aylanib bormokda.

Ikkinchidan tarix sahnasiga yangi mustaqil davlatlar chiqmoqda. Ularning ovozi jahon hamjamiyata mamlakatlari orasida borgan sari dadil eshitilmoqda.

Uchinchidan kuchlarning an‘anaviy joylashuvida Osiyo qit‘asi mamlakatlarining roli tobora ortib borayotganligini hisobga olib, unga tuzatishlar kiritishga majbur bo‘linmoqda. Bu mamlakatlar jahon taraqqiyoti tajribasiga o‘z nuqtai nazarlari, me’yorlari va qadriyatlarini olib kirmoqda.

Turtinchidan demokratok taraqqiyot qadriyatlari, tamoyillari va me’yorlari tobora hammabop bo‘lib bormoqda. Endilikda ularning zarurligi va amaliy ta’sirini hech qaerda inkor etib bo‘lmaydi. SHu bilan birga, demokratiya va taraqqiyot tomon borishning o‘ziga xos yo‘llari borgan sari katta rolb o‘ynamoqda.

3.4. Taraqqiyot kafolatlari

Jo‘g‘rofiy-sstratezik imkoniyatlar va tabiiy-xomashyo resurslari Hozirgi dunyoda hech qaysi mamlakat, shy jumladan O‘zbskisgon Rsspublikasi ham, boshqalardan ajralgan hudud emas. Bu mamlakatlar jahon xo‘jalik aloqalarining muayyan jo‘g‘rofiy va siyosiy tizimlari tarkibiga kiradi. Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘ida joylashgan O‘zbekiston xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish iuqtai nazaridan va o‘z taraqqiyot isgiqbollari jihatidan qulay jo‘g‘rosfiy-strategik mavqega ega. Qadim zamonlarda Sharq bilan G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk Ipak yo‘li O‘zbekistom hududi orqali o‘tgan. Bu srda savdo yo‘llari tutashgai, tashqi aloqalar hamda turli madaniyaglarning bir-birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo‘llar shu erda kesishadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillik va suverenitetni qo‘lga kiritganidan keyin bu aloqalar jonlanib, ahamiyati yana ham oshdi. Bu tasodifiy emas. Chunki Markaziy Osiyo mamlakatlarining hududi Sharqda Xitoy

chegaralaridan boshlanib, G‘arbda Eron va Kaspiy dengizigacha cho‘zilib ketgan. Ular Hindiston yarim orolini Rossiya va Yevropa bilan bog‘lab turadi. O‘zbekistonning va Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalarning hozirgi jug‘rofiy-siyosiy tizimlardagi roli juda sezilarli va kattadir. SHu tufayli bu respublikalarda yuz berayotgan hodisalar jahondagi eng yirik davlatlar, turli jug‘rofiy-siyosiy tuzilmalarning manfaatlariga bevosita daxldordir. Har qanday davlat ham o‘zining jo‘g‘rofiy-siyosiy yo‘lini belgilagan vaqtida ana shu vaziyatni hisobga oladi va o‘zi uchun siyosiy, iqtisodiy va strategik foyda chiqarib olishga harakat qiladi. O‘z navbatida, O‘zbekistonning hududiy-makon xususiyatlari, uning jo‘g‘rofiy o‘rni bizning ichki va tashqi siyosatimizni tanlash va amalgaloshirishda katga ahamiyatga ega.

O‘zbekiston o‘z erosti boyliklari bilan xaqli suratda baholanadi bu mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan.

Masalan, oltin zaxiralari bo‘yicha respublika dunyoda 4-o‘rinda, uni qazib olish bo‘yicha 7-o‘rinda, mis zaxiralari bo‘yicha 10-11-o‘rinda, uran zaxirasi bo‘yicha 7-8-o‘rinda turadi. O‘zbekiston noyob yonilg‘i-energetika yoqilg‘ilariga ega. Qidirib topilgan gaz zaxiralari 2 million kubometrga yaqin, ko‘mir-2 milliard tonnadan orshq. 160 dan ortiq neft koni mavjud.

O‘zbekiston dunyodagi juda katta oltin, kumush va boshqa qimmatbaho hamda yer bag‘rida kam uchraydigan metallar zaxiralariga ega bo‘lgan davlatlar jumlasiga kiradi. Hozirgi vaqtida 40 ta qimmatbaho metall konlari qidirib topilgan. Oltinning asosiy zaxiralari oltin konlarining o‘zi Markaziy qizilqumda joylashgan bo‘lib, tasdiqlangan zaxiralari bo‘yicha respublikani dunyoda to‘rtinchchi o‘ringa olib chiqadi.

Inson salohiyati, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi. O‘zbekistonning haqiqiy boyligi va mulki uning mehnatsevar, saxiy va mehmondo‘st xalqidir. Jamiyatning eng oliy boyligi bulgan xalq abadiy qadriyatlari, qudratli salohiyatni o‘ziga jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantipish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo‘lib xizmat kidali. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bulib, u mamlakatning islohotlar va tub o‘zgarishlar yo‘lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta’minlab beradi.

Jahon hamjamiyati bilan xalqaro hamkorlik. Markaziy Osiyo respublikalarining integratsiyalashuvi uchun haqiqatan ham bir qator dastlabki shart-sharoit va sabablar mavjud. Bular jumlasiga iqtisodiy rivojlanishning boshlang‘ich darajasi baravarligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bir xilligi ham, yagona transport - energetika kommunikatsiyalari, suv zaxiralari ham kiradi. Bundan tashqari, ushbu mintaqada yashayotgan barcha xalqlarning xavfsizligi uchun mushtarak bo‘lgan tahdidlar ham mavjud. Bular - Orolning qurib borayotganligi, narkotik moddalar, qurol-yarog‘, terrorizm, diniy

fundamentalizmning kirib kelishi, Afg'oniston tomonidan keskinlik va beqarorlikning yoyilish xavfi hamda bir qator boshqa omillardir. Bu tahdidlar, garchi tarqoq tuyulsa-da, birlashtiruvchi omillardir, chunki ularning birontasini ham alohida, o'z kuchiga ishongan holda yengib bo'lmaydi.

Markaziy Osiyo hamdo'stligi biz uchun shunchaki integratsiya udumiga ergashish emas, ustun bo'lib olish yoki o'z ta'sir doiramizni kengaytirishga intilish ham emas. Bu XXI asrda bizning mustaqillik va taraqqiyot yo'limizdir. Ishonchim komilki, bu birlikni amalga oshirish, hech shubhasiz, xalqlarimizning manfaatlariga to'la mos keladi, mintaqamizda barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi. Markaziy Osiyo davlatlari, garchi ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy jihatdan xilma - xil bo'lsa-da, bиргаликда kuch - g'ayrat sarflab, xavfsizlikka tashqaridan tug'ilayotgan tahdidlarga qarshi turish uchun, butun mintaqani barqaror rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratadi, amalda bu mintaqani xavfsizlik va barqarorlik mintaqasi sifatida shakllantiradi. Shu tariqa bu mintaqada davlatlari butun dunyo ko'lamida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shadi.

Xulosa tariqasida quyidagi fikrlarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, Birinchi Prezident I.Karimovning O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarida esa yangi ming arafasida insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolarni ilgari surilishi, tahlil etilishi, ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni bartaraf etish borasidagi vazifalarning yoritilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Klassik geosiyosatning vakillari asarlarida esa muayyan mintaqaning manfaatlari oldingi o'ringa surilgan.

Ikkinchidan, biz yashayotgan mintaqaning geostrategik, geosiyosiy manfaatlari nuqtai nazaridan har bir masalaning yechimiga e'tibor qaratiladi. Uchinchidan, tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantirishiga alohida urg'u berilgan, va bu hamkorlikni ta'minlashdagi vazifalar, uning istiqbollari keng yoritilgan. To'rtinchidan, hozirgi dunyoda xavfsizlik va barqarorlik faqat harbiy-siyosiy jihatlarnigina nazarda tutib qolmaydi. Iqtisodiy, ekologik, madaniy, ma'naviy, axborot havfsizligi jabhalari ham juda muhim bo'lib, xoh mintaqaga bo'lsin, xoh butun sayyoramiz bo'lsin bizning tinch, gullab-yashnayotgan umumiyligi uyimiz ana shulardan tashkil topadi.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekistonning XXI asrdagi asosiy muammolarini sanab bering?
2. Xavfsizlikni qanday turlari mavjud?
3. Ekologik xavsizlikni o'rnatish mumkinmi?

4. Buyuk davlat shovinizmi qaysi davit tahdidi?
5. I.A.Karimovning Markaziy Osiyo mintaqasi tinchligi bo‘yicha xizmatlarini aytib bering?
6. Geografik sterategik imkoniyat deganda nimani tushunasiz?

Foydalanimanadabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент: «Ўзбекистон», 2016. - 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иктисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағищланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017.-104 б.
3. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавасизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.—Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Каримов И.А. Ўзбек халқига тинчлик ва омонлик керак. – Т.: Ўзбекистон, 2013 йил.
5. Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B. Geosiyosat asoslari. Uslubiy qo’llanma. Toshkent - 2016.

IV-BOB. ZAMONAVIY GEOSIYOSIY HARAKATLAR VA KONSEPSIYALAR

- 4.1.Yangi ming yillikda Rossiya-AQSH-Xitoy munosabatlari rivoji va istiqbollari
- 4.2.Geosiyosiy munosabatlar tizimida AQSHning roli
- 4.3.Xitoyning geostrategiyasi va uning mohiyati
- 4.4.Yaponianing uzoq shardagi geosiyosati va ijtimoiy taraqqiyoti
- 4.5.Mintaqaviy geosiyosiy voqelikda Turkiyaning roli
- 4.6.Markaziy Osiyo regionidagi geosiyosiy jarayonlar
- 4.7.Yangi katta o‘yin» konsepsiysi va uning geosiyosiy mohiyati (2-bosqich)

Tayanch iborlar: XXI asr manfaatlari, geosiyosatda o‘zgarish, “C5+1” formati, xalqaro yetakchilikka intilish, Markaziy Osiyo davlatlari, Xitoyning yumshoq kuchi, Turk millatchiligi, Yangi Katta O‘yin, oqimlar va qarashlar

4.1. Yangi ming yillikda Rossiya-AQSH-Xitoy munosabatlari rivoji va istiqbollari

XX asrning so‘ngi o‘n yilligi va XXI asrning boshlaridagi jahon siyosiy maydonidagi keskin o‘zgarishlar: ikki qutbli dunyo tartibotining barham topishi, Sobiq SSSR va Varshava tashkilotining parchalanishi, global xarakterdagi muammolarning vujudga kelishi, xalqaro xavfsizlikka tahdidning yangi ko‘rinishlarining yuzaga kelishi, xalqaro munosabatlar tizimida yangi etakchilikka da’vogar kuch markazlarining shakllanishi Rossiya tashqi siyosatini qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy davr talablariga moslashtirish zarurati tug‘ildi. Bu esa tashqi siyosatning yangi huquqiy asoslarining yaratilishiga zamin yaratdi.

Postbipolyar xalqaro munosabatlar tizimi sharoitida hukmronlik uchun kurash ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda Xitoy qudratli iqtisodiyotni rivojlantirdi, bu yaqin kelajakda bu davlatni iqtisodiy gegemonga aylantirishi mumkin. G‘arb sanksiyalari sharoitida Rossiya Xitoy bilan yaqindan hamkorlik qilishga majbur, bu esa Xitoya foydali holatlarga keltirib chiqaradi. Yangi ming yillikda Qo‘shma Shtatlar xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchisi bo‘lishni to‘xtatadi va buning ta’sirida Yaqin Sharq va Sharqiy Yevropadagi AQSh tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatsizliklar fonida avj oladi.

Xitoy Rossiya bilan ittifoqchilikda tobora kuchayib bormoqda va nazariy jihatdan sharqda yangi kuch qutbini namoyish etishi mumkin. Xalqaro munosabatlardagi vaziyat ushbu omillar bilan murakkablashadi, shuning uchun Xitoyning tashqi bipolyar zamonda tashqi siyosatning rivojlanish tendentsiyalarini o‘rganish alohida dolzarblik va siyosiy ahamiyatga ega. Hududi juda ko‘p bo‘lgan

Xitoyning demografik holatini hisobga olgan holda, yaqin kelajakda ular ko‘chib o‘tish uchun nazariy jihatdan yangi yerkarta muhtoj bo‘lishi mumkin. Rossiya Federatsiyasi bilan yaqin hamkorlik va ularning hududiy yaqinligi sharoitida ushbu istiqbollar xavfsizlik uchun potentsial tahdidga o‘xshaydi. Shuningdek, ushbu mamlakatning jiddiy moliyaviy va sanoat o‘sishini hisobga olgan holda, har yili XXRning jahon iqtisodiyotiga bosimi kuchaymoqda. Kelajakda Xitoy G‘arb bilan shunday savdo hajmlariga erishishi mumkinki, u kelajakda shartlarni keskin belgilashi mumkin. Mintaqadagi Xitoyning ta’sir darajasini aniqlash, Xitoy-AQSh-Rossiya uchburchagidagi davlatlararo munosabatlarning xususiyatlarini aniqlash kerak.

Sovuq Urush davrida Rossianing g‘arbgaga tomon kengayib borishi o‘zining yuqori nuqtasiga chiqdi va bu kengayish Sovet Ittifoqining parchalanishiga sabab bo‘ldi. Rossiya birinchi bosqich davlatlari – Boltiqbo‘yi, Belarus, Ukrainani egallab oldi va ikkinchi bosqich davlatlari tomon surilib borib, Germaniyaning sharqiy qismida o‘z nazoratini o‘rnatdi.

Rossianing bu kengayishi G‘arbiy Yevropa uchun xavf tug‘dirardi. Yevropaliklar va AQShning ikki ustunligi bor edi: ular Rossiyani to‘la qurshab olishgan va uning dengizga chiqish imkoniyatini istalgan paytda cheklab qo‘ya olar edilar. Eng muhim, yevropaliklar va amerikaliklar dengiz savdo blokini tashkil qilib, Sovetlar lageriga nisbatan anchayin salmoqli boylik to‘plashga erishdilar. G‘arb iqtisodiyotiga ozroq salbiy ta’sir ko‘rsatgan qurollanish poygasi Rossiya uchun o‘nglab bo‘lmas narxga tushdi. 1980-yillardagi neft narxining pasayishi esa Sovet Ittifoqining qulashini boshlab berdi.

Rossiya g‘arbiy chegaralarining qisqarishi misli ko‘rilmagan darajada bo‘lib, bu chegara uzoq vaqt davomida Moskvaga shu qadar yaqin bo‘lmas. 18-asrdan beri Rossiya Yevropa yarimorolining birinchi bosqichini egallab, ikkinchi bosqichini nazorat qilib kelgan bo‘lsa, 1991-yilda har ikkala bosqichdan ham ayrildi.

G‘arb Boltiqbo‘yini NATOga qo‘shib olishi natijasida NATO hududi Sankt-Peterburgdan atigi 160 km narida bo‘lib qoldi, xolos. Bunga ruslar biror javob chorasi ko‘ra olmadi. Buning o‘rniga Rossiya Chechenistondagi isyonchilarga qarshi kurashish, Gruziyaga intervensiya uyushtirish va Armanistonga qo‘shin kiritish orqali o‘z ichki va sobiq hududlaridagi barqarorlikni mustahkamlashga harakat qildi. 1991-yildan Rossiya uchun eng muhim bo‘lgan davlat – Ukrainadir. Sababi Boltiqbo‘yi allaqachon Yevropaga singib ketgan, Belarusda esa boshidan rusparast kuchlar hukumat tepasiga kelgan edi. Geosiyosiy jihatdan ham Ukraina muhim bo‘lib, uning sharqiy chegaralari Rossianing markaziy qishloq xo‘jaligi hududlari va asosiy aholi hamda transport markazlaridan o‘tardi.

2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab ko‘plab tahlilchilar jahon siyosatining ko‘plab nufuzli aktorlari uchun xalqaro jarayonlarni boshqarishning bir qutbli tizimini qabul qilmasligini tobora ko‘proq ta’kidlaydilar. Shunday qilib, xalqaro miqyosdagi eng nufuzli rus nazariyotchilaridan biri M.A.Xrustalevning yozishicha, "Amerika dunyo gegemoniyasi" - bu mutlaq avtoritar hodisa, garchi u umuminsoniy qadriyatlarga (shu jumladan, demokratiyaga ham) zid bo‘lgan niqoblar bilan yashiringan.

Amerika dunyo gegemonligini (yangi dunyo tartibi) barpo etish yo‘lida xalqaro munosabatlarning boshqa sub’ektlari tomonidan passiv va faol qarshilik ko‘rsatiladi. Bu AQSh hukmron doiralarini tobora ko‘proq xalqaro huquq me’yorlarini e’tiborsiz qoldirib va BMTni chetlab o‘tib, qurolli zo‘ravonlikka murojaat qilishga undaydi. Ushbu faol va passiv qarshilik tasodify emas. Qo‘shma Shtatlar boshchiligidagi dunyoning qat’iy ierarxiyasi AQShning rasmiy ittifoqchilari orasida bo‘lgan kichik davlatlar xalqaro munosabatlar tizimida Hindiston, Xitoy yoki Rossiya kabi qudratli davlatlarga qaraganda ancha katta rol o‘ynaganda chalkash vaziyatga olib keladi.

Bir qutbli dunyoning o‘rnini qutbli emas, balki ko‘p qutbli dunyo egallaydi degan taxmin qilgan tahlilchilar ham uning mojarolar potentsialin oshishi haqida bashorat qilmoqdalar. Rus tadqiqotchisi V.M. Kulaginning fikriga ko‘ra, “ko‘p qutblilik” haqidagi bahslar yirik davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatning kuchayishi va o‘rta va kichik davlatlarning hukmronlik “qutblariga” bo‘ysunuving kuchayishini keltirib chiqaradi. Hatto umumiylahidagi tahdidlarga ham qarshi tura olmaydigan yangi qarama-qarshi bloklarning konturlari taxmin qilinmoqda”.

Postbipolyar xalqaro munosabatlarni to‘liq tavsiflash uchun biz uning rivojlanish bosqichlarini ajratib olishga harakat qilamiz:

1. **O‘tish davrining dastlabki bosqichi (1985 – 1991yy).** 80-yillardan boshlab KPSS raisi Mixail Gorbachyov SSSRda eskirgan sovet qarashlarini (“qayta qurish”) tubdan yangilash yo‘lini e’lon qildi. Shu bilan birga qarama-qarshilik va G‘arb bilan yaqinlashish siyosati bilan to‘ldirildi. O‘tish davrining asosiy mazmuni - bu xalqaro munosabatlarda bipolyar ikkilamchilikni, ularni tashkil etish usuli sifatida Sovuq Urushni yengib o‘tishdir. Bundan oldin 40 yil davomida Sharq-G‘arbiy hududda hukmronlik qilgan (Sovet sotsializmi - kapitalizm). Sovet Ittifoqi tomonidan qarashlarning qayta ko‘rib chiqilishi tufayli bipolyar tizim o‘z hayotini o‘tay boshladi va SSSRning o‘z-o‘zini yo‘q qilishi dunyoning ikki qutbli qarashiga chek qo‘ydi.

2. **Yagona qutbli politsentrik dunyo (1991 – 2001yy).** Amerika Qo‘shma Shtatlari butunlay jahon hamjamiyatida hukmron kuchga aylanmoqdi. U Rossiyaga ham, butun Yevropaga ham o‘z shartlarini belgilab qo‘ydi. Qo‘shma Shtatlar boshchiligidagi NATO o‘zining sharq tomon kengayishini davom ettirdi, Chexiya

Yaponiya va janubiy Koreya davlatlari o‘rtasida ziddiyat mavjuddir. Uzoq muddat davomida Yaponiya tomonidan janubiy Koreya kaloniyaga aylantirganligi bilan izohlanadi. Keyingi muammolardan biri – moliya masalasidir. Koreya Yapon mustamlakachilik davri uchun moddiy kompensasiya talab qilmoqda. Shuningdek, Yaponiya davlatlarining ayblovlarini inkor qilishga harakat qilib, yapon bosh vaziri ikkinchi jahon urushi chog‘ida halok bo‘lgan yaponlarga bag‘ishlangan memorialni ziyyarat qilishga tashrif buyurib turishini ta’xkidlaydilar. Bundan xulosa shuki, Yaponiya rahbariyati agressiya qilishda ayblovlarni asossiz deb bilib, aksincha ular o‘z xalqini harbiy harakatlardan jabrlangan deb hisoblaydilar.

Ushbu ikki davlat o‘rtasida bahsli orol Tokto mavjud. Uni har ikkala davlatlar o‘z arxepelagini davomi deb bilishadi. Orol hududi juda kichik (186 ming) bo‘lishiga qaramasdan o‘zaro nizoga sababchi bo‘lgan. Yaponianig birdan bir maqsadi rivojlanib borayotgan janubiy Koreyani zaiflashtirishdir.

Yaponiya Shimoliy Koreani aggressor davlat sifatia baholaydi. KXDRdagi yadro quroli Yaponiyani tashvishga soladi. O‘z navbatida KXDRda kuchli aksilyapon kayfiyati mavjud bo‘lib, buning ildizlari Koreya yaponlar tomonidan mustamlaka qilingan davrlardan kelib chiqadi.

Yaponianing KXDRga nisbatan asosiy vazifasi – uni qurosizlantiridir. KXDR yadro qurolidan voz kechgan taqdirda, bu mamlakat bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari paydo bo‘lib, uning rivoji uchun moliyaviy yordam ko‘rsatishi, birinchidan, Janubiy Koreyaning ahamiyatini pasaytirish, ikkinchidan esa, Shimoliy Koreya siyosatiga taъsir ko‘rsatishdir.

Umuman Yaponiya tashqi siyosiy doktirinasi rivojidagi tendensiyalar va istiqbollarni ajratib ko‘rsatishni lozim topdik

1. Siyosiy tizimni modernizasiyalash
2. Mintaqadagi maqomi va o‘z pozisiyasini mustahkam tomonga harakatlantirish
3. Dunyo davlatlari bilan o‘zaro munosabatlarning tizimli transformasiyasi
4. Mamlakatni militarizasiyalash. (qarshi hujumga tayyorlanish, harbiylashish, suvernitetni himoyalash)
5. Innovasion iqtisodiyot sohasida yetakchilik
6. Milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlash bo‘yicha dastur ishlab chiqish
7. Hududiy davolar muammosini yechimini topish
8. Rossiya bilan munosabatlarni rivoji
9. Xalqaro tashkilotlar ishlarida yanada faolroq ishtrok etish
10. Yon berish siyosatini davom ettirish.

Geosiyosiy istiqbollar.

1. Yaponiya rivojlanishiga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadigan tendentsiyalar orasida ikkitasini ajratish mumkin: iqtisodiy integratsiya va mintaqaviy (osiyochilik) o‘ziga xoslikning shakllanishi.

Iqtisodiy integratsiya darajasi ichki mintaqaviy savdo hajmi bilan belgilanadi. (ASEAN mamlakatlari Yaponiya, Koreya, Xitoy, Gonkong, Tayvan, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston davlatlari bilan savdo iqtisodiy munosabat). 2006 yilda tashqi savdo aylanmasi taxminan 57% ni (yoki 3,0 trillion dollardan ko‘proq) mazkur davlatlar bilan bo‘lgan munosabat tashkil etdi. Iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning o‘sib borishi Osiyo mintaqasi jiddiy harbiy to‘qnashuvlar maydoniga aylanmasligini ko‘rsatmoqda. Mintaqaning o‘sib borayotgan iqtisodiy integratsiyasi va Yevropa ittifoqi va NAFTA kabi iqtisodiy bloklarning raqobati Osiyo o‘ziga xosligini shakllantirishga olib keladi. Bunga tobora ortib borayotgan o‘ziga bo‘lgan ishonch va XXI asr Osiyo asri bo‘lishi haqiqati yordam bermoqda. Osiyo identifikatsiyasining shakllanishi bir-biriga bo‘lgan qiziqishning ortishi, mintaqaviy hamkorlikni turli sohalarda institutsionalizatsiya qilishda (turli Osiyo forumlari va tashkilotlarining gullab-yashnashida) va “Osiyo qadriyatlari” maxsus yo‘llar va boshqalar haqidagi munozaralarda namoyon bo‘ladi. Osiyo integratsiyasi doirasida Yaponiya yuqori ilmiy-texnik salohiyatga va ulkan nomoddiy resurslarga ega mamlakat sifatida yetakchi o‘rinni egallashi mumkin.

2. Qo'shma Shtatlar mintaqaning o'zgaruvchan geosiyosatini inobatga olgan holda yangi dunyo tartibini qurishga harakat qilmoqda. Shubhasiz, bunday loyihaning muvaffaqiyati uchun mintaqadagi barcha asosiy geosiyosiy o'yinchilarni paydo bo'layotgan munosabatlар tizimiga qo'shib qo'yish zarur. Xitoy XXI asrda AQSh tashqi siyosati uchun katta muammo sifatida qaralmoqda. Yaponiya mintaqadagi ustuvor va yagona ittifoqchi bo'lganligi sababli AQSh tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy savollar mavjud: Yaponiya va Xitoyni mintaqaviy va dunyo tartibotiga qanday qo'shish kerak? Keyingi davr uchun Yaponiya ekspansiyasining konturlari qanaqa? Mazkur savollar¹ quyidagi muammolarga ishora qiladi:

- AQSh va Xitoy o'rtasidagi munosabatlар qanday rivojlanadi;
- Xitoy iqtisodiy dinamikani qanchalik muvaffaqiyatli ushlab tura oladi;
- Yaponiya o'zining tashqi siyosatini faollashtirish uchun ittifoqchilariga (sheriklariga) nimalarni taqdim etadi
 - Hindiston qaysi yo'nalishni tanlaydi;
 - ASEAN mamlakatlari o'zini qanday tutishi.

Yaponiya geosiyosati ssenariylari. Ushbu qator masalalar asosida Yaponianing geosiyosiy o'yinini rivojlantirishning bir nechta variantlarini yaratish mumkin.

Birinchi ssenariy. Mahalliy imidj mojarolari va ichki iqtisodiy muammolardan charchagan AQSh ta'sir doiralariga sarf-xarajatlarni qisqartirishga qaror qildi. Xitoy o'zining milliy manfaatlari doirasini mustahkamamoqda va kengaytirmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari Osiyoda boshqa ittifoqlarni tuzmoqda va ta'sir doiralarini ajratmoqda. Bunday holda Yaponiya Xitoy ta'sir doirasiga tushib qolishi mumkin.

Ikkinci ssenariy. qo'shma Shtatlar mintaqadagi hukmron mavqega bo'lgan da'vosini saqlab qoladi. Ular Xitoy bilan munosabatlarni rivojlantirmoqdalar, shu bilan birga o'z ittifoqchilarini va sheriklari yordamida qamoq tizimini yaratmoqdalar. Ushbu jarayonda Yaponiya asosiy rol o'ynaydi. Yaponiya Hindiston va Xitoy ochiqdan ochiq raqobatga kirishmasdan, Xitoyning Osiyodagi ta'sirining o'sishi uchun muvozanat bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi ssenariy. Ko'p tomonlama Osiyo-Tinch okeani hamkorligi Yaponiya manfaatlariga javob beradi. Vaqt o'tishi bilan ushbu hamkorlik uchta ijobjiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: 1) Xitoyga ta'sir o'tkazishda yordam berishi mumkin (shuningdek, uni ehtiyyotkorlik bilan o'z ichiga oladi); 2) Amerikaning Osiyoda qolishiga yordam berishi mumkin. Uning hukmronligini

¹ З. Бжезинский. Великая шахматная доска. М.: Междунар. отношения, 1998

bosqichma-bosqich susaytirishi kerak; 3) iqtisodiy sherik sifatida Yaponianing Osiyodagi ta'sirini oshirishga yordam berishi mumkin.

To'rtinchi ssenariy. Ushbu ssenariy iqtisodiy hayotni qo'llab-quvvatlash uchun turli xil resurslarga ega bo'lgan davlatlarning ittifoqlarini (Yevropa ittifoqi kabi) tashkil etishga asoslangan. Iqtisodiyotni asosini energetika tashkil etadi. G'arbda keng tarqalgan fikrdan farqli o'laroq, postindustrial iqtisodiyot sanoat iqtisodiyotiga qaraganda energiyaga beqiyos darajada ko'proq ehtiyoj sezadi va tejovchi texnologiyalarining rivojlanishi bu yerda yordam bermaydi. Binobarin, kelgusi o'n yilliklarda jamiyatni rivojlantirish uchun ustun bo'lgan resurslar odatdagi energiya qiymatlari bo'lib qoladi, masalan, neft, gaz, uran va kokslangan ko'mir va h.

4.5. Mintaqaviy geosiyosiy voqelikda Turkiyaning roli.

Usmoniy turklarning geosiyosiy qarashlari. Turklar tomonidan bunyod etilgan Usmoniylar davlati o'rta asrlarda, qadimgi dunyoning diniy va boshqa imperiyalari halokatga uchragan hamda milliy va markazlashgan davlatlar oyoqqa turayotgan bir davrda sayyoraning geosiyosiy munosabatlari sahnasiga chiqdi. 500 yildan ko'proq vaqt davomida jahondagi asosiy hodisalar markazida turgan bu imperiya XX asr boshlarida Yevropada kapitalistik munosabatlarning rivoji, mustamlakachi imperiyalar orasidaga ziddiyatlar keskinlashuvi natijasida boshlangan Birinchi Jahon urushi oxirlarida quladi. Turklar Yevropada xalqlarning birlashuviga, markazlashgan va milliy davlatlarning vujudga kelishiga – mazkur davrda jahon miqyosidagi eng muhim geosiyosiy hodisa hisoblanuvchi jarayonga jiddiy turtki berdilar. Usmoniy turklarning eng kuchli va samarali taraqqiyot bosqichi ular eng muhim geosiyosiy va geostrategik makonlarni egallagan, barcha qit'alarni birlashtirgan va jahon davlatlarining savdo yo'llarini nazorat qilgan (XV asr boshidan XVII asr oxirigacha bo'lgan) davrga to'g'ri keladi.

Yevropada markazlashgan davlatlar va burjuaziyaning tashkil topishi, kapitalistik munosabatlarning gurkirab rivojlanishi XVI asrning oxiri – XVII asrning boshlarida mahalliy xalqlar va davlatlarning Usmoniylar imperiyasiga qarshiligi kuchayishiga, Yevropaning birlashgan kuchlari oldida bu imperianing asta-sekin zaiflashuviga, o'z geosiyosiy mavqeini birin-ketin boy berishiga va, nihoyat, jahonning yangi mustamlakachi imperiyalari bosimi ostida to'la halokatga uchrashiga olib keldi.

To'g'ri, Usmoniylar imperiyasi ancha keyingi davrlargacha, ya'ni XVIII–XIX asrlarda ham geosiyosiy kuchga va qulay pozisiyalarga ega bo'lgan, muayyan dengizlar, qirg'oq mintaqalari va qit'a makonlarini nazorat qilgan davlat bo'lib qolaverdi. Biroq, shunga qaramay, jahonda mustamlakachilik harakati asta-sekin kuchaygan, Buyuk Britaniyaning Atlantikadan (atlantizm), Fransiya va Avstriya-

Vengriyaning Yevropadan (kontinentalizm), Rossiyaning Yevroosiyodan (yevroosiyochilik) tazyiqlari tobora kuchaygan bir sharoitda Usmoniylar imperiyasi o‘zini devorga taqalgan his qildi va yuzaga kelgan ahvoldan qutulish yo‘llarini zo‘r berib izladi. Aslida Usmoniylarning XX asr boshlarida yuqorida tilga olingan geosiyosiy kuchlar qarshisida taxminan u bilan ayni vaziyatda bo‘lgan Germaniya bilan yaqinlashuvi va uning tarafдори sifatida Birinchi jahon urushiga qo‘silishi majburiy qadam bo‘lib, turklarning mavjud “status kvo”ni himoya etishlaridan boshqa yo‘li ham yo‘q edi.

Ma’lumki, Germaniya boshchilik qilgan harbiy blokning urushda mag‘lubiyatga uchrashi keyingi davrda bu mamlakatning mustamlakachilik orzulariga va bu borada amalga oshirmoqchi bo‘lgan siyosatiga, ayni chog‘da Usmoniylar imperiyasining geosiyosiy borlig‘iga chek qo‘ydi va ularning ikkovini ham jahonning ikkinchi darajali davlatlari qatoriga uloqtirdi. Birinchi Jahon urushiga qadar tarix sahnasida muhim rolъ o‘ynagan va o‘z so‘zini o‘tkazgan turklar eng og‘ir ahvolga giriftor bo‘ldilar. SHu vaqt dan boshlab Yevropa va jahonning sakkizta asosiy imperiyasidan (Britaniya, Fransiya, Avstriya-Vengriya, Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Rossiya) biri bo‘lgan Usmoniylar imperiyasi jahon geosiyosiy kurashi maydonidan chiqib ketdi. Qariyb besh yuz yildan ko‘proq vaqt mobaynida sayyorani larzaga solgan Usmoniylar sulolasi hokimiyatiga ham nuqta qo‘yildi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar Usmoniylarning geosiyosiy muammosini asosan ularning yangi-yangi hududlarni ishg‘ol etishi va o‘z geografik yaxlitligini tez-tez buzib, geomakon, harbiy-strategik-sarhad unsurlarini o‘zgartirishga majbur bo‘lishi, yangi davlatlar, xalqlar va jamiyatlar bilan kurash va aloqa muammolarini hal etish, qo‘snilchilik va chegara xavfsizligi masalasini hal etish majburiyatiga duch kelishi, buyuk ko‘chishlar va erlashuvlar natijasida yuzaga kelgan mushkilotlar, arablardan meros olgan musulmon-xristian-yahudiy qarama-qarshilagini davom ettirishi va XI-XX asrlar orasida jahonda islomni himoya etish va yoyish vazifasini ijro etishni ta’minlashga harakat qilishi, Yevropa markaziga kirib borgan sari u erdag‘i xalqlar va davlatlarning qarshiliqi kuchayishi va shu kabilar bilan bog‘laydilar.

Turkiya zamonaviy xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchilaridan biriga aylandi. So‘nggi oylarda mutaxassislar alohida e’tiborni uning Suriya mojarosi bilan bog‘liq harakatlarini jalb qila boshladilar. Shu bilan birga, Turkiya harakatlarining mantig‘ini va sabablarini tushunish uchun nafaqat vaziyatni, balki doimiy sharoitlarni ham hisobga olish muhimdir. Xususan, biz so‘nggi yillarda barqarorlik va izchillik belgilariga ega bo‘lishni boshlagan mamlakatning geosiyosiy strategiyasi haqida gapiramiz.

Geosiyosat nuqtai nazaridan Yevroсиyo odatda ikkita tarkibiy qismga bo‘linadi: markaziy erlar (Heartland) va chekka erlar (Rimland). Klassik geosiyosiy fikrning ko‘pgina vakillari, dengiz bo‘shliqlariga ega bo‘lgan davlatlarning muvaffaqiyatga erishish imkoniyati kontinental davlatlarga qaraganda ko‘proq, ya’ni. "chevara davlatlari" deb nomlangan "markaziy erlar" ga nisbatan katta ustunlikka ega.

Ko‘p asrlar davomida dengizlar va okeanlar ba’zi davatlarni boshqalari bilan bog‘laydigan savdo yo‘llari bo‘lib kelgan va bu ularning farovonligi va farovonligini ta’minlaydi. Bunday davlatlar klassik geosiyosatda tallasocracies deb nomlanadi, ular dinamik, harakatchan, texnik rivojlanishga moyil.

Ularning ustuvor yo‘nalishlari - ko‘chmanchi (ayniqsa navigatsiya), savdo, yakka tartibdagi tadbirkorlik ruhi. Ushbu turdagи sivilizatsiyalar tez rivojlanadi, faol rivojlanadi, tashqi madaniy xususiyatlarni osongina o‘zgartiradi, faqat ichki o‘ziga xoslikni o‘zgarishsiz saqlaydi¹.

Yuqoridagi xususiyatlarga asoslanib, Turkiya Respublikasi Tallasokratik davlatlarga tegishli bo‘ladi. Mamlakatning birdaniga bir nechta dengizlarga kirishi va Qora va O‘rta yer dengizni birlashtirgan strategik muhim bo‘g‘ozlarga egalik qilishi, asosan, mamlakatning mintaqaviy siyosatining yo‘nalishi va mazmunini belgilab beradi.

Kichik Osiyoning yagona geografik mintaqasi bo‘lgan Turkiya Respublikasining geosiyosiy pozitsiyasining o‘ziga xos xususiyati uning ichki va tashqi siyosatini belgilash va amalga oshirishda iz qoldirmoqda. Turkiya Yevropa, Osiyo va Afrikaning chorrahasida joylashgan. Mamlakat dengiz chegaralariga ega, ularning uzunligi er uzunligidan sezilarli darajada oshib ketadi.

Bundan tashqari, Bosfor va Dardanell bo‘g‘ozlari ustidan nazoratning mavjudligi Turkiyani Yevroosiyo qit‘asining "eshigi" ga aylantiradi va shu bilan birga Yevroosiyodan Yyevropa, Osiyo va Afrika davlatlariga muhim yo‘lni ochadi. Shunday qilib, Rimlandning dengiz va quruqlik qarama-qarshiligidagi rolining o‘ziga xosligi nazariyasiga ko‘ra, Kichik Osiyo dunyoning geosiyosiy modelining asosiy mintaqaviy makoni, Yevroosiyoning eng muhim aloqa zonasidir.

Turkiya Respublikasining asoschisi Otaturkning geosiyosiy qarashlari

Birinchi Jahon urushidagi mag‘lubiyatidan so‘ng – 1919-1920 yillardan boshlab turklar faqat boshqa qit‘alardagina ems, balki o‘zlari yashagan Onado‘li zaminida ham mushkul va mashaqqatli geosiyosiy jarayonga duch keldilar. Bu esa Mustafо Kamol Otaturk va uning quroldoshlarini oyoqqa qalqishga, millatni safarbar etib,

¹qarang: Дугин А.Г. Законы геополитики.– М.:Арктогея, 2000.
<http://arctogaia.com/public/osnovygeo/geop13.htm#6>

qo'llariga quroq olishga, turklarning milliy his-tuyg'ularini, davlatchiligi va mamlakatning bir butunligini himoya etishga safarbar qildi.

Tadqiqotchilar Ikkinchisidan jahon urushining oxiriga qadar bo'lgan davrni (1919-1945) turklarning avvalgi imperiyachilik da'volaridan tamomila mahrum bo'lishi, turk xalqining Otaturk rahbarligida hozirgi Turkiya Respublikasini barpo etishga safarbar etilishi va bu davlatning yangi statusda jahon va mintaqaga geosiyosiy hayotida ishtirok etishi davri sifatida tavsiflaydilar.

Ayni yangi Turkiyaning asoschisi Otaturk turk ijtimoiy-siyosiy va davlat arboblari orasida "geosiyosat" atamasini birinchi bo'lib ishlatgan va bu yo'nalishda o'z fikrlarini ochiq-oydin bayon etgan birinchi kishi bo'ldi. U Turkiya davlatining geosiyosiy makonini uning atrofida joylashgan hududlar bilan birga "Yevroosiyo" deb atadi va mamlakatining o'zaro aloqalarini ayni shu geografik makondagi davlatlar va xalqlar bilan o'rnatishga harakat qildi.

Rasmiy ravishda Turkiya o'zining davlat mafkurasiga ega. 1923 yilda Mustafo Kamol Otaturk tomonidan Turkiya Respublikasi tashkil qilingandan so'ng, mamlakatning yangi milliy mafkurasini taklif qilindi, uning asoschisi - kamalizm deb nomlandi.

Kamolizm - bu turk millatining hozirgi va kelajakda to'liq mustaqilligi, xavfsizligi va farovonligini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan davlat g'oyalari va tamoyillari, mafkuralar, iqtisodiyot va ijtimoiy instittlarning asosiy tuzilishi.

Chet ellik tadqiqotchilar Kemalizmni va uni himoya qilishni individual va milliy qo'llab-quvvatlash kelajakda Turkiya davlatining rivojlanishi, qudrati va ravnaqi garovidir, deb ta'kidlaydilar¹.

K.Otaturk boshlagan islohotlarning asosiy maqsadi mamlakatni modernizatsiya qilish edi. Usmonli imperiyasi qulaganidan keyin Turkiya boshidan kechirgan bunday shokdan so'ng, mamlakat tub o'zgarishlarga muhtoj edi. K. Otaturk g'arbiylashtirishni o'z mamlakati rivojlanishining asosiy vektori sifatida tanladi. G'arbiylashish Yevropa tsivilizatsiyasidan ilg'or bo'lgan barcha narsalarni qarzga olishni va keyinchalik mahalliy, turkiy sharoitlarga moslashishni nazarda tutgan

Tashqi siyosatda Turkiya birdaniga bir nechta davlatlar va qit'alar o'rtasida manevralar o'tkazishda betaraflikni saqlashga intildi, bu esa o'z navbatida mamlakatning geosiyosiy mavqeiga mos keldi. Kemalizmning asosiy vazifasi o'sha paytda Usmonli imperiyasining tajovuzkor va ekspansionistik siyosiy maqsadlari va tamoyillaridan uzoqlashish edi. Ushbu kontseptsiya Turkiyani respublika deb e'lon qilganidan keyin hokimiyatga kelgan barcha prezidentlar tomonidan ozmi-ko'pmi amal qilingan.

¹ What is kemalism? – <http://www.erkutaldeniz.com/what-is-kemalism/>

“Yevroosiyochilik” atamasi turk geosiyosatida Otaturkdan oldin ham ishlatilgan. Bu ibora turk geosiyosatiga birinchi bo‘lib “turonchilik”ning mumtoz mafkurachisi Ziyo Ko‘kalp tomonidan 1908 yilda kiritilgan edi.

Keyingi yillarda bu atamaga geosiyosiy makon ma’nosi berildi va Turkiya rasmiy tashqi siyosatining vositasi sifatida vaqt-vaqt bilan faqat muayyan tarixiy sanalarda qo‘llanildi.

Yevroosiyodagi ikkita nahang – Rossiya va Usmoniylar imperiyalarining qulashidan keyin Turkiyada ham, Rossiyada ham “yevroosiyochilik”ni yangi respublikalarning davlat strategiyasi darajasiga ko‘tarib, uni ingliz-sakson atlantizmi va Yevropa kontinentalizmiga qarshi qo‘yishga harakat qilindi. 1919 – 1922 yillarda va Ikkinci jahon urushiga qadar Sovet Rossiyasida Lenin va Turkiya Respublikasida Otaturk, ularning safdoshlari va davomchilar yevroosiyochilik siyosatini yurgizib, bir-biri va mintaqadagi boshqa mamlakatlar bilan geosiyosiy aloqalarni qo‘llab-quvvatladi. Otaturk Rossiya bilan munosabatlarga, ayniqsa, katta ahamiyat bergen. Ish hatto shunga ham borib etdiki, G‘arb blokining Sovet Rossiyasiga, keyinroq SSSRga qarshi o‘tkazayotgan dushmanlarcha munosabatga javob tarzida Turkiya ancha uzoq vaqt Millatlar Ligasiga a’zo bo‘lishdan bosh tortdi.

Lekin Otaturk o‘scha davrda Rossiya bilan geomakonda hamkorlik qilish, mintaqaviy munosabatlar va boshqa geosiyosiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlash bilan birga, o‘z mamlakatini sovetlashtirishni qat’iyan rad qildi. O‘scha vaqtida uning zamondoshlarining ko‘pchiligi Otaturkning Lenin bilan “iliq munosabatlari”ni ro‘kach qilib, Turkiyaning “usmoniy imiji” bilan vidolashib, sosializm yo‘lidan ketish va baynalmilalchi davlat yaratishdan boshqa yo‘li yo‘q, deb hisoblagan bir vaqtida Otaturk mutlaqo boshqacha yo‘l tanladi. U Turkiyani “turklarning milliy borlig‘ini aks ettiradigan va rivojlaniradigan”, “o‘rta yo‘lni tanlagen betaraf davlat” sifatida rivojlantirishga qaror qildi. SHubhasizki, Lenining “proletariatning vatani yo‘q, umumiy maqsadlari bor xolos” degan shiori Otaturkning “har bir turk uchun vatandan aziz ne’mat yo‘qdir” degan shiori aslo bir-biriga mos tushmas edi.

Otaturk Turkiyani zamonaviy sivilizasiya qadriyatlarini asosida yashaydigan, o‘scha vaqtida Yevropa ijtimoiy-siyosiy va madaniy sistemalariga xos fuqarolik jamiyati boshqaruv rejimi va muassasalariga ega bo‘lgan, lekin o‘z milliy va ma’naviy qadriyatlarini saqlab qolgan, sosializmga ham, atlantizmga ham o‘xshamaydigan mustaqil – uchinchi taraqqiyot yo‘lidan boradigan mamlakat sifatida tasavvur qilardi. U Yevropa va Rossiya geosiyosatchilarining insoniyat sivilizasiyasini turlarga bo‘lishdan iborat qarashlarini qabul qilmagan va sivilizasiyani “yagona insoniy qadriyat” deb hisoblagan edi.

Zamonaviy, dunyoviy Turk davlatini barpo etish munosabati bilan Otaturk bunday degan edi: “Mamlakatlar ko‘p, lekin sivilizasiya bittadir. Millatning taraqqiyoti uning yagona dunyo sivilizasiyasiga mansubligiga bog‘liq... Usmoniyalar imperiyasi G‘arb ustidan qozongan g‘alabalari natijasida qo‘lga kiritgan ustunligidan to‘g‘ri foydalana olmagan va Yevropa bilan barcha madaniy aloqalarini yo‘qotgan chog‘dagina uning halokati boshlandi. Biz bu xatoni takrorlamaymiz. Bizning an’analaramiz, siyosatimiz, barcha xatti-harakatlarimiz Turkiyani Yevropa mamlakati, aniqrog‘i, G‘arb yo‘lidan boradigan mamlakat sifatida qaror toptirishga yo‘naltirilgan. Biz mamlakatni zamonaviylashtirishni xohlaymiz va bizning asosiy siyosatimiz yevropacha hokimiyat asoslarni barpo etishga yo‘naltirilgandir”.

Otaturkning geosiyosati amaliyigli bilan ham ajralib turadi. Bu, birinchi navbatda, shu bilan bog‘liq ediki, o‘sha vaqtligi Turkiyada, Yevropa davlatlaridan farqli o‘laroq, mustaqil davlatchilik va yangi boshqaruvin munosabatlarini shakllantirish g‘oyasini “uchinchi tabaqa” yoki milliy burjuaziya emas, balki asosan Otaturk boshchiligidagi harbiy-fuqaro byurokratiyasi amalga oshirayotgandi.

Tadqiqotchilarining fikricha, Germaniya va SSSR o‘rtasida urush ehtimolining kuchayishi o‘sha davrda Turkiyadan har ikkala mamlakat bilan munosabatlarda o‘ta ehtiyyotkorona yo‘l tutishni va muvozanatlashtirilgan siyosat o‘tkazishini taqozo etdi. Turkiyaning rasmiy ravishda “betaraf mamlakat” statusini qabul qilib, urushdan chetda turishni afzal ko‘rganini ular o‘sha vaqtda mamlakat uchun eng muvaffaqiyatli va eng to‘g‘ri qadam bo‘lgan, deydilar. O‘sha davrda yaqinlashib kelayotgan harbiy tajovuzni daf etish bu mamlakatdan ishonchli mudofaa sistemasini yaratishni va uni xalqaro shartnomalar vositasida mustahkamlashni talab qilar edi. Turkiya bu geosiyosiy vazifani muvaffaqiyat bilan amalga oshirdi.

Turkiyaning taxminan 1940 yillardan tashlay boshlagan keyingi qadamlari uni sosialistik Sovet Ittifoqidan tobora uzoqlashtirdi va kapitalistik G‘arbgaga, xususan atlantizmga (o‘sha vaqtli bu yo‘nalish ko‘proq ingliz-amerika manfaatlarining ifodachisi bo‘lgan) yaqinlashtirdi. Natijada urushdan keyingi mafkuraviy qarama-qarshilik geosiyosati davrida (1945-1991 yillar) Turkiya NATO tarkibiga kirib, Yevroosiyoda asosiy aksilsoviet markazlaridan biriga aylandi.

Turkiya “sovuq urush” yillarida: geosiyosiy maqsadlar va nazariyalar

Ikkinci Jahon urushidan keyin Turkiya yana jiddiy va juda murakkab geosiyosiy tanlovga ro‘para keldi. Germanianing uzil-kesil tor-mor etilgan, jahon va Yevropa sinfiy-mafkuraviy qadriyatlarga ko‘ra ikkita qarama-qarshi lagerga bo‘linib ketgan bir sharoitda, aytish mumkinki, nihoyatda muhim geostrategik makonda joylashgan Turkiya endi “betaraf” bo‘lib qolishi mumkin emasdi.

Urushning o‘rtalaridan boshlab, Stalining Turkiya bilan bog‘liq ziddiyatli va muayyan ma’noda aksilturk siyosati Turkiyaning hududiy yaxlitligiga tahdid sola boshlagandan keyin Anqarani urush oxirida o‘z “yevroosiyochilik” doktrinasidan voz kechish, Evroatlantika blokiga qo‘shilishini va AQSH bilan strategik munosabatlar o‘rnatishini shart qilib qo‘ydi.

Turkiyaning bu yo‘lni tanlashining muayyan siyosiy va tarixiy sabablari bor. Eng avvalo, urush davomida AQSHning Yevropada o‘tkazayotgan geosiyosati bilan Turkiyaning xalqaro manfaatlari o‘rtasida muayyan aloqalar borligi ma’lum bo‘ldi. Ikkinchidan, Turkiyaning ichki aksilkommunizm siyosati va urush oxirida u bilan SSSR o‘rtasida hudud masalasida ba’zi muammolar paydo bo‘lgani AQShni bu mintaqada Turkiyani o‘zining strategik sherigi deb qarashga ruhlantirdi.

Butun “sovuq urush” yillari mobaynida Turkiya jahonda hamda Yaqin va O‘rta Sharqda, Kavkaz va O‘rta Osiyoda sodir bo‘layotgan geosiyosiy jarayonlarga faqat atlantizm nuqtai nazaridan yondashdi. AQSH bilan harbiy-siyosiy hamkorlikni saqlash va kengaytirish Turkiya tashqi siyosatining eng muhim ustuvor vazifalaridan biri bo‘ldi. Turkiyaning mavjud siyosiy partiyalari mamlakat tashqi siyosati masalalariga turlicha yondashgan bo‘lsalar-da, ularning ko‘pchiligi AQSH bilan strategik hamkorlikni saqlashdan manfaatdor edilar. Hokimiyat tepasiga kelgan kuchlar istisnosiz ravishda AQShning Yaqin va O‘rta SHarqdagi geosiyosatini qo‘llab-quvvatladilar, SSSRning bu mintaqaga ta’sirini zaiflashtirishga harakat qildilar.

Turkiyaning NATO bilan hamkorlik qilishi va bu tashkilotga a’zo bo‘lishga intilishi o‘sha vaqtida yagona to‘g‘ri geosiyosiy qaror edi. Bu shu bilan bog‘liq ediki, mazkur davrda Turkiyaning geosiyosiy xavfsizligini ishonchli ravishda ta’minlaydigan shunga o‘xhash boshqa tuzilma yoki mamlakat bo‘lmagan.

NATOga a’zo bo‘lib kirganidan keyin Turkiyaning geosiyosiy mavqeい ham, harbiy-iqtisodiy vaziyati ham ancha yaxshilandi. Avvalo, turk hukumati NATOning ba’zi infrastrukturalarining joylashtirilishi, qo‘silarning ta’minoti, harbiy tashuvlar va shu singari ta’minot dasturlari doirasida G‘arb mamlakatlaridan xususiy yordam olishga muvaffaq bo‘ldi, boshqa tomonidan, Turkiya YAqin va O‘rta SHarqda geosiyosiy mavqeini mustahkamlash uchun AQSHning istagi bilan yaratilishi ko‘zda tutilgan NATOning “O‘rta SHarq Qo‘mondonligi” nomli harbiy ittifoqida etakchi o‘rin tutishga erishdi. Mazkur davrda Adnan Menderes hukumatining bu yo‘lda ko‘rsatgan faolligi AQSH tomonidan javobsiz qolmadni va AQSH Davlat Departamenti Turkiyaning 1952 yilda yangi harbiy paktni yaratish rejasiga qo‘shilishini “ozod dunyoning mudofaa sistemasida strategik mavqe” deb baholadi. Bu rejaga ko‘ra AQSH SSSRning janubiy chegaralarida joylashgan barcha davlatlarning birgalikdagi mudofaa sistemasini yaratishni ko‘zda tutgan edi. Bu sistemaning Bosh qarorgohi Turkiyada joylashishi rejalashtirildi. SHu davrda

AQSHning hukmron doiralari Turkiya va Isroil YAqin SHarqda AQSH to‘la ishonishi mumkin bo‘lgan yagona mamlakatlardir, deya qat’iy ishonch bildirgan edilar.

Zamonaviy Turkiyaning geosiyosiy nazariyalari va oqimlari. AQSH va Yevroatlantika blokiga qarshi kurashda SSSR va jahon sosialistik sistemasining 1991 yilda mag‘lubiyatga uchrashi jahon geosiyosiy vaziyatida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi. Tadqiqotchilarning fikricha, Dengiz sivilizasiyasini (talassokratiya) bo‘lgan AQSH va uning NATOdagi ittifoqchilari o‘z geosiyosiy raqibi bo‘lgan Quruqlik sivilizasiyasini (tellurokratiya) – jahon sosializm sistemasi ustidan tarixda birinchi marta jiddiy ustunlikka erishdi va g‘olib chiqdi. Shu hodisadan so‘ng jahon siyosatining asosiy va hal qiluvchi sub’ekti sifatida chiqa boshlagan atlantizm (AQSH va Yevropa Ittifoqi) “yangi dunyo tartiboti”ning geosiyosiy tuzilmasini boshqarishga, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishga jiddiy ta’sir o‘tkaza boshladi. “Sovuq urush” davrining asosiy o‘yinchilari ham, ularning funksiyalari ham o‘zgardi. Oldinlari “G‘arb” atamasi bilan atalgan atlantchilar tarkibida ham muayyan tabaqalashuv yuz berdi. SHarqiy Yevropa mamlakatlarining NATOga qabil qilinishi bilan uning tarkibida AQSH, G‘arbiy va Sharqiy Yevropa, ayricha Turkiyaning xulq-atvori va geosiyosiy manfaatlaridagi tafovutlar oshkora namoyon bo‘la boshladi va h.k¹.

Yevroosiyoning yirik va kuchli davlatlaridan biri bo‘lgan Turkiya mafkuraviy qarama-qarshilik tugaganidan, Rossiya va oldingi sosialistik davlatlar bilan hamkorlik qilish borasidagi taqiqalar olib tashlanganidan foydalanib, yangi sharoitda o‘z geosiyosiy vaziyatini yana qayta ko‘rib chiqa boshladi. Bu davrda turk siyosatchilari va geosiyosati namoyandalarining bir guruhi “yangi dunyo tartiboti” deb atalgan bir qutbli jahon siyosatida mamlakatning o‘rnini, roli va statusini belgilashga harakat qilgan bir paytda, boshqa guruhi yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib, Turkiyani yana aksilsovet faoliyati va mafkuraviy qarshilik davridan oldingi geosiyosiy holatiga qaytarish, o‘z geosiyosiy vaziyatini qayta ko‘rib chiqish, G‘arb va Rossiya o‘rtasida muvozanatlashgan pozisiyani topish asosida siyosat yuritishga da’vat qildilar, mamlakat faoliyatini yevroosiyochilar va atlantizm tarafdarlarining geosiyosiy manfaatlarini uyg‘unlashtirish yo‘nalishida olib borish zaruriyatini asoslab berdilar.

XXI asr butun dunyo uchun bo‘lgani kabi Turkiya uchun ham insoniyat taraqqiyotida yangi bosqich bo‘ldi. 2001 yilda allaqachon Turkiya tashqi ishlar vaziri A.Dovuto‘g‘lining “Strategik chuqurlik” deb nomlangan juda mashhur asari nashr etildi. Kitobda yangi ming yillikdagi respublika tashqi siyosatining printsipial jihatdan yangi kontseptsiyasi bayon etilgan. Muallif nuqtai nazaridan

¹ Қаранг: Дугин А. Евразийская стратегия Турции // www.evrazia.org.

Turkiya o‘zining geosiyosiy mavqeidan foydalanib, Yyevropa, AQSh, Rossiya va Yaqin Sharq manfaatlari o‘rtasida manevr qilishni o‘rganishi kerak. Muallif, Turkiya o‘zining tashqi siyosatini tarixiga asoslanib shakllantirishi va rivojlanishi kerak, deb hisoblaydi.

Dovuto‘g‘lining aytishicha, Turkiyani mintaqaviy, so‘ngra jahonning qudratli davlatiga aylantirish uchun Yaqin Sharq, Janubiy Kavkaz, Bolqon yoki Yyevropa bo‘lsin, ma'lum bir mintaqaga tashlagan har bir qadamini diqqat bilan o‘ylab, tekshirib ko‘rish kerak. Faqatgina izchil va mulohazali harakatlar orqali Turkiya o‘zini mintaqaviy siyosatini o‘zaro manfaat izlash siyosati asosida quradigan ishonchli ittifoqchi sifatida ko‘rsata oladi.

Turkiya uchun mamlakat tarixida yangi davr boshlandi. Rejep Tayyip Erdo‘g‘an boshchiligidagi Adolat va taraqqiyot partiyasi (AKP) 2002 yil 3-noyabrda bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarida g‘olib chiqdi, uning mafkurasi o‘ng qanotli evrosiyalizm, mo‘tadil islom an'anaviyligi va AQSh va Yevropa Ittifoqiga yo‘nalish edi. .

Majlisda 366 o‘rinni olgan AKP yakka partiiali hukumat tuzish huquqini oldi va darhol aholi kutgan islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. 2010 yilda, 1982 yildan beri birinchi marta, hukmonron partiya tomonidan ishlab chiqilgan mamlakat Konstitutsiyasiga 24 ta o‘zgartirish kiritildi.

Tashqi siyosatda Adolat va taraqqiyot partiyasi ko‘pvektorlikni ta'kidladi. Mamlakat tashqi siyosatining quyidagi asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqildi:

- Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo‘silishi;
- "qo‘shnilar bilan nol muammolar" siyosatini amalga oshirish;
- Turkiyaning mintaqaviy kuchga aylanishi;
- AQSh bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- Rossiya bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- Afrika mamlakatlari bilan aloqalarni kengaytirish.

Zamonaviy Turkiya rahbariyati mintqa davlatlari bilan nafaqat uning xavfsizligini ta'minlash, balki uning beqarorlashtiruvchi omili bo‘lgan "eski" hal qilinmagan qarama-qarshiliklarning yangi yoki tiklanish ehtimolini minimallashtirish maqsadida ishonchli aloqalarni o‘rnatishni maqsad qilgan.

Yangi tashqi siyosat tamoyillarini bir necha yil davomida izchil amalga oshirish o‘z natijalarini berdi. Dunyoning va Usmoniydan keyingi makonda Turkiyaning obro‘si sezilarli darajada oshdi.

Arab dunyosi bilan munosabatlarda sezilarli yutuqlarga erishildi. Birinchi jahon urushi davrida arablar Usmonli imperiyasini qulatish uchun juda ko‘p harakatlarni amalga oshirdilar va yaqin vaqtgacha ular orasida Turkiyaning obro‘si past edi. Vaqt o‘tishi bilan vaziyat sezilarli darajada o‘zgardi. Bolqon, Kavkaz va Markaziy Osiyoda Turkiya ham faol iqtisodiy va siyosiy yo‘nalishni amalga

oshirmoqda. Aslida, Turkiya Yaqin Sharqning siyosiy va iqtisodiy rahbari bo‘lishga intilmoqda.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligining oxiriga kelib, Turkiya yangi ambitsiyalar va jiddiy qiyinchiliklar bilan yaqinlashmoqda. Amaldagi president Rajab Toyyib Erdo‘g‘an muntazam ravishda o‘z kuchini o‘n besh yil davomida kuchaytirib, mamlakatni o‘z e’tiqodiga muvofiq isloh qilishga, albatta, mavjud iqtisodiy, resurs va tashqi cheklovlar imkon beradigan darajada harakat qildi. Aftidan, R.T.Erdog‘an turk tarixining zamonaviy davri uchun kun tartibini shakllantiradi. Konservativ kun tartibi bilan hokimiyatga kelgan u muqarrar ravishda Turkiyaning global yetakchi mavqeini ta’minalash uchun iqtisodiy va texnologik taraqqiyot zarurligini anglaydi. R.T.Erdo‘g‘an megaprojektlarga qiziqadi, ammo iqtisodiyotning o‘ziga xos temir qonunlari bor.

So‘nggi yillarda, ko‘pgina kuzatuvchilar ayanchli kinoya bilan ta’kidlaganidek, Turkiya "qo‘snilar bilan hech qanday muammo bo‘lmaydi" shioridan "muammosiz qo‘snilar bo‘lmaydi" degan aniqroq tamayol asosida ishlashga o‘tdi.

Katta O‘rta Sharqdagi siyosiy o‘zgarishlar bizni uzoq vaqtdan beri shakllanib kelayotgan so‘z boyliklariga yangicha qarashga majbur qiladi. Ilgari "islom", "islomizm" va "islomchi" tushunchalariga sarmoya yotqizilgan semantik yuk endi Turkiyada yangi kontseptsiyalarga ega bo‘lmoqda. Davlatning ichki siyosiy tuzilishi va u yerda tobora kuchayib borayotgan siyosiy islomizm va avtoritarizm, ekspertlar ta’kidlaganidek, bir-biriga teng belgiga ega.

Ichki siyosiy jihatdan siyosiy islomizmning ohanglari "neo-kamalist" ga aylanadi. Millatchilik tuyg‘ulari kuchaymoqda, madaniy sohada islomiy tendentsiyalar o‘sishi davom etmoqda. Tashqi siyosatda Turkiya rahbariyati dunyoning turli mintaqalaridagi musulmon aholisi protektorati va “neo-usmonlik” siyosati to‘g‘risidagi bir paytlar muhim ritorikadan asta-sekin voz kechmoqda. Yevroosyo mamlakatlari bilan aloqalarni chuqurlashtirish yo‘nalishi aniq.

Yaqin o‘tmishda Turkiya mintaqada dunyoviy, plyuralistik, demokratik tuzilish namunasi sifatida tasvirlangan. Turkiyaning siyosiy rahbariyati o‘zining yangi Usmonli intilishlarini, shuningdek, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi turk demokratiyasining modelini targ‘ib qilish uchun barcha imkoniyatlardan muntazam foydalana boshladi. Ushbu jarayon milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan qo‘llab-quvvatlandi.

Mintaqaviy siyosatida Turkiya tashqi ishlar vazirligi “professor Dovudo‘g‘li uchburchagi” asosida boshqargan: tashqi Turkiya, Eron va Misr timsolida; ichki Turkiya Iroq, Suriya, Saudiya Arabiston, passiv Turkiya, Livan, Iordaniya va Falastinga bo‘lingan.

NATO Turkiyaning tashqi siyosati uchun strategik ahamiyatini yo‘qotishni boshladi, aslida ustuvor yo‘nalishni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar - Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish to‘xtatildi. Ayni paytda, Turkiya hukumati, hatto musulmon dunyosining yetakchisiga aylanish g‘oyasini amalga oshirishga imkon qadar yaqinlashib, G‘arbdan uzoqlashish yo‘lini tutmasligi aniq. Yevropa Ittifoqi Turkiya tashqi savdosining 40 foizini, Turkiyadagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning 70 foizini, uning turizm sohasi daromadlarining 50 foizidan ko‘pini tashkil qiladi. Hozirgi kunda Shimoliy Atlantika Ittifoqi dunyo qurollarining 70 foiziga egalik qiladi.

Islomiy davlatlar bunday harbiy blokni yarata olmaydilar. Dunyo energiya manbalarining deyarli 90% musulmon mamlakatlaridan eksport qilinishiga qaramay, 57 ta islomiy davlatlar jahon ishlab chiqarishining atigi 7% ini tashkil etadi. Dunyoning eng qashshoq 48 davlatidan 22 tasi musulmonlardir.

Umuman, turk geosiyostida, xususan, uning nazariya markazlarida mamlakatning g‘arbchi geosiyosiy yo‘lini qo‘llab quvvatlaydiganlar bilan bir qatorda yangi yevroosiyochilik yo‘li tarafdarlari ham ko‘payib bormoqda. Keyingilarni turlicha tasnif qilishadi. Umuman olganda, turk yevroosiyochilarini ikki guruhga “turk-markazchi yevroosiyochilar” va “turk-slavyan yevroosiyochiligi” tarafdarlariga ajratish mumkin. Bir guruh yevroosiyochilikni Turkiyaning G‘arbgaga emas, ko‘proq Yevropa va Osiyo orasidagi (Yevroosiyodagi) davlatlar va xalqlar tomonga yuz burishi hamda mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotini mintaqaning turk-slavyan birligiga bog‘liq yo‘sinda tasavvur qilsa, boshqa guruh o‘tmishdagi “Turonchilik” g‘oyasini yana jonlantirib, mintaqadagi turk-musulmon xalqlarni Turkiya atrofida birlashtirish, XXI asrni “turk asri”ga aylantirish kabi millatchilik shiorlarini o‘rtaga tashlamoqda.

Turk geosiyosatida yevroosiyochilarini yanada kengroq tarzda tasnif etishga urinishlar ham bor. Chunonchi, Mahmat Acha Turkiyadagi barcha yevroosiyochilarini oltita guruhga bo‘lgan. Bular: Sulton Galievning1 “Turon sosialistik davlati” nazariyasi izdoshlari, geosiyosatchi olim Atilla Ilxanning “Kamolchi yevroosiyochilik”, Ishchi Partiyasi va Dog‘u Parinchak tomonidan mudofaa etilayotgan yevroosiyochilik, “Ulusal” va “Yangi Yevroosiyo” jurnallari atrofiga uyushgan “millatchi yevroosiyochilar” ASAM – Turkiya strategik tadqiqotlar markazi tomonidan yo‘naltiriladigan “yevroosiyochilik” va, nihoyat, “Zamon” gazetasi atrofida uyushgan va uning guruhiga kirgan F.Gulenchilarining “Yevroosiyo Dialogi platformasi”ning “muhofazakor yevroosiyochilar”dir.

Hozirgi turk yevroosiyochilarini orasida Marmara Strategik tadqiqotlar vaqfi va uning raisi Aqqan Suver “millatchilik yevroosiyochiligi”ga yaqin geosiyosiy pini namoyish etmoqda. Ularning yondashuviga ko‘ra, garchi Yevroosiyo geografik tomonidan ikkita alohida qit’aning birlashuvidan tashkil topgan bo‘lsa-

da, geomakon sifatida u har ikkala qit’aning milliy-ma’naviy va ijtimoiy atvor normalarini, tushuncha va qadriyatlarini yaratgan, shakllantirgan va milliy chegaralardan oshib o’tib “global geosiyosiy birlik” mohiyati kasb etgan submintaqadir. Aqqan Suver va Marmara guruhi necha yillardan buyon ikki qit’ a xalqlari va davlatlarining “Yevroosiyo Ittifoqi” g‘oyasini tarqatmoqda, ularning rasmiy va norasmiy namoyandalari ishtirokida har yili Istanbulda yig‘ilishlar uysushtirmoqda va Xitoydan Adriatika dengiziga qadar bo‘lgan ulkan geosiyosiy makonda Yevropa Ittifoqiga o‘xhash yangi “Yevroosiyo Ittifoqi”ni barpo etish g‘oyasini targ‘ib etmoqda.

Hamza Ero‘g‘lining fikricha, Otaturk turk millatchiligin manfiy ma’noda tushunishlarning oldini olish maqsadida umrining oxiriga qadar “millatchilik” atamasi o‘rniga “uluschilik” atamasini ishlatgan. Hozirgi vaqtida Rossiya va Turkiya yevroosiyochilari ham “yagona mintaqaga mansublik” ma’nosida “yevroosiyolik” atamasini qo‘llanmoqdalar. Yoki Otaturkning vatanga muhabbat to‘g‘risidagi fikri ruschada “patriot” (vatanparvar) ma’nosida ifoda qilinadi.

4.6. Markaziy Osiyo regionidagi geosiyosiy jarayonlar

Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlar tizimida – tarixiy ildizlar. Markaziy Osiyoning qaytadan vujudga kelishi insoniyat oxirgi o‘n-o‘n besh yil mobaynida boshdan kechirgan ko‘plab dramatik o‘zgarishlar va keskin burilishlar orasida, shubhasiz, eng muhimlari qatoriga kiradi. Mintaqqa asriy siyosiy yo‘qlikdan qaytdi va yana bir bor xalqaro hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Boz ustiga, u bugungi kunda jahon hamjamiyatining diqqat markazida turibdi.

«Markaziy Osiyo» atamasi birinchi marta taniqli nemis olimi, geograf Aleksandr fon Gumboldt tomonidan 1843 yili Parijda nashr etilgan uch jildli «Markaziy Osiyo. Tog‘ tizmalarini tadqiq qilish va iqlimlarni taqqoslash» asarida qo‘llanilgan edi. Unda olim ichki sug‘orish sistemasini va tog‘ tizmalarini o‘rganib, Markaziy Osipyoni alohida, o‘ziga xos mintaqqa sifatida ajratdi.

Shundan so‘ng «Markaziy Osiyo» tushunchasi uzoq vaqt mobaynida, to so‘nggi davrgacha geosiyosiy tushuncha sifatida emas, balki asosan tarixiy yoki geografik atama sifatida qo‘llanilib kelindi. Boz ustiga, mintaqaning chegaralari ham, uning tarkibi ham aniq emas edi. Hatto uning nomi ham turli tarixiy davrlarda va xalqlarda har xil atalgan. Tarixan olganda, geografik omillar asosiy mezon bo‘lib xizmat qilgan. Yunonlar va rimliklar uni «Transaksoniya» - Oxus daryosi (Amudaryo) ortidagi yer deb, xitoylar «G‘arbiy o‘lka» deb, arablar - «Mavarounnahr» yoki ikki daryo oralig‘i deb ataganlar. Eron «Turon»dan ajratilgan. Ba’zan mintaqqa etnolingvistik asosda «Turkiston» deb atalgan. Ba’zan esa, u «Ichki Osiyo» (Inner Asia) deb kengaytirilgan tarzda talqin qilingan va unga

Mo‘g‘uliston, G‘arbiy Xitoy, SHimoliy Hindiston, Pokiston va Rossiya Sibirining janubiy qismi kiritilgan. Har qalay, YUNESKO tomonidan nashr etilgan «Markaziy Osiyo sivilizasiyalari tarixi» kitobida mintaqqa xuddi shunday ko‘rinishga ega¹. Bazan aksincha, sobiq SSSRda bo‘lganidek, mintaqqa doirasi atigi to‘rt respublika -Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistonni o‘z ichiga olgan «O‘rta Osiyo» tushunchasiga qadar toraytirildi.

Rus geosiyosatchilaridan A.Duginning ta’rifiga ko‘ra, Markaziy Osiyo hududi G‘arbda Kaspiydan boshlab Shimoliy–sharqda Oltoy o‘lkasiga qadar, shimoldan Shimoliy Qozog‘iston va yana yuqoriqoqdagi ayrim Rossiya guberniyalaridan janubda Pokistonga qadar hududni egallaydi².

Arnold Toynbi o‘zining monumental «Tarixni anglash» asarida Oks-Yaksart havzasi (ya’ni Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i), Yaqin Sharq kabi, yer yuzidagi barcha muhim yo‘llar kesishadigan joy ekanligini, tabiiy shart-sharoitlar bu joylar xalqaro chorrahaga aylanishiga imkoniyat yaratganligini qayd etadi. SHuning uchun ham jahonning barcha asosiy dirlari yoki shu yerda vujudga kelgan, yoki qudratli rivoj topgan, deb ta’kidlaydi Toynbi.

XXI asr bo‘sag‘asida yuz byergan geosiyosiy o‘zgarishlar kuchlarning xalqaro balansida va sivilizasiyalar o‘rtasidagi aloqalarda Markaziy Osiyo muhim rol o‘ynashini yana bir karra tasdiqla- di. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov, mintaqaning hozirgi zamon geosiyosiy sharoitdagi ahamiyati haqida gapirar ekan, ushbu ahamiyat shunchalik sezilarli va kattaki, «bu respublikalarda yuz byerayotgan hodisalar jahondagi eng yirik davlatlar turli jo‘g‘rofiy-siyosiy tuzilmalarning manfatlariga bevosita daxldordir», deb ta’kidlaydi. Mintaqada mutlaqo yangi geostratezik vaziyat yuzaga keldi. O‘tgan asr mezonlari, ta’riflari va siyosiy xaritalari bugungi Markaziy Osiyonи tushunish va uning muammolarini anglash uchun to‘g‘ri kelmay qoldi. Mintaqaga yangicha, yanada kengroq yondashuv siz u duch kelgan jiddiy muammolarning to‘g‘ri echimini topish mumkin emas. Mintaqani madaniy, etnolingvistik, geosiyosiy va geoijtisodiy tendensiyalar, shuningdek xavfsizlik muammolari majmui nuqtai nazaridan anglash, muqarrar tarzda Markaziy Osiyo faqatgina sobiq SSSRning besh respublikasidan iborat emas, degan xulosaga olib keladi. Afg‘oniston hamda Xitoyning g‘arbiy hududlari ham uzviy ravishda mintaqaning tarkibiy qismlaridir.

Hozirgi dunyoda Markaziy Osiyoning ahamiyati. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati mintaqaning o‘z salohiyati bilan emas, balki asosan boshqa, chindan ham muhim mintaqalarga yaqinligi bilan belgilanadi. Masalan, «Vikipediya fri ensiklopediya» deb nomlangan ommabop Intyernet-saytda quyidagi so‘zlarni o‘qish mumkin:

¹ History of civilizations of Central Asia. - UNESCO Publishing, Paris, 1996.

² Дугин А. Основы geopolитики. - М.: Арктоэя, 1997. -С. 353 - 364.

«Markaziy Osiyo uzoq davr mobaynida strategik ahamiyatga molik mintaqal deb hisoblanib kelingani faqat uning Evrosiyoda joylashgan buyuk davlatlarga yaqinligi bilan bojliq. Mintaqaning o‘zi hech qachon ko‘p sonli o‘troq aholiga ham, o‘z tabiiy boyliklaridan foydalanish qobiliyatiga ham ega bo‘lmagan. SHU boisdan bu mintaqal tarixida uning hududida qudratli impyeriya yoki nufuzli davlatlar kam vujudga kelgan. Markaziy Osiyo asosan tashqi kuchlar raqobatlashgan maydon bo‘lgan». O‘z-o‘zidan ravshanki, geografik joylashuv har qanday mamlakatning geostrategik salohiyati va ahamiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Mavqeい boshqa mamlakatlarga nisbatan joylashuviga bojliq bo‘lmagan birorta ham xaqiqatdan muhim mintaqal yoki davlat jahonda yo‘q. Lekin Markaziy Osiyoning butun strategik ahamiyatini faqat uning buyuk davlatlar yaqinida joylashganligiga bojlash ham to‘jri emas. Zero, bugungi kunda Markaziy Osiyo o‘z holicha ham muhim ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Mintaqaning ahamiyati tobora ortib bormoqda va bir qancha omillar bilan tavsiflanmoqda. Bu omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh ijobjiy omillar guruhi bo‘lib, unga quyidagilar kiradi:

1. Nisbiy demografik salmoqning oshishi. Makromintaqaning yuqorida qayd etib o‘tilgan chegaralarida bugungi kunda 95 milliondan ko‘proq aholi yashaydi. Mintaqa aholisining zichligi uncha katta emas - bir kvadrat kilometrga 9 kishi to‘jri keladi. Ayni paytda ushbu ko‘rsatkich butun Osiyo bo‘yicha 80,5 kishini tashkil etadi. Lekin muhim demografik ko‘rsatkich - aholi sonining ikki baravar ko‘payish davri so‘nggi paytgacha Markaziy Osiyoda 23-25 yilni tashkil qilgan. So‘nggi yillarda aholining o‘sish sur’ati biroz pasaygan bo‘lsa-da, u nisbatan ancha yuqori bo‘lib qolmoqda.

2. Xalqaro ahamiyatga molik tabiiy resurslarning mavjudligi. Avvalambor, albatta, bu yerda so‘z Markaziy Osiyoning enyergetik salohiyati to‘jisida yuritilmoqda. AQSH Energetik Axborot Ma’muriyati Markaziy Osiyo va Kaspiybo‘yi havzasida joylashgan mamlakatlardagi neft va gaz zaxiralari haqida quyidagi ma’lumotlarni byergan.

1-jadval¹

Марказий Осиёнинг энергетик салоҳияти¹

Мамлакатлар	Нефть захиролари (мин. баррел)	Габиний газ захиролари (трлн. куб. фут)
Озарбайжон	4-12,000	11
Козомистон	10-17,000	53-83
Киргизистон	40	0.2
Тоҷикистон	12	0.2
Туркманистон	1,700	98-155
Ўзбекистон	600	74-88
Дунё бўйича	1,033,200	5,142

¹ Strategic Assessment of Central Eurasia, The Atlantic Council & Central Asia -Caucasus Institute, SAIS, Washington DC, 2001, p.8

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, Markaziy Osiyoning enyergetik salohiyati jahon neft va gaz bozoriga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatish yoki uglevodorodli xom ashynoning an’anaviy manbalari bilan raqobatlashish uchun etarli emas. Turli ma’lumotlarga ko‘ra, neftning tekshirilgan umumiylarini zaxiralari 15 va 31 milliard barrel atrofida bo‘lib, bu jahon zaxiralaring taxminan 2,7% ni tashkil etadi. Bu, albatta, uglevodorodli xom ashynoning Yaqin Sharqdagi manbalari salohiyatidan ancha kam. Bu yerda tekshirilgan neft zaxiralari jahon resurslarining 55% ni tashkil etadi. Xususan, taqqoslash uchun, Saudiya Arabistonining tekshirilgan neft zaxiralari 269 milliard barrelni tashkil qiladi. Markaziy Osiyoning tekshirilgan tabiiy gaz zaxiralari 230-360 trillion kub futga baholanmoqdaki, bu jahon zaxiralaring taxminan 7% ni tashkil etadi.

3. Chet el investisiyalarining ko‘p miqdorda jamlanishi. So‘nggi yillarda mintaqa salmoqli moliyaviy investisiyalar ob’ektiga aylanib bormoqda. Amyerikalik etakchi tadqiqotchilarining ma’lumotlariga ko‘ra, 1992-2000 yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon iqtisodiyotiga 50 milliard AQSH dollari miqdorida chet el investisiyalarini jalb qilingan bo‘lsa2, keyingi to‘rt yil ichida shu davlatlarga amalga oshirilgan to‘jidan- to‘jri chet el investisiyalarini (FDI)ning o‘zi 17,1 milliard dollarni tashkil etdi3.

2002 yilning boshida Tokioda o‘tkazilgan Afg’oniston iqtisodiyotini tiklashga bajishlangan xalqaro konfyerensiyada donor mamlakatlar Afjoniston iqtisodiyotini tiklash maqsadlariga 4,5 milliard AQSh dollari ajratish majburiyatini oldilar. Afg’onistonga moliyaviy yordam ko‘rsatish bo‘yicha barcha rejalar to‘liq amalga oshgani yo‘q, lekin vaziyatning barqarorlashiga qarab Afg’oniston iqtisodiyotiga, asosan infratuzilma bilan bojliq loyihalarga, chunonchi: yo‘llar, ko‘priklar, telekommunikasiya tarmoqlari qurishga har yili ancha ko‘p mablajlar yo‘naltirilmoqda.

4. Muhim transport-kommunikasiya yo‘llarining kesishishi. Markaziy Osiyo savdo yo‘llari chorrahasi sifatidagi o‘zining tarixiy ahamiyatini tiklamoqda. To‘jri, an’anaviy savdoda dengiz transporti hal qiluvchi rol o‘ynaymoqda va keljakda ham o‘ynajak. Ayni paytda Markaziy Osiyoda temir yo‘l va avtomobil transporti samaradorligining oshishi, aviatsiya aloqalarining rivojlanishi transport marshrutlari tizimida mintaqaning raqobatbardoshligi oshishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiy aloqalarning telekommunikasiyalar va axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan bojliq yangi shakllari dengiz yo‘llariga ehtiyoj sezmasdan, eng qisqa, to‘ppa-to‘jri yo‘llardan o‘tayotir. Demak, ular muhim iqtisodiy markazlar - Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqasini birlashtirib, Markaziy Osiyo orqali o‘tmoqda.

5. Sivilizasiyalararo aloqalar. Markaziy Osiyo aholisining ko'pchiligi islom diniga mansub bo'lgan mintaqalardan birigina emas. U musulmon dunyosining tarixiy jihatdan eng muhim markazi hamdir. Xalqaro radikal kuchlar Markaziy Osiyoga ekstremistik joyalarni olib kirish, tarqatishga harakat qilayotgani bejiz emas. Bu jahondagi kuchlar nisbatida tub o'zgarish yasashi mumkinligini ular yaxshi tushunadilar. Musulmon dunyosida kechayotgan murakkab jarayonlar, tangliklar Markaziy Osiyoga ham bevosita taalluqlidir.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari geosiyosatidagi o'ziga xos o'rni. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro iqtisodiy ijtimoiy, siyosiy munosabatlarni qaytadan shakillantirshiga zarurat tug'ildi. SSSR parchalanishi natijasida bir tarafdan, turli geosiyosiy yo'nalishlarga moyillik, ya'ni milliy davlatchilik siyosiy tizimlarining shakllanishi, siyosiy madaniyat o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot kabi tafovutlarni keltirib chiqardi. Ikkinci tomondan, qardosh xalqlarning o'zaro yaqinlashuviga olib keluvchi omillar-milliy madaniy uyg'unlik, kelishilgan iqtisodiy dasturlarni joriy qilish, suv energetik resurslardan birgalikda foydalanish, mintaqaga ta'lluqli muammolarni birgalikda hal etish, yo'nalishlarda faoliyat olib borishga imkoniyat tug'dirdi. Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikka erishishlari natijasida dunyoning ko'plab mamlakatlari bu mintaqada Rossiya ta'sirini susayganligini anglaydilar va mintaqada davlatlarini o'z doiralariga tortishga qaratilgan siyosat olib borishga kirishadilar.

Shu bois bugungi kunda xalqaro siyosiy doiralarda tadqiqot markazlarida Markaziy Osiyoning kontseptual tushunchasi qaytadan ko'rib chiqilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi Yevroosiyo qit'asining strategik muhim mintaqalari bilan chegaradosh. Mintaqaning sharqida-Xitoy va Osiyo Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari; janubida Afg'oniston, G'arb va shimolida-Kavkaz, Turkiya, Yevropa, Rossiya joylashgan. Bu borada O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday deydi: "Biz Rossiya, Xitoy, Hindiston, Sharq va G'arb mamlakatlarini bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari yuzaga chiqadigan mintaqaning bir qismimiz. Aslida shakllanib kelayotgan lekin juda kuch qudratli, XXI asrning qiyofasini shubhasiz belgilab beradigan bu kuch markazlari ana shu mintaqada o'z manfaatlarini izlaydi". 90-yillarning boshlarida ko'plab xorijiy siyosatshunoslar Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlarning jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirib borishlari yo'lidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan milliy totuvlik va iqtisodiy islohotlarni o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlar o'tkazish borasidagi qobiliyati va imkoniyati yetarli emasligi borasida pessimistik fikrlar bildirdilar .

Tojikistondagi fuqarolar urushi, Afg'onistondagi holatning tobora og'irlashib borishi, mintaqaning ayrim nuqtalaridagi millatlararo ziddiyatlar, an'anaviy

iqtisodiy aloqalarning uzilishi va buning natijasida iqtisodiy ko'rsatkichlarning keskin tushib ketishi ularning fikrlarini isbotlagandek bo'ldi. Ammo demokratik jamiyat qurish jarayonida Markaziy Osiyo davlatlari o'z suvereniteti va hududiy birliklariga qarshi yuzaga keluvchi har qanday omillarni bartaraf eta olishlarini ko'rsatmoqdalar.

Siyosiy sahnaga yangi mustaqil davlatlarning chiqishi nafaqat Yevroosiyo xaritasiga, balki mafkuraviy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro munosabatlar tizimlarida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Bu borada 50 mln.dan ortiq aholi va 4 mln kv. km.dan ortiq hududga ega besh Markaziy Osiyo respublikalari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston. Tojikiston, Turkmaniston Makinder ta'rifi bo'yicha "tarixning geografik o'qi" yoki "o'zak makon"da qulay siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Biroq aytish joizki, mazkur davlatlar uchun milliy davlatchiliklarini bunyod etish, siyosiy yo'naliishlarni to'liq ishlab chiqish, ijtimoiy qurilishiga qaratilgan amaliy jarayonlarda ba'zi murakkabliklar mavjud.

Markaziy Osiyo mintaqasi o'ziga xos geosiyosiy tashqi chegaralarga ega. Bu holatda ikki omil – Rossiya va Xitoy o'rtasida "qisilib qolganlik" va janubda islam olami bilan belgilanadi. Boz ustiga, geografik nuqtai nazardan tabiiy chegaralar g'arbda Kaspiy dengizining qirg'og'i bo'ylab. sharqda Djung'or Alatoui, Tyan-Shan tog'lari, shuningdek, janubda Xuroson tog'lari, Amudaryo, Panj va Atrek daryolari bilan belgilanadi.

Shu munosabat bilan taxminan 1993 yildan boshlab mintaqaning jahon geosiyosiy muhiti bilan o'zaro bog'liq ekanligi omili ham katta ahamiyatga ega bo'lib, geosiyosiy nuqtai nazardan Markaziy Osiyo tushunchasiga mintaqadagi besh respublikaning siyosiy chegaralari doirasidagi maqom asos qilib olindi .

Jahondagi kuchlar nisbati va uning Rossiya o'rtasidagi muvozanati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar siyosati va ulardagi voqealar rivoji qaysi yo'ldan borishiga bog'liq. Hozirgi xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotgan respublikalar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas .

Mustaqillikni qo'lga kiritgan Markaziy Osiyo respublikalarini bugungi kundagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanishlari va ularning geosiyosiy holatlari, shuningdek, xavfsizlik qirralari o'zaro mos tushadi. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy muhitning o'zaro ko'rib chiqilishiga quydagi to'rt mezon sabab bo'lishi mumkin:

Birinchidan, bugungi kunda davlat xavfsizligining mintaqqa xafsizligi darajasigi ko'tarilganligi;

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari bir-biri bilan tarixiy, diniy, ma'naviy va madaniy jihatdan yaqinliklari;

Uchinchidan, iqtisodiy jabha, ya’ni Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy tomondan rivojlanishi shu davlatlarning o’zaro iqtisodiy integratsiyasini mumkin qadar takomillashtirishni talab qiladi;

To’rtinchidan, iqtisodiy omillardan kelib chiqqan holda, Markaziy Osiyo davlatlarining o’zaro hamkorligi jahon davlatlarida qiziqish uyg’otmoqda.

Fredrik Starr “Yevrosiyoda barqarorliklikni o’rnatish” nomli maqolasida Markaziy Osiyo mintaqasida voqealar rivoji quyidagi uch yo’nalishda borishi mumkunligini aytib o’tadi.

Birinchidan, mintaqqa bir yoki bir necha davlatlar ta’sir doirasiga tushib qolishi mumkin. Uning fikricha, bu borada Rossiya qulay nomzod sifatida qaralishi mumkin.

Ikkinchidan, mintaqqa Afg’oniston va Tojikiston davlatlaridagi tartibsizliklarga o’xshagan holatga tushib qolishi mumkin.

Uchinchidan, barqaror davlatlarning yuzaga kelishi natijasida ichkaridan mutanosiblik kelishuvchanlikka erishish (integratsiyalashuv jarayoni nazarda tutiladi).

F. Starr fikricha Markaziy Osiyo mintaqasida bir yoki bir necha kuchli davlatlar yuzaga kelib vaziyatni barqarorlashtirishi mumkin. Starr o’z fikrini davom ettirib, Markaziy Osiyo davlatlari orasida faqat O’zbekistongina ana shunday barqarorlashtiruvchi vazifasini bajarishi mumkin. Bu kabi fikrni amerikalik siyosatshunos olim Z.Bjeziynskiy ham keltiradi . Markaziy Osiyo mintaqasiga geosiyosiy nuqtai nazardan qaraganda ikki muhim omil – geostrategik holati va boy tabiiy resurslar bu mintaqaning iqtisodiy va siyosiy o’lchamlarini yanada kengaytirib borishini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda xalqaro maydonda ro’y berayotgan o’zgarishlarda uch holatni qayd etib o’tish darkor:

Birinchidan, iqtisodiyotning globallashuvi va o’zaro bog’liqlikning kuchayishi;

Ikkinchidan, milliy va mintaqaviy masalalarni hal etishda davlat ro’lining o’zgarishi;

Uchinchidan, xalqaro tashkilotlar va institutlar ahamiyatining ortib borishi.

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi quyidagi afzalliklarga ega:

-mintaqaning energetik, mineral va qishloq xo’jaligi

-mahsulotlarining deyarli barcha turlari bilan ta’minlanganligi;

-katta ilmiy-texnikaviy ishlab chiqarish va ekspert salohiyatiga egaligi;

-qulay geosiyosiy holatga egaligi;

-ishchi kuchining arzonligi;

-suv va boshqa tabiiy xom ashylardan o’zaro va umumiyl foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatlari.

Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikdan keyingi davrdagi ijtimoiy siyosiy taraqqiyotining geosiyosiy va geoqtisodiy shakllanishi jarayonini kuzatgan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Avvalo, ular oldida mustaqillikka erishgandan so'ng siyosiy rivojlanishning ustuvor yo'naliishlarini, ya'ni xalqaro munosabatlar tizimida munosib o'rinni egallash, taraqqiyot yo'llarini ishlab chiqish va bu borada hamkorlar topishga qaratilgan intilishlar ko'zga tashlanadi.

Bu hol natijasida Markaziy Osiyo mintaqalarida geosiyosiy bo'shliq paydo bo'lganligini qayd etib o'tish lozim. Mintaqada AQSh, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Eron, Hindiston, kabi mamlakatlarning qiziqishi tobora ortib bormoqda. Ko'p qutbli xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishi natijasida Markaziy Osiyo mintaqasi qator faol geostrategik ishtirokchilar tomonidan "Hayotiy muhim" hudud ekanligi bir necha bor aytlishiga qaramasdan, ulardan biror biri mintaqada yetakchi vazifasini bajara olmaydi.

Ikkinchidan, 1994-1996 yillardagi Markaziy Osiyo davlatlarning mintaqada doirasidagi o'zaro yaqinlashishi bilan bog'liq. Mazkur jarayonni qay tariqa amalga oshirish borasida esa ma'lum bir qarama-qarshiliklar mavjud. Ular asosan ijtimoiy yo'naliishni o'z ichiga qamrab olib, jamiyat taraqqiyotida bir tomonidan demokratik tamoyillarni joriy etish masalasini, ikkinchi tomonidan esa jamiyat ma'naviyati bilan o'zaro bog'liq bo'lган diniy qadriyatlar muammozi bilan bog'liq.

Mustaqillikdan keyingi davrda Markaziy Osiyo davlatlari oldida taraqqiyotning faqat ikki yo'li "Turk" va "Eron" borligi xususida fiklarlar bildiriladi.

Uchinchidan, bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy guruhanishi (tabaqalanish), mintaqada davlatlarida yagona ijtimoiy-siyosiy yo'naliishlarning yo'qligi istiqbol borasida biror-bir yagona to'xtamga kelishi mushkuldir. Mazkur jarayonga tashqi kuchlar omilini, ya'ni o'q ta'sir doiralarini kengaytirish, shuningdek, tabiiy xom ashyo resurslari ustidan nazorat o'rnatishga qaratilgan raqobatning kuchayishini ham e'tiborga olish darkor.

Markaziy Osiyo davlatlari holatini tushunish uchun har bir davlatda ro'y berayotgan ichki o'zgarishlarning umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy formatsiyalarni almashinuvini e'tiborga olish kerak. Jahon tajribasi yangi tizim va ijtimoiy qatlamlar eski ijtimoiy munosabatlarning parchalanish jarayoniga nisbatan sekinlik bilan taraqqiy topadi. Bu holat esa jamiyatning o'tish davrida keskinlikni tug'dirishga olib keladi va marginaliztsiya holati, ya'ni o'zida salbiy ijtimoiy zaryadni olib yuruvchi "oraliq" holatdagi ya'ni ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi yuzaga keladi. Markaziy Osiyodagi ijtimoiy muammolar o'z navbatida davlatlararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatib, keskinlik manbai bo'lishi mumkin.

Milliy davlatchilikni bunyod etish va Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatdagi asosiy yo'nalishi jarayonlarini tahlil etgan holda quyidagi umumiy xususiyatlarni ta'kidlab o'tish lozim:

1. Qozog'iston Rossiya, Xitoy va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari orasida qisilib qolganligi, bu esa iqtisodiy holatdagi nochorlik bilan birgalikda tashqi siyosatda yagona umummiliy yo'nalishini ishlab chiqishda mushkulotlarga olib keladi.

Bundan kelib chiqqan holatda Qozog'iston siyosatida Rossiya bilan integratsiyalashish hisobiga Markaziy Osiyo integratsiyalashuv jarayonidan uzoqlashishni kuzatish mumkin. Biroq, Rossiya bilan integratsiyalashish jarayoni Qozog'iston suverenitetiga va hududiy yaxlitligiga raxna solishini e'tiborga olsak, u holda u global va mintaqalaridagi iqtisodiy aloqalar va xalqaro munlosabatlar tizimida o'z o'rnni saqlab qolish maqsadida Markaziy Osiyo integratsiyasida ishtirokini saqlab qoladi.

2.Qirg'iziston milliy davlatchiligin barpo etar ekan, ob'ektiv sabablarga ko'ra aniq shakllangan ichki va tashqi siyosati nisbatan mavjud deb aytishga imkoniyat tug'diradi. Qirg'iziston mamlakatida o'tkazilgan iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi va moliyaviy jihatdan ko'mak beruvchi barcha mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Mintaqadagi yagona iqtisodiy makon dasturida ishtirok etish Qirg'izistonga bir tomonidan ichki bozorni ko'tarish imkoniyatini bersa, ikiinchi tomonidan mintaqada o'ziga mos o'rinni egallashga sharoit yaratadi. Shu bilan birga Qirg'iziston Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatishdan manfaatdor. Mazkur holat bir tomonidan siyosiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomonidan Rossiyadan qarzdorlik masalasi bilan ham bevosita bog'liq.

3.Turkmaniston "betaraflik" maqomini olganligiga qaramay Rossiya Eron va boshqa davlatlarning ustuvor manfaatlari ob'ekti bo'lib qolmoqda. Boy tabiiy resurs va iqtisodiy taraqqiyotining istiqboliga ega bo'lган Turkmaniston mintaqasi integratsiyasida faqat iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqqan holda yondashmoqda.

4.Tojikiston bir necha yil mobaynida siyosiy va iqtisodiy inqiroz changalida qolib ketdi. Mamlakatdagi fuqarolar urushi, Rossianing harbiy ko'magiga tayanish mamlakat ichki va iqtisodiy ahvolining yaxshilanishga salbiy ta'sir etuvchi omillar sifatida qarash mumkin.

5. Markaziy Osiyo markazida joylashgan O'zbekiston mintaqasining barcha mamlakatlari bilan tutash. Bundan tashqari mintaqadagi deyarli barcha kommunikatsion-transport infrastrukturasi, aloqa va energetik tizimlar O'zbekiston hududida joylashgan. Bu hol O'zbekistonning geosiyosiy holatini belgilab beradi¹.

¹ Сафоев С.С. Марказий осиёдаги геосиёсат. Тошкент - 2005

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy va tashqi siyosiy tamoyillaridan o'ziga xoslik va farqlariga qaramay, ularni hamkorlikka undovchi ma'lum ob'ektiv holatlar mavjud. Bular-avvalo xavfsizlik, iqtisodiyot va ekologiya masalalari bilan chambarchas bog'liq. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, chetdagi davlatlar manfaat va maqsadlarga va bu borada o'zaro raqobatlari Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligiga, ularning jahon hamjamiyatiga kirish jarayoniga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Hududiy mansublikdan kelib chiqqan holda yangi mustaqil davlatlar bir-biri bilan uzviy tarzda bog'liq bo'lib, transport infratuzilmasi, energota'minot masalalari ekologiya, xom-ashyoni qayta ishlash masalalari yuzasidan uzoq muddatli dastur va loyihalarni ishlab chiqishni talab etadi. Boz ustiga narkotik va qurol-yarog' savdosi kabi jinoiy unsurlarga qarshi kurash bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Mazkur jarayon borasida quyidagi stsenariylarni tahlil qilish mumkin.

Buyuk Ipak Yo'lining qayta tiklanishi.

Ijobiy tomoni – mintaqqa istiqbolida savdo-transport borasida Yevropa, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqligini Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'lashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonning salbiy tomoni transport infratuzilmasini yetarli darajada taraqqiy etmaganligi.

Yuksak darajada Integratsiyalashgan Markaziy Osyoning mintaqasi - jahon siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsata oluvchi hamdo'stlik va konfederatsiya shaklidagi qudratli davlat yuzaga kelishi. Salbiy tomoni- integratsiyaviy jarayonlar mexanizmining mukammal ishlab chiqilmaganligi, shuningdek, tashqi omil ta'sirining kuchliligi.

Madaniyatlar to'qnashuvchi mintaqqa davlatlarining Eron taraqqiyoti yo'liga o'tishlari, mintaqada istiqomat etuvchi g'ayriddinlar manfaatiga qarshi chiqishi. Boz ustiga Rossiya Federatsiyasi bilan ziddiyatlar holatining yuzaga kelishi. Salbiy tomoni - mintaqada Islom, Xristianlik va boshqa diniy madaniyatlarining kesishganligi. Aynan shu holat borasida AQSh Davlat kotibi S.Telboot Markaziy Osiyodagi jarayonlar rivoji nafaqat "sovettardan keyinga makomda" balki, Xitoy, Turkiya, Eron va Afg'onistondagi jarayonlarga yuqori darajada ta'sir ko'rsatishini aytib o'tgan edi .

"Katta og'a" yo'nalihi - mintaqqa davlatlarining biror-bir davlat (Rossiya, Xitoy) ta'sir doirasiga tushib qolishlari mazkur tendentsiyaga mintaqada mustaqillikdan keyingi davrda milliylikning kuchayib ketganligi qarshi turishi mumkin.

Mintaqada Bolqon ssenariysining taraqqiy etishi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida dezintegratsiyaning avj olishi va izollyatsionistik g'oyalarining kuchayishi . Bu holda mintaqqa davlatlarining bir vaqtning o'zida turli davlatlar ta'sir doirasiga

tushib qolishlari. Salbiy tomoni- mintaqada o'zaro bog'liq chegara, suv kabi masalalar borasida ziddiyatlar va to'qnashuvlar avj oladi.

Mazkur omillarga tayangan holda AQSh prezidentining xavfsizlik masalalari bo'yicha sobiq maslahatchisi Z.Bzejinskiy Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlarini, shuningdek Afg'onistonni "Yevroosiyo Bolqonlari" sifatida baholaydi .

Yevroosiyo Bolqonlari ... Janubi-Sharqiy Yevropadagi qadimgi Bolqonni eslatadi. Ushbu hududdagi siyosiy aktorlar beqaror bo'lib, balki ular kuchliroq qo'shnilarining aralashuviga ham moyil. Yevroosiyo Bolqonlari atamasini asoslaydigan kuch vakuum va quvvat assimilyatsiyasining aynan shu tanish birikmasidir. Yevroosiyo Bolqonlari tarkibiga to'qqiz mamlakat va. yana ikkita mamlakat potentsial nomzodlar sifatida kiradi. Ushbu to'qqiz mamlakat Qozog'iston, Qирг'изистон, Тоҷикистон, О'zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston va Gruziya ... shuningdek Afg'onistonni o'z ichiga oladi.

Markaziy Osiyo davlatlari shakllanish jarayonida dunyo mamlakatlari bilan munosabatlarni shakllantirish muhim masalalar sirasiga kiradi. Biroq, bu jarayon faqat mintaqa mamlakatlari manfaatlari va pozitsiyalari bilangina belgilanib qolmaydi. Aksincha, ularga tashqi siyosiy kuchlarning ta'siri katta. Shu bois yetakchi davlatlar va mintaqa davlatlari, yoki boshqacha aytganda "geostrategik ishtirokchilar" yondashuvini o'rganishga zarurat sezilmoqda.

XXI asr boshida Markaziy Osiyodagi yangi geosiyosiy burilish. O'zbekiston jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqil davlatlar sifatida qaror topdilar deb komil ishonch bilan aytish mumkin. Boz ustiga, ular Markaziy Osiyo tevaragidagi geosiyosiy raqobat jarayonining oddiy kuzatuvchisi bo'lib qolmayaptilar, balki mintaqa va undan tashqaridagi xalqaro hayot jarayonlariga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyatini namoyish etmoqdalar. Bu XXI asr bo'sajasida Markaziy Osiyoda ro'y byergan eng muhim geostrategik burilishdir. Mintaqaning demokratik, dunyoviy yo'lidan rivojlanishi barqaror xususiyat kasb etadimi? Uning jahon miqyosidagi aloqalar tizimiga mustaqil sub'ekt sifatida qo'shilish jarayoni chuqurlashib boradimi? Bu savollarga javoblar Markaziy Osiyo jamiyatlari globalizasiya talablariga qanday javob byerishiga, mintaqaviy hamkorlik va integrasiyaning yuqori darajasiga ko'tarilishga qodir yo qodir emasligiga ko'p jihatdan bojliqdir.

Xalqaro siyosat va munosabatlar ikki yoki undan ortiq mamlakatlар turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni, aloqalarni ifoda etadi. Uning jamiyat xalqlarining talab, ehtiyojlari, davlat manfaatlari xalqaro normalar va qadriyatları bilan bog'liq. Xalqaro munosabatlar raqobat yoki o'zaro hamkorlik asosida qurilishi mumkin. Bugun xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar bu munosabatlarni belgilab beruvchi asosiy mezonga aylanib

borayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Chunki siyosat tarixi va uning o‘ziga xos oqibatlari davlatlar munosabatlarini tartibga solish, bunda ularning manfaatlariga mos tushuvchi tamoyillarga asoslanish zarurligini taqoza etmoqda. Shuningdek yadroviy va kimiyoiy qurollarning mavjudligi, ularni ishlab chiqarishga qaratgan harakatlarining davom etayotganligi hamda xalqaro munosabatlarda ayrim davlat raxbarlari, siyosiy partiylar va shaxslarning bir tamonlama qarashlarining hamon saqlanib qolayotganligi, xalqaro siyosatda davlatlarga nisbatan munosabatda “Zo‘ravonlik”, “kuchga tayanish”, tazyiq ko‘rsatishning turli usullaridan foydalanish, “xalqaro terrorizm” va boshqa holatlar xalqaro siyosatda o‘zaro marifatli hamkorlikni rivojlantirishni, ixtiloflar paydo bo‘lgan taqdirda esa ularni ma’rifiy yo‘llar bilan yechish zarurligini kun tartibiga ko‘chmoqda .

XX asr oxiri XXI asr boshlarida xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarda muhum o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Agar 1990 yillarga qadar ikki qutub SSR va AQSh jahondagi siyosiy iqlimni belgilab berishgan bo‘lishsa, bugungi kunda dunyo ko‘p qutublilik asosida rivojlanmoqda. Sovetlardan keyingi makonda vujudga kelgan mustaqil davlatdar esa dunyo hamjamiyatining teng huquqli a’zolari maqomiga erishdilar.

Markaziy Osiyoga nisbatan asr chaqiriqlari mavjud – bu Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyatga ta’sir qiluvchi va XXI asrning birinchi o‘n yilligining oxirida beqarorlashtiruvchi potentsialga ega bo‘lgan hodisalarni to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

- ekstremizm, terrorizm, separatizm, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq muammolar;
- xalqaro, davlatlararo va mintaqaviy qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq muammolar;
- mintaqaning geosiyosiy mavqeい, uning tabiiy resurslari, etno-hududiy muammolari bilan belgilanadigan muammolar;
- hayot darajasi pastligi va mintaqadagi texnologiyalarning rivojlanishi, migratsiya, demografik va ekologik muammolar bilan bog‘liq muammolar.

O‘zbekiston 1992 yildan buyon BMTning a’zosi sifatada faoliyat yuritmoqda. BMTning Bosh vazifalaridan biri – butun dunyoda tinchlikni barqaror etishdir. Nizomga binoan a’zo mamlakatlar o‘zlarining xalqaro kelishmovchiliklarini tinch yo‘l bilan hal etadi, Qurolli kuchlarni boshqa davlatlarga nisbatan qo‘llamaydilar, ularga tahdid solmaydilar.BMT o‘zining tinchlik o‘rnatish faoliyati doirasida diplomatik mexanizmlardan foydalangan holda to‘qnashib qolgan tomonlarning yarashishlariga yordam beradi. BMT Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlik borasidagi o‘z say-xarakatlari doirasida mojaroni bartaraf etish va tinchlik o‘rnatish uni, masalan muzokoralar yoxud Xalqaro Sud yordamida barqaror etish yo‘llarini tavsiya qilishi mumkin.

O‘zbekiston BMT minbaridan Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, qo‘sni Afg‘oniston birodarchilik urishini to‘xtatish, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan ozod zo‘naga aylantirish, narka biznesga qarshi kurashda barcha davlatlar xatti-harakatini muvofiqlashtirish. Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish maqsadida foydalanmoqda.

BMT bilan hamkorlik doirasida O‘zbekiston Respublikasi raxbariyati tomonidan 3 ta asosiy vazifa belgilangan:

BMTni isloh qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining nuqtai nazarini ilgari surish;

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud yaratishni nixoyasiga yetkazish;

BMTning giyohvand moddalarga qarshi kurash bo‘yicha mintaqaviy markazini barpo etish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusini amalga oshirish.

Bugungi kunga kelib, BMT faoliyatida ko‘p tomonlama xalqaro munosabatlarda o‘z aksini topgan tizim inqirozini kuzatish mumkin. Juhon sahnasida xalqaro xavfsizligiga tahdid soluvchi kichik raxbaryi to‘qnashuvlar, narkotik va qurol aylanmasining o‘sishi, terrorizmning tarqalishi kabi noan'anaviy xavf va tahdidlar Toshkentning mavjud tuzilmalarini isloh kilish va faoliyatini ko‘rib chiqishni taqoza etadi.

Shuningdek, ayrim davlatlarning o‘z siyosatini o‘tkazish minbariga aylanib qolmasdan voz kechish, xizmatchilar o‘rtasida tarqalgan karrupsiyaga barxam berish lozim.

Jahonda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlashda Yevropa sezilarli ro‘l o‘ynaydi. O‘zbekiston tashqi siyosatidagi bu yo‘nalish qat’iyatlik bilan rivojlanib bormoqda. Birinchi Prezident Islom Karnimovning Finlandiyaga tashrifi davomida (1997 y 25 fevral) Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Xelsinki yakunlovchi Aktning imzolanishi mamlakatimizning yuqori sur‘atda rivojlanishiga keng yo‘l ochib berdi .

Yevropa Ittifoqining maqsad va vazifalari quyidagilardir:

1) Yevropa xalqlarining yaqin ittifoqini tashkil etish, muvozanatlashgan va uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashish, bunda, ayniqsa. Quyidagilardan foydalanish:

Ichki chegaralari bo‘limgan makonni yaratish; iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish; yagona valyutani joriy etish;

2) Xalqaro sohada, ayniqsa, tashki siyosatni va xavfsizlik sohasidagi siyosatni, kelajakda esa mudofaa siyosatini birgalikda yurutish orqali o‘z mohiyatini tasdiqlash;

3) Adliya va Ichki ishlar sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish.

Keyingi 50 yil davomida beshinchi marta o‘z safiga yangi a’zolarni qabul qilgan bu tashkilot siyosy, iqtisodiy, madaniy, harbiy-texnik, ilmiy-texnologik hamkorlikning sifat jihatdan eng zamonaviy ko‘rinishi bo‘lib, hozirgi kunda 25 davlat uning a’zosidir. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning jon boshiga 22 ming dollardan ortiq qiymatni tashkil etayotganligi, shubhasiz, bu hamkorlikning samarasidir. Hududi 4,2 million kv.km. ni, aholisi esa 455 milliondan ortiq kishini tashkil etgan bu hududda Buyuk Britaniya, Daniya va Shvesiyani hisobga olmaganda 2002 yilning 1 yanvardan buyon yagona pul birligi - yevro amal qilmoqda .

Yevropa Havfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti(EXHT) 1975 yilda tashkil topgan xalqaro siyosiy tashkilotlardan biridir. 1992 yil 26 fevralda O‘zbekiston Respublikasi uning a’zoligiga qabul qilindi. Shu bois 1994 yildan O‘zbekistonning YeHHTdagi vakolatxonasi Venada, 1995 yildan esa YeXHT ning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari bo‘yicha byurosi Toshkentda faoliyat yuritmoqda.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT). Bugungi kunda izchil faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar haqida so‘z yuritilganda, shubxasiz, birinchi navbatda ShHT tilga olinmoqda.

Dastlab “Shanxay beshligi” deb nomlangan bu tashkilotga 2001 yil O‘zbekiston Respublikasi a’zo bo‘lib qo‘shilgach ShHT deb ataladigan bo‘ldi. Ayni paytda unga Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston Respublikalari rasman a’zodirlar. (Mongoliya, Hindiston, Pokiston va Eron kuzatuvchi maqomiga ega.) Havfsizlikni ta’minlash, mintaqaviy barqarorlikni mustaxkamlash, ekologiya muommolarini birgalikda hal qilish, savdo-sotiqlar aloqalarini chuqurlashtirish, Ilmiy-texnikaviy, Madaniy-ma’rifiy sohalardagi munosabatlarni kengaytirish va boshqa hayotiy muhim yo‘nalishlar bo‘yicha muammolarni hal etish ShHT ning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Tashkilotning Kotibiyati Pekinda joylashgan. Shuningdek ShHT faoliyatida “uch yovuz kuch”, ya’ni terrorchilik, ayirmachilik(separatizm) va ekstremizmga qarshi kurashda hamkorlikni rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. 2004 yildan boshlab Toshkentda ShHT ning mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda. Bu tuzilma faoliyati tufayli 2005 yilning o‘zida sodir etilishi mumkin bo‘lgan terrorchilik harakatlarining oldini olinganligi ma’lum.

2005 yilning iyul' oyida tashkilotning Shanxay shaxrida bo‘lib o‘tgan samitida unga a’zo davlatlar rahbarlari tamonidan bir qator hujjalarni imzolandi. Xususan, xalqaro Axborot xavfsizligi to‘g‘risidagi bayonet; terrorchilik, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘icha 2007-2009 yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturiga doir qaror; ShHT mamlakatlar hududida qo‘shma aksilterror mashqlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi bitim, a’zo davlatlar hududidagi terrorchilik, ayirmachilik va ekstremistik faoliyatga aloqador kishilar

kirib kelishini aniqlash va bunday yo'llarni to'sib qo'yish borasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim. Bundan tashqari, ShHT doirasida 2020 yilgacha bo'lgan davrda savdo iqtisodiy hamkorlikni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilindi. Shuningdek, ShHT a'zo mamlakatlarning huquqni muhofaza qiluvchi idoralari, jumladan, ichki ishlar organlarining terrorchilik, separatizm va eksterizmga, giyoxvandlikka va og'ufrushlikka qarshi birgalikda xarakat qilishi. Bu borada o'zaro axborot almashishi yaxshi samara bermoqda. Umuman, "Bugungi kunda ShHT xalqaro hamkorlikning qudratli institutiga, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning, xalqaro terrorchilik, separatizm va ekstremizm, narqotik moddalar ishlab chiqarish va tashish kabi zamonning eng qaltis tahlika va tahdidlarga qarshi kurashning kuchli omiliga aylanmoqda".

Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (EvrAzES). Ma'lumki Markaziy Osiyo Hamkorligi Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston) tashkilotining 2005 yil 6-7 oktyabr' kunlari Sankt-Peterburg shaxrida bo'lib o'tgan sammitda MOHT bilan Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatini birlashtirishga kelishib olingan edi. Mazkur ikki tashkilotning maqsad va vazifalari ko'p jihatdan o'xshash hamda bir-biriga yaqin bo'lganligi O'zbekistonning Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati safidan joy olishiga olib keldi.

1995 yilda Bojhona ittifoqi negizida tuzilgan bu tashkilotning strategig maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan. YevrAzESning 2005 yili noyabirda Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan sammitda O'zbekiston bu tashkilotga qo'shilgach, Hamjamiyat a'zolari 6 taga yetdi (Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston). Bu Hamjamiyatga a'zolik O'zbekiston uchun katta siyosiy ahamiyatga ega. Chunki yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlari kesishgan mintakada joylashgan mamlakatimiz uchun. YevrAzESga a'zolik turli ta'sir taziyiqlardan himoyalanish kafolatini beradi.

Xuddi shunday, yangi jahon tartibotini shakillantirishda O'zbekistonning ham alohida o'rni, siyosiy manfaatlari bor. Shuning uchun mustaqillikning daslabki kunlaridanoq O'zbekiston respublikasi o'z milliy manfaatlarini xisobga olgan holda tashqi siyosatining maqsadi va vazifalarini aniq belgilab oldi. Uning dunyo hamjamiyatida, xalqaro tashkilotlar, davlatlar, MDH va Markaziy Osiyo davlatlari bilan olib borayotgan tashqi siyosati borasidagi sa'y-harakatlari fikrimiz dalilidir.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati amaldagi Konstitusiya va 1996 yil 26 dekabrda Oliy Majlis tamonidan qabul qilingan "O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prissiplari to'g'risida"gi qonun talablaridan kelib chiqilgan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid

qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aradashmaslik qoidalari va halqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, halqning oliy manfaatlari, faravonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo’stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan chiqishi mumkin” deyiladi. “O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsplari to‘g‘risida” gi qonun ham tashqi siyosatimizning umuminsoniy tamoyillari va manfaatlari bilan to‘la muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mafkuraviy kurashlardan qat’y nazar , tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinspi O‘zbekistonga qisqa muddat ichida ikki taraflama keng tashqi aloqalar o‘rnatish imkonini berdi. Yevroosiyo iqtisodiy va madaniy ko‘prigining barpo etilganligi, ShHT doirasidagi hamkorlikning kengayib borayotganligshi respublika tashqi siyosatining strategig istiqbolidir. Dunyoning 170 dan ortiq mamlakat tamonidan tan olingan, 120 davlat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xaqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

4.7. Yangi katta o‘yin» konsepsiysi va uning geosiyosiy mohiyati (2-bosqich)

«Yangi katta o‘yin» konseptsiysi. Yangi Katta O‘yin (*ingliz tilidagi adabiyotda New Great Game*) aksariyat mutaxassislarning fikriga ko‘ra, XXI asrning birinchi o‘n yilligida boshlangan va Markaziy Osiyonи nazorat qilish va ta’sir o‘tkazish uchun dunyodagi eng yirik kuchlarning siyosiy qarama-qarshiligi bilan ajralib turadigan holatdir. Yangi Katta O‘yin o‘zining o‘xhashligi, vazifalari va ishtirokchilari soni bilan XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi o‘xhash jarayondan farq qiladi. Biroq, mintaqqa o‘zgarishsiz qolmoqda - Mo‘g‘ulistonni ham o‘z ichiga olgan Katta Markaziy Osiyonи qamrab oladi. Agar yuz yil oldin Angliya va Rossiya imperiyalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik asosan harbiy-siyosiy xarakterga ega bo‘lsa, bugungi kunda Katta O‘yin tabiiy resurslar, birinchi navbatda uglevodorodlar (neft va gaz) ustidan nazoratni boshqarish uchun kurashga asoslangan.

Jo‘g‘rofiy joylashuvi tufayli qadimdan bu hudud turli kuchlarni o‘ziga jalgilgan: Xitoy imperiyasi, Fors podsholari, Britaniya, Rossiya va so‘nggi yillarda AQSHni bu yerda faollashganini kuzatish mumkin. Bu yerlar bir necha marotaba yirik qarama-qarshiliklar maydoniga aylangan. XIX asrda Angliya va Rossiya qarama-qarshiligi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu kurash to‘g‘ridan to‘g‘ri

qurolli to‘qnashuvlar bo‘limganligi va josuslik uslublardan foydalanilganligi tufayli “Katta o‘yin” yoki “Soyalar urushi” nomlarini oldi. Xususan, 1868 yilda taniqli britaniyalik diplomat Genri Roulinson Jamoalar Palataga yuborgan memorandumida Markaziy Osiyoda bir qator katta derjavalar, birinchi navbatda Rossiya va Britaniya davlatlarining manfaatlari to‘qnashganligi tasdiqlagandi. Yangi katta o‘yin ishtirokchilari ramziy ma’noda “Rus ayig‘i”, “Xitoy ajdahosi” va “Amerika burguti” mavjud.

Ushbu qarama-qarshilikda Rossiya, Xitoy, Qo‘shma Shtatlar, Yevropa Ittifoqi va Yaqin Sharq mamlakatlaridan tashqari transmilliy korporatsiyalar va transmilliy jinoiy jamoalar ham ishtirok etmoqda. Natijada, 2001 yil 11 sentyabrdan so‘ng ko‘rib chiqilayotgan jarayonning asosiy mazmuni terrorizmga qarshi kurash bo‘lib, unda NATO mamlakatlari tomonida faol ishtirok etib, Afg‘oniston va Iroqqa harbiy kontingentlarini yubordi.

R. Kipling kitoblari va A. Konollining maktublaridan kelib chiqqan Katta O‘yin metaforasi bugungi kunda M. Ahrari, L. Klivmen, R. Myulerson, A. Rashid asarlarida qo‘llaniladi. Ushbu muammoni o‘rganayotgan rus olimlari orasida K.S. Gadjiev, A.A. Kazantsev va E. Yu. Sergeevlarni nomlash mumkin. Bundan tashqari, televizion dasturlarning tsikli va jurnalist M. Leontievning "Katta o‘yin" kitobini eslatib o‘tish kerak. Shu bilan birga, siyosatshunos Ahmed Rashid Yangi Katta O‘yin kontseptsiyasiga nisbatan mualliflik huquqiga ega ekanligini da‘vo qilmoqda¹, garchi bu bayonoti bahsli bo‘lsa ham. Ushbu jarayonni tavsiflab, uning nazariyotchilaridan biri Lyuts Klivmen quyidagilarni ta’kidladi: "Birinchi Katta O‘yinni, ya’ni XIX asrda Buyuk Britaniya imperiyasi va Chor Rossiyasi o‘rtasidagi raqobatni takrorlash orqali, Yevroosiyo materigining yuragida yangi o‘yinchilar yana manyovr qilishmoqda. Bugungi kunda amerikaliklar ushbu raqobatda yetakchi rolni inglizlardan tortib oldilar. Ruslar bilan birlashtirishda Xitoy, Eron, Turkiya va Pokiston kabi mintaqaviy kuchlar ushbu kurash maydoniga kirishdi va transmilliy neft korporatsiyalari ushbu o‘yinda o‘z manfaatlarini ko‘zlaydilar".

Bugungi kunda "Yangi Katta O‘yin" G‘arbdan tashqaridagi siyosatni imperializm tilida tasvirlaydigan turli xil matnlar to‘plamidir. Ushbu matnlar ular uchun "hokimiyat vakuumi", qurolli to‘qnashuvlar va o‘zaro da‘volar deb nomlangan hududda juda qulay sharoitda nashr etilgan. "Buyuk Markaziy Osiyo" (qarang: Edvards, 2003, 87-bet).

Oxirgi kategoriya gegemonianing chegaralari va chegaralarini ixtiro qilishning misoli sifatida qiziqarli bo‘lib, chegaralarni kerakli chegaralarga ko‘tarishga imkon beradi. Siyosiy qarama-qarshilik kuchayib, keskinlikning yangi

¹ Рашид А. Талибан: ислам, нефть и новая большая игра в Центральной Азии. М.: «Библион — Русская книга», 2003.

o‘choqlari paydo bo‘lishi bilan Buyuk Markaziy Osiyo Markaziy Yevrosiyoga yo‘l oldi. Yangi Katta O‘yin haqida yozilgan tarkibning xilma-xilligi, bu haqda matnlar chegaralarida mavjud bo‘lgan juda ko‘p o‘lchovli haqiqat sifatida gapirishga imkon beradi.

Yangi Katta O‘yining maqsadi hududiy kenglik va resurs haqida g‘oyani shakllantiradi. Bir tomondan, resurslarga boy Osiyo mintaqasi, boshqa tomondan, ushbu resurslarga muhtoj bo‘lgan jahon kuchlari mavjud. XXI asrning ushbu siyosiy geografiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, Xitoy va Hindiston XIX asrda imkonsiz bo‘lgan jahon kuchlari qatoriga kiritilgan. Ammo bu vaziyatda ham, E.V.Saidni tushunishda sharqshunoslik bilan birlashmalar o‘zlarini taklif qilishadi. Yangi Katta O‘yin maydonida Osiyo endi xarita va lug‘at emas, balki mahalliy avtokratlar tomonidan himoyalangan minerallar to‘plamidir.

Yangi Katta O‘yining dunyoqarashidagi hokimiyatning avtokratik tabiatи zamonaviy Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy farqlarning asosi bo‘lib xizmat qiladi¹.

Yangi Katta O‘yin quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkil qilingan:

1) Eng yirik energetik resurslar, konlar: oltin, uran, ko‘mir, rangli metallar ustidan nazorat o‘rnatish;

2) 8 ta yo‘l strategiyasini ilgari surib, XXR manfaatlari to‘qnash keladigan logistika tizimlari ustidan nazorat. Bu yerda Rossiya va Xitoy manfaatlari kurashadi;

3) Energiya resurs savdosiga ta’sir o‘tkazish. Gaz van eft eksporti va importiga ma’lum cheklovlar, imtiyozlar berish huquqini qo‘lga kiritish;

4) Terrorizmga qarshi kurash sharoitida mamlakatning o‘ziga xosligini aniqlash. Bunday vaziyatda ikkita variant bo‘lishi mumkin: birinchisi, AQSh va NATO bilan; ikkinchisi, ShHT doirasida Rossiya va Xitoy bilan. Bunday kuchlar muvozanatida faqat nolga teng keladigan o‘yinga yo‘l qo‘yiladi. Chunki harbiy sheriklik oxir-oqibat ikkita mintaqaviy kuchlardan biri uchun mezon tanlash vazifasini qo‘yadi.

5) Mavjud bo‘lgan so‘nggi pozitsiya: dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchi - XXR uchun mineral xom ashyo narxlarini aniqlash qobiliyati. Minerallarga boy Rossiya o‘z statusini o‘rnatish.

Markaziy Osiyo va Yangi Katta O‘yin. Gegemon davlatlarning Markaziy Osiyodagi manfaatlari. Sobiq sovet ittifoqi tarqalib ketishidan so‘ng amerikaliklarning Osiyo yo‘nalishida harakati faollashdi, 2000 yillarda mintaqada bir necha yirik derjavalarning qiziqishlari bir nuqtada yig‘ildi. 2001 yilda Afg‘onistonda kampaniya boshlanganda AQSH yana bu hududga e’tiborni

¹ Михалев А.В «Новая большая игра» в центральной азии: фактор монголии// Региональная экономика: теория и практика № 2. 2013 с.35-36

qaratadi. Pandjsherda harbiy qo'shinlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida mintaqaliga logistika sifatida foydalanilgan; keyinchalik Washingtonning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokida "demokratiyaning tranziti" boshlanib, Qirg'izistonda 2005 yilda "Lola inqilobi" sodir bo'ldi.

Qo'shma shtatlarning Markaziy Osiyo davlatlariga qiziqishi tushunarli holat. AQSHning ikki asosiy geosiyosiy raqiblari — Rossiya va Xitoy mintaqaga juda yaqin. AQSh prezidenti Donald Tramp bu ikki davlat iqtisodiyotlarini zaiflashtirish maqsadini oldiga qo'ydi. Amerika yetakchisi bu yil fevral oyida Iroqdan Afg'onistonga harbiy qo'shin o'tkazish to'g'risida qarorni qabul qildi. Mintaqaliga Osiyoning kuchli davlatlari uchun kapitalni keng miqyosda eksport qilish uchun jozibador joyga aylandi. Xususan, Janubiy Koreya O'zbekiston iqtisodiyotiga o'n milliarlab dollar investisiyalarni kiritdi. Biroq, bu mintaqada asosiy siyosiy va iqtisodiy maqsadlar Xitoyga tegishlidir. Xitoyda Markaziy Osiyo Yevropa bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish bo'yicha "Bir belbog'-bir yo'l" strategik loyihasini amalga oshirish katta qiziqish uyg'otmoqda. Pekin buning uchun hech qanday pul ayamayapti.

2001-2013 yillarning o'zida Xitoy 5 ta mintaqadagi respublikalari (Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston) bilan tashqi savdo aylanuvini 1,8 milliarddan 50 milliard dollarga ko'tarildi. Bu davlatlarning iqtisodiyoti Xitoy bozoriga yo'naltirilgan. Xususan, Turkmaniston davlatda qazib olinadigan gazning 60 foizini Xitoyga jo'natadi. Qozog'istonda Xitoy investorlari neft qazib olish sohasida to'rtdan bir qismidan ko'prog'ini nazorat qilmoqda. Qirg'izistonda davlat qarzining 40 foizi Xitoy hukumat Eksport-import bankiga to'g'ri keladi, shuningdek ko'plab loyihalar xitoylik ishbilarmonlarining puliga amalga oshirilmoqda.

2020 yil 15 oktyabrdagi Markaziy Osiyoning beshta mamlakati va Rossiyaning tashqi ishlar vazirlarining onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi, unda "Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vazirlarining hamkorlikning strategik yo'nalishlari to'g'risida bayonoti" qabul qilindi¹.

Ushbu tarkibdagi uchinchi uchrashuv bir necha yil oldin yaratilgan Amerika C5 + 1 ga o'xshash diplomatik format paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy, o'z navbatida, "5 + 1" modeli bo'yicha mintaqaga nisbatan xuddi shunday yondashuvni birlashtirishga harakat qilmoqda. Buyuk davlatlar tomonidan Markaziy Osiyoga qaratilayotgan bunday e'tibor qarama-qarshi talqinlarni, baholarni va kutishlarni keltirib chiqaradi.

Ushbu formatlarning bir-biriga o'xshab ketsa-da, ularning mazmuni va mohiyati bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu asosan, AQSh-Rossiya-XXRning

¹ https://www.mid.ru/foreign_policy/news/-/asset_publisher/cKNonkJE02Bw/content/id/4390973

geosiyosiy uchburchagi ichidagi “tortishish arqoni” (tag of war) bilan haqiqiy siyosat ruhida bog‘liq bo‘lib, bu haqda siyosiy tahlilchilar bi narsani takrorlaydilar. Mintaqalarning mamlakatlarining mustaqilligiga 30 yil to‘lgan bo‘sada hali ham ushbu o‘yinlar markazidan chiqib ketmagan. Yaqinda kashf etilgan geosiyosiy arifmetika raqamlari o‘ziga xos sehrli bo‘ldi: “5 + 1” ning yig‘indisi biz kerakli uchburchakning qaysi burchagida turganimizga qarab har xil yechimlarni beradi. AQSh uchun “5 + 1 = 5”, Rossiya uchun “5 + 1 = 6”, Xitoy uchun “5 + 1 = x”. Keling, ushbu arifmetikani har bir davlat formatida ko‘rib chiqamiz.

AQSH uchun “5 + 1”

C5 + 1 formati 2015 yil sentabr oyida boshlangan va birinchi uchrashuv o‘sha yilning noyabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan edi. O‘shandan beri ma’lum bir muntazamlikka ega bo‘lgan bir nechta uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. Ushbu format shu yil fevral oyida AQSh Davlat kotibi Mayk Pompeo Qozog‘iston va O‘zbekistonga tashrif buyurgan Toshkentdagi uchrashuv paytida alohida tus oldi. Ushbu tashrif deyarli 2019-2025 yillar oralig‘ida AQShning Markaziy Osiyo bo‘yicha yangi strategiyasi qabul qilingan paytga to‘g‘ri keldi.

Aslida strategiya ham yangi formatdagi Toshkent uchrashuvi “C5 + 1” mintaqadagi “Katta O‘yin”ning yangi bosqichini boshlab berdi. Shuningdek, u strategiyaning ham me'yoriy o‘lchamining o‘zgarmasligini va uchrashuvlar formatining o‘zi haqida gapirib berdi. [2] Strategiyada aytilishicha: Markaziy Osiyo AQShning Afg‘onistondagi ishtiroki darajasidan qat‘i nazar, AQShning milliy xavfsizlik manfaatlari uchun geostrategik jihatdan muhim mintaqadir. Ushbu xatboshida Markaziy Osiyo mustaqil mintaqasi va Afg‘oniston AQShning Markaziy Osiyo bilan aloqalari uchun hal qiluvchi omil emasligi to‘g‘risida muhim xabar keltirilgan.

2016 yildan boshlab “C5 + 1” formati davlatlarning beshta loyiha doirasida birgalikdagi ishlarini ta‘minlaydi: 1) terrorizmga qarshi kurash; 2) biznesdagi raqobatbardoshlik; 3) transport koridorlarini rivojlantirish; 4) kelajak energiyasi; 5) ekologiya sohasida milliy va mintaqaviy moslashishni rejalashtirishni qo‘llab-quvvatlash¹.

5 + 1 jarayonini so‘nggi 30 yil ichida Qo‘shma Shtatlar tomonidan olib borilgan siyosat bilan taqqoslaganda, shunisi aniqli, AQShning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati mintaqaning mustaqilligini tan olish va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan edi. Masalan, 1999 yilda qabul qilingan “Ipak yo‘li strategiyasi” qonun loyihasida Qo‘shma Shtatlarning quyidagi asosiy manfaatlari ko‘rsatilgan edi:

1) mintaqadagi barqaror, demokratik davlatlarning rivojlanishini ta‘minlash, shu jumladan mintaqaviy ziddiyatlarni hal qilish;

¹ Joint Statement for the Press on C5+1High-Level Dialogue, July 9, 2020, <https://uz.usembassy.gov/c51-fact-sheet-central-asian-u-s-forum-to-enhance-regional-economic-environmental-and-security-cooperation/>

2) mintaqadagi davlatlar va AQSh va uning ittifoqchilari bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish;

3) mintaqa, gegemon davlatlari tomonidan ekspluatatsiya qilish orqali emas, balki bozor talablari asosida mintaqa iqtisodiyoti va tabiiy resurslarini rivojlanishini qo'llab-quvvatlash¹.

Shuni ta'kidlash kerakki, "C5 + 1" formati, AQShning Markaziy Osiyodagi barcha avvalgi sa'y-harakatlari bilan ko'paytirilib, ushbu jarayonning maqsadi va mazmuni sifatida mintaqalararo hamkorlikni aniq aytadi. Buni Qo'shma Shtatlarning Markaziy Osiyoga nisbatan qo'shma bayonotlari va avvalgi strategik hujjatlari tasdiqlaydi². Shunday qilib, Amerikaning "C5 + 1" formulasi mintaqada qandaydir AQSh hukmronligini o'rnatishga intilmaydi va shu sababli uning yo'nalishi va mazmuni bo'yicha mintaqaga yo'naltirilgan.

Rossiya uchun C5+1. XIX asrda Rossiyaning Buyuk Britaniya bilan "Katta o'zin"i aynan Markaziy Osiyo mintaqasida borgan edi. XXI asrda esa u AQSH va Xitoy harakatlarini mintaqada cheklash maqsadida faol siyosat olib borishi tabiiy. Mintaqaga nisbatan "ta'sir zonasasi" atamasini qo'llashi ham buning yaqqol isbotidir.

•Rossiya dunyo siyosatida Sovet Ittifoqining asosiy merosxo'ri sifatida o'zining eski mavqeini tiklashga harakat qiladi. Eski qudratiga ega bo'lishi bevosita Sharqiy Yevropa (Ukraina, Belorus, Moldova), Janubiy Kavkaz (Ozarboyjon va Armaniston) va Markaziy Osiyo mintaqasiga ta'sir o'tkazish, bu davlatlarni ta'sir doirasida ushlab turishi bilan bog'liqdir.

•Sovet Ittifoqi qulashi natijasida MDHning tashkil etilishidan maqsad G'arb va AQSH uchun mintaqada geosiyosiy bo'shliq yaralishining oldini olishdan iborat edi. Rossiya bunday tashkilotlarni, jumladan, Evrosiyo iqtisodiy hamkorlik, Erkin iqtisodiy zonani so'zda teng huquqli, amalda esa o'z manfaatlariga xizmat qilish va ta'sir ko'rsatish vositalari sifatida ishlatgan.

•Rossiya uchun ham AQSH va Xitoy kabi Markaziy Osiyoda tinchlik va siyosiy barqaror muhit bo'lishi juda muhim. •Rossiya AQSHning Markaziy Osiyo davlatlarida faol siyosat yuritishidan cho'chiydi. SHarqiy Yevropada NATO ta'siri kuchayishi Rossiyani qanchalik xavotirga solsa, Markaziy Osiyoda AQSH harbiy bazasi va G'arba moyil siyosiy rahbarlarning hukumatga kelishi, mintaqada AQSH "ko'magi" ostida demokratik islohotlarning amalga oshishi Rossiya manfaatlariga jiddiy zarar beradi.

Yaqinda Rossiya va Markaziy Osiyoning beshta davlati tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvi natijalarini tahlil qilib, "Kommersant" gazetasi

¹ The U.S. Congress Silk Road Strategy Act of 1999. <https://www.congress.gov/bill/106th-congress/house-bill/1152>

² Bu bo'yicha qarang: <https://www.state.gov/bureau-of-south-and-central-asian-affairs-releases/u-s-chair-statement-of-the-june-30-2020-c51-high-level-dialogue/>

quyidagicha yozadi: "Bundan buyon Moskva nafaqat ikki tomonlama aloqalarni rivojlantiradi, balki Markaziy Osiyonи ham bir butun deb hisoblaydi ... Bu Rossiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatining yangi strategiyasidir ". Ammo aslida bu yangi emas, balki eski strategiya ekanligini hamma biladi. «Moskvaning niyatiga ko‘ra, ushbu jarayonning natijasi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma dastur bo‘lishi kerak edi va Rossiyaning «beshlar » « +1 » emas, balki oltinchi a’zo sifatida qabul qilishdi ularning birlashmasidir»¹.

“5 + 1” formatining rus tilidagi versiyasini Rossiyaning so‘nggi 30 yillik mustaqillik davrida Markaziy Osiyoga nisbatan strategiyasi bilan taqqoslab (Amerika strategiyasida bo‘lgani kabi), biz g‘oyalar va qadriyatlar bo‘yicha farqlanishini bilib olamiz. Rossiya formatida demokratiya aks etmaydi va Amerika va Yevropa strategiyasidan keskin farq qiladi. Shunday qilib, "yangi" formatda Moskvaning mintaqadagi status-kvoni saqlab qolish bo‘yicha avvalgi yo‘nalishi amalda davom etmoqda. Bu yerda Markaziy Osiyo mamlakatlari geosiyosiy fantasmagoriyaga duch kelmoqdalar: shubhasiz, Markaziy Osiyo uchun rus formati Amerika formatiga javob sifatida paydo bo‘ldi. Agar biz masalani shu nuqtai nazardan ko‘rib chiqsak, u ko‘rinadigan yoki ko‘rinmas holda geosiyosiy o‘lchovga ega bo‘ladi. Binobarin, ikkala formatning maqsadlari va mazmunidagi ochiq yoki yashirin farq mintaqaning beshta davlatini tanlab olish holatiga keltiradi. Shuni e’tiborga olish kerakki, Rossiyaning 5 + 1 formati paydo bo‘lishidan oldin ham Rossiyaning ushbu mamlakatlar bilan aloqalari, aytganda, ko‘p formatli edi. Masalan, Qozog‘iston va Qirg‘iziston YeOIIga a’zo, O‘zbekiston ushbu tashkilotga faqat kuzatuvchi sifatida a’zo bo‘lishga qaror qildi, Tojikiston va Turkmaniston esa undan chetda qolmoqda.

Rossiya ommaviy axborot vositalari va ekspertlar doiralarida Yevropa Ittifoqi va AQShga nisbatan shubhali va qochib qutulish holatlari tez-tez qo‘zg‘atilishi, bu bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatgan va hamkorlikni rivojlantirayotganliklari vaziyatni og‘irlashtirmoqda. Albatta, ushbu sherikchilik beshta mamlakatning ham milliy manfaatlariga javob berishi kerak. Shunday qilib, Rossiyaning "C5 + 1" formulasi mintaqaga qaraganda ko‘proq Rossiyaga yo‘naltirilgan.

Xitoy uchun 5+1

2020 yil 16 iyulda Xitoy Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy tashqi ishlar vazirlari darajasida birinchi 5 + 1 uchrashuvini o‘tkazdi. Uchrashuvda asosan pandemiya oqibatlarini bartaraf etish va mintaqqa mamlakatlari iqtisodiyotini tiklashga e’tibor qaratildi². Xitoy ShHT va "Bir kamar va bir yo‘l

¹ “Коммерсантъ” №190 от 16.10.2020 <https://www.kommersant.ru/doc/4531609>

² Umida Hashimova. “China Launches 5+1 Format Meetings With Central Asia”. <https://thediplomat.com/2020/07/china-launches-51-format-meetings-with-central-asia/>, July 20, 2020.

tashabbusi" kabi formatlarning mavjudligiga qaramasdan, rasmiy Pekin Markaziy Osiyo uchun o'yinni yangi shaklga o'tishni oshladi. Bu bir tomondan, kerakli formatning xitoycha versiyasi deb tan olinsa-da, boshqa tomondan, u hali rivojlanish istiqbollari to'g'risida aniqroq tasavvurni e'lon qilgani yoq. Yaqinda taklif qilingan "Belgilar va yo'llar" doirasida Xitoy rahbarining "Umumiy taqdirlar jamiyati" shiori xitoyliklarning Markaziy Osiyodagi ishtirokining kelajakdagi oqibatlarini yashiradi.

Ushbu noaniqlik ikki holatdan kelib chiqadi: *birinchi*, ushbu shiorni tobora rivojlanib borayotgan jahonshumul kuchini ilgari surayotgani, uning dunyo tartibotida paydo bo'layotgan mavqeini turli xil uyushmalar va sxemalarni keltirib chiqarishi; *ikkinchisi* ushbu kuchning Markaziy Osiyo mintaqasiga qo'shni ekanligigadir¹. Shuning uchun ham mintaqada mamlakatlarida shuningdek, xalqaro ekspertlar orasida Xitoyning ushbu mintaqada tobora ko'payib borayotganligini baholash bo'yicha sinofobiya kuchayib bormoqda.

XXI asrda Xitoyning geosiyosati hali AQSh va Rossiyaning geosiyosatidan farqli o'laroq o'r ganilmagan. "Kamar va yo'l" formati yashirishi mumkin bo'lgan xatarlarni nafaqat mahalliy, balki xalqaro ekspertlar ham ta'kidlamoqda. Eng keng tarqalgan narsalardan biri bu Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ehtiyyotkorlik va qo'rquvning sabablari quyidagilardir: yerlarni xitoylarga berishga nisbatan millatchilik reaktsiyalarining kuchayishi (2016 yilda Qozog'istonda bo'lgani kabi); savdo raqobati; xitoylik firmalar bilan tuzilgan shartnomalarning oshkoraliyi va ularning mahalliy atrof-muhit qoidalari va qonunlariga mos kelmasligi; mahalliy ishchilarni yollash talablariga rioya qilmaslik va hk.

Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan siyosatining asosida, avvalo, xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik hamda energetika yotadi. •Xavfsizlik: a) chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligi; b) Xitoydagi separatistik va mustaqillikka qaratilgan turli harakatlarga qarshi kurashda Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik;

•Xitoyning demokratik islohotlar va inson huquqlari sohasida hech qanday talablari yo'q. Balki iqtisodiy hamkorlikda xavfsiz mintaq va progressiv hukumatlar bilan munosabat qulayroq;

•Xitoy uchun mudofa sohasida hamkorlik muhim. Bu borada CHegara davlatlari o'rtasida harbiy ishonchni kuchaytirish to'g'risida shartnoma Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida imzolangan;

¹ Masalan qarang: Stephen Blank. "China's Silk Roads and Their Challenges", 01/07/2015 issue of the CACI Analyst, <http://cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13119-chinas-silk-roads-and-their-challenges.html>

•Xitoy, Rossiya, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonni ichiga olgan SHanxay klubidan asosiy maqsad ham terrorizmga qarshi kurash, mustaqil davlatlarning chegara va xavfsizligini saqlashga qaratilgan;

•SHanxay hamkorlik tashkiloti Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va harbiy yo‘nalishlarda hamkorlik uchun asos solgan bo‘lsa-da, u, asosan, Xitoyning iqtisodiy manfaatlari uchun samarali xizmat qilib kelmoqda;

•Xitoy o‘z ichki bozorini ta’minalash maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari bilan kuchli iqtisodiy hamkorlik aloqalarini mustahkamlab bormoqda;

•Xitoy ham AQSH singari Markaziy Osiyo davlatlarining kuchli davlatlarning ta’siridan xoli, siyosiy barqaror va iqtisodiy rivojlangan mintaqqa bo‘lib qolishidan manfaatdor;

• Xitoy AQSHning mintaqada demokratiyani yoyish siyosatiga qarshi bo‘lib, u mintaqaga davlatlarining G‘arb manfaatlari xayrixoh bo‘lishiga ko‘p ham moyillik bildirmaydi. G‘arparast hukumatlar uning ham iqtisodiy, ham siyosiy manfaatlari uchun to‘siq bo‘lishi mumkin;

•Xitoy 2014 yildan keyin Markaziy Osiyo mintaqasida saxiy investor sifatida faol iqtisodiy rol o‘ynaydi;

Markaziy Osiyo regionning tabiiy-geografik imkoniyatlari. 1991-yilda SSSRning qulashi bilan dunyo geosiyosiy sahnasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, Markaziy Osiyo qudratli davlatlar o‘rtasida “Yangi katta o‘yin” nomi bilan mashhur bo‘lgan o‘ziga xos raqobat maydoni vujudga keldi. Markaziy Osyoning ulkan energiya zaxiralari ushbu yangi katta o‘yinda Rossiya, Xitoy va AQSh kabi buyuk davlatlarning ishtroki va kurashining asosiy sababi sifatida e’tirof etiladi. Mintaqaning asosiy ahamiyati ya’ni Yevrosiyoning yuragiga olib boruvchi o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tash mumkinligini inobatga olinganda, energiya zaxiralari uchun kurash omili biroz o‘z ahamiyatini yo‘qotishini ko‘rshimiz mumkin.

Ingliz geosiyosatchisi Piter Xopkirk o’zining “Rossiyaga qarshi Katta o‘yin: Osiyo sindromi”¹ asarida Markaziy Osiyo ustida “Katta o‘yin”ning qaytadan boshlanganligi, uning negizida Saudiya Arabiston va Fors ko’rfazining boshqa davlatlari salohiyatidan ancha ko‘p bo‘lgan afsonaviy neft va gaz zaxiralari, boshqacha aytganda XXI asrning tom ma’nodagi xazinasi yotganligini ta’kidlaydi. Bunga qo’shicha ravishda qator nodir metallar, temir rudasi, ko‘mir va paxtani ham qayd etgan geosiyosatchi, Markaziy Osyoning tashqi kuchlar uchun naqadar ahamiyatli ekanini yashirmaydi . Bunday geosiyosiy jarayonlarga Markaziy Osiyo mintaqasining munosabati qanday? Ushbu masala bugungi kunda nafaqat

¹ Хопкирк П. Большая игра против России: Азиатский синдром. –Москва: Рипол классик, 2004. –С. 4.

Markaziy Osiyoning geosiyosiy mavqeい, balki uning atrofidagi geosiyosiy jarayonlarni anglashga yordam beradi.

Mintaqaning geosiyosiy mavqeい bir necha omillarga bog'liq. Mumtoz geosiyosiy nazariyaga ko'ra har bir mintaqaning geosiyosiy mavqeい quyidagilar bilan belgilanadi:

- geografik joylashuvi va tabiiy-iqlim xususiyatlari;
- iqtisodiy salohiyati;
- shu hududda yashovchi xalqlarning qat'iy ravishda tabiiy-geografik omillar ta'siri ostida shakllangan mentaliteti hamda an'analari;
- ushbu xususiyatlар ta'sirida shakllangan siyosiy tuzumning tabiatи¹.

Bunda bipolyar dunyo elementlarining hanuz saqlanib qolayotganiligi hamda buyuk davlatlarning sovuq urush tendenцияларидан voz kecha olmayotganliklari oqibatida imkon qadar dunyoning turli burchaklarida o'z ta'sir doiralariga ega bo'lishga intilishning har qachongidan ham kuchayganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqilligining dastlabki bosqichida ko'pgina siyosatshunoslar mintaqada o'z ta'sirini o'rnatish uchun geosiyosiy raqobat asosan Turkiya va Eron o'rtasida bo'lishini taxmin qilgan edilar. Jahonda Xitoy mavqeい mustahkamlanishi bilan unga Markaziy Osiyodagi mavqeい va ta'siri baland kuch sifatida qarala boshlandi. Global markazlar mintaqaning muhimligini qayd etgan holda, amalda bu erda ro'y berayotgan jarayonlarga uncha aralashmadilar. 2001 yil 11 sentyabrdan so'ng vaziyat butunlay o'zgardi. Markaziy Osiyo xalqaro terrorizmga qarshi kurashning istehkomiga aylandi. Bu erda NATO harbiy-siyosiy kuchlari hozirligi preцedenti vujudga keldi.

Afg'onistondagi antiteroristik operaциyaning dastlabki bosqichida ko'pchilik Markaziy Osiyo o'z tarixida birinchi marta raqobat ob'ektiga emas, ko'p taraflama, balki uzoq muddatli hamkorlik maydoniga aylanmoqda, degan fikrni ilgari surdi. «Katta O'yin» tugagandek va bir tomonning g'alabasi ikkinchi tomon manfaatiga zid, kelmaydigan holat, ya'ni «non-zero-sum-game» davri boshlangandek bo'lib tuyuldi. Biroq, terrorizmga qarshi urush cho'zilgani sari ayrim mamlakatlarning manfaatlari o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'la boshladи. Ular Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini o'rnatish uchun o'zaro ko'rash olib borayotgani ayon bo'lib qoldi.

Oldingi davrlardan farqli o'laroq, mintaqqa uchun geosiyosiy kurashning hozirgi bosqichi bir qancha o'ziga xos fundamental xususiyatlarga ega.

Bu kurashga oldingidan ancha ko'proq davlatlar qo'shilganligi sababli, qarama-qarshilikning murakkab, ko'p yo'nalishli shaklini namoyon etadi. Bunda o'xshash yondashuvli mamlakatlar guruhlari, masalan, AQSH va Yevropa Ittifoqi

¹ Жалилов А.Т. Геосиёсат. Тошкент. Akademiya. 2020 й. 134 б

bir tomonidan va Shanxay hamkorlik Tashkiloti davlatlari ikkinchi tomondan kuzatilmoqda. Bu Markaziy Osiyo tevaragida bloklar qarama-qarshiligi vujudga kelishiga zamin hozirlaydi va bu mintaqa uchun juda xavflidir. Mintaqa o‘z tarixida birinchi marta har xil mo‘ljalli mamlakatlarning harbiy kuchlari bir—biridan xavfli yaqinlikda joylashgan zonaga aylandi.

Markaziy Osiyoni imkon qadar yangi vositalar orqali ushlab turishga intilishlar kuchaydi. Ushbu yangi katta o‘yinda har bir davlatning o‘z uslubini ko‘rish mumkin. Xitoy mintaqada na siyosiy, na harbiy motivlarini ko‘rsatadi, balki turli iqtisodiy loyihalar orqali mintaqa davlatlari bilan ishonchli, do‘stona aloqalar o‘rnatish va mavjud poziqiyasini mustahkamlash yo‘lidan bormoqda. Rossiyaning yagona maqsadi esa imkon qadar Markaziy Osiyoni o‘z ta’sir doirasiga saqlab turishdir. Bunda u barcha imkoniyatlaridan to‘la foydalanishga urinadi. YA’ni mintaqaviy tashkilotlar tuzadi, mintaqaviy harbiy blok yaratadi, yagona bojxonani tashkil etish singari qaram qilish yo‘lidan ilgarilab bormoqda. AQSHning ushbu yangi katta o‘yindan yagona maqsadi azaliy raqibi bo‘lgan Rossiya va Xitoyga boy bermaslik va uni imkon qadar holdan toydirish, 13 yilga yaqin davom etayotgan Afg‘oniston missiyasi AQSHga mintaqa davlatlari bilan yaqin aloqa o‘rnatish va Markaziy Osiyoda o‘z o‘rni va ta’sir dorasini bir muncha kuchaytirish imkonini beradi. Turli loyihalar **SASA-1000, TAPI, Yangi buyuk ipak yo‘li** orqali tashlash orqali Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiyadagi siyosiy va iqtisodiy qaramligini kamaytirishga urinayotganligi ushbu fikrimizga asos bo‘lib xizmat qiladi.

So‘ngi 10-yillikda dunyo bo‘yicha 90-yillarda kuzatilgan bir qutbli dunyoning qaytadan bo‘laklarga ajralishini kuzatmoqdamiz. Hozir bu dunyoni biz ko‘p qutbli deya atamoqdamiz. Shunga monand ravishda nafaqat siyosiy qutblar, balki iqtisodiy va savdo bo‘yicha ham “qutblar” yuzaga kelmoqda. Shu paytgacha dunyo iqtisodida o‘ta ilgarilab ketgan G‘arb dunyosi endilikda bu iqtisodiy liderlikni Osiyo mamlakatlariga asta-sekinlik bilan bo‘shatib berayotganini ko‘rib turibmiz. Albatta jarayon sekinlik bilan, lekin progressiv ravishda yuz bermoqda. G‘arb davlatlari Osiyodagi Xitoy va Hindiston davlatlarining iqtisodiy o‘sish darajalari haqidagi xavotirlarini bundan 10-yillarcha oldin bildirishgan edi va bugungi kunda ular haq bo‘lganini, bu ikki davlat dunyo iqtisodini kelajakdagagi asosiy markazlariga aylanayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Dunyo globallashar ekan undagi savdo aloqalari ham tezlashgandan tezlashmoqda. Agar shu yo‘sinda davom ettirilsa kim arzon, sifatli va tez yetkazib berila oladigan mahsulotlarni ishlab chiqarsa o‘sha tomon iqtisodda ilgarilab ketaveradi. Erkin iqtisodning bu “tabiiy” qonuniga faqatgina mamlakatlarning o‘z xalqi va manfaati doirasida ishlab chiqqan qonunlarigina qarshilik ko‘rsata oladi. Bunday qonunlarni biz standartlar, normalar, reglamentlar va hokazolar deb

ataymiz. Masalan O‘zbekistonga ruli o‘ng tomonda joylashgan avtomobilarni import qilishni iloji yo‘q, chunki bizning mamlakatda avtomobilarning standartiga rulning chap tomonida joylashganligi kiradi. Bunday misollar talaygina va aynan mana shunday qoidalar davlatlar orasidagi savdoga to‘sinq bo‘ladigan birinchi to‘sinqlar - bojxona, qo‘srimcha qiymat solig‘i va hokazolar olib tashlangandan so‘ng ko‘zga tashlanishni boshlaydi.

Resurslarga boy, barqaror, hamkorlikka tayyor, mustaqil xalqaro siyosat olib borishga qodir mamlakatlarning mintaqaviy hamkorligi rivojlanishidan Vashingtonning manfaatdorligi AQSHning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qolayotir. Mintaqaning barqarorligi, unda xavfsizlik va hamkorlikning mustahkamlanishi iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha tashlangan qadamlarga bog‘liq ekanligiga AQSH ma’muriyatining ishonchi komil. Bunda jahon xo‘jalik aloqalari tizimiga mintaqaning qo‘silishi muhim ahamiyat kasb etadi. «Ipak yo‘li strategiyasi: XXI asr» qonun loyihasi shu yo‘nalishda tashlangan muhim qadamlardan biri bo‘ldi. U Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida AQSH Kongressining ishtiroki faollashganidan dalolat beradi. Qonun loyihasi Markaziy Osiyo va Kavkazorti davlatlari Yevropaning rivojlangan mamlakatlari bilan yanada yaqinroq hamkorlik qilishiga imkoniyat yaratuvchi ko‘p darajali infratuzilma – «Evrosiyo koridori»ni barpo etish bo‘yicha ko‘p taraflama muzokaralar olib borishni taklif qildi. Kongressda muhokama qilinayotgan ushbu qonun loyihasi mintaqaga mamlakatlarining mustaqilligi va suverenitetini qo‘llab-quvvatlash, mintaqaviy hamkorlikni rag‘batlantirish, mintaqaga mamlakatlari jahon hamjamiyatiga qo‘silishiga, ijtimoiy iqtisodiy va demokratik o‘zgarishlarga imkoniyat yaratish, mintaqaviy mojarolarni tartibga solish, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik qilishni nazarda tutadi.

Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlar. AQShning mintaqadagi eng asosiy manfaati sifatida xavfsizlikni ko‘rsatish mumkin. Yaqin Sharqda yuritilayotgan tashqi siyosatda milliy xavfsizlikni ta’minlash tamoyili birinchi o‘rinda turadi. 2010 yildagi AQSh Milliy Xavfsizlik Strategiyasida belgilanganidek “ushbu ma’muriyatning Amerika fuqarolarining xavfsizligini ta’minlashdan kattaroq mas’uliyati yo‘q. Va Amerika fuqarolariga ommaviy qirg‘in quollaridanda xavfliroq tahdid yo‘q, ayniqsa, ommaviy qirg‘in quollarini qo‘lga kiritishga urinayotgan ekstremist kuchlar va ularning firqalaridan xavfliroq dushman mavjud emas.”

Yaqin Sharq terroristlar va ekstremistlar yig‘ilgan joy sifatida AQSh milliy xavfsizlik strategiyasining muhim qismiga aylandi. Milliy Xavfsizlik Strategiyasida ‘biz al-Qaida va uning firqalarini parchalaymiz, yo‘q qilamiz. Shuningdek, yadro va biologik quollar tarqalishining oldini olamiz hamda

yadroviy materiallar xavfsizligini ta'minlaymiz,” deb belgilab qo‘yilgan. Bularning hayotdagi in’ikosi sifatida, Obama ma’muriyati Afg'onistondagi urushga katta e’tibor qarata boshladi, Eronning yadro dasturi va Suriyadagi kimyoviy qurollardan foydalanish holati bo‘yicha keng ko‘lamli diplomatik amallar olib bordi. Xavfsizlikni ta’minalash manfaatidan kelib chiqib, AQSh Fors ko‘rfazi monarxiyalarini qo‘llab keldi, terrorizmga kurashish doirasida yordamga muhtoj bo‘lgan Obama hukumati Eron va Suriya rejimlari bilan turli darajada bevosita hamda bilvosita aloqalarni kuchaytirib bordi. Suriyadagi vaziyat yanada murakkablashib ketishini istamagan Obama Bashar al-Assadning hokimiyatda qolishiga bayonotlarida qarshilik qilishda davom etsada, amalda buni to‘xtatdi. Xulosa qilib aytganda, milliy xavfsizlikni ta’minalash Obama birinchi ma’muriyatining Yaqin Sharq siyosatida eng yuqori darajali manfaati bo‘ldi.

Neft resurslarini qo‘lga kiritish imkoniyatini nazorat qilish AQSh Yaqin Sharq siyosatidagi navbatdagi manfaatdir. AQSh prezidenti Duayt Eyzenhover dunyodagi neft zahiralarining yarmidan ko‘pi joylashgan Yaqin Sharqni “biz uchun strategik jihatdan eng muhim mintqa”, deb ta’riflagan edi. 2010 yildagi statistik ma’lumotlarga qaraganda, Yaqin Sharq mamlakatlari kuniga 30 million barrel neft qazib olgan va kunlik 86 million barrel bo‘lgan global neft ehtiyojining uchdan bir qismini qondirgan. Uch mamlakat: Saudiya Arabiston (kunlik 10 mln barrel), Eron (kunlik 4 mln barrel) va BAA (kunlik 2,8 mln barrel) hisobiga Yaqin Sharqdagi neft qazib chiqarishning 57 foizi to‘g‘ri kelgan. 21 asr boshlariga qadar neft AQShning Yaqin Sharqdagi asosiy manfaati bo‘lib kelgan. Biroq ichki neft va tabiiy gaz ishlab chiqarish miqdorining o‘sishi ortidan import qilinadigan neftga bo‘lgan ehtiyoj 2008 yildagi 57 foizdan 2011 yilga kelib 45 foizga tushdi. Shunday bo‘lsada, xorijiy neft hanuz Amerika uchun muhim energetika manbasi bo‘lib qolmoqda. Neftga qiymatining xalqaro munosabatlarga ta’sir o‘tkazishi omili esa ushbu tabiiy resurs AQSh uchun hali yana uzoq vaqt asosiy manfaatlardan biri bo‘lib qolishini anglatadi. Mobodo Yaqin Sharqdagi kunlik neft ishlab qazib olish ma’lum miqdorga kamaysa, jahondagi kunlik ehtiyojning 30 foizga yaqinini ta’minalash uchun O‘rmuz bo‘g‘ozidan o‘tuvchi neftning narxi keskin oshib ketadi. Shu sababli AQSh jahondagi siyosiy hamda iqtisodiy tartibotni nazorat qilib turish uchun Yaqin Sarqdagi energetika resurslarini muhofaza qilish, ularga erishish imkoniyatlarini saqlab qolish va energetika mahsulotlari o‘tuvchi koridorlar (masalan, O‘rmuz bo‘g‘ozilarni doimiy o‘z ta’sir doirasida tutib turish uchun harakat qiladi.

AQShning Isroil bilan o‘ziga xos ittifoqchiligining bir qancha sabablar bilan izohlash mumkin:

Birinchisi, muhim geostrategik ahamiyatga ega bo‘lgan Isroilning geografik joylashuvi AQShga mintaqadagi ta’sir doirasini saqlab turish uchun geosiyosiy platform vazifasini o‘taydi.

Ikkinchisi, harbiy jihatdan qudratli Isroil AQShni mintaqadagi manfaatlari xavfsizligini ta’minlashi mumkin. Harbiy qudrati ta’minlangan Isroil mintaqadagi AQSh manfaatlariga zid bo‘lgan kuchlar, masalan, terroristik va ekstremistik kuchlarni tiyib turishga qodir bo‘ladi.

Uchinchisi, Isroilni qo‘llab-quvvatlash va ta’minlashning AQSh milliy manfaati darajasiga ko‘tarilgani mintaqadagi boshqa iqtisodiy jihatdan qiynalayotgan davlatlarni amerikaparast siyosat yuritishiga undashi mumkin. Uzoq vaqt mobaynida Amerika ta’siri ostida Misrning Arab davlatlari ichida Isroilga ma’lum darajada yon bosgan yagona mamlakat bo‘lganligi bundan dalolat beradi. Shu sababli Isroilni dastaklash AQShning mintaqadagi eng uzoq davrdan beri davom etib kelayotgan hayotiy muhim manfaatlaridan biri hisoblanadi.

Bunday strategiya doirasida AQSh Turkiya va Eronning mintaqadagi kuchlari muvozanatini kafolatlash, o‘zaro teng raqobatini shakllantirish uchun harakat qilmoqda. Buning ikki muhim sababi mavjud: 1) Turkiya o‘zaro manfaatlar sababli AQShga qarshi siyosat yuritmeydi, rasmiy Washingtonning raqibiga aylanmaydi 2) Turkiya va Eronning manfaatlari xech qachon bir joydan kesishmagan. Iraq-Eron raqobatidan so‘ng mintaqada Turkiya-Eron ziddiyati avj ola boshladi. Ushbu ikki davlatning mintaqaviy ittifoq tuzish ehtimoli deyarli nolga teng. Shu sababli ular o‘rtasida o‘zaro teng kuchlar muvozanatini shakllantirish orqali AQSh mintaqani biror bir mahalliy davlatning mutlaq ta’siriga tushib qolishidan saqlashi mumkin. Bundan tashqari Turkiya va Eronning o‘zaro raqobat doirasida qo‘llashi mumkin bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy resurslar bo‘yicha salohiyati o‘zaro muvozanatda.

Obama hokimiyat tepasiga kelgan vaqtda Eron sanksiyalar tufayli ancha ojizlanib qolgan edi. Kuchlar muvozanati strategiyasi doirasida Obama ma’muriyati Eronning qudratini Turkiyaniki bilan tenglashtirishdan manfaatdor edi. Turkiya mintaqada dominantlik qilish ambitsiyalariga ega davlat bo‘lib, Eron qudratining ortishiga toqat qila olmaydi va shu bilan birga Eronga nisbatan uzoq vaqt davomida raqiblik qilish salohiyatiga ega. Shuningdek, Turkiya Rossiyadan import qilinuvchi energetika resurslariga nisbatan qaramlikni kamaytirish maqsadida Yaqin Sharqdagi neftini qo‘lga kiritish uchun harakat qilmoqda. Turkiyaning mintaqada qanday manfaati mavjud bo‘lmisin, bu manfaatlar deyarli doimo Eronniki bilan qarama-qarshi chiqadi, shuning uchun turklar Arab Yarimoroli va arab mamlakatlaridagi Eronning ta’sirini susaytirish orqali mintaqaga janubidagi neft resurslariga erishishni o‘zlarining bosh maqsadlaridan biri deb hisoblaydilar. Yaqin Sharqning boshqa mamlakatlaridagi davlat institutlari

faoliyati izdan chiqar ekan, qudratli Turkiya va Eron navbatdagi mintaqaviy kuchlar muvozanatining asosiy ishtirokchilari bo‘lib qolaveradilar. Natijada xaos va anarxiyaga botgan Yaqin Sharqdan ko‘ra, ikki qutbli kuch markaziga ega nisbatan barqaror yangi tartibot paydo bo‘ladi.

AQSh tashqi siyosatidagi Yaqin Sharq vektori turli manfaatdor tomonlar, murakkab siyosiy tizim, ommaning siyosatga ta’siri, alohida guruhlar, ayniqsa, isroilparast lobbichilar, harbiy-sanoat komplekslari, shuningdek, doimo prezident vakolatlarini cheklashga urinadigan Kongress kabi ishtirokchilarning ta’siri ostida shakllangan. Oldingi prezidentlar kabi Obama ham bunday murakkab vaziyatda, manfaatdor va qudratli kuchlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda Yaqin Sharqqa nisbatan siyosat yuritishga majbur bo‘ldi. O‘z Yaqin Sharq siyosatini shakllantirishda turli ta’sir o‘tkazuvchi kuchlar, manfaatdor tomonlar talablarini hisobga olishiga to‘g‘ri keldi. Natijada birinchi ma’muriyat tomonidan mintaqaga nisbatan olib borilgan siyosatda turli ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Shuningdek, Obama uch tomonidan ichki bosimga uchradi: ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, manfaatdor guruhlar va saylov.

Iqtisodiy-ijtimoiy muammolar ichki bosimning eng birinchisi bo‘ldi. Obama 2009 yilda prezident sifatida qasamyod keltirgandan so‘ng moliyaviy inqiroz ortidan yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va iqtisodiyotni qayta tiklash yangi ma’muriyat zimmasidagi eng birinchi vazifalardan biri edi. Obama o‘z oldiga iqtisodiyotni rivojlantirish, ishsizlik darajasini pasaytirish, sog‘liqni saqlash sohasida islohotlar o‘tkazish va muqobil energiya olish imkoniyatlarini kengaytirishni o‘zi uchun asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Iroq va Afg‘oniston urushlariga sarflanayotgan katta miqdordagi mablag‘lar Obamaning sanab o‘tilgan maqsadlariga erishish yo‘lidagi imkoniyatlarini keskin kamaytirdi. Obama Iroqdan AQSh harbiylarini olib chiqdi va birinchi prezidentlik muddati davomida mavjud 1,3 trillionga teng moliyaviy kamomadni ikki barobarga qisqartirishni rejashtirdi. Moliyaviy inqiroz oqibatida ishsizlik darajasining 10 foizdan oshib ketgani ijtimoiy beqarorlik keltirib chiqarayotgan edi. 2011 yil sentyabridagi iqtisodiy-ijtimoiy qiyinchiliklarga qarshi boshlangan “Occupy Wall Street” (Uoll Stritni egalla) harakati mazkur beqarorlikning yuqori cho‘qqisi bo‘ldi. Obama global terrorizmga qarshi kurash siyosatiga resurslar ajratishni keskin kamaytirib, asosiy e’tiborni ichki barqarorlikni ta’minlash uchun xalqaro iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni mustahkamlashga qarata boshladi.

Obama uchun ikkinchi ichki bosim manfaatdor guruhlar tomonidan keldi. Bunday guruhlar hukumat yuritayotgan tashqi siyosatga ta’sir o‘tkazish va manipulyatsiya qilish orqali o‘z manfaatlarini amalga oshirib olishga harakat qiladilar. Yaqin Sharq siyosati misolida manfaatdor guruhlar sifatida isroilparast lobbichilar va harbiy-sanoat komplekslarini misol keltirish mumkin. Amerika-

Isroil Ijtimoiy Ishlar Qo‘mitasi (AIPAC), Amerika Yahudiylari koalitsiyasi kabi guruhlar Yaqin Sharqda AQShning Isroil manfaatlarini ko‘zlab siyosat yuritishiga katta ta’sir ko‘rsatadilar. Isroilga ko‘rsatilayotgan katta miqdordagi moliyaviy va harbiy ko‘makdan tashqari isroilparast lobbichi guruhlar Vashingtonni Isroil-Falastin mojarosi, Iroq Urushi va Eron yuzasidan o‘z manfaatlariga mos siyosat yurishitishi uchun undashga urindilar. Bunday guruhlarning ta’sir o‘tkazish yo‘llari turlicha, masalan, saylov kampaniyalariga homiylik qilish, ovoz berish jarayonlarida to‘siflar yuzaga keltirish, Kongress faoliyatiga lobbichilik orqali aralashish va h.k. Yaqin Sharq masalasida Kongress faoliyatiga isroilparast lobbichilar aralashgan vaqtida prezidentning mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatlari keskin cheklanadi.

AQSH MO davlatlari bilan turli xil kelishuvlarga erishdi. O‘zbekiston janubida Qarshi-Xonobod harbiy bazasi, Qirg‘istonda esa Manas aviabazasini ijara oldi. Qozog‘istondan davlat ustidan uchib o‘tish huquqini oldi, Tojikistonдан aeroportni vaqtinchalik ishlatish uchun ruxsat oldi. XXI asrdagi AQSHning global etakchilika ochiqdan-ochiq davogarlik qilayotganligi va shu sababdan ham Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi mintaqada ta’sir dorasini kengaytirishga intilishi ajablanarli hol emas. Sobiq Petagon rahbari Paul Volfsits o‘zining Yangi Amerika asri loyihasida ta’kidlaganidek: AQSH nafaqat Yangi katta o‘yinda, balki butun “Jahon oroli”da gegemonlikni qo‘lga kiritishdagi kurashda hech qaysi millatga zarracha imkoniyat qoldirmasligimiz kerak.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yangi ming yillikda Rossiya-AQSH-Xitoy gegimon davlarlarining o‘rnini qanday baholaysiz?
2. Hozirgi kunda AQSHning xalqaro yetakchilikdagi roli qanday?
3. Markaziy Osiyoda Xitoyning geostrategiyasi qanday nomlanadi?
4. Yaponianing geosiyosati necha qismga bo‘linadi?
5. Yaqin sharq mintaqasidagi geosiyosiy voqelikda Turkiyaning roli baholang?
6. Markaziy Osiyo regionidagi qanday geosiyosiy jarayonlar mavjud?
7. Yangi katta o‘yin haqida nimalarni bilasiz?
8. Markaziy Osiyoga nisbatan qanday geosiyosiy formatlarni bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. – М.: Логос, 1998 – С.300.

2. Глобал бошқарувда Хитой етакчилиги. Жин Нуо таҳрирлигига – Тошкент . Oltin Media, 2019-368 б.
3. Дугин А.Г. Законы геополитики. – М.: Арктогея, 2000.
<http://arctogaia.com/public/osnovygeo/geop13.htm#6>
4. Дугин А. Евразийская стратегия Турции // www.evrazia.org.
5. Дугин А. Основы геополитики. - М.: Арктогея, 1997. -С. 353 - 364.
6. Жалилов А.Т. Геосиёсат. Тошкент. Akademiya. 2020 й. 134 б
7. Сафоев С.С. Марказий осиёдаги геосиёсат. Тошкент – 2005
8. Agnew, John A. 2003. Geopolitics: revisioning world politics. New York, N.Y..Routledge. P.179
9. National Military Strategy of the United States. January, 1992. P. 8–10.
- 10.Индия, Китай, Центральная Азия: глобальные, региональные, страновые аспекты. Коллективная монография под редакцией Л.Г. Ерекешевой. – Алматы: ИД «МИР», 2017. С. 258.
- 11.Данные и расчет по Краткой статистике Китая за 2018г. **中国简要统计**. Пекин, 2018, С. 10.
- 12.Китай вновь заявил о своем возражении против продажи США оружия Тайваню. http://russian.news.cn/2015-12/16/c_134923326.htm
- 13.Лукин А. Постбиполярный мир: мирное сосуществование или хаос? 2016 г. № 1, с. 17–29
- 14.Norbekov.U. Geosiyosat asoslari. T.: Fan va texnolgiya. 2017- 176-bet.
- 15.Lushenko P., Hardy J. China, the United States and the Future of Regional Security Order – An Unhappy Coexistence // Asian Security. 2016. Vol. 12 (1). P. 1–28.
- 16.<https://sites.google.com/site/politicamira/geopolitika/geopolitika/geopolitical-strategies-a-ponerii>
- 17.Rosenbluth, Frances and Kohno, Masaru, "Japan and the World: Japan's Contemporary Geopolitical Challenges – A Volume in Honor of the Memory and Intellectual Legacy of Asakawa Kan'ichi" (2008). CEAS Occasional Publication Series. Book 2. http://elischolar.library.yale.edu/ceas_publication_series/2
- 18.Pei, Minxin and Swaine, Michael: "Simmering Fire in Asia: Averting Sino-Japanese Strategic Conflict" Carnegie Endowment, Policy Brief no. 44 (November 2005), at <http://carnegieendowment.org/files/pb44.pei.FINAL.pdf>.
- 19.3. Бжезинский. Великая шахматная доска. М.: Междунар. отношения, 1998
- 20.What is kemalism? – <http://www.erkutaldeniz.com/what-is-kemalism/>

21. History of civilizations of Central Asia. - UNESCO Publishing, Paris, 1996.
22. Strategic Assessment of Central Eurasia, The Atlantic Council & Central Asia -Caucasus Institute, SAIS, Washington DC, 2001, p.8
23. Рашид А. Талибан: ислам, нефть и новая большая игра в Центральной Азии. М.: «Библион — Русская книга», 2003.
24. Михалев А.В «Новая большая игра» в центральной азии: фактор монголии.// Региональная экономика: теория и практика № 2. 2013 с.35-36
25. [https://www.mid.ru/foreign_policy/news/asset_publisher/cKNonkJE02Bw /content/id/4390973](https://www.mid.ru/foreign_policy/news/asset_publisher/cKNonkJE02Bw/content/id/4390973)
26. Joint Statement for the Press on C5+1High-Level Dialogue, July 9, 2020, <https://uz.usembassy.gov/c51-fact-sheet-central-asian-u-s-forum-to-enhance-regional-economic-environmental-and-security-cooperation/>
27. The U.S. Congress Silk Road Strategy Act of 1999. <https://www.congress.gov/bill/106th-congress/house-bill/1152>
28. Bu bo‘yicha qarang: <https://www.state.gov/bureau-of-south-and-central-asian-affairs-releases/u-s-chair-statement-of-the-june-30-2020-c51-high-level-dialogue/>
29. “Коммерсантъ” №190 от 16.10.2020 <https://www.kommersant.ru/doc/4531609>
30. Umida Hashimova. “China Launches 5+1 Format Meetings With Central Asia”. <https://thediplomat.com/2020/07/china-launches-51-format-meetings-with-central-asia/>, July 20, 2020.
31. Stephen Blank. “China’s Silk Roads and Their Challenges”, 01/07/2015 issue of the CACI Analyst, <http://cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13119-chinas-silk-roads-and-their-challenges.html>
32. Хопкирк П. Большая игра против России: Азиатский синдром. – Москва: Рипол классик, 2004.

II BO‘LIM. MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY TARAQQIYOTIDA YANGI GEOSIYOSIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANISHI VA O‘ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY KELAJAGI

V-BOB MILLIY MANFAATLAR VA MILLIY XAVFSIZLIK

- 5.1. Milliy manfaatning asosiy tarkibiy qismlari, shakllari va ularni amalga oshirish usullari
- 5.2. Milliy xavfsizlik tushunchasi va uning tarkibiy qismlari
- 5.3. Milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim vositasi va yo‘nalishlari
- 5.4. O‘zbekistonning chuqur o‘ylangan, oqilona milliy siyosati va geosiyosiy kelajagi

Tayanch iboralar: manfaat, xavfsizlik, milliy xavsizlik, geosiyosiy vogelik, yo‘nalishlar, 6 diplomatiya, geosiyosiy kelajak

5.1. Milliy manfaatning asosiy tarkibiy qismlari, shakllari va ularni amalga oshirish usullari

«Manfaat» tushunchasining mohiyatini, birinchi marta, fransuz ma’rifatparvarlari tahlil qilishgan. Ularning ta’limotlarida manfaat insonning ijtimoiy faoliyati motivi sifatida talqin qilinib, «har bir inson o‘z baxti haqidagi tasavvurni bog‘laydigan ob’ekt manfaat deb ataladi», degan ta’rifni bergen. Fransuz faylasufi Klod Adrian Gelvesiy (1715-1771 y.y.) “Inson haqida”, degan asarida bu kategoriya mazmunini konkretlashtirib, «Manfaat bizning barcha fikrlarimiz va qilmishlarimizning negizidir», deb ta’riflagan bo‘lsa, bu fenomenni umumlashtirib, “Tabiat – harakat qonunlariga, jamiyat – manfaat qonunlariga bo‘ysunadi” degan xulosaga kelgan.

Nemis mumtoz faylasufi Gegel esa, inson faoliyati va manfaati o‘rtasidagi munosabat dialektikasini «hech qanday harakat manfaatga bog‘liq bo‘lmagan holda sodir etilmaydi», deb ko‘rsatgan edi. Agar, “tabiat-jamiyat-davlat-inson” tizimida bu tamoyillar va o‘zaro muvozanat qonuniyatlar buzilsa, og‘ir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy oqibatlarga, ya’ni terrorizm, ekstremizm, seperatizm, radikalizm, ksenofobiya kabi hodisalar eskalasiyasiga olib kelishi haqida tarixdan istalgancha misollar keltirish mumkin.

Ming yillar davomida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda: millatlarning – millatlararo, etnoslarning – etnoslararo, irqlarning – irqlararo, dirlarning – konfessiyalararo, ijtimoiy tabaqalarning – sinflararo, insonlarning – shaxslararo aloqalari ijtimoiy borliq sub’ektlari manfaatlari asosida shakllanib, rivojlanib kelgan.

Manfaat kategoriyasi tabiatan murakkab bo‘lib, u faqat umummilliy jihatlargina emas, balki shaxsiy, guruhiy, qavm-qarindoshchilik, mahalliychilik, mintaqaviy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlarni ham o‘zida aks ettiradi. Manfaat shaxsiy muammolardan boshlab, millatlar, ijtimoiy, siyosiy kuchlar, mahalliy sharoitlar, siyosiy e’tiqodlar, irqiy, mintaqaviy manfaatlarning barchasini o‘zida qamrab oladi. Milliy manfaatlar esa o‘zida shaxsiy, etnik, ijtimoiy va umuminsoniy manfaatlar mujassamlashtiradi. Manfaatlar shaxsiy, guruhiy, urug‘-qabilaviy, milliy, umuminsoniy turlariga bo‘linadi.

Milliy manfaat kategoriyasi nafaqat bugungi kun olimlarining, balki N.Makiavelli va Dyumadan boshlab ko‘pgina tadqiqotchilar e’tiborini jalg qilib kelgan. Ammo milliy manfaatlar davlatlarning strategiyasini tushunishda asosiy kategoriya sifatida qaralmagan. Davlatlar bilan ularning shaxsiy manfaatlari birdek harakat qilishi g’oyasiga N.Makiavelli tomonidan asos solingan Tarixda milliy manfaat o‘rnida “davlat” manfaati (raison d Etat) kategoriyasi tushunilgan. Frantsuz qiroli Lyudovik XIV ning shunday iborasi bor: “Davlat – bu men”.

XVIII asr oxirida “milliy suverinitet” termini monarx hokimiyatining yuqori turuvchi manbai sifatida tan olinmasligi, shuningdek davlat manfaatini shakllantirishda yuksak huquqning cheklanganligi sababli keng miqyosda foydalaniladi. Milliy manfaat shakllanishi va evolyutsiyasi shuni ko’rsatadiki, ushbu tushuncha hokimiyatga oppazitsion ruhda bo‘lgan siyosiy rahbarlarlar va umumiylar tomonidan an’anaviy tarzda shakllantirilgan. Milliy manfaat hech qachon mavjud hokimiyat tomonidan jamiyatning keng qatlamiga taqdim qilinuvchi dastur sifatida ko‘rilmagan.

XX asrda milliy manfaat tushunchasi siyosiy fanlar, shu jumladan xalqaro munosabatlarda o‘rganildi. Xalqaro munosabatlarga milliy manfaat terminini kiritishda amerikalik tadqiqotchilar R.Nibur va Ch.Bird tan olinadi. Umuman olganda milliy manfaat boshqa davlatga bosim o’tkazish qo’llanmalarini kuchaytirish mexanizmigina bo‘lib qolmay, balki xavfsizlik, qurolsizlanish, tinchlik va tenglik sharoitida davlatlar hamkorligini ta’minlovchi vositahamdir. Xalqaro hamkorlik davlatlarning milliy manfaatlarini samaraliroq kafolatlovchi sharoit sifatida xizmat qilishi mumkin.

Milliy manfaat tushunchasi avvalam bor jamiyatning oliy qadriyatlarning kafolati bo‘lmish davlatchilik g’oyalari bilan chambarchas bog‘liq. Davlatning yashovchanligini, uning xavfsizligini ta’minlashda har qanday vositani oliy maqsad sifatida yoqlab tan olish mumkin. Ushbu fikr boshqa aktorlar manfaatlarini hisobga olmagan holda faqatgina shaxsiy manfaatlarni tan olish shaklida ifodalanadi.

Rus eksperti T.Alekseevaning fikricha milliy manfaat kategoriyasi mazmuni uning o‘rnini siyosatni amalga oshirish va shakllantirish algoritmida belgilash

orqali tushuntiriladi: jamiyatning ob'ektiv ehtiyojlari, ularning o'z ehtiyojlarini anglashi- sub'ekativlik (milliy manfaatning shakllanishi) – davlatchilikda milliy manfaat transformatsiyasi (siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, harbiy va boshqa vositalarni amalga oishuvchi tashqi siyosiy maqsadlarni belgilanishi) – davlatning mavjud resurslar salohiyatini tahlil qilish – xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari tomonidan qarshilik salohiyati yoki qo'llab-quvvatlash turlarini aniqlash - tashqi siyosiy (yoki ichki siyosiy) faoliyati (muayyan maqsadlarni amalga oshirish) - yutuqlarni baholash va yangi vazifalarni belgilashdir.

Tor ma'noda milliy manfaat tushunchasini davlatning hududiy joylashuvini, asosiy boshqaruv instrumentlarini, siyosiy mustaqilligini (suverenitet), mavjud iqtisodiy modellarini, madaniy milliy o'zligini saqlash, iqtisodiy rivojlanish va taraqqiyotni ta'minlash, optimal demografik muvozanatni va jamityadagi hayot darajasini ushlab turuvchi tizim sifatida qabul qilish mumkin. Xalqaro arenada siyosiy aktorlarning o'zaro bog'liqligini ortishi ular suverenitetining qayta izohlanishi bilan aloqador bir qancha muammolarni yuzaga keltiradi. Shubxasiz davlatlar deyarli har doim boshqa siyosiy ishtirokchilarining ham turli manfaatlarini hisobga olishga majburlar.

Keng ma'noda milliy manfaat quyidagi faoliyat doiralarni qamrab oladi: xorijda o'z fuqorolarining hayoti va mulki himoyasi, milliy iqtisodiyotga proteksianizm munosabati, chet el bozorlariga milliy tovar kirish huquqini kengaytirish va homashyo bilan ta'minlash hamda boshqalar.

Millat, xalq hayotini belgilaydigan, uning faoliyatini ma'lum maqsadlarga yo'naltiradigan ijtimoiy munosabatlar, milliy ehtiyojlar, tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyat, milliy ruhiyat va qadriyatları tizimi milliy manfaat deb aytildi. Bu tushuncha muayyan millat yoki xalq vakillari shaxsiy manfaatlarini uyg'unlashuvini ifodalaydi. Milliy manfaatlar shaxsiy manfaatlar bilan bog'liq. Shaxsiy manfaatsiz ijtimoiy manfaatni, davlat va jamiyat manfaatlarini tasavvur etib bo'lmaydi.

Har bir inson jamiyatning boshqa a'zolari bilan birga umumiyl manfaatlarga ega. Milliy manfaatlar xalqlar, millatlar hamkorligiga asos bo'lsagina, ijobiy baholanadi Bunday manfaatlar taraqqiyot kuchlarini harakatga undovchi muhim omil vazifasini bajara oladilar. Falsafa qomusiy lug'atida "Milliy manfaat-millat, xalq hayotini belgilaydigan, uning faoliyatini ma'lum maqsadlarga yetaklaydigan ijtimoiy munosabatlar, milliy ehtiyojlar, tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ruhiyati, an'ana va qadriyatları tizimidir" deyilgan. Milliy manfaatlar ehtiyojlarni qondiruvchi sharoit va qadriyatlar bilan birga, ularni yaratish, ta'minlashni belgilovchi ijtimoiy tizimga, munosabatlar va tamoyillarga asoslangan bo'ladi. Ular ma'lum millat va xalqqa mansub alohida kishilar yoki biror bir davlat

fuqarosi bo‘lgan odamlarning shaxsiy manfaatlari bilan bog‘langan bo‘lib milliy manfaatlarning ham o‘zida aks ettiradi.

Milliy manfaatni tushuntirish uchun uch omilni esdan chiqarmaslik kerak. Bular quyidagilardan iboratdir:

birinchi omil: milliy manfaatni vujudga kelishi va mohiyati. Milliy manfaatlar etnik birlashish davridan boshlab umumiylar manfaatlar anglay boshlanadi, turli etnik guruhlarni manfaatlarni, ehtiyojlarini umumiylar maxrajga kelishi bu narsani yuzaga keltiradi. Bu millatni shakllanishadan darak beradi;

ikkinci omil: milliy manfaatni anglashni yana bitta ko‘rinishi bu – milliy o‘zlikni anglashdir. Faqat milliy o‘zligini anglashgina millatni muammolarini hal eta oladi. Milliy o‘zligini anglanlash darajasi past yoki sust bo‘lgan millatni ichichidan guruhbozlik, urug‘-aymoqchilik, hududiy, mintaqaviy muammolarni birinchi o‘ringa qo‘yish singari illatlar yemiradi;

uchinchchi omil: milliy o‘zlikni anglash hali yetarli emas, balki milliy manfattlarni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlari rivojlangan, tarixiy davrda yetilgan bo‘lishi kerak. Ma’naviy barkamollik ham eng muhim elementdir.

Sovet davrida milliy manfaatlarga (ittifoq tarkibidagi respublikalar xalqlari manfaatlariga) hukmron, mustabid mafkura nigohida yondoshilgani uchun, ularning to‘laqonli rivojlanishi mumkin emas edi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida milliy manfaatlarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Milliy manffatlarga mos keladigan ichki siyosat olib borilmoqda. Bu esa mustaqillikni mustahkamlashga imkon bermoqda. Bundan tashqari milliy manfaatlarga mos ko‘p tomonlama tashqi siyosat ham olib borilmoqdaki, uning natijasida O‘zbekistonning obro‘yi tobora o‘smoqda.

Agar siyosatni shakllantirish va amalga oshirish algoritmda uning o‘rnini ta’kidlasak, “milliy manfaat”ning mazmunli kontseptsiyasi yanada aniqroq bo‘ladi: jamiyatning ob’ektiv ehtiyojlari → uning ehtiyojlarini anglash, sub’ektivlashtirish (milliy manfaat shakllantirish) → milliy manfaatlarni davlat manfaatiga aylantirish (siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, harbiy va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladigan tashqi siyosiy maqsadlarni aniqlash) → mavjud bo‘lgan davlatning imkoniyatlarini va potentsialini tahlil qilish → qo‘llab-quvvatlash variantlarini yoki xalqaro aktorlarning qarshi harakatlari potentsialini aniqlashtirish munosabatlar → tashqi siyosiy (yoki ichki siyosiy) faoliyat (belgilangan maqsadlarni amalga oshirish) → erishilgan natijalarni baholash va yangi vazifalarni belgilash¹.

Shaxs singari, xalqaro munosabatlarga kiruvchi davlat o‘zining tashqi siyosiy maqsadlarini ideal va o‘z manfaatlari asosida quradi. Ideal mohiyatan

¹ Алексеева Т.А. Рациональный эгоизм национального интереса (Материалы круглого стола) // Полис. 1995. № 1. С. 92.

chegarasi bo‘lмаган ахлоғи мақсадларни биринчи о‘ринга қо‘яди. Milliy manfaat esa har doim xudbin. Ideal, ma'lum bir jamiyatning qadriyatlarini aks ettiradi, masalan, buyuk qudratga ega bo‘lish uchun davlatlar qat’iyat bilan intiladi. Bugungi kunda “умуминсонија” “jahon hamjamiyati” va boshqa shiorlar kabi. Bu haqda S. Xantington “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” asarida ta’kidlagan: “Jahon hamjamiyati” iborasining o‘zi “erkin dunyo” iborasini almashtirmoqda. G‘arb mamlakatlari manfaatlarini aks ettiruvchi harakatlarga global qonuniylikni berish uchun ishlab chiqilgan¹. Qayg‘uli tomoni shundaki, qachonki davlat tashqi siyosatini faqat ideal asosida qurishni boshlasa, natijada haqiqat qarshilik ko‘rsatadi, isyon ko‘taradi, yaxshi niyatlarni tanib bo‘lmaydigan darajada buzadi.

Xo‘sh, milliy manfaat nima? Bizning fikrimizcha, bu jamiyatning milliy qadriyatlardan kelib chiqqan holda, uning barqaror hayoti va barqaror taraqqiyoti uchun qulay sharoitlarni saqlash, yaratish yoki ularga erishishga qaratilgan ongli, rasman ifoda etilgan ob'ektiv ehtiyojidir². Milliy manfaatlar ierarxik tuzilmani ifodalaydi va quyidagilarga bo‘linadi:

a) sohalar: siyosiy, iqtisodiy, harbiy, mafkuraviy, madaniy, axborot;

b) vaqt o‘tishi bilan barqarorlik darajasi: darhol (1 yilgacha), qisqa muddatli yoki qisqa muddatli (1 yildan 5 yilgacha), o‘rta muddatli (5 yoshdan 20 yoshgacha), uzoq muddatli yoki uzoq muddatli -muddat-kelajak (20 yoshdan 50 yoshgacha), uzoq kelajak (50 yildan ortiq);

v) jamiyat va davlat uchun muhimlik darajasi: hayotiy (20-50 yosh va undan yuqori) - jamiyat va davlat uchun strategik ahamiyatga ega va milliy qadriyatlarni saqlash, ko‘paytirish va himoya qilish, qadrsizlanish va yo‘qotish bilan bog‘liq bu identifikasiyani yoki hatto odamlarning mavjudligini shubha ostiga қо‘yadigan; muhim yoki taktik; periferik yoki operatsion;

d) ishtirok etuvchi tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar: qarama-qarshilik, turli xil, қо‘shma;

e) geografik yo‘nalish: global, mintaqaviy, mahalliy. Taqdim etilganlar bilan bir qatorda, davlatning milliy manfaatlarining boshqa tasniflari ham mavjud bo‘lib, ular ham mavjud bo‘lish huquqiga ega.

Umuman olganda, milliy manfaat mavhum va sub'ektiv kategoriya hisoblanadi, chunki uning parametrlari ma'lum bir jamiyat va davlatda hukmronlik qilayotgan dunyoning tasviri va qadriyat tizimi bilan belgilanadi. J. Rozenau ta’kidlaganidek, “milliy manfaatning ta’rifi hech qachon siyosatning analitik va qadriyatlар bazasidan kelib chiqadigan xulosalar tizimidan boshqa narsa bo‘lishi

¹ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? // Полис, 1994. № 1. С. 40.

² Манилов В.Л. Национальная безопасность: ценности, интересы, цели. // Военная мысль, 1995. № 6. С. 36.

mumkin emas"¹. Milliy manfaatlarning haqiqati uni amalga oshirish jarayonida va amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Va bu, o‘z navbatida, irodaviy va faol printsiplarni hamda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish vositalarini nazarda tutadi².

Milliy manfaatlar nuqtai nazaridan fikr yuritish, ularni mafkuraviy tekislikda emas, balki amaliy jihatdan ko‘rib chiqishni ham anglatadi. Bu davlat siyosatida mafkuraviy omillar muhim emas degani emas. Masalan, inson huquqlari kabi omillar (ayniqsa so‘nggi o‘n yilliklarda) demokratik davlatlar siyosatida muhim belgi bo‘lib xizmat qiladi. Zbignev Bjezinski o‘zining xotiralarini "Kuch va printsip" deb nomlagan. Uning yozishicha, president J.Karterning milliy xavfsizlik masalalari bo‘yicha yordamchisi lavozimini egallab turgan payti uning asosiy vazifasi “Amerikaning dunyoda mafkuraviy ta’sirining o‘sishi” bo‘lgan .

Prezident J.Karter ma’muriyati tomonidan inson huquqlari muammosiga berilgan urg‘u avvalgi ma’muriyatlarga nisbatan AQSh tashqi siyosatining yo‘nalishlarini aniqlashda mafkuraviy omilning rolidan ancha katta ekanligini ko‘rsatdi. Milliy manfaatlar va g‘oyaviy motivlar o‘rtasidagi ziddiyat fantastika emas. Shunday bo‘ladiki, bu tanlov kerak bo‘lgan holatlarda davlat arboblari uchun jiddiy dilemma bo‘lib qoladi. Milliy manfaatlarga asoslangan davlat siyosati printsipi quyidagilarni anglatadi.

Mafkuraviy motivlar hayotiy milliy manfaatlar hisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Siyosatchilarining mafkuraviy e’tiqodi ularning milliy manfaatlar haqidagi tasavvurida muqarrar ravishda iz qoldirishi, boshqacha qilib aytganda, bu muqarrar, chunki ular sirtda yotadigan aniq narsa emas. Bu tabiatni ziddiyatli va har xil talqinlarni keltirib chiqaradigan siyosatni tushunishning ma’lum bir usuliga aylanadi. Milliy manfaatlar printsipi uni hamma bir xilda idrok etilishini nazarda tutmaydi, ammo shu bilan birga, davlat siyosatini amalga oshirishga mas’ul bo‘lganlar mafkuraviy omillarni o‘zları milliy manfaat deb tan olgan omillardan ustun qo‘ymasliklari kerak.

Globallashuv davrida milliy manfaatlarning o‘zgarishini tahlil qilish zamonaviy sharoitda milliy manfaatlarning ustuvor yo‘nalishlarini tashkil etuvchi asosiy parametrlarni shakllantirishga imkon beradi:

1. davlatning mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlash, uning asl siyosiy tarixiy, madaniy va sivilizatsion va milliy xususiyatlarni hisobga olish asosida rivojlanish;

¹ Rosenau J. National Interest/ International Encyclopedia of the Social Sciences. N.Y., 1968.
Vol. XI. P. 37.

² Гаджиев К.С. Геополитика. М., 1998. С. 262-263

2. davlatni milliy o‘ziga xoslik asosida va insoniyat tsivilizatsiyasi evolyutsiyasining ilg‘or tendentsiyalari va chinakam umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish;
3. fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini himoya qilish, ularning xavfsizligi va hayotning yuqori darajasini mavhum liberal qadriyatlar sifatida emas, balki davlatning millat oldidagi vazifalari sifatida ta'minlash;
4. yuqori iqtisodiy rivojlangan davlatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan daraja va standartlarga muvofiq tashqi iqtisodiy aloqalar va hamkorlikni o‘rnatish;
5. teng huquqli sheriklik tamoyillariga asoslangan mintaqaviy integratsiya;
6. tashqi manbalar, bozorlar, boshqa davlatlar bilan teng sharoitlarda savdo erkinligini ta'minlash;
7. millat farovonligining asosi sifatida ta’lim, fan va madaniyatni rivojlantirish;
8. dunyodagi geosiyosiy manfaatlarni himoya qilishni ta'minlaydigan ishonchli milliy xavfsizlik tizimini yaratish.

5.2. Milliy xavfsizlik tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

"Xavfsizlik" tushunchasi falsafiy kategoriya bo‘lib, uning mohiyati hali ilmiy ma'noda to‘liq o‘rganilmagan. Aytilganlarning isboti, xususan, milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan turli xil yondashuvlar, "milliy manfaatlar", "shaxsiy xavfsizlik", "jamoat xavfsizligi", "xalqaro xavfsizlik" kabi tushunchalarni mafkuraviy va falsafiy anglash, ularni baholash mezonlari, tuzilishi atrofida doimiy muhokamalar. xavfsizlik uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarning xususiyatlari, uni ta'minlashning samarali mexanizmlarini yaratish tamoyillari va boshqalar, shu jumladan rivojlangan mamlakatlarda.

Izohli lug‘atlarda xavfsizlik tushunchasi hech qanday xavf tug‘dirmaydigan holat yoki hech kimga yoki biror narsaga tahdid solmaydigan holat sifatida izohlanadi. Ammo har qanday sharoitda xavfsizlikni hech qanday xavf tug‘dirmaydigan davlat deb hisoblash mumkin emas. Tarixiy tajribada bunday holatga hatto individual shaxs ham erishishi mumkin bo‘lgan misollar mavjud emas, ijtimoiy shakllanishning turli shakllari haqida gapirmsasa ham bo‘ladi. Aksincha, o‘zlarini muayyan tahdidlardan himoya qilishga urinib, ular ishlab chiqarish turlari va tizimlarini, texnologik imkoniyatlarni, qurol-yarog ‘va shu darajada yaratdiki, u har bir inson uchun eng katta tahdidlardan biriga aylandi. Buni hisobga olgan holda, "xavfsizlik" tushunchasining mazmunini ochish uchun asos sifatida soha mutaxassislari tizimning rivojlanishiga (hayotiga) zarar etkazmaslik natijasida erishilgan ma'lum bir holatni ko‘rib chiqishni taklif qilishadi.

Bu xavfsizlikni ko‘pgina parametrlarga bog‘liq bo‘lgan va u yoki bu holatni tavsiflovchi (insoniyat sivilizatsiyasiga qadar) ijtimoiy tizimning o‘ziga xos

ajralmas xarakteristikasi sifatida qaralishi mumkinligini tasdiqlashga imkon beradi. Bunday holda, ijtimoiy tizimning bunday holatiga erishish uning asosiy maqsadini, shuningdek, ma'lum omillar ta'sirida mavjud bo'lish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Xavfsizlik jamoat ehtiyoji ekan, asosiy tamoyil shu barqaror rivojlanish jamiyat, avvalambor, yuqoridaq omillarni har tomonlama ko'rib chiqish zarurati bilan bog'liq masalalar bo'yicha jamoatchilik kelishuvi bo'lishi kerak.

Shunday qilib, xavfsizlik, bir tomondan, jamiyatning, uning tuzilmalari, institutlari hayotining rivojlanish tendentsiyalari va shartlari bo'lib, ular tegishli munosabatlar (siyosiy, huquqiy va boshqalar) bilan belgilanadi, bu ularning sifat aniqligi va erkinligini saqlashni ta'minlaydi, bu ularning tabiatiga, faoliyatiga mos keladi. ... Boshqa tomondan, bu belgilangan ishlashni potentsial va real tahdidlardan ma'lum darajada himoya qilishdir.

Milliy xavfsizlik tushunchasi jamiyatning barqaror rivojlanishini, milliy manfaatlarga real va potentsial tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash, oldini olish va zararsizlantirishni ta'minlaydigan inson va fuqaroning, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini himoya qilish deb tushuniladi. Milliy xavfsizlikning asosiy ob'ektlari qonun bilan belgilanadi: shaxs - uning huquqlari va erkinliklari; jamiyat - moddiy va ma'naviy qadriyatlar; davlat - uning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligidir. Milliy xavfsizlikning asosiy sub'ekti bu sohadagi funksiyalarni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati orqali amalga oshiradigan davlatdir.

Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli hisoblanadi. Shuningdek u manfaat va ehtiyojlarning namoyon bo'lish shakli hamdir. Boshqacha aytganda, manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Milliy xavfsizlik fuqarolar ya'ni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya kilishga yo'naltirilgan bo'ladi. U shaxs, fuqaro manfaatlari, konstitutsion huquq va erkinliklari, yashash xavfsizligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, jismoniy, ma'naviy, intellektual rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi¹.

Davlat manfaatlari esa konstitutsion tuzum, mamlakat suvereniteti va territorial yaxlitligini himoya qilish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni qaror toptirish, qonunlarning so'zsiz amal qilishini ta'minlash, huquq-tartibotni qo'llab-quvvatlash va teng sheriklik asosida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

¹ Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. -Т., Академия. 2006. 8-bet

Ushbu manfaatlar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, ular jamiyat a'zolarining mustaqilligini ta'minlash, xalq farovonligi va turmush darajasini oshirish, uning madaniyatini va ma'naviy qadriyatlarini saqlashga bo'lган intilishlarini ifoda etadi. Shu bois har qanday mamlakat manfaatlari uchta muhim maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi: 1) xalq farovonligini oshirish; 2) mamlakat tinchligi va hududini himoya qilish hamda yurtni obod etish; 3) milliy madaniyatni rivojlantirish.

Milliy xavfsizlik kontseptsiyasi va uning tarkibiy qismlari davlatning tashqi siyosatining muvaffaqiyati nafaqat milliy manfaatlar qanchalik aniq va ravshan shakllantirilganiga, balki ushbu manfaatlarni amalga oshirish yo'llari va usullarini aniq tushunishga ham bog'liqdir. Davlatning xalqaro miqyosdagi ustuvor maqsadlari qatorida, allaqachon ta'kidlab o'tilganidek, birinchi navbatda mamlakat xavfsizligini (yoki milliy xavfsizligini) har qanday shakl va ko'rinishda ta'minlash hisoblanadi.

Xalqaro siyosiy adabiyotda milliy xavfsizlik muammosi milliy manfaat bilan bog'liq masalalardan kam bo'limgan tortishuv va munozaralarni keltirib chiqaradi. Mahalliy adabiyotda, ayniqsa, publitsistik, shaxsiy xavfsizlik, jamoat va davlat xavfsizligi ajralib turadi. Ushbu doirada iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, harbiy va boshqalar xavfsizligi ham ajralib turadi.

Milliy xavfsizlik kontseptsiyasining ayrim elementlarini Qo'shma Shtatlarning asoschilaridan biri J.Madisonda topish mumkin. Ko'rinishidan, "milliy xavfsizlik" atamasi birinchi marta 1904 yilda AQSh prezidenti T. Ruzvelt tomonidan kiritilgan. Shunga qaramay, milliy xavfsizlik kontseptsiyasini ozmi-ko'pmi aniq shakllantirgan birinchi kishi V.Lippmann edi. "Xalq, - deb yozgan u, - urushdan qochish uchun qonuniy manfaatlarini qurban qilishga majbur bo'limganda va agar kerak bo'lsa, bu manfaatlarni urush yo'li bilan himoya qila olganda xavfsizlik holatida bo'ladi".

Shunday qilib, amerikaliklar va boshqa G'arb siyosatshunoslari tushunchasida milliy xavfsizlik bu butunlikni saqlash, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa masalalarni suveren hal qilish hamda xalqaro munosabatlar tizimining mustaqil sub'ekti sifatida harakat qilish qobiliyatidir.

Milliy xavfsizlik siyosatiga kelsak, uni ushbu milliy-davlat manfaatlari ixtiyoridagi barcha quroq-yarog 'yordamida amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha harakatlar majmuasi chaqiradi. Milliy xavfsizlik siyosatining maqsadi va eng yuqori ma'nosi - bu jamiyatning erkin rivojlanishi va ravnaqidir.

Milliy xavfsizlik tushunchasi (shuningdek tashqi siyosat va geosiyosiy tushunchalar) milliy manfaatlar kontseptsiyasining hosilasi hisoblanadi. Keng ma'noda, bu ma'lum bir davlat fuqarolarining o'zlarining jahon hamjamiyatidagi o'rni va roli to'g'risida umumiy qarashlarining ifodasidir. Uning oldiga ma'lum bir

davlatga tegishli bo‘lgan iqtisodiy, texnologik, harbiy, insoniy, mafkuraviy, axborot va boshqa resurslarni aniqlash va aniqlash vazifasi qo‘yilgan. Mavjud xalqaro munosabatlar tizimida davlatning o‘rni, maqomi va rolini aniqlash, tashqi va ichki tahdidlarning oldini olish va aks ettirishni ta‘minlash uchun ishlab chiqarilgan resurslar va vositalar muhim ahamiyatga ega.

Milliy xavfsizlik kontseptsiyasining asosiy parametrlari qarama-qarshilikka yoki aksincha, hamkorlikka qaratilgan davlatning tashqi siyosiy strategiyasining asosiy belgilashiga bog‘liq. Agar biz davlatni himoya qilish zarurligi haqida gapiradigan bo‘lsak, demak, bu uning xavfsizligiga tahdid bo‘lishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, "milliy xavfsizlik" tushunchasi "tahdid" tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Potentsial va haqiqiy tahdidlar mavjud; global, mintaqaviy, mahalliy.

Hozirgi kunda deyarli barcha davlatlar uchun ko‘plab tahdid manbalari mavjud: terrorizm, ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi, millatlararo va konfessiyalararo mojarolar, ekologik muhitdagi o‘zgarishlar, turli xil epidemiyalar, giyohvandlik va qurol-yarog ‘savdosi. Shuning uchun milliy xavfsizlik davlatga tashqi tahdidlarni ham uni qul qilish yoki bo‘ysundirishga urinishlar bilan bog‘liq tashqi tahdidlarni hamda jamiyatning o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan ichki tahdidlarni, jamiyatning o‘zida ildiz otgan tahdidlarni hisobga olgan holda quriladi.

An'anaviy ma'noda milliy xavfsizlik bu davlatning tashqi dushmanlari tajovuzidan himoya qilishdir. Bunday tahdidlardan qo‘rqish ularga har qanday yo‘l bilan, shu jumladan harbiy kuch bilan qarshilik ko‘rsatishga tayyorlikni keltirib chiqaradi. Bu davlat suverenitetini tushunishning asosi bo‘lib, u ichki va tashqi ishlarda, agar bu milliy xavfsizlikni ta‘minlash masalalariga tegishli bo‘lsa, cheklanmagan kuch ishlatish huquqi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, milliy xavfsizlik kontseptsiyasi davlatning hayotiy manfaatlarini himoya qilish uchun siyosiy irodasini birlashtirishni ta‘minlash uchun ishlab chiqilgan.

Keng ma'noda xavfsizlik kontseptsiyasi davlatning barcha fuqarolariga o‘zini anglash uchun normal sharoitlarni yaratishni, ularning hayoti, erkinligi va mol-mulkini tashqi tomondan har qanday tajovuzlardan himoya qilishdan iborat bo‘lsin, xoh u shaxs bo‘lsin, xoh tashkilot bo‘lsin, xoh davlat bo‘lsin. . Geosiyosiy o‘lchovlarda xavfsizlik deganda, avvalo, ma'lum bir davlatning jiemoniy omon qolishi, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish va saqlash tushuniladi, bu esa davlatning har qanday real va potentsial tashqi tahdidlarga munosib javob berish qobiliyatini nazarda tutadi. Buning uchun u millatning hayotiy manfaatlarini himoya qilish uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlar, vositalar va usullarga ega bo‘lishi kerak. Ularni belgilashda milliy manfaat va milliy xavfsizlikning umumbashariy, umume’tirof etilgan tarkibiy qismlari va standartlarini hisobga olish zarur. Shu nuqtai nazardan, milliy xavfsizlikning

asosiy tarkibiy qismlari davlatning jismoniy mavjudligini, hududiy yaxlitligi va yaxlitligini ta'minlash, tashqi va ichki tahdidlardan asrab qolish qobiliyatidir. Ushbu tarkibiy qismlar o'z navbatida quyidagilarni nazarda tutadi:

- zamonaviy dunyoda mamlakatning o'rni va rolini har tomonlama mustahkamlash; davlatning milliy manfaatlari, maqsadlari va ustuvorliklarini himoya qilish;
- davlatning milliy manfaatlari, maqsadlari va ustuvorliklarini himoya qilish;
- iqtisodiy, siyosiy va harbiy-siyosiy suverenitetni, hududiy yaxlitlikni va mamlakat chegaralarining daxlsizligini saqlash va ta'minlash;
- barcha fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, qadr-qimmati va moddiy farovonligini himoya qilish;
- mamlakatning hayotiy manfaatlari qamrab olinadigan mintaqalar va mamlakatlarni belgilash;
- milliy manfaatlar va milliy xavfsizlikka real va potentsial tahdidlarni bartaraf etish va boshqalar.

Milliy xavfsizlikni davlat va ijtimoiy tuzimni barqarorligini rivojlanтирishga xos faoliyat sifatida amalga oshiriladi:

- hayotiy muhim milliy manfaatlarni izolyatsiya qilish;
- tashqi ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi paydo bo'layotgan qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, milliy-davlat ta'liming elementlari va manfaatlari;
- millat va davlat manfaatlarining ijtimoiy tarkibiy qismlari manfaatlari o'rtasidagi ichki qarama-qarshiliklarni aniqlash (monitoring);
- vujudga kelgan tashqi va ichki qarama-qarshiliklarni hal qilish yo'llari va mumkin bo'lgan mexanizmlarini aniqlash;
- harakatlari tizimning muvozanat holatini ta'minlashi kerak bo'lgan xavfsizlik sub'ektlarini aniqlash;
- bajarilishi sub'ektlar tomonidan ta'minlanadigan boshqaruв qarorlarini qabul qilish;
- tashqi va ichki ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy tuzilmaning barqaror, barqaror ishlashi va rivojlanishiga erishish (tiklash).

Shuni ta'kidlash joizki, «milliy xavfsizlik» tushunchasi ko'p qirrali va xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Umumlashtirilgan holda uning quyidagi xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, milliy xavfsizlik aniq tarixiy mazmunga ega, ya'ni jamiyat hayotining qaysi sohalarida qanday taxidlarning vujudga kelayotganini aniqlashga karatilgan muayyan holatlarda teran tahlilni talab qiladi;

ikkinchidan, milliy xavfsizlik bir-biriga zid o'lchamlar, jamiyat hayotga xavf soladigan taxdidlar va ularni bartaraf etishni tavsiflaydigan ijtimoiy-ikggisodiy parametr va ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi;

uchinchidan, milliy xavfsizlik muammosining ahamiyati va keskinligi jahon hamjamiyati hamda ayrim mamlakat, hudud taraqqiyotining burlish davrlarida ortib boradi;


to'rtinchidan, milliy xavfsizlik tomojillari va parametrlari, ko'rsatkichlari o'zgaruvchan hamda turli mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Ammo har bir mamlakatning milliy xavfsizligi insoniyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining umumiyligi tendentsiyalari bilan bog'liqdir. Va aksincha, umumbashariy iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'zgarishlar milliy xavfsizlikka ta'sir etadi;

beshinchidan, milliy xavfsizlikka davlat manfaatlari, milliy g'oya va milliy mafkura ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi;

oltinchidan, milliy xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy xavfsizlikning o'rni beqiyosdir. Chunki milliy xavfsizlikni, jumladan, mamlakatning siyosiy konstitutsion tuzumini, davlat mustaqilligini va suverenitetini saqlash, harbiy qudratini oshirish, ekologik muammolarni yumshatish va hal etish, avvalambor, mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga va qudratiga, uning iqtisodiy xavfsizligining qay darajada ta'minlanganiga bog'liq.

5.3. Milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim vositasi va yo'nalishlari

Milliy xavfsizlikning tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi: siyosiy xavfsizlik, harbiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, g'oyaviy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik hamda iqtisodiy xavfsizlik. Yuqorida sanab o'tilganlar asosida milliy xavfsizlik vujudga keladi va bu jamiyat uchun juda muhim birlik hisoblanadi. Quyida milliy xavfsizlik tarkibiy qismlari aks ettirilgan(1-rasm).



Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma‘naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish va farovonlikka intilish to‘g‘risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy va boshqa omillar ta‘siri va tahdidlardan himoya siyosiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, harbiy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, axborot xavfsizligi, g‘oyaviy xavfsizlik qilishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun ham milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy, mafkuraviy, axborot xavfsizligini o‘z ichiga oladi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Konsepsiyasini Prezident Sh.Mirziyoyevning farmoniga ko‘ra yangi tahrirda qabul qilindi. Umuman shu vaqtgacha ushbu konsepsiyaning tuzlishi qanday bo‘lgan. Buni quyidagi manbada ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Konsepsiyasining tuzilishi².

1. O‘zbekiston va hozirgi zamон.

- Hozirgi davrning o‘ziga xos xususiyatlari.
- O‘zbekiston: geosiyosiy holati.

¹ “Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани илмий мақола ва тезислар тўплами. Тошкент. 2019, 218-219 бетлар.

² Ushbu mavzuda muallif M.B.Sherovning 2018 yilda nashr etilgan Mamlakatshunoslik darsligidan fodalanildi.

-O‘zbekiston va Markaziy Osiyo.

-Halqaro hamkorlik.

2. Hayotiy muhim milliy manfaatlar.

-shaxsning hayotiy muhim manfaatlari.

-jamiatning hayotiy muhim manfaatlari

-davlatning hayotiy muhim manfaatlari.

3. Milliy xavfsizlikka tahdidlar.

-siyosiy sohada

-iqtisodiy sohada

-ijtimoiy sohada

-gumanitar sohada

-harbiy sohada

-ilmiy-texnik, texnologik va axborot sohasida

-ekologik sohada.

4. Milliy xavfsizlikni ta’minlashning tizimi va tamoyillari.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Konsepsiysi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan o‘z taraqqiyot yo‘li hamda yangilanish strategiyasi, mustahkam va barqaror rivojlanishni ta’minladi, bu yo‘l jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini har tomonlama ta’minlay oladigan davlat hisoblanib, XXI asrda jahon hamjamiyatida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasining taraqqiy etish yo‘nalishlaridan biri bu huquqiy demokratik davlat va odil fuqorolik jamiyati hamda milliy xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishlari hisoblanadi. Quyidagi konsepsiya, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslangan, hamda umum tan olingan xalqaro huquq normalari va tamoyillari asosida tuzilgan bo‘lib, davlatning milliy xavfsizlik sohasidagi davlat siyosatiga tayanadi.

Milliy Xavfsizlik sohasida davlatning yagona siyosati quyidagilarni maqsad qilib oladi:

- O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi o‘rni va rolini belgilash.

- O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari va ustuvor yo‘nalishlar tizimini aniqlash.

- milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan ichki va tashqi tahdidlarni baholash va nomoyon qilish.

- milliy xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etishda, davlat va jamiyat resurslari va real imkoniyatlarni nomoyon etish va baholash.

- milliy xavfsizlikni ta’minlashdagi strategik vazifalarni aniqlash va ularni amlga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

- milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini mukammal tirish va unga taaluqli qonunlar majmuasini shakllantirish.

O'zbekiston va hozirgi jahon. Zamonaviy davrning o'ziga xosliklari.

Jahon taraqqiyotining bugungi bosqichi bioqutbli qurilishdan dunyoning yangicha tartibiga o'tish hisoblanadi, hozirgizamon uchun quyidagilar xarakterlidir:

- mamlakatlar o'zaro bog'liqligining o'sishi, integratsiya jarayonidagi kelishuvlarni hayotiy faoliyat davomida har tomonlama qamrab olishi, jahon xo'jalik aloqalarini kengayishi, xavfsizlik muammoalarining globallashuvi.

- milliy o'zlikni anglashning o'sishi va milliy xoslikka intilishi.

- ko'p qutbli dunyoning shakllanishi.

- texnologik va axborot jarayonlarini rivojlantirishga intilish, davlatning raqobatbardoshli darajasini belgilab, uni yangi texnologiyalarga egaligi va ularni ishlab.

- mineral xom ashyo, yonilg'i energetik va suv resurslarining cheklanganligi, ichki va xalqaro mintaqaviy va global mojarolar o'rtasida qolish.

- diniy ekstremizm, agressiv millatchilik, etnik nizolar, qurol-yarog'ini tarqalishi shu bilan birga yadro qurollari ham, xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, narkotiklarning tarqalishi, ekologik inqiroz va shu kabi mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid soluvchi faktorlarning majudligi.

- jahon hamjamiyati a'zolarining o'zaro kelishgan holda, harakat qilishlarining roli. Xalqaro tashkilotlarni bu aloqalardagi o'rnini oshib borishi va ular faoliyatini isloh qilishning dolzarbliji.

Hozirgi davr O'zbekistondan yangi jahon aloqalar tizimi shakllanish jarayonida faol ishtirok etishni talab etmoqda shu orqali O'zbekistonning jahon hamjamiyatida yaxshi o'rin egallashini ta'minlaydi.

O'zbekistonning geosiyosiy holati.

O'zbekistonning geosiyosiy holati quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi: Transport va avtonom energetik tizimlar markazida geografik joylashuvi. Hali ishlab chiqarilmagan mineral xom-ashyo resurslariga boy zahiralarga ega ekanligi.

- Yuqori darajadagi ilmiy-texnologik, ishlab chiqaruvchi va iqtisodiy potensial.

- Demografik vaziyatlar tug'ilishning yuqoriligi, aholining tabiiy o'sishi.

- Boy ma'naviy va madaniy-tarixiy meros.

- O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi faol roli. Ko'pgina davlat va siyosiy kuchlarning manfaatlari esishadigan ob'ekt hisoblanishi

- Mintaqada tangliklar o'chog'i mavjudligi.

- O'zbekistonning Yevropa va Osiyo xavfsizligi yangi arxitekturasining shakllanish jarayonida ishtiroki.

- Suv va qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarishi uchun ularning cheklanganligi.
- Dengiz-transport yo‘lidagi uzoqligi.
- Noqulay ekologik vaziyat (Orol dengiz muommasi).

O‘zbekiston hududida barqaror va geosiyosiy muvozanatni saqlagan holda mustahkam jadal rivojlanish shart-sharoitlari va potensialiga ega. Jahon xo‘jalik aloqalar tizimida o‘ziga xos sherik bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo.

Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar quyidagiga ega:

- Ma’naviy va madaniy tarixiy tarixiy merosi, e’tiqod birligining yagonaligi hamda insonlarning til va mentalitetining yaqinligi.
- Suv arteriyalari energetik kommunikatsiya resurslarining umumiyligi.
- Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini boshlanishining bir-biriga yaqinligi.
- Aholining yashash sharoiti.

Mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida strategik vazifalar va eng muhim islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, balki huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar faoliyatini ham takomillashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini isloh qilish zarurligini ko‘rsatib berdi. Davlat rahbari tomonidan Konstitutsiya va qonun normalariga og‘ishmay rioya etilishini ta’minalash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tamoyilini so‘zsiz amalga oshirish, boshqa organlarning funksiyalarini bajarish va takrorlash holatlariga yo‘l qo‘ymaslik vazifalari qo‘yilgan edi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “**O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi Farmon¹ xavf-xatar va tahdidlarga samarali tarzda qarshi kurashishga qodir maxsus xizmatning zamonaviy qiyoqasini belgilagan holda, davlat xavfsizligini ta’minalashning sifat jihatidan yangi tizimiga asos soldi. Farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati etib qayta tashkil qilindi. Idoraning nomidan “milliy xavfsizlik” tushunchasining chiqarilishi uning vakolatlari asossiz tarzda kengayishiga shart-sharoit yaratgan omillarni bartaraf etish zarurati bilan bog‘liq. Chunki lokal miqyosdagi har qanday muammo milliy xavfsizlikka tahdid sifatida ko‘rilishi mumkin edi.

Mazkur o‘zgartirish ushbu idoraning diqqat-e’tiborini davlat ahamiyatiga ega real tahdidlarga qaratadi. “Davlat xavfsizligi” atamasi xavfsizlikni ta’minalash

¹ <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasining-davlat-xavfsizligi-tizimini-tak-14-03-2018>

doirasini aniq belgilaydi va mazkur sohadagi faoliyat yo‘nalishlarini ajratib beradi. Farmon bilan Davlat xavfsizlik xizmati O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qiluvchi maxsus vakolatlari organ etib belgilandi. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

Birinchidan, mazkur idoraning maqomi, vakolatlari va faoliyat yo‘nalishlarini belgilagan holda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish nazarda tutilmoqda. 26 yil oldin qabul qilingan Milliy xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi amaldagi nizom faoliyatni samarali tashkil etishga imkon bermaydi hamda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergen muhim o‘zgarishlarni aks ettirmaydi.

Ikkinchidan, bugungi kundagi xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashishning ta’sirchan shakllari hamda uslublarini joriy etish, shu maqsadda idoraning samarali tashkiliy tuzilmasini shakllantirish zarurligi belgilandi.

Uchinchidan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga og‘ishmay rioya etishning alohida muhim ahamiyati ta’kidlandi. Shundan kelib chiqqan holda, Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan inson huquqlari qonuniy kafolatlarining qat’iy ta’milanishiga ustuvor ahamiyat beriladi.

To‘rtinchidan, kadrlarni tanlash va tayyorlashning mutlaqo yangi tizimi tashkil etiladi, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi kuchaytiriladi. Mazkur choralar Davlat xavfsizlik xizmatiga har tomonlama rivojlangan va vatanparvar yoshlarni jalg etishga imkon beradi. Shu o‘rinda idora vakillarining harbiy xizmatchi sifatidagi maqomi ko‘rsatib o‘tildi, mazkur holat ularga nisbatan harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq barcha cheklov va majburiyatlar tatbiq etilishini anglatadi.

Beshinchidan, Davlat xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatini idora ishining shakllari va uslublari hamda harbiy xizmatchilarning idoraviy mansubligi haqidagi ma’lumotlar oshkor bo‘lishini istisno etadigan konspiratsiya tamoyillari asosida tashkil etishi belgilandi. Bu davlat xavfsizligini ta’minalash vazifalarini bajarishda mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanishni ta’minalaydi. O‘ziga xos bo‘lmagan vazifa va funksiyalarni istisno qilish maqsadida Milliy xavfsizlik xizmati vakolatida bo‘lgan ayrim ruxsat beruvchi vakolatlar 2018-yil 1-apreldan boshqa idoralarga o‘tkaziladi yoki tugatiladi.

Xizmatning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib esa quyidagilar belgilandi:

- O‘zbekistonning davlat xavfsizligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta’minalash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbazarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

- O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo‘yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;
- O‘zbekistonning davlat chegaralarini qo‘riqlash va himoya qilish;
- O‘zbekistonning Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo‘yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;
- terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, quroq-yarog‘, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;
- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, irqiy, a diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;
- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston xalqining tarixiy-madaniy va boy ma’naviy merosini himoya qilish;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish;
- telekommunikatsiya va transport sohasida davlat xavfsizligini ta’minlash, favqulodda holatlarni yuzaga keltiruvchi omillarning oldini olish, aniqlash va ularga barham berish;
- Xizmat tergov qilish vakolatiga kiruvchi jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni olib borish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlari saqlanishi, maxsus aloqa xavfsizligining ta’minlanishi hamda axborotlarni kriptografik himoya qilishni tashkil etish ustidan nazoratni amalga oshirish;
- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbazarliklar sodir etilishiga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish.

5.4. O‘zbekistonning chuqur o‘ylangan, oqilona milliy siyosati va geosiyosiy kelajagi

Markaziy Osioning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega O‘zbekiston, shubhasiz, mintaqani barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘snnichilik hududiga aylantirishdan manfaatdor. Mamlakatimiz taraqqiyotining chegaralarimiz xavfsizligidan tortib suv resurslarini oqilona taqsimlashgacha bo‘lgan barcha muhim hayotiy masalalarini hal etish mintaqamiz bilan

chambarchas bog‘liq. Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan, xavfsizligi ta’minlangan Markaziy Osiyo O‘zbekiston uchun eng asosiy maqsaddir. Transport-kommunikatsiya va energetika sohalaridagi yirik mintaqaviy loyihalarni qo‘shni mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilmasdan, ularning yuksak darajada integratsiyalashuvini ta’minlamasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo nafaqat geografik va geosiyosiy, balki qadriyatlari mushtarak yagona madaniy makondir. Mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlarni umumiyligi ma’naviy qadriyatlar va o‘tmish, o‘xshash milliy an’ana va urf-odatlar, asrlar davomida shakllangan mentalitet birlashtirib turadi. Ushbu mushtaraklik mintaqaviy hamkorlik uchun mustahkam va ishonchli poydevordir.

O‘zbekistonning mikroiqtisodiy geografik o‘rni (hududning o‘ziga qo‘shni bo‘lgan davlatlarga nisbatan tutgan o‘rni) ancha qulayligi bilan xarakterlanadi. Bu holat, avvalo, uning Markaziy Osiyo respublikalarining qoq o‘rtasida joylashganligi va barcha mintaqqa davlatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri chegaradoshligi tufayli kelib chiqadi. O‘zbekistonning mikro IGO‘ qulayligi qo‘shni respublikalar bilan barcha turdagи quruqlik transport (avtomobil, temiryo‘l, quvur) tuzilmalari bilan nisbatan yaxshi bog‘langanligida ham o‘z ifodasini topadi. Mikro IGO‘dagi bunday qulayliklar tarixiy davrlardan hozirgacha O‘zbekistonni mintaqqa davlatlari orasida aholisi eng zich, yirik shaharlarga boy, iqtisodiyoti nisbatan rivojlangan darajaga olib chiqqan.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida bu borada quyidagi fikmi keltirgan: «O‘zbekistonning hududiy makon xususiyatlari, uning geografik o‘rni bizning ichki va tashqi siyosatimizni tanlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega... O‘zbekiston bugungi kunda qo‘shni davlatlar Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston o‘rtasida bog‘lovchi halqa vazifasini o‘taydi. Bulaming barchasi respublikaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, diet el investitsiyalarini jalb qilish, O‘zbekistonni davlatlar o‘rtasida o‘zaro foydali hamkorlikning, tovarlar va kapital tranzitining o‘zida xos mintaqaviy markaziga aylantiradi».

O‘zbekistonning bunday qulay iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlari har bir qo‘shnilari tomonidan aholisi zich joylashgan tutash (kontakt) hududlarda (Farg‘ona vodiysi, Zarafshon, Quyi Amudaryo mintaqalari, Surxondaryo viloyati) hozirgi davrda ko‘plab turli ixlisosdagi respublikalararo hududiy ishlab ehiqarish majmualari, qo‘shma korxonalardan tortib erkin iqtisodiy hudularni tashkil qilishgacha keng imkoniyatlar beradi. Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud

bo‘lgan transchegaraviy daryolar va yo‘llar muammolari hal etilishi respublika mikrogeografik o‘rnining yanada qulaylashuviga olib keladi¹.

Yaqin atrofida joylashgan davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Afg‘oniston, Eron, Kavkaz respublikalarijga nisbatan O‘zbekistonning mezoiqtisodiy geografik o‘rni (yaqin mintaqalarga nisbatan tutgan o‘rni) o‘rtacha qulayliklarga egaligi bilan tavsillanadi. Mezo IGO‘ni bunday baholanishining sababi shundaki, O‘zbekiston bir tomondan, Kavkaz respublikalari, ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi bilan, asosan, zamonaviy transport vositalari orqali samarali bog`langan va bu davlatlar bilan an’anaviy ravishda ko‘p tomonlama yaqin aloqalar olib boradi. Jahon davlatlari orasida eksport-import aloqalari hajmiga ko‘ra, Rossianing yetakchilik qilib kelayotganligi buning isbotidir. Ikkinci tomondan, janubda joylashgan va O‘zbekistonning mezo IGO‘ guruh davlatlari toifasiga kiruvchi Afg‘oniston, Eron davlatlari butun o‘tgan tarixiy davrlar davomida respublikamiz bilan har tomonlama keng ijtimoiy aloqada bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, hozirgi vaqtda bunday aloqalarni olib borishga mayjud texnik va siyosiy qiyinchiliklar to‘siq bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining siyosiy geografik o‘rni klassik geosiyosatchilar tomonidan ajratilgan Yevrosiyoning ichki kontinental qismi, ya’ni Xartlend (ingl. Heartland - "dunyoning yuragi"), hamda Yevrosiyoning janubig‘arbiy dengizga yaqin mintaqasi Rimlend (Rimland "ichki yarim oy")ning o‘zaro tutashgan hududda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Bu holat esa jahonda yetakchilikni qo‘lga kiritishni rejalashtirayotgan ko‘plab davatlarning respublikamizga nisbatan geosiyosiy qiziqishlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari aynan yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida eng dolzarb va muhim masalalarda o‘z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi. Ishonchim komil, bundan barcha Markaziy Osiyo davlatlari qatorida boshqa mamlakatlar ham birdek manfaat ko‘radi, dedi Samarqanddagi 2017 yil 10 noyabrda “*Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik*” deb nomlangan xalqaro anjumanda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Markaziy Osioni yaqin kelajakda barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishga xizmat qiladigan olti taklifni ilgari surdi.

Birinchi taklif: Biznes-diplomatiya. O‘zbekiston rahbari savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirish hamda kooperasiyani mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish kerakligini va

¹ <http://geografiya.uz/10-sinf-geografiya/11248-ozbekistonning-geosiyosiy-orni-va-munosabatlari.html>

mintaqaviy iqtisodiy forumni tashkil etish bu yo‘nalishdagi amaliy qadam bo‘lishi mumkinligini ta’kidladi.

“Mintaqalararo hamkorlik masalasiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo davlatlarining hududlar rahbarlari (hokimlari) biznes hamjamiyatining assosiasiyanini ta’sis etishni taklif qilaman. BMT ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi samarali kooperasiya aloqalari 10 yil mobaynida mintaqaviy yalpi ichki mahsulotni kamida ikki barobar oshirish imkonini bergen bo‘lar edi. Ushbu mexanizmlar butun Markaziy Osipyoda barqaror rivojlanishni ta’minlagan holda, mamlakatlarimiz hududlarining sanoat, investisiya va intellektual sohalardagi salohiyatini to‘la ishga solish imkonini berishiga ishonaman”, dedi prezident.

Ikkinchchi taklif: Transport diplomatiysi. Sh.Mirziyoevning fikricha, mintaqaning tranzit-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta’minlash lozim.

O‘zbekiston rahbari bu yo‘nalishda mintaqaga mamlakatlari tomonidan amaliy qadamlar qo‘yilganini mammuniyat bilan qayd etdi. "Turkmanistonlik do‘sralimiz tomonidan Amudaryodan o‘tadigan Turkmanobod Forob yangi temir va avtomobil yo‘llari ko‘priklari ishga tushirildi. U O‘zbekiston Turkmaniston Eron O‘mon transport-tranzit yo‘nalishining muhim tarmog‘idir.

Tez orada O‘zbekiston Qирғизистон Xитой temir yo‘li qurilishini boshlash bo‘yicha kelishuvga erishildi, shuningdek, ushbu transport yo‘lagi bo‘ylab sinov tariqasidagi avtopoyga amalga oshirildi. Shu munosabat bilan Transport kommunikasiyalarini rivojlantirish bo‘yicha umummintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish zarur, deb hisoblaymiz”.

Prezident umumiy yondashuvlarni kelishib olish uchun 2018 yilda Toshkentda "Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va amalga oshirilmagan imkoniyatlar" mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilayotganini aytib, konferensiyaning ishida barcha sheriklar faol ishtirok etishiga umid bildirdi.

Uchinchi taklif: “Preventiv diplomatiya”. Mirziyoev bugungi kunda mintaqaning barcha mamlakatlari terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelayotgani, ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishni faqat birgalikda, mintaqaga mamlakatlari o‘rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta’minlash mumkinligini aytdi.

“Xavfsizlikka tahdidlarni “o‘ziniki va o‘zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish zarur, degan qat’iy fikrdamiz”,— alohida ta’kidladi prezident. Mirziyoyevga ko‘ra, Birlashgan Millatlar Tashkiloti mintaqaviy xavfsizlik muammosini, avvalo, preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda hal qilishda muhim o‘rin tutishi lozim.

Shuningdek, MDH, ShHT, EXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Shu o‘rinda Markaziy Osiyoda barqaror va izchil taraqqiyotning istiqbollari qo‘shti Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlab o‘tildi. O‘zbekiston rahbari birinchi galda Afg‘onistonning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga qo‘shilishiga har tomonlama ko‘maklashish kerakligi va bu dunyo hamjamiyatining Afg‘onistonda tinch taraqqiyotni ta’minalashga qaratilgan sa’y-harakatlariga g‘oyat muhim hissa bo‘lib qo‘shilishini qayd etdi. Shuningdek, O‘zbekiston bundan keyin ham bu qo‘shti mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklash, uning transport va energetik infratuzilmasini rivojlantirish, milliy kadrlar tayyorlash jarayonlarida faol ishtirok etishini ta’kidladi.

Markaziy Osiyoda barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minalashning ustuvor yo‘nalishi ekstremistik g‘oyalarga qarshi qat’iy kurashishdan iboratdir. Ko‘pincha ayotga endi qadam qo‘yayotgan yoshlardan uning ta’siriga tushib qolmoqda. Markaziy Osiyo aholining yoshi bo‘yicha eng “yosh” mintaqalardan biridir: bu erda aholining qariyb 60 foizini yoshlardan tashkil etadi va bu dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha yuqoridir.

Aynan shu maqsadda O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yaqinda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan sessiyasida Yoshlardan huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. “Ushbu tashabbuslarni Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari qo‘llab-quvvatlagani yoshlardan o‘rtasida radikal qarashlar tarqalishining oldini olish, to‘g‘ri yo‘ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitasiya qilish va ularni sog‘lom hayotga qaytarishga tayyorligimizning amaldagi yaqqol ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bizning tajribamiz shuni ko‘rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma’rifatga o‘rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini etkazish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

Bu borada biz Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Toshkentda Islom sivilizasiyasi markazini tashkil etishga qaror qildik”, — qayd etdi Mirziyoev.

To‘rtinchi taklif: Chegara diplomatiyasi. Mirziyoev davlat chegaralarini delimitasiya va demarkasiya qilish jarayonini tezda va uzil-kesil yakuniga etkazish kerak, deya qayd etdi. “Biz chegaraoldi muammolarini hal etib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirish yo‘lida mustahkam poydevor yaratamiz. Biz davlat chegaralarini delimitasiya qilish borasidagi muzokaralarda yuzaga keladigan murakkab

masalalarni hal etish bo'yicha izchil yo'lga qo'yilgan va birgalikda chuqur o'ylab amalga oshirayotgan ishlarimizni davom ettirish zarur, deb hisoblaymiz. Biz oqilona murosa va o'zaro teng almashinuv asosida, o'zaro manfaatlarimizni hisobga olgan holda, bu o'ta dolzarb muammoni tez orada hal etamiz, deb ishonaman", — dedi prezident.

Beshinchi taklif: Suv diplomatiyasi. O'zbekiston prezidenti o'z nutqida mintaqada suv resurslaridan adolatlari foydalanish muammosini imkon qadar tezroq tartibga solish lozimligini ta'kidladi. "Ishonchim komil, mazkur masalalarni hal etishda mintaqadagi barcha davlatlar manfaatlarini hisobga oladigan xalqaro huquqiy me'yorlar asosida ish olib borish kutilgan samarani beradi.

O'zbekiston BMT tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi. Orol dengizining ekologik halokati bilan bog'liq eng o'tkir muammolarni hal etish ham sa'y-harakatlarimizni birlashtirishni talab etadi. Orol muammosi bizning nafaqat umumiy dardimiz, balki umumiy vazifamizdir.

Mintaqaviy va xalqaro darajada say-harakatlarimizni birlashtirmasdan turib, ushbu tahdidlarga qarshi munosib choralar ishlab chiqqa olmaymiz. Biz Orolbo'yida yuzaga kelgan dolzarb muammolarni hal etish, shuningdek, ijtimoiy muhim ahamiyatga molik loyiha va dasturlarni amalga oshirishga donorlik ko'magini jalb etish maqsadida Markaziy Osiyo mintaqasining barcha davlatlari faoliyatini yanada faollashtirish zarur, deb hisoblaymiz".

Oltinchi taklif: Xalq diplomatiyasi. "Mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalar, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash lozim. Bu Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikni jadallashtirishning asosiy shartlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, biz faol madaniy-gumanitar muloqotni davom ettirish, mamlakatlarimizda madaniyat kunlari va turli ijodiy tadbirlarni muntazam tashkil etish, ta'lim va sayyohlik sohasidagi almashuvlarni "xalq diplomatiyasi"ning eng muhim vositasi sifatida rivojlantirish tarafdomiz", — dedi Mirziyoyev. O'zbekiston rahbariga ko'ra, mintaqada do'stlik, hamjihatlik va barqarorlik muhitini mustahkamlaydigan eng ishonchli usuli bu oddiy va ochiq insoniy muloqotdir.

Nazorat uchun savollari

1. Manfaat nima?
2. Manfaat va ehtiyojlar ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bula oladimi?
3. Milliy xavfsizligini qanday tushunasiz?
4. Davlat xavfsizligini qanday tushunasiz?

5. Milliy xavfsizlik davlat xavsizligini ta'minlashda geosiyosatni o'rni qanday?
6. Xavfsizlik necha darajaga bo'linadi?
7. Markaziy Osiyoni geosiyosiy kelagagini qanday tasavvur qilasiz?
8. O'zbekistonning geosiyosiy kelagagini qanday tasavvur qilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Тошкент.: Ўзбекистон, 2018.4-6 бетлар.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағищланган илмий-оммабоп қўлланма. – Т.: Маънавият, 2019. 264-265-бетлар.
3. Мирзиёев Ш.М. Марказий Осиёда ўзаро дўстлик ва ҳамкорликни таъминлаш барқарор ривожланиш кафолатидир.// Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: Ўзбекистон, 2018, 262 bet.
4. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги 4947-сонли Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 8 февраль.
5. “O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi qonunga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni.167-I21.12.1995. <http://lex.uz/docs-121051?otherlang=1>
6. Абдурахмонов Ф. Манфаат тушунчasi ва унинг моҳияти. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.Т. 1994, №4 25-26 бетлар
7. Алексеева Т.А. Рациональный эгоизм национального интереса (Материалы круглого стола) // Полис. 1995. № 1. С. 92-93.
8. Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. -Т., Академиа. 2006. 8-bet
9. Гаджиев К.С. Геополитика. М., 1998. С. 262-263
10. Kennan G. Morality and Foreign Policy. // Foreign Affairs. Winter 1985/86. – www.foreignaffairs.org Четырнадцать пунктов В.Вильсона. - <http://www.grinchevskiy.ru/1900-1945/chetirnadcat-punktov.php>
11. Ревякин А.В. История международных отношений в новое время. - М.: РОССПЕН, 2004. –С. 119-121.

12. Стратегия национальной безопасности Соединенных Штатов Америки. 2002 г. - <http://www.whitehouse.gov/nsc/nss/2002/>; Стратегия национальной безопасности Соединенных Штатов Америки от 2006 г. - <http://www.whitehouse.gov/nsc/nss/2006/>
- 13.Мусаев О.Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. фал.фан.доктори дисс-яси. т.: 2015. 46-бет.
- 14.Sherov M.B. Mamlakatshunoslik.Darslik.Toshkent 2018
- 15.<http://www.uzlidep.uz/positionparty/97>
- 16.Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? // Полис, 1994. № 1. С. 40.
- 17.Манилов В.Л. Национальная безопасность: ценности, интересы, цели. // Военная мысль, 1995. № 6. С. 36.
- 18.Rosenau J. National Interest/ International Encyclopedia of the Social Sciences. N.Y., 1968.
- 19.Vol. XI. P. 37.
20. “Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани илмий мақола ва тезислар тўплами. Тошкент. 2019, 218-219 бетлар.
- 21.www. <http://sputnik.uz>
- 22.<https://geopolitika.uz/hududlar/yevrosiyo/mdh-va-rossiya/17-markaziy-osiyoda-suv-mojarolari>
- 23.<https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3830/>
- 24.<https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasining-davlat-xavfsizligi-tizimini-tak-14-03-2018>
- 25.<http://geografiya.uz/10-sinf-geografiya/11248-ozbekistonning-geosiyosiyorni-va-munosabatlari.html>

VI-BOB. YANGI DUNYO TARTIBOTIDA O'ZBEKISTON: KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK, STERATEGIYALAR, XAVFSIZLIK MASALALARI

- 6.1. O'zbekiston va MDH davlatlari o'rtasidagi geosiyosiy munosabatlar istiqbollari.
- 6.2. O'zbekiston va ShHT geosiyosiy istiqbollari
- 6.3. Yangi ming yillikda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash vazifalari. Avg'oniston muammosi

Tayanch iboralar: yangi dunyo, hamkorlik, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, ShHT, MDH, KSHT, MOH, xavfsizlik, Afg'oniston fojiasi, yaqin qo'shnichilik, yumshoq kuch, ko'p vektorli siyosat.

6.1. O'zbekiston va MDH davlatlari o'rtasidagi geosiyosiy munosabatlar istiqbollari.

Hozirda halqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha jahonda turli halqaro va mintaqaviy tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning orasida «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stdigi» o'ziga hos ko'rinishga ega. Bu mintaqaviy tashkilot - bir butun davlag yoki federatsiya emas, harbiy blok ham emas. Balki u o'zining mohiyatiga ko'ra ixtiyoriy iqtisodiy uyushma sifatida vujudga kelgan davlatlar hamdo'stligining yangicha shakli va ko'rinishidir.

MDH 1991 yil 8 dekabrda Minskga yaqin Belovejskoe Pushcheda uch slavyan respublikalari - Rossiya, Belarus va Ukraina davlatlari boshliqlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ni tuzish to'g'risidagi shartnomani imzolashi asosida shakllandi. Uni imzolagan davlatlarning hududiy butunligini tan olish, hurmat qilish hamda amachdagi chegaralar, ularning ochiqligi va fuqarolarning harakati erkinligi e'tirof etildi.

Markaziy Osiyo davlat boshliqlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga uni ta'sis etuvchilar rolida borishga tayyor ekanligini bildirdilar. 1991 yil 21 dekabrda Almatida Rossiya (B.Elsin), Ukraina (L.Kravchuk), Belarus (S.Shushkevich), Qozog'iston (N.Nazarboev), O'zbekiston (I.Karimov), Qирг'изистон (A.Akaev), Tojikiston (R.Nabiev), Turkmaniston (S.Niyozov), Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldaviya (M.Snegur) davlat boshliqlarining kengashi bo'ldi. Unda Belovejskoe Pushcha shartnomasi yuzasidan protokolni imzolab, «Teng huquqli va Ahdlashayotgan oliy tomonlar» maqomida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga muassis bo'ldilar. Gruziya MDHga 1993 yilda qo'shildi. Shu munosabat bilan MDHning tarkibi 12 davlatga yetdi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Oliy organlari qo'yidagilardan iborat:

- «Davlat boshliqlari Kengashi»;
- «Hukumat boshliqlari Kengashi»;
- «Tashqi ishlar vaziri Kengashi»;
- «Davlatlararo iqtisodiy Kengash»;
- Markazi Sankt-Peterburgda bo’lgan «Parlamentlararo Assambleya» (uning tarkibiga 1995 yildan Rossiya, Belorussiya, Qozogiston, Qirg’iziston, Tojikiston, Armaniston, 1997 yildan Ozarbayjon, Moldaviya, Gruziya, 1999 yildan Ukraina kirgan);
- «Mudofaa vazirlari Kengashi». Uning qoshida doimiy sekretariat va MDHning harbiy hamjamiyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Shtabi (ShKVS) joylashgan;
- «Chegara qo'shinlariga boshchilik qiluvchi Kengash»;
- «Iqtisodiy sud»;
- «Davlatlararo statistik qo'mita»;
- «Inson huquqlari komissiyasi»;
- MDHning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi «Muvofiqlashtiruvchi- konsultativ qo'mita»si (Minskda joylashgan);
- 2000 yil hamdo'stlik davlatlari «MDHning terrorchilikka karshi kurash Markazi»ni tuzish to'g'risida shartnoma imzoladilar¹.

MDHning raisi lavozimi navbat bilan bir davlat rahbaridan keyingi davlat rahbariga o'tadi. Davlat boshliqlari Kengashi bir yilda kamida ikki marta o'tkaziladi. Bundan tashqari Kengashning navbatdan tashqari majlisi ham o'tkazilishi mumkin. U MDH a'zosi bo'lgan har qanday davlat tashabbusi bilan chaqiriladi. Davlat boshliqlari Kengashida ayrim davlatlar kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi. MDHda faoliyat ko'rsatayotgan a'zolar bilan bir qatorda, uning muayyan bir faoliyati bilan shug'ullanuvchi a'zolar ham mavjud. MDH organlarining faoliyatini mablag' bilan ta'minlash (xarajatlari) a'zo davlatlarning xizmat yuzasidan bo'lgan ishtiroki tartibi bo'yicha taqsimlanadi va MDH organlari byudjeti to'g'risidagi maxsus bitim asosida o'rnatiladi.

Mintaqamiz xalqlarining yaqinlashuvi – tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik sobiq Ittifoq mavjud bo'lganligidan qat'iy nazar hamma vaqt bo'lib kelgan. Bu haqiqiy integratsiya bo'lib, sun'iy ravishda joriy etiladigan integratsiyadan farq qiladi. Unga sovetlardan keyingi davlatlarning birortasi qarshi emas, ayni chog'da ularning birortasi ham o'z mustaqilligidan voz kechmoqchi emas. Biz uchun masalaning mohiyati mustaqillik yoki integratsiyani tanlash emas,

¹ Юнусова М. П., Мўминов Х. М. Ўзбекистонда геосиёсат ва геосиёсий вазият асослари (Ўқув кўлланма) - Андижон: 2009. 39-40-бетлар

balki bu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirishdan iboratdir. O‘zbekiston rahbariyati MDHni haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko‘rishni istadi.

Biroq, dastlabki yillarda MDH a’zo davlatlari munosabatlarda bir qator muammolar ham bo‘lib turdi. Jumladan, bu tashkilot o‘z kengashlarida barcha a’zo davlatlar taraqqiyoti uchun muhim hujjatlar qabul qilar, biroq ularning bajarilishi sekin kechar edi. Ayrim kelishuvlar esa barbod bo‘lar edi. O‘zbekiston davlati doimo bu tashkilotning muntazam ishlab turishi, uning qabul qilgan qarorlarining bajarilishi tarafdoi bo‘lib keldi. Prezident I.Karimovning bu tashkilot kengashlariga qatnashuv oldidan ommaviy axborot vositalariga bergen intervylarida aynan shu muammolar o‘z ifodasini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi MDH davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikka kirishar ekan, doimo ularning mustaqilligiga dahl qilmaslikka intildi va bunga amal qildi. 1992 yil may oyida MDH davlat rahbarlarining Toshkent uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan boshlangan kollektiv xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi MDH doirasidagi davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning yangi bosqichiga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. 1993 yil MDH davlatlari bilan imzolangan “Iqtisodiy ittifoq” haqidagi shartnoma ham bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va o‘zaro hamkorliklarining yanada mustahkamlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Mustaqillikning birinchi o‘n yilligi davrida MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashlari bo‘lib o‘tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yib olish uchun davlatlararo iqtisodiy qo‘mita tuzish, iqtisodiy integratsiyani to‘laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to‘lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o‘rin egalladi. O‘zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo‘yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlar bilan imzolab, o‘zaro manfaatli hamdo‘slik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

2001 yil MDH tashkil topganligining 10 yilligi munosabati bilan Moskvada MDH davlatlari rahbarlari ishtirokida sammit bo‘lib, unda o‘tgan vaqt mobaynida qilingan ishlar sarhisob qilindi va o‘zaro savdodagi cheklashlarni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlar oqimini ko‘paytirish uchun axborot-marketing markazlarini tuzish, ta’lim, madaniyat, soliq, bojxona sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi muassasalar, xo‘jalik sudlari hamkorligini kengaytirish masalalari muhokama etildi. Sammit ishtirokchilari MDH tuzilganligining o‘n yilligi munosabati bilan hamda Afg‘onistondagi vaziyatga doir “Bayonot”ga imzo chekdilar. Bugungi kunda ham O‘zbekiston Respublikasi MDHga ko‘p tomonlama hamkorlik uchun shart-sharoit yaratishdan manfaatdor suveren mamlakatlar birlashmasi sifatida qaraydi.

Davlatimiz rahbari 2012 yil 15 may kuni Moskvada MDH davlatlari rahbarlari kengashining norasmiy uchrashuvida ham hamdo'stlik ko'p qirrali hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajarishi, u bevosita muzokara va davlatlararo muloqotlar, turli darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlar maydoni bo'lib qolishi lozimligini yana bir ta'kidladi.

2002 yildan buyon MDH doirasida tuzilgan Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) ham o'z faoliyatini olib bormoqda. O'zbekiston bu tashkilotning ODKB davlatlari o'rtasidagi va MDH makonidagi turli qarama qarshiliklar va mojarolarni hal etishda qatnashish emas, balki, avvalo Tashkilotlarga a'zo mamlakatlarni tashqi tahdidlardan himoya qilishdan iborat, deb hisoblaydi. Shuningdek, O'zbekiston ODKBga a'zo u yoki bu davlatlar ichida "zo'ravonlik xatti-harakatlari" yuzaga kelgan hollarda unga Tashkilotning aralashuvi yohud ta'sir ko'rsatishiga aslo yo'l qo'ymaslik zarur, degan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 2010 yil 10 dekabrda Moskvada bo'lib o'tgan ODKB Kollektiv xavfsizlik kengashi majlisida ham "u yoki bu mamlakat ichidagi "zo'ravonlik xatti-harakatlari" turli ssenariylar bo'yicha, tashqi kuchlarning bevosita aralashuvi va moliyalashtiruvi orqali yuzaga kelishi mumkinligini e'tiborga olish darkor", deb ta'kidlagan edi. Bu pozitsiyaning to'g'ri va hayotiyligini 2010 yil 10-14 iyun kunlari Qirg'iziston janubida ro'y bergen voqealar ham tasdiqladi. Birinchi Prezident I.A.Karimov Kengash yig'ilishida Qirg'iziston voqealarida O'zbekiston tutgan yo'lni to'g'riliqini izohlab, agar aholimiz o'rtasida osoyishtaligimizni saqlay olmaganimizda O'zbekistonning qariyb 300 ming qirg'iz millatiga mansub aholi yashaydigan Farg'ona vodiysi hududida qanday fojeali voqealar ro'y berishi mumkinligini ham isbotlab berdi. Shu bois ham, O'zbekiston davlati ODKBning tezkor harakatlanuvchi kollektiv kuchlar to'g'risidagi bitimni va ODKBning Tinchliksevar kuchlari to'g'risidagi bayonotini imzolamadi.

1990 yillarning oxiri 2000 yilning boshlarida Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. RF Prezidenti V.Putin qisqa muddatda O'zbekistonga ikki marta – 1999 yil 10-11 dekabrda va 2000 yil 18-19 may kunlarida davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat Prezidentlari va rasmiy delegatsiyalari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurashish va boshqa masalalar muhokama etildi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalar yangicha mazmun kasb etib, ikki mamlakat o'rtasida turli maqsadlarga yo'naltirilgan 150 ta hujjalarni imzolandi. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi 2000 yilda 1 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda – 520 ta

O‘zbekiston-Rossiya qo‘shma korxonasi, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi firma va kompaniyalari faoliyat ko‘rsata boshladi. Rossiyada esa O‘zbekiston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 250 ga yaqin qo‘shma korxona mavjud edi. O‘zbekiston Rossiyadan mashina va jihozlar, kimyo mahsulotlari va plastmassa, qora metall va boshqa tovarlar sotib olib, Rossiyaga turli mashina va jihozlar, paxta tolasi, xizmatlar, oziq-ovqat mollarini eksport qilayotgan edi.

2004 yil 16 iyunda O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida strategik sherikchilik to‘g‘risida bitim imzolandi. Uchrashuv davomida O‘zbekiston Respublikasi bilan “Lukoyl” neft kompaniyasi, OAJ hamda “O‘zbekneftigaz” milliy xolding kompaniyasi bilan, “Gazprom” ochiq aksiyadorlik jamiyati o‘rtasida mahsulot taqsimotiga oid bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar asosida Rossiya tomonidan O‘zbekiston yoqilg‘i-energetikasi sohasiga qariyb 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritildi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo yo‘nalishidagi hamkorlik hajmi 2003 yilda 1 mlrd. 149 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

O‘zbekistonning Kavkazorti respublikalari bilan bugungi aloqalari ham qadimiylar bilan mushtarakdir. 1995 yil 5 sentyabrda Gruziya davlat rahbari, respublika parlamenti raisi E.Shevvardzening O‘zbekistonga rasmiy tashrifi O‘zbekiston bilan Gruziya o‘rtasidagi qadimiylar bilan aloqalarni tiklashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ikki tomonlama munosabatlarga doir masalalar bo‘yicha bir qancha shartnomalar imzolandi. Ikki mamlakat rahbarlari tomonidan imzolangan O‘zbekiston Gruziya qo‘shma axboroti asosida ikki tomonlama aloqalar chuqurlashib, Markaziy Osiyo va Kavkazorti mintaqalari xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasida davlatlararo aloqalar ham yo‘lga qo‘yilib, rivojlanib bormoqda. 1996 yilning mayida I.Karimov boshliq O‘zbekiston davlat delegatsiyasining Ozarbayjonda bo‘lib, ikki davlat rahbarlari kelishuvi asosida xalqaro “Trans Kavkaz yo‘li” barpo etildi, uning Ozarbayjondan o‘tadigan qismi shakllantirilib, O‘zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali Yevropa tomon chiqarishga yo‘l ochildi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin aloqalar o‘rnatib, qo‘shnichilik tamoyillariga amal qildi. Qozog‘iston, Qирг‘изистон, Tojikiston, Turkmaniston bilan qardoshlarcha do‘stlik aloqalarini mustahkamlash O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi.

So‘nggi vaqtarda Markaziy Osiyo mamlakatlarining do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik aloqalarini mustahkamlash bo‘yicha siyosiy irodasi va o‘zaro intilishi tufayli o‘zaro munosabatlarning barcha yo‘nalishlari borasida haqiqatan ham ulkan o‘zgarish va natijalarga erishildi. 2017 yilning

noyabr oyida Samarqandda BMT sha'feligida xalqaro konferensiya bo'lib o'tgan edi, u Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha birgalikda sa'y-harakatlarni amalgalash oshirish borasida amaliy qadam bo'ldi. Ushbu konferensiya doirasida tizimli muloqot asosida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro manfaatlarni hisobga olish masalalari ko'rib chiqildi, buni mintaqamizning barcha davlatlari qo'llab-quvvatladi.

2018 yil Qozog'iston poytaxti Ostona (hozirgi Nur-Sulton) shahrida bo'lib o'tgan sammit eng muhim tashabbusning amaldagi ifodasi bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlarining do'stligi, yaxshi qo'shnichiligi, o'zaro qo'llab-quvvatlash va hamkorligi zamonaviy tarixida yangi sahifa bo'ldi. Aslida Ostonadagi sammitni xalqaro va mintaqaviy kun tartibining eng dolzarb masalalari bo'yicha yuqori darajadagi fikrlar almashuvi uchun maydoncha sifatida baholash mumkin.

Iqtisodiy integrasiyaga intilish bu mintaqaviy hamkorlik ustuvorliklarining aniq mexanizmlarini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish yo'lidagi dastlabki qadam bo'lib, millatlararo totuvlikni ta'minlashni asosiy bo'g'inidir. Mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirish doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida amal qilayotgan erkin savdo tartibining to'laqonli faoliyat yuritishini, chegaraoldi savdo, ishlab chiqarish kooperasiyasini intensiv rivojlantirishni ta'minlash hamda mamlakatlarimiz hududlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish borasidagi vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu o'z navbatida, Markaziy Osiyo mamlakatlari haqiqatan ulkan salohiyatga ega eng yirik mintaqaviy bozorni shakllantirishlari mumkin. Bu borada Toshkentda birinchi Mintaqaviy iqtisodiy forumni o'tkazish bo'yicha tashabbus katta qiziqish uyg'otmoqda, u Markaziy Osiyo mamlakatlari biznes-hamjamiyatlari va etakchi chet el investorlari o'rtasida aniq loyihalarni ilgari surish uchun bevosita muloqotni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Jumladan, O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan o'zaro savdo aylanmasi faqat 2017 yil yakunlari bo'yicha 20 foizga o'sib, qariyb 3 milliard dollarga etdi. Bunda o'zaro savdo xajmini besh milliard dollargacha etkazishga manfaatdorlik mavjud. Bundan tashqari, ushbu uchrashuv Markaziy Osiyo mamlakatlarining kuchi umumiyligi muammolarni birgalikda hal etishga kirishish imkoniyatini yana bir bor ko'rsatdi. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi hamkorligini kengaytirish mintaqaviy yalpi ichki mahsulotni yaqin 10 yil mobaynida kamida ikki barobarga o'sishiga olib kelishi mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarning mazmuni va sur'atlaridagi ayrim farqlar ham millatlar va elatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi o'z-o'zidan ayon. Bu hol etnik siyosatni etarli darajada puxta o'ylab amalga

oshirishni talab qiladi. Shunisi quvonarligi, mintaqadagi hamma davlatlar millatidan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlarini ta'minlash hamda bu mamlakatlarda yashayotgan xalqlarning milliy madaniyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish yuzasidan o'zaro majburiyatlar olgan.

O'zbekistonning ko'p millatli tarkibi uning madaniy o'ziga xosligini, qulay va boy imkoniyatlarini belgilab beradi. Bu imkoniyatlar, bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, quyidagilardir:

birinchidan, mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitlari, tarixiy-madaniy tajribaning bu erda yashayotgan odamlar hayotiga ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi;

ikkinchidan, mintaqaning qo'shni davlatlar chegara hududlariga yaqinligi bilan izohlanadi. Bu hol iqtisodiy hamkorlik izchilligini bildiradi. Savdo-iqtisodiy munosabatlar bir-biriga ta'sir ko'rsatishiga va ko'p tillilik vujudga kelib, aholi bir necha tillarni erkin bilishiga yordam beradi;

uchinchidan, ijtimoiy va sosial munosabatlar - oilaviy, hududiy va boshqa munosabatlarni tashkil etishning tarixan tarkib topgan shakllari bilan izohlanadi;

to'rtinchidan, Markaziy Osiyoning tub xalqlari tabiatida boshqa millatlarning vakillariga nisbatan keng fe'lllikning mavjudligi bilan izohlanadi. Bu sof insoniy tuyg'u, masalan, o'zbeklarda shu qadar rivojlanganki, milliy-ma'naviy kengfe'lllik ularning umumiyligi madaniyati va ruhiyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan.

O'zbekiston o'z tashqi siyosatida, avvalo, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Keyingi paytda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi sheriklik aloqalari faollashayotgani buning yorqin dalilidir. Jumladan, Qirg'iziston Respublikasi bilan hamkorlik yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Parlamentlar, turli vazirlik va idoralar, hududlar o'rtasida aloqalar tobora kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya muhim o'rin tutmoqda. Ikki mamlakat Bosh vazirlari mazkur komissiyaning hamraislari etib tayinlangani tomonlarning o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga yuksak e'tiboridan dalolat beradi.

Keyingi paytda mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi jadal ortib bormoqda. 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida o'zaro savdo ko'rsatkichlari 56 foizdan ziyodga o'sib, 235 million dollarga yetdi.

Muzokarada ta'kidlanganidek, bu ko'rsatkich ikki mamlakatning mavjud imkoniyatlarini to'liq aks ettirmaydi. O'zaro tovar ayirboshlash nomenklaturasini diversifikasiya qilish va yaqin yillarda uning hajmini 500 million dollarga etkazish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Tashqi savdo infratuzilmasi va eksport-import operasiyalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini faol rivojlantirish, qo'shma savdo uylari ochish, biznes-forumlar va milliy sanoat mahsulotlari ko'rgazmalarini o'tkazish zarurligi ta'kidlandi.

Qirg'iziston Prezidentining rasmiy tashrifi doirasida O'zbekiston sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi va biznes-forum tashkil etilgani, ishbilarmon doiralar vakillarining muzokaralari o'tkazilgani va ularda ikki mamlakatdan ko'plab tadbirkorlar ishtirok etgani, qariyb 140 million dollarlik shartnomalar imzolangani savdo-iqtisodiy munosabatlar jadal rivojlanayotgani tasdig' idir.

Qirg'iziston hududida O'zbekiston qishloq xo'jaligi texnikasi, engil avtomobilari, avtobuslari, maxsus pritseplari va maishiy buyumlarini yig'ishni yo'lga qo'yish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish hamda qurilish materiallari va to'qimachilik sanoatida qo'shma korxonalar tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Tomonlar bu loyihalar bilan cheklanib qolmasdan, sanoat kooperasiyasi sohasida ham birgalikda istiqbolli yo'naliishlar topishga kelishib oldilar. Tashriflar almashish, barcha sohalarda qo'shma tadbirlar o'tkazish, ikki mamlakat fuqarolari o'rtaсидagi aloqalarni kengaytirish orqali O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtaсидida hududlararo hamkorlikni rivojlantirish va yanada mustahkamlashga bundan buyon ham alohida e'tibor qaratiladi. Qirg'iziston O'zbekistonning ikki mamlakat Bosh vazirlari rahbarligida Hokimlar va chegaraoldi viloyatlar ma'muriyatlarini rahbarlari kengashining birinchi majlisini O'zbekistonda o'tkazish to'g'risidagi taklifini qo'llab-quvvatladi.

Prezidentlar qisqa muddatda jahon bozoriga chiqish imkonini beradigan transport va tranzit yo'laklarini rivojlantirish sohasida o'zaro hamkorlik strategik ahamiyatga ega ekanini qayd etdilar.

Davlat rahbarlari «O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy» temir yo'li qurilishini imkon qadar tezlashtirish mintaqaga mamlakatlari manfaatiga xizmat qilishini alohida ta'kidladilar. Bu Markaziy Osiyoning jozibadorligini oshirish va tranzit salohiyatini to'la yuzaga chiqarish imkonini beradi. Xitoy Markaziy Osiyo davlatlari bilan "Bir kamar – bir yo'l" tamoyili asosida ipak yo'ini eski qismini tiklash ishlarini olib bormoqda.

Millatning shakllanishida moddiy omillar muhim ahamiyatga ega, shubhasiz, ammo ular millatning abadiyligini ta'minlashning mezoni emas. Ular millat taraqqiyoti uchun tashqi shart-sharoit hisoblanadi. Millatning abadiyligini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omili-uning ichki ma'naviy-ruhiy, etnopsixologik holatidir. Millatlarning salohiyati, qobiliyati, matonati, tadbirkorligi va tinimsiz mehnati, hozirgi zamon sivilizasiyasiga moslashib borishi, moddiy va ma'naviy madaniyati, ularni boyitib borish va rivojlantirish yo'llari va usullari millatlarning abadiyligini ta'minlaydi.

6.2. O‘zbekiston va ShHT geosiyosiy istiqbollari.

ShhTning tashkil etilishi ob’ektiv zaruriyat sifatida. ShHT ishtirokchi davlatlariga Yevrosiyoning 60 foiz hududi to‘g‘ri kelib, unda yer kurrasining 25 foiz aholisi yashaydi, jahon yalpi ichki mahsulotining to‘rtadan biri ishlab chiqariladi. Hozirgi kunga kelib, ShHT yirik mintaqaviy tashkilot sifatida oltita ishtirokchi-davlatlarni – O‘zbekiston, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistonni birlashtirib, endilikda uning faoliyati dunyo va mintaqaviy jarayonlarga ta’sir o‘tkazish salohiyatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Shanxay Hamkorlik tashkilotiga “...tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan, ochiq, konstruktiv sherikchilik va avvalambor, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, agressiv separatizm, narkobiznes kabi global hamda mintaqaviy tahdidlarga qarshi turuvchi ko‘ptomonlama hamkorlik mexanizmi sifatida qaraydi”¹.

ShHTning boshqa a’zo davlatlari singari O‘zbekiston ham o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda bir qator maqsadlarni ko‘zlab tashkilotga a’zo bo‘lgan edi. ShHT vazifalaridan asosan ikkitasi – terrorizmga qarshi kurash va keng qamrovli iqtisodiy hamkorlik, tashkilotga a’zo davlatlar uchun doimo muhim yo‘nalishlar bo‘lib qoladi. Afg‘onistonda terrorchi guruhlarning keng masshabda faoliyat yuritish imkoniyatlari sirdan qaraganda kamaygan bo‘lsada, lekin Markaziy Osiyoda terrorizm, ekstremizm va separatizm kuchlari asosiy tahdidlar sifatida saqlanib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, qisqa muddat ichida ShHT hozirgi zamon geosiyosatining ta’sirchan xalqaro tuzilmasiga aylandi. ShHT keng qamrovli masalalar (xavfsizlik, iqtisodiyot, madaniyat, ta’lim) doirasi bilan shug‘ullanmoqda. Ishtirokchi-davlatlar muntazam ravishda birgalikda aksilterror o‘quvlarini amalga oshirmoqdalar. 2001 yilning iyunida tashkil etilgan ShHTda davlatimizning ishtiroki mazkur tashkilotning keyingi rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekiston ShHTga raislik qilgan davrda (2003-2004, 2009-2010 yillar) tashkilotning institusional-huquqiy jihatdan shakllanishi nuqtai nazaridan muhim hujjatlar imzolandi. Bundan tashqari, Narkotik vositalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi ham diqqatga molik voqeа bo‘ldi. Zero, Bitim giyohvandlik xavfiga qarshi kurashda ko‘p tomonlama hamkorlik uchun huquqiy asos yaratdi. 2010 yilda esa Jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi.

¹ Рахимова З. Узбекистан в системе ГУУАМ и ШОС// Центральная Азия и Кавказ. Журнал социально-политических исследований, № 5(17)-2001.-с.195

2015 yil 11 iyul kuni ShHT raisligi navbatli O‘zbekiston Respublikasiga o‘tdi. Unga qadar O‘zbekiston tashkilotga ikki marotaba raislik qilgan. Respublikamiz o‘tgan davr mobaynida ShHT a’zosi bo‘lgan mamlakatlar bilan birgalikda jahon va mintaqqa ahamiyatiga molik muammolar hal etilishida tashkilot salohiyatini, o‘zaro hamkorlik muvofiqlashuvini yanada kuchaytirish, tashkilotning xalqaro maydondagi rolini oshirish yuzasidan keng qamrovli tashabbuslarni ro‘yobga chiqarib kelmoqda.

Jumladan, 2009 yilning dekabrida BMT Bosh Assambleyasida BMT va ShHT hamkorligi to‘g‘risida Rezolyusiya qabul qilindi. Mazkur ikki xalqaro tashkilotlar tajribasi va salohiyatining qo‘shilishi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni ta’minlashning yangi istiqbollarini ochib berdi. SHuningdek, BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning 2010 yilning aprelidagi tashrifi davomida O‘zbekiston tashabbusi bilan ShHT va BMT kotibiyatlari o‘rtasida Hamkorlik to‘g‘risidagi qo‘shma deklarasiya qabul qilindi. Ushbu hujjatning imzolanish marosimida BMT rahbari O‘zbekistonning ShHTdagi raisligiga yuksak baho berib, uning tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning ko‘pgina dolzarb masalalar yechimi uchun favqulorra muhim ekanligini ta’kidladi. Albatta, ShHT boshqa davlat va mintaqalar manfaatlariga qarshi qaratilgan siyosiy-harbiy ittifoq bo‘lmay, u o‘z faoliyatida doimo ochiqlik tamoyiliga amal qiladi. SHU sababli Hindiston va Pokistondek ikki yadro quroliga ega davlatning ShHTga a’zo bo‘lishi nafaqat mintaqada, balki sayyoramizdagi xavfsizlikni ta’minlashni kuchaytiradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchlik, barqarorlik, farovonlik va osoyishtalik sari odimlashi ko‘p qirrali iqtisodiy hamkorlik, taraqqiyot evaziga ta’milanishi shubhasiz. Mintaqalarning nihoyatda boy tabiiy zaxiralari, ilmiy-intellektual salohiyati hamda iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari muhim infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, savdo-sotiq, investisiya va boshqa sohalarda ShHTning barcha ishtirokchilari manfaatlarini ko‘zlovchi, xususan, o‘zaro hamkorlikning yanada rivojlantiruvchi muhim omil bo‘la oladi.

Prezidentimizning 2016 yil 21 yanvardagi Toshkent shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashi yig‘ilishi hamda O‘zbekiston Respublikasining ShHTga raisligi doirasidagi boshqa tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq, mamlakatimizda ushbu yirik anjumanni yuqori saviyada o‘tkazish uchun izchil ishlar amalga oshirildi. Ushbu yirik xalqaro anjuman oldidan, jumladan, 2016 yilning 8 aprelida Shanxay hamkorlik tashkiloti Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (ShHT MATT) Kengashining navbatdagi 28 majlisi, 13-14 aprel kunlari esa O‘zbekiston Respublikasi raisligida ShHTga a’zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining 11 yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 14

aprel kuni ShHTga a'zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari rahbarlari, shuningdek, ShHT Bosh kotibi va ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo'mitasi direktori bilan uchrashdi.

Bunday xalqaro miqyosdagi tadbirlarning davlatimiz mustaqilligining 25 yilligi keng nishonlanadigan yilda o'tkazilishi mustaqil yurtimiz tarixida katta voqeа bo'lishiga ishonchimiz komil. Mazkur anjuman davomida ShHT 15 yilligining Toshkent deklarasiysi, ShHTga a'zo davlatlarning 2017-2022 yillarda giyohvandlikka qarshi strategiyasi va uni bajarish bo'yicha Harakat dasturlari imzolanishi kutilayapti. Bundan tashqari, jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha Tadbirlar rejasi hamda ShHTning 2025 yilgacha rivojlanish strategiyasini amalga oshirish rejasining tasdiqlanishi ham mo'ljallanmoqda.

Bugungi kunda ShHT dunyoning eng nufuzli va jahonda kechayotgan jarayonlarga ta'sir o'tkazish salohiyatiga ega tashkilotiga aylandi. Shubhasiz, ShHT unga a'zo davlatlarga dunyoning turli mintaqalari bilan iqtisodiy hamkorlik va integrasiya uchun yangi istiqbollarni ochib beradi va Markaziy Osiyoda hamda o'z navbatida, xalqaro miqyosda xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ShHTini 2017 yilda navbatdagi Sammiti 9 iyun kuni Ostona (hosirgi Nur Sultan) shahrida bo'lib o'tdi. Majlisda ShHT va uning tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirish, Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari ShHTning so'nggi sammitida kelishilgan masalalar – Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy, gumanitar hamda transport sohalaridagi aloqalarni rivojlantirishga doir keng ko'lamli masalalarni ko'rib chiqdilar. ShHTning 2025 yilgacha rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha 2016-2020 yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasini tasdiqlash to'g'risidagi qaror, ShHTga a'zo davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligini rivojlantirish dasturi va boshqa hujjalarni ijrosiga e'tibor qaratildi.

Umuman olganda, «Shanxay beshligi» va Shanxay Hamkorlik Tashkilotining shakllanish tarixini shartli ravishda bir necha bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich – 1989-yil noyabr oyidan 1991-yil dekabr oyiga qadar sobiq Sovet Ittifoqi parchalanib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. «Sovuq urush» sharoitida sobiq sovet ittifoqining Xitoy bilan munosabatlari bir xil rivojlanmaydi. Ulardagi siyosiy tizim yagona kommunistik qarashlarga asoslangan.

Tarixshunoslikda «Shanxay beshligi» yoki Shanxay Hamkorlik Tashkiloti uchun dastlabki qadamlar aynan chegara masalasidagi muzokaralardan boshlandi deb qaraladi.

Ikkinci bosqich sifatida 1991-yil dekabrdan 1997-yil aprelgacha bo‘lgan davrni ko‘rsatishadi. Bu davrga kelib, sobiq SSSR davlat sifatida tugab, uning o‘rnida qator mustaqil davlatlar vujudga kelishi sababli endi Xitoy hukumati yuqoridagi muzokaralarni «sobiq ittifoqdosh» to‘rt davlat - Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalari hukumatlari bilan alohida-alohida holda olib borishga to‘g‘ri keldi.

Uchinchi bosqichi 1997-yil aprel oyidan 2000-yilga qadar bo‘lgan vaqt qamrab oladi. Aynan mana shu davrda tashkilotning besh a‘zosi Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston respublikalari o‘rtasida harbiy va boshqa sohalarga oid doimiy muzokaralar o‘tkazila boshlandi. Ayniqsa ular hududiy da‘volardan voz kechib, mintaqaviy muammolarni hal etishga harakat qila boshladi. Harbiy sohadagi muzokaralarda bir tomondan Xitoy Xalq Respublikasi va ikkinchi tomondan Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalari birgalikda ishtirok etishdi. Boshqa sohalarda besh davlat teng huquqli a‘zo sifatida muzokaralarni ko‘p tomonlama tartibda olib borishdi.

Shanxay hamkorligining oliy bosh maqsadi. 2002-yilda bo‘lib o‘tgan ShHT konferensiyasida tashkilotning asosiy maqsadlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib bular quyidagilardir:

- qatnashchi mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro do‘stlikni saqlash;
- hududlarda har tomonlama havfsizlikni ta‘minlash, iqtisodiy-ijtimoiy markazlarni ko‘paytirish;
- terrozm, separatism, ekstremizm va uning barcha yo‘nalishlariga qarshi, narkotik moddalar, qurol savdosi hamda transmilliy jinoyatlarga va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;
- siyosiy, iqtisodiy, savdo, qonuniylikni yo‘lga qo‘yish, tabiatni asrash, madaniy, oliy ta‘limni rivojlantirish, energetika, transport, bank-kredit tizimini rivojlantirish va boshqa sohalarda hamkorlik qilish;
- hududlarda iqtidoiy, madaniy va ijtimoiy hamkorlikni rivojlanishining ta‘minlanishi;
- dunyo iqtisodiyotida integratsiyalashuv jarayoniga qo‘shilish;
- hududlarda inson huquqining ta‘minlanishi va mamlakatlarda insonlarga yaratib berilgan shart-sharoitlarning ta‘minlanishi;
- xalqaro maydonlarda o‘zaro yordamlashish;
- XXI asrdagi muammolami birgalikda hal qilish

Shanxay hamkorlik tashkilotining (ShHT) tashkil etilishi Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyo ustidan nazoratda Yevropaga (AQSh va Yevropa ittifoqi) yon bermasligi to‘g‘risida darak beradi. Biroq, bunga erishish uchun Rossiya va Xitoy Osiyoda o‘zлari doimiy raqib bo‘lishlari kerak edi. Hozirgi kunda umumiy natija bergen narsa bu Rossianing Markaziy Osiyo mintaqasidagi ta‘sir doirasining kuchsizlantirilishi va Xitoyning yanada jalb qilinishidan iborat. Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqaro masalani Rossianing ishtirokisiz hal qilib bo‘lmaydi. Mintaqning manfaatlari doirasiga kirib bormoqda va Rossiya hali ham bu yerda ma‘lum ta‘sir doirasini saqlab qolmoqda.

Markaziy Osiyoda mintaqasida xavfsizlik sistemasi uchta bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich – postsoviet va Markaziy Osiyo makonida harbiy-siyosiy strukturasi aloqalariga ko‘ra Kollektiv xavfsizligi to‘g‘risidagi shartnomalar tashkiloti.

Ikkinci bosqich – Xitoyni jalb qilish vositasi bilan va boshqa tashkilotlarning vazifalari spektoriga kirmaydigan xavflarga qarama-qarshi ravishda mintaqada xavfsizlikni ushlab turishda hamkorlikni kuchaytirish uchun tashkil etilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti.

Uchunchi bosqich – tashqi kuch sifatida, balansga ega bo‘lgan va barqarorlikni ta‘minlashda katta potensialga va tajribaga boy bo‘lgan NATO. Hozirgi kunda butun dunyoni siyosiy tomonlama boshqarib turuvchi davlatlar Rossiya, Xitoy, Hindiston, AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlari tashkil etishadi. Bu jarayon XXI asr siyosatida "shaxmat taxtasi" yoki "katta o‘yin" nomini olgan. Ushbu gigantlarning Markaziy Osiyodagi asosiy maqsadlari quyidagicha:

1. Siyosiy vaziyatni bir xilda saqlab turish (hech kim siyosiy portlashni istamaydi. Bu ayniqsa islam harakatini keltirib chiqaradi.).
2. Diniy tartiblarni saqlab qolish
3. Iqtisodiy hamkorlik o‘rnatish orqali siyosatni barqarorlashtirish.

Ushbu uchta vazifa Moskva, Pekin, Dehli, Vashington va Brusse da asosiy maqsadni tashkil etadi. Shu maqsadda iqtisodiy va madaniy aloqalar Markaziy Osiyobilan yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Agarda YI yoki Xitoy Markaziy Osiyobilan iqtisodiy aloqa o‘rnatmoqchi bo‘lsa, dastlab madaniy va fan-texnika sohasida shartnomalar tuzadi. Ushbu gigant mamlakatlar Markaziy Osiyobozorlarida doimiy ravishda raqobatda bo‘lib kelmoqdalar. Iqtisodiy raqobatlar ba’zida siyosiy raqobatlarga aylanib ketadi. Rossiya davlati YI davlatlarining O‘rtal Osiyoga krib kelishiga to‘sinqilik qilib kelayapti. Ammo buning uchun siyosiy raqobatga kelish shartmas.

ShHT geografik jihatdan turli xil hududlarni (kuzatuvchi davlatlar bilan birga), aholini, madaniyatni, siyosiy tizimlarni va uning ishtirokchilarining turli xil

iqtisodiy rivojlanish darajalarini o‘z ichiga oladi. Bunday holatda davlatlarning tashkilotdagi maqomidan qat’iy nazar olsak, ularni uch guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga Xitoy, Rossiya va Hindiston kiradi, ularning YaIM (rasmiy ma'lumotlarga ko‘ra) mos ravishda \$2 trln, 740 mlrd va 735 mlrd.ni tashkil etadi. Bu davlatlarda YaIM o‘sishining real darajasi mos ravishda 9,2; 6 va 7%.

Ikkinchi guruhga Eron, Pokiston va Qozog‘iston kiradi, ularning YaIM \$128 mlrd, 92 mlrd va 43 mlrd.ni mos ravishda tashkil etadi. Bu davlatlarda YaIM o‘sishining real darajasi mos ravishda 4,8; 8,4 va 9%.

Qolgan davlatlar - O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Mo‘g‘uliston - uchinchi guruh davlatlari bo‘lib, ularning YaIM mos ravishda \$10 mlrd, 2,1 mlrd va 1,9 mlrd. Bu davlatlarda YaIM o‘sishining real darajasi mos ravishda 5,4; 2,8 va 5%⁶².

Bu tashkilotning barcha davlatlari turli xil rivojlanish darajasiga, iqtisodiy bazaga, uslub va yo‘nalishlarga ega. Bu holatda siyosat va iqtisodda kelishilgan hamkorlikka erishish uchun kuchli siyosiy iroda, majburiyatlarni bajarish hududiy hamkorlikni amalga oshirish kerak bo‘ladi⁶³. Shu bilan bog‘liq holda hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan uzoq muddatli va qisqa siyosatni aniqlashga muhtojligi vujudga keldi.

ShHT - ochiq xalqaro tashkilot bo‘lib, u yevroosiyoning 2/3 qismini egallagan. U o‘z faoliyatini hududda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, shuningdek keng xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratgan. Tashkilot hududiy xavfsizlikka sodiqligini e’lon qilingan va u uchinchi davlatga qarshi qaratilmagan, shuningdek tashkilot ko‘p qutbli tinchlik tartibini, "Uyg‘unlikdagi tinchlik"ni qurish maqsadida Shanxay ruhi deb nomlanuvchi ruhni shakllantirishda ishtrok etmoqda. Uning faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlar bular: xavsizlik, iqtisod, madaniy-gumanitar va harbiy-siyosiy sohalaridir. Tashkilotda hamkorlikning turli yo‘nalishlariga qaratilgan o‘nlab asos bo‘luvchi kelishuv-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

ShHT faollik bilan tashqi aloqalarni rivojlantirmoqda, uning xalqaro obro‘yi tinimsiz o‘smoqda. Xalqaro va hududiy tashkilotlar bilan rasmiy munosabatlар o‘rnatalgan. Ko‘plab davlatlar ShHT bilan aloqa o‘rnatishga harakat qilmoqdalar. Hududdagi ro‘y berishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy inqirozning rivojlanish xavfi va siyosiy qizg‘inlik, shuningdek Afg‘onistondagi holatning qaysi yo‘nalishda rivojlanishining noaniqligini hisobga olgan holda ShHT hududda barqarorlikning ma'lum bir kafili va hamkorlik instituti sifatida o‘zini namoyish etmoqda.

ShHT davlatlarning o‘ziga hos hududiy birlashmasi hisoblanadi. Uning asosida Xitoy va Rossiyaning geosiyosiy qiziqishlari, Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy va iqtisodiy qiziqishlari yotadi. Bu borada Rossiya Markaziy Osiyo hududida AQShning geosiyosiy maqsadlarini neytrallashtirish pozitsiyasini

saqlab turibdi va bu ishda rus-xitoylaming ShHTdagi juftligi to‘laqonli samara bermoqda. ShHTning o‘ziga hosliklaridan biri shuki, bu tashkilot NATO singari harbiy tashkilot emas, shuningdek ASEAN kabi ochiq iqtisodiy hududiy guruh emas. Tashkilotni hozircha shakllangan integratsion birlashma deb ata bo‘lmaydi: u faqat shu yo‘nalishda harakatlanmoqda. Tashkilotning hozirgi kundagi asosiy vazifasi ishtrokchi davlatlar iqtisodida o‘zgarishlar o‘tkazish va iqtisodiy o‘sish uchun siyosiy hsart-sharoit yaratish.

6.3. Yangi ming yillikda Markaziy Osiyo: Afg‘oniston fojeasi va xavfsizlikni ta’minlash vazifalari

Markaziy Osiyoda xavfsizlikning umumiy o‘ziga xosligi va yangi chaqiriqlar. Dunyoning barcha davlatlari, qayerda bo‘lishidan qat‘i nazar, tobora ko‘proq shu kabi xavfsizlik muammolariga duch kelmoqdalar. Bu nafaqat terrorizm, ekstremizm, ommaviy qirg‘in quollarini tarqatish, giyohvand moddalar savdosi balki, atrof muhitning buzilishi, global isish, o‘rmonlarning kesilishi va boshqalar tahdidi muhim o‘rinni egallay boshladi. Suv urushi xavfi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu global muammolar va tahdidlarning barchasi Markaziy Osiyo uchun ham dolzarbdir. Ammo uning mamlakatlari, afsuski, hali ichki, endogen xarakterga ega bo‘lgan ko‘plab eski va yangi muammolarga munosib javob topishda hanuzgacha muvaffaq bo‘lishmagan.

Bunga quyidagilar kiradi:

- quyidagi siyosiy qismlarga ega bo‘lgan ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik;
- millatlararo, ichki guruhlarraro taranglik;
- mintaqaviy elita va davlat mafkuralari o‘rtasidagi qarama-qarshilik;
- aholining qashshoqlashuvi;
- aholi daromadlaridagi farqning chuqurlashishi va ijtimoiy muvozanatning kuchayishi;
- ishsizlikning yuqori darajasi, ayniqsa yoshlar orasidagi ishsizlik;
- korruptsiyani legallashishi;
- davlat tuzilmalarining past samaradorligi;
- har qanday siyosiy beqarorlik yuz berganda bosh ko‘tarishga tayyor va dunyoviy hukmron rejimlarni obro‘sizlantirish uchun ijtimoiy muammolardan faol foydalangan radikal islom;
- giyohvand moddalar savdosi va diniy ekstremizm ta’sirining o‘sishi;

- oliy siyosiy hokimiyatning davomiyligi muammosi, chunki Markaziy Osiyo davlatlarida bunday davomiylilik uchun aniq belgilangan va aniq qoidalar mavjud emas.

Davlatlararo ziddiyatlar ham davom etmoqda. Bu, *birinchi* navbatda, suv va energetika resurslari bo'yicha raqobat tufayli kelib chiqadigan "energiya delimitatsiyasi". Xususan, Amudaryo va Sirdaryoning transchegaraviy suv yo'llarida Tojikistonda Rog'un GESi va Qirg'izistonda Qambarota GESlarini qurish rejalar bilan bog'liq ravishda keskinliklar yuzaga keldi. Ushbu rejalar O'zbekistonni ayniqsa xavotirga solmoqda, chunki ular GESlar qurilishi natijasida daryolardagi suv oqimining pasayishidan qo'rqishadi.

Ikkinchidan, bu hal qilinmagan chegara mojarolari bo'lib, ular Markaziy Osiyoda xavfsizlikning jiddiy muammolariga aylanmoqda. Ushbu tortishuvlar mintaqaning aksariyat respublikalariga ta'sir qiladi, lekin ayniqsa, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston, bu yerda etnik xilma-xillik va umumiylar tan olingan chegaralarning yo'qligi erlarning etishmasligi va eng muhimi, quruq iqlim sharoitida suv resurslari takrorlanadigan nizolarga aniq ijtimoiy-iqtisodiy rang berish.

So'nggi yillarda ushbu uchta Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi keskinlashgan munosabatlar yangi etno-hududiy ziddiyatlarning paydo bo'lishini istisno etmaydi, ularning ijtimoiy asoslari aholining doimiy o'sishi va qiyin ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat tomonidan yaratilgan.

Uchinchidan, davlatlararo ziddiyatlar Markaziy Osiyo davlatlarida tugallanmagan davlat qurish va davlat mafkuralarining shakllanishidagi murakkab jarayonlarni qo'zg'atadi, ularning tarkibiy qismi ko'pincha qo'shnilara nisbatan hududiy da'volarga yoki ma'lum bir davlatning da'volariga aylanadi. Shiddat bilan to'planib borayotgan ichki muammolar bilan bir qatorda tashqi tahdidlar Markaziy Osiyoda xavfsizligiga jiddiy muammo tug'diradi. Ular orasida transchegaraviy jinoyatchilik, terrorizm va giyohvand moddalar savdosining o'sishi mavjud. Ammo yaqin kelajakda Markaziy Osiyo uchun eng jiddiy tashqi muammo Afg'onistondagi toliblarning hokimiyat tepasiga qaytishi va radikal islomning markaziga aylanishi kabi istiqbolli afg'on fojiasi bo'lib qolmoqda.

Bizni fikrimizcha, mintaqadagi vaziyatga kamida to'rtta global omil ta'sir korsatadi:

- 1) dunyo hamjamiyatining yangi tartibga, yangi ko'p markazli dunyoga tez va hali oldindan belgilanmagan holda o'tishi;
- 2) davom etayotgan global pandemiya va moliyaviy inqiroz;
- 3) yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi voqealar - "arab bahori" impulsları, radikal islomning chaqiriqlari, ushbu voqealarning kelib chiqishida turgan totalitarizmga qarshi kuchlarning tashabbusini qo'lga kiritish;

4) ushbu mintaqadagi ulkan uglevodorod zaxiralari Xitoy o'sib borayotgan iste'molchiga aylanmoqda. Bu (hali ham mutaxassislar darajasida) oddiy "uyg'un tinchlik" tushunchasidan ko'ra tushunarli geostratgiyani shakllantirishga olib keladi.

Birinchi navbatda "xavfsizlik" so'zi bilan nima ekanini tushunishimiz kerak. Xavfsizlikni avvalo barqarorlik bilan tenglashtirishidir. Xalqaro, mintaqaviy, ichki rivojlanishning barqarorligi "xavfsizlik" tushunchasining kvintessentsiyasidir. Analistik ravishda Markaziy Osiyodagi xavfsizlik muammolari haqida gapirganda, biz uchta darajani ajratib ko'rsatishimiz kerak: 1) ichki xarakterdagi barqarorlikka bo'lgan muammolar; 2) mintaqaga mamlakatlaridagi ichki vaziyatdan kelib chiqadigan mintaqaviy muammolar; 3) tashqi muammolar.

Markaziy Osiyo davlatlariga xavf solayotgan asosiy tahdidlar (suv resurslaridan foydalanish; atrof-muhit degradatsiyasi, millatlararo to'qnashuvlar, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va demografiya).

Markaziy Osiyo mintaqasi Yevroosiyo qit'asining strategik muhim mintaqalari bilan chegaradosh. Mintaqaning sharqida-Xitoy va Osiyo Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari; janubida Afg'oniston, G'arb va shimalida-Kavkaz, Turkiya, Yevropa, Rossiya joylashgan. Bu borada O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday deydi: "Biz Rossiya, Xitoy, Hindiston, SHarq va G'arb mamlakatlarini bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari yuzaga chiqadigan mintaqaning bir qismimiz. Aslida shakllanib kelayotgan lekin juda kuch qudratli, XXI asrning qiyofasini shubhasiz belgilab beradigan bu kuch markazlari ana shu mintaqada o'z manfaatlarini izlaydi"¹. 90-yillarning boshlarida ko'plab xorijiy siyosatshunoslar Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlarning jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirib borishlari yo'lidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan milliy totuvlik va iqtisodiy islohotlarni o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlar o'tkazish borasidagi qobiliyati va imkoniyati etarli emasligi borasida pessimistik fikrlar bildirdilar².

Mustaqillikni qo'lga kiritgan Markaziy Osiyo respublikalarini bugungi kundagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanishlari va ularning geosiyosiy holatlari, shuningdek, xavfsizlik qirralari o'zaro mos tushadi. SHu bois, Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy muhitning o'zaro ko'rib chiqilishiga quydagи to'rt mezon sabab bo'lishi mumkin:

¹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизлика таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.12.

²Касенов У. Окажется ли Центральная Азия в водовороте геополитически игр // Азия, январь 1999. –С.3.; Солодовников С. Центральная Азия. Геополитические контуры. // Международная жизнь. –1993. –№3. – С.12.

Birinchidan, bugungi kunda davlat xavfsizligining mintaqqa xafsizligi darajasigi ko‘tarilganligi;

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari bir-biri bilan tarixiy, diniy, ma’naviy va madaniy jihatdan yaqinliklari;

Uchinchidan, iqtisodiy jabha, ya’ni Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy tomondan rivojlanishi shu davlatlarning o‘zaro iqtisodiy integrasiyasini mumkin qadar takomillashtirishni talab qiladi;

To‘rtinchidan, iqtisodiy omillardan kelib chiqqan holda, Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro hamkorligi jahon davlatlarida qiziqish uyg‘otmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari integrasiyasi quyidagi afzallikkarga ega:

- mintaqaning energetik, mineral va qishloq xo‘jaligi
- mahsulotlarining deyarli barcha turlari bilan ta’milanganligi;
- katta ilmiy-texnikaviy ishlab chiqarish va ekspert salohiyatiga egaligi;
- qulay geosiyosiy holatga egaligi;
- ishchi kuchining arzonligi;

-suv va boshqa tabiiy xom ashylardan o‘zaro va umumiy foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minalash imkoniyatlari.

Markaziy Osiyoning hozirgi davrdagi geosiyosiy ahamiyatini belgilovchi omillarning ikkinchi guruhini mintaqaning taraqqiyotiga g‘ov bo‘layotgan omillar, tahdidlar tashkil etadi. Ular jumlesi-ga quyidagilar kiradi:

Xalqaro terrorizm. Siyosiy terror uzoq tarixga ega. Ammo u hech qachon hozirgidek dunyo miqyosida xavf tug‘dirmagan edi. Agar ilgari u muayyan davlat bilan bog‘liq bo‘lsa, endilikda trans-milliy, haqiqatdan ham xalqaro ahamiyat kasb etdi. Boz ustiga, u muayyan hukumatga emas, balki terrorchilik tashkilotlari rahbarlarining e’tiqodlariga qo‘shilmagan barcha mamlakatlar va kuchlarga dushman sifatida qaramoqda O‘tmishda terrorizm muayyan siyosiy arbob hayotiga qasd qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, «yangi terrorizm»ga «yumshoq nishonlar» - aholi to‘planadigan yaxshi himoyalanmagan ob’ektlarga hujum qilish xosdir. U muayyan siyosiy vazifani bajarishga harakat qilmaydi. Uning maqsadi - jamiyatni, butun dunyoni dahshatga solish, odamlar orasiga qo‘rquv, tahlika urug‘ini sochish.

Diniy ekstremizm. Afsuski, ko‘pgina nohukumat tashkilotlari va Markaziy Osiyo tadqiqotchilari diniy ekstremizm bilan xalqaro terrorizm o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘rmayaptilar. «Xizb-ut-tahrir» harakati ekstremistik xususiyatga ega ekanligini tan olgan holda, ular bu harakatni «mohiyatiga ko‘ra zo‘ravonlik ishlatishga asoslanmagan, terrorchilik tadbiralariga aralashmaydi va o‘z g‘oyalari tarqatish bilan mashg‘ul» deb hisoblamoqdalar. Vaholanki, yoshlар ongini diniy adovat g‘oyalari bilan zaharlash terrorchilik tashkilotlariga safarbar etish uchun «resurs» tayyorlashdan boshqa narsa emas. Diniy ekstremizm ildizlarini aniqlash,

uni «oziqlantiruvchi» omillarni topish hozirgi kunda muhim muammolardan biridir.

Markaziy Osiyo hududida yuzaga kelgan ekologik muammolar ham tashvish uyg‘otmasdan qolmaydi.

Markaziy Osiyodagi ekologik muammolar qo‘yidagilardan iborat:

Orol dengizining qurishi (Qozog‘iston, O‘zbekiston);

Sarez ko‘lidagi (Tojikiston) dambaning yorilishi ehtimoli;

O‘tgan yillar mobaynida yadro va atom sinovlari, hamda qayta ishlangan radiaktiv moddalar chiqindilari (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston);

Suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik;

Atrof – muhitga suv omborlarining va gidroelektrostansiyalarining salbiy ta’siri (Qirg‘iziston, Tojikiston).

Orol dengizining qurishi va yo‘q bo‘lib ketayotganligi mintaqqa uchun ekologik fojia bo‘lmoqda. CHunki, hozirgacha bir avlod ko‘z o‘ngida bitta dengizning yo‘q bo‘lib ketish holati yuz bergani yo‘q. Orol dengizining qurishi va natijada tabiiy landshaftning buzilishi mintaqaning Orolbo‘yi atrofida ekologik xavfli hududni vujudga keltirdi. Orol fojiasining oqibatlarini chang va tuz bo‘ronlarining vujudga kelayotganligi, Orolbo‘yi va undan ham keng hududlarga yoyilayotgan cho‘llashuv jarayoni mintaqqa iqlimi va landshaftining keskin o‘zgarishida kuzatishimiz mumkin. 35 mln.dan ortiq odam bu fojianing salbiy oqibatlari jabrdiydasiga aylangan.

O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyo bo‘lib, mamlakatning hayotiy muhim manfaatlari bu mintaqqa bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoga oid siyosatining asosiy yo‘nalishlari – mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashdan, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etish, jumladan, Tojikiston xamda Afg‘onistondagi vaziyatni izga tushirishga ko‘maklashishdan, transchegaraviy suv havzalarining resurslaridan foydalanish masalalarini hal etilishidan, chegaralarni delimitasiya va demarkasiya qilish jarayonlarini tugallashdan, ekologik barqarorlikni ta’milanishidan, transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurash borasida samarali chora-tadbirlar ko‘rishdan, barcha qo‘sni mamlakatlar bilan o‘zaro yaqin, manfaatli va amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. O‘zbekiston o‘zining yaqin qo‘snilari bilan munosabatlarda doimo ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat yuritish tarafdori bo‘lib qoladi, mintaqadagi barcha dolzarb siyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolar o‘zaro manfaatlarni hisobga olgan holda, amaliy muloqot va xalqaro huquq normalari asosida hal qilinishini yoqlaydi. O‘z manfaatlari va xalqaro tashabbuslarini ilgari surishda parlamentlararo hamkorlikdan foydalanish xalqaro amaliyotda keng

tarqalgan bo‘lib, ko‘pgina mamlakatlar parlamentlari ushbu amaliyotni samarali qo‘llab kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o‘z faoliyatining ilk yillaridan boshlab AQSH, Yevropa va Osiyoning ko‘plab davlatlari milliy parlamentlari bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda.

Milliy-hududiy chegaralash va uning oqibatlari: O‘zbekistonda milliy siyosatning asosiy tamoyillari.

Panislomizm va panturkizm kabi g‘ayri sovet loyihamalar tug‘dirayotgan potensial xavfning oldini olishni maqsad qilgan sovet rahbariyatining intilishi – miliy hududiy chegaralanish o‘tkazilishining bosh sababidir. Sovet rahbariyatining maqsadi “Buxoro”, “Turkiston” va “Xiva” kabi nomlarni esdan chiqarish edi, chunki bu nomlar mintaqaga aholisining siyosiy sodiqligini ifodalovchi va tub aholi orasida qonuniy deb hisoblanuvchi davlat ramzlari edi. Ko‘p millatli va polietnik Turkiston, Buxoro va Xiva davlatlari o‘rnida O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston avtonom sovet respublikasi (O‘zbekiston tarkibida), Qoraqalpoq avtonom viloyati va Qoraqirg‘iz viloyati kabi milliy sovet sosialistik respublikalari tashkil etildi.

Milliy-hududiy chegaralanish XI asrdan beri O‘rta Osiyoda tanho hukmronlik qilib kelgan turkiy sulolalarni tiklash rejalarini yo‘qqa chiqardi. Eng asosiysi, u panturkizmga qaqshatqich zarba berdi. Turkiy birdamlik milliy respublikalarga bo‘lib tashlanishidan tashqari mintaqada yagona turkiy bo‘lmagan respublika – Tojikiston paydo bo‘ldi.

Stalin nasional-kommunistlarning O‘rta Osiyoda yagona Turk respublikasini yaratish talabiga xilof ravishda turkiy xalqlar birdamligiga nifoq solish va sovet tuzumiga zid bo‘lgan yagona turk davlatiga qarshi kurashish maqsadida “oriylar hududini” tashkil etdi. 1924 yilda o‘tkazilgan milliy hududiy chegaralanishning oqibatlari ana shundan iboratdir. Milliy chegaralanish g‘oyasi Markaz tomonidan loyihalashtirildi va amalga oshirildi. O‘rta Osiyo xalqlari “Oktyabr farzandlari” deb e’lon qilindi hamda bundan buyon o‘zining qaror topishi uchun bolsheviklar va ruslar oldida qarzdor edi. Shoshma-shosharlik bilan belgilangan chegaralar va sovetlarning bundan buyongi siyosati tojiklar, o‘zbeklar va boshqa xalqlarni tinch qo‘snilardan murosasiz raqiblarga aylantirib qo‘ydi. Iqtisodiyot markazlashtirilgan va xalq xo‘jaligi taqsimlangan sharoitda mintaqaning milliy namoyondalari taqchil resurslar va Kremlning lutfiga sazovar bo‘lish uchun bir-birlari bilan jiddiy kurashga kirishdi.

1924 yilda Tojik respublikasi tashkil etilishi bilangina tojiklarda birlashish g‘oyasi bilan sug‘orilgan millatparvarlik shakllandi. Aynan o‘shanda tarkibida talaygina sobiq jadid panturkistlari bo‘lgan Tojikiston rahbariyati Xo‘jand okrugi, Buxoro, Samarqand va ayrim boshqa hududlarga da’vo bilan chiqib, O‘zbekiston SSRga hududiy e’tirozlarini bildirdi. Qariyb 10 yil davom etgan milliy hududiy

chegaralanish chog‘ida bolsheviklar mintaqaning xalqlari o‘rtasida nizo urug‘ini sochish hamda yangi paydo bo‘lgan respublikalarda cheksiz hokimiyatga ega bo‘lish maqsadida chegaralarni noto‘g‘ri belgiladi, anklavlар, babs-munozarali uchastkalarni tashkil etdi. Bunday siyosat Qadimgi Rimning “bo‘lib tashla va hukmronlik qil” usuliga o‘xshar edi va ayni vaqtda Xitoyning Shinjon hududida yuritilayotgan “varvarlarni varvarlar yordamida boshqar” siyosatini eslatar edi

Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi o‘zaro aloqalarga rahna solayotgan muammolar qatorida hali aniqlanmagan chegaralar va etnik anklavlар sanaladi. Qирг‘изистон hududida joylashgan O‘zbekistonning ikki yirik anklavlari So‘x va Shohimardon masalasi bot-bot bahsu munozaralarga sabab bo‘ladi. O‘zbekistonda esa Qирг‘изистонга tegishli Barak qishlog‘i bor. Ikki mamlakat fuqarolari o‘zaro chegaralardan o‘tib-qaytishda turfa va asosan sun’iy mushkulotlarga duch kelishadi. Ikki davlat chegara hududlarida yashovchi aholi so‘nggi yillar mulozimlar bu kabi chegara mushkulotlarini engillashtirish o‘rniga qaytaga yana ham og‘irlashtirayotganlari haqida aytadilar.

2001 yilda O‘zbekiston va Qирг‘изистон o‘z hududlaridagi qog‘ozda bir-biriga qarashli bo‘lgan hududlarni birato‘la almashtirish yo‘li bilan hal etishga harakat qilishgani ma’lum. Ammo turfa sabablar bilan bu masala hal bo‘lmay qolgan. Toshkent va Bishkek o‘zaro kelisha olishmagani aytildi. Avvaliga hukumatlararo komissiya qariyb 20 ta qishloq joylashgan So‘x anklavini O‘zbekistonning asosiy hududi bilan birlashtirish va evaziga So‘xning janubiy qismini Qирг‘изистонга o‘tkazib berishni taklif qilgan. Lekin Qирг‘изистон mulozimlari bu yerlar dehqonchilikga yaroqli emas, hamda shunday almashtirish oqibatida Laylak va Botken tumanlari mamlakat hududidan ajralib qoladi, degan xavotirlar bilan mazkur taklifdan voz kechgan.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo‘yicha ulkan kelishuvlarga erishildi. 2016 yilning avgustidan 2018 yil iyul oyiga qadar O‘zbekiston hukumati delegatsiyasi qo’shni mamlakatlar bilan jami 63, jumladan Qozog‘iston bilan 17, Qирг‘изистон bilan 27, Tojikiston bilan 9, Turkmaniston bilan 9 va Afg‘oniston bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2017 yil 5-6 sentyabrь kunlari Bishkek shahriga uyushtirgan davlat tashrifi davomida “O‘zbekiston va Qирг‘изистон o‘rtasidagi davlat chegaralari to’g‘risidagi shartnoma” imzolanishi chegarani delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegaraoldi muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shartnoma doirasida chegaraning 80 foizdan ziyod qismi belgilandi.

Bundan tashqari, 2017 yilning noyabr oyida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston tomonidan Davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududi haqida

shartnoma imzolandi. Ushbu shartnomaning imzolanishi Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasidagi davlat chegarasini xalqaro-huquqiy rasmiylashtirishning bosqichlaridan birini to'la yakunlash imkonini beradi hamda uch mamlakat o'rtasida o'zaro hurmat, suveren tenglik va hududiy yaxlitlikni mustahkamlashda mustahkam asos yaratadi. Joriy yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Dushanbega uyuştirgan tashrifi doirasida "O'zbekiston-Tojikiston davlat chegarasining ayrim uchastkalari haqidagi shartnoma" imzolandi. Mazkur hujjat tomonlarga chegaralarning ilgari delimitatsiya qilinmagan 99,9% uchastkalari bo'yicha kelishib olishlari imkonini berdi. Bularning barchasi ikki tomonlama munozarali masalalarning hal etilishigina emas, butun mintaqaga kun tartibidan jiddiy nizoning olib tashlanishi va siyosiy ishonch darajasining oshishidir.

Tasdiqlangan xalqaro hujjatlarga ko'ra 2017 yil 5 sentyabr kuni Qirg'iziston poytaxti Bishkek shahrida ikki mamlakat rahbarlari tomonidan imzolangan. Ko'rsatilgan Shartnoma qoidalari bilan Davlat chegarasining 1 170,53 km (uning 1 370 km dan ortiq umumiy uzunligining 85%) tavsiflandi. 2021 yil ikki davlat Prezidentlari Toshkentda uchrashib, chegara demarkasiyasi va delimitasiyasini oxiriga yetkazdilar.

Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligi va integrasiya masalalari. (KShT, ShHT masalasi).

Milliy manfaatlarni ta'minlashning geosiyosiy jihatni davlat ravnaqi va rivojlanish strategiyasini belgilashda: iqtisodiy, siyosiy, madaniy, harbiy, demografik, etnik, milliy, tarixiy, ma'naviy, sotsiomadaniy, axborot bilan bog'liq omillar hamda resurslarni tabiiy - geografik holat bilan bog'lash zaruratini taqozo etadi.

Har qaysi davlat konkret tarixiy bosqich, o'z taraqqiyoti va barqarorligi manfaatlari, milliy-tarixiy xususiyati hamda qadriyatlaridan kelib chiqib, uzoq va yaqin istiqbolda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalarni belgilaydi.

O'zbekiston uchun Prezidentimiz tomonidan belgilangan asosiy vazifalar - ustuvorliklar quyidagilar:

- siyosiy va iqtisodiy erkinlashtirish;
- jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish;
- zamon talabi darajasida kadrlar tayyorlash;
- xalqning turmush darjasini oshirish;
- iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar;
- barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlik, sarhadlarimiz va hududimiz daxlsizligini ta'minlash.

Zikr etilgan va ongli fuqaro uchun muqaddas bo‘lgan doimiy maqsadlarni amalga oshirish uchun milliy manfaatlар strategiyasi belgilanadi va o‘z dolzarblii, darajasiga qarab ularni jahonda quyidagicha toifalash qabul qilingan.

Hayot-mamot manfaatlari:

mustaqillikni, demokratik dunyoviy milliy davlatni saqlab qolish; jamiyatning barcha sohalarida erkinlashtirishni izchillik bilan amalga oshirish; millatlar va fuqarolararo totuvligini ta’minlash; ichki va tashqi tahdidlarning har qanday turiga munosib javob; topishga qaratilgan tegishli muassasalarning tayyorgarlik qobiliyatini keskin oshirish; ichki va tashqi tahdidlarga etarli zarba berish uchun mintaqadagi va boshqa manfaatdor davlat bilan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish, ya’ni hamkorlik va hamjihatlikda harakat qilish; Manfaatlarning bu toifasini odatda millatni, davlatni asrab qolishga bo‘lgan mavjud bevosita tahdidlar bilan bog‘lashadi.

Milliy xavfsizlik sohasidagi yagona davlat siyosatida quyidagilar nazarda tutiladi:

O‘zbekiston Respublikasining jahon xamjamiyatidagi o‘rnini va rolini belgilash; O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari va ustuvorliklari tizimini belgilash; milliy xavfsizlikka ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash hamda ularga baho berish; milliy xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish uchun davlat va jamiyatning real imkoniyatlari va resurslarini aniqlash hamda ularga baho berish; milliy xavfsizlikni ta’minlashning strategik vazifalarini belgilash va ularni ro‘yobga chiqarish mexanizmlarini ishlab chiqish; Ø milliy xavfsizlikni ta’minlash tizimini takomillashtirish va tegishli qonunchilik bazasini yaratish.

Mintaqaviy xavfsizlik. Mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- **milliy darajada**, davlat miqyosida harbiy-siyosiy vaziyatni nazarda tutadi;
- **mintaqaviy darajada**, harbiy-siyosiy sohadagi hamkorlik mintaqaviy darajada amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi;
- **xalqaro darajada** BMT, boshqa xalqaro tashkilotlar va institutlarning xalqaro xavfsizlikni ta’minlash va hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishtirok etish.

Milliy darajada. Milliy daraja Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi harbiy qurilish bilan bog‘liq. Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgan

paytlaridan xalqaro terroristik tashkilotlarning real tahdidlariga to‘qnashdi. Mintaqamiz tabiiy resurslarga boy, bu yerda ko‘plab mamlakatlar va butun mintaqalar rivojiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot salohiyati mavjud. Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik o‘choqlariga tutash bo‘lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro‘y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta’sirini his etmoqda. Demak, davlat harbiy tashkilotining o‘z maqsadiga muvofiq harakat qilishga shayligini saqlab turish talab etiladi.

Mintaqaviy darajada. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etish, shu jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatni tartibga solishga ko‘maklashish, transchegaraviy suv oqimlari resurslaridan foydalanish masalalarini hal etish, chegaralarni delimitasiya va demarkasiya qilish jarayonlarini tugallash, ekologik barqarorlikni ta’minlash, favqulodda vaziyatlarga hamda tabiiy va texnogen xususiyatdagi transchegaraviy tahdidlarga e’tibor qaratish; ekstremizm, terrorizm, uyushgan hamda transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashishda o‘zaro hamfikrlik va amaliy hamkorlikni mustahkamlash; mintaqa davlatlari o‘rtasida harbiy sohadagi hamkorlikni kengaytirish, ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash.

Xalqaro darajada. Xalqaro xavfsizlikni ta’minlash va hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarida ishtirok etish; manfaatdor mamlakatlar bilan strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish va saqlab turish; ommaviy qirg‘in quollarini tarqatmaslik borasidagi global sa’y-harakatlarga ko‘maklashish; ekstremizm va xalqaro terrorizm ko‘rinishlarining oldini olish va ularga chek qo‘yish; xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish.

Tashqi va ichki xavf. Mintaqa davlatlarining umumiyligi tashqi harbiy xavfi quyidagilar: milliy chegaralar yaqinida harbiy nizolarning mavjudligi; tashqi kuchlarning buzg‘unchi elementlardan foydalangan holda mintaqa davlatlarining ichki ishlariga aralashuvi; mintaqa davlatlarida xalqaro terroristik va radikal tashkilotlarning faoliyati.

Umumiyligi ichki harbiy xavf: mintaqaning ayrim davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy noturg‘unlik; mintaqaning ba’zi bir davlatlarida noqonuniy qurolli birlashmalarning faoliyati; terroristik aktlar yoki boshqa qonunga xilof qo‘poruvchilik harakatlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan quollar, o‘q-dorilar, portlovchi va boshqa moddalarining noqonuniy aylanishi.

Kollektiv Xavfsizlik to‘g’risidagi Sharhnomasi (KXSh) – a’zo davlatlar joylashgan mintaqalarda tinchlik va barqarorlikni, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, ushbu davlatlar mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini kollektivlik asosida himoya qilish maqsadida 1992 yil 15 may kuni tuzilgan xalqaro mintaqaviy harbiy-siyosiy tashkilot. Tashkilotning oliy organi

Kollektiv xavfsizlik kengashi sanalib, ushbu kengash tashkilotning Bosh kotibini tayinlaydi.

Toshkent pakti 1992 yil 15 may kuni imzolash uchun ochiq deb e'lon qilinib, Armaniston, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari tomonidan kelgusida amal qilish muddatini uzaytirish imkonи bilan imzolangan hujjat hisoblanadi.

Ushbu paktni 1993 yil 9 sentyabrъ kuni Gruziya, 24 sentyabr kuni Ozarbayjon, 31 dekabr kuni esa Belorus respublikalari ham imzoladi. Besh yil muddatga mo'ljallangan Toshkent shartnomasi 1994 yil 20 aprel kuni kuchga kirdi.

Shartnomaga a'zo davlatlar xalqaro munosabatlarda kuch qo'llashdan yoki kuch qo'llashni tahdid qilishdan saqlanish, shuningdek, o'zaro munosabatlar va boshqa davlatlar bilan munosabatlarda yuzaga keladigan ixtilofni harbiy bo'limgan vositalar bilan hal etish majburiyatlarini ma'qud topishdi.

Shartnomaga a'zo biror-bir davlat boshqa a'zo davlatga qarshi qaratilgan harbiy ittifoqlar yoki davlatlar turkumiga a'zo bo'lmaydi yoxud bunday mazmundagi biron-bir tadbirda ishtirok etmaydi.

Shartnomaga a'zo davlatlar o'z manfaatlariga daxl qilayotgan xalqaro xavfsizlikka doir barcha masalalar bo'yicha konsultatsiyalar olib borib, o'z pozitsiyalarini muvofiqlashtiradi. Shartnomaga a'zo bitta yoki bir nechta davlat xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetiga yoxud xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solingan hollarda, tomonlar darhol o'z pozitsiyalarini muvofiqlashtirish va yuzaga kelgan tahdidni bartaraf etish maqsadida birgalikdagi konsultatsiyalar «mexanizmi»ni ishga solishadi.

Shartnomaga a'zo davlatlar Kollektiv xavfsizlik kengashini tuzishadi. Ushbu Kengash Shartnomaga a'zo davlatlar rahbarlaridan tashkil topadi. Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Birlashgan Qurolli Kuchlari oliy bosh qo'mondonini tayinlashadi.

Agar Shartnomaga a'zo birorta davlatga biror-bir boshqa davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan tajovuz qilinsa, bunday harakat Shartnomaga a'zo barcha davlatlarga qarshi uyushtirilgan tajovuz sifatida ko'rildi. Shartnomaga a'zo davlatlarning biror biriga tajovuz uyushtirilgan holda barcha boshqa a'zo davlatlar ushbu davlatga zaruriy yordam, shu jumladan, harbiy yordam ko'rsatishadi, shuningdek, BMT Nizomining 51- moddasiga muvofiq, kollektiv mudofaa huquqini amalga oshirish tartibida o'z ixtiyorida mavjud vositalar bilan qo'llab-quvvatlashadi.

Shartnomaga muvofiq, unga a'zo davlatlar tomonidan olib boriladigan birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish va ta'minlash mas'uliyati Shartnomaga a'zo davlatlarning Kollektiv xavfsizlik kengashi va ushbu davlatlar tomonidan

tuziladigan idoralar zimmasiga yuklanadi. Tilga olingan idoralar tuzilgunga qadar Sharhnomaga a'zo davlatlar qurolli kuchlarining faoliyatini muvofiqlashtirish mas'uliyati Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Birlashgan Qurolli Kuchlari Bosh qo'mondonligi zimmasiga yuklanadi.

Tajovuzni bartaraf etish maqsadlarida ishtirokchi davlatlar qurolli kuchlarini qo'llash borasidagi qaror ishtirokchi davlatlar rahbarlari tomonidan Sharhnomaning 3- moddasiga muvofiq qabul qilinadi. Qurolli kuchlar Sharhnomaga a'zo davlatlar hududidan tashqarida faqat BMT Nizomi va ishtirokchi davlatlarning milliy qonun hujjatlariga qat'iy amal qilingan tarzda, xalqaro xavfsizlik manfaatlaridagina qo'llaniladi.

Sharhnomada 1994 yil 20 apreldan kuchga kirgan. Sharhnomada 5 yilga mo'ljallangan bo'lib, uzaytirilishi ko'zda tutilgandi. 1999 yil 2 aprelda Armaniston, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston prezidentlari sharhnomani yana besh yil muddatga uzaytirish to'g'risidagi protokolni imzoladi, ammo Ozarboyjon, Gruziya va O'zbekiston sharhnomani uzaytirishni istamadi va tashkilotdan chiqib ketdi.

2006 yil 16 avgustda O'zbekiston KXShT tarkibiga qaytadan kirdi. 2012 yil 28 iyunda esa Toshkent KXShTga a'zoligini to'xtatib turishini bildirdi. KXShTning maqsadi sharhnomaga a'zo davlatlarning hududiy-iqtisodiy makonini har qanday tashqi siyosiy tajovuzlardan hamda yirik miyyosdagi tabiiy ofatlardan birgalikda armiya va boshqa yordamchi bo'linmalar yordamida himoya qilish hisoblanadi. KXShT yagona harbiy-siyosiy ittifoq sifatida jangovar operatsiyalarda hech qachon ishtirok etmagan.

KXShT pozitsiyalarini kuchaytirish uchun Markaziy Osiyo mintaqasida tezkor harakatlanuvchi kollektiv kuchlar islohoti o'tkazilmoqda. Bu kuchlar o'nta batalbondan iborat: uchta batalbon Rossiyaga, ikkitasi Qozog'istonga tegishli, qolgan davlatlar bittadan batallonga ega. Kollektiv kuchlar shaxsiy tarkibining soni 4 ming kishiga yaqin bo'lib, uning 10ta samolyot va 14ta vertolyoti Rossiyaning Qirg'izistondagi aviabazasida joylashtirilgan.

ShHT. O'zbekiston umumiy xavfsizlik doirasidagi turli tashkilotlarga a'zo bo'lgan. Xususan, 2001 yil 14-15 iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tdi. Uning ishida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov qatnashdi va O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonot imzolandi. O'zbekistonni Shanxay forumiga kirish munosabati bilan uning nomi Shanxay hamkorlik tashkiloti – ShHT deb o'zgartirildi. O'zbekiston uning asoschilaridan biri bo'ldi. 2001 yil iyunda bo'lgan sammit yakunida ShHT tuzish to'g'risida deklaratsiya hamda terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi Shanxay konvensiyasi imzolandi. Bu bilan Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga rasman asos solindi.

Deklaratsiyada ShHTning maqsadi, a'zo mamlakatlarni bir-biriga o'zaro ishonchi, do'stlik va qo'shnichilikni mustahkamlash, ular orasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ta'lim, energetika, transport, ekologik va boshqa sohalardagi samarali hamkorlikni rag'batlantirishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan.

Yangi tashkilotning maqsad va tamoyillarini e'lon qilgan Deklaratsiya, shuningdek, terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. 2002 yil 6-7 iyun kunlari ShHTga a'zo mamlakatlar davlatlari boshliqlarining Sank-Peterburg shahrida navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining Deklaratsiyasi, tashkilotining ta'sis hujjati – ShHT Xartiyasi, ShHTga a'zo davlatlar o'rtaida mintaqaviy antiterror tuzilmasi haqidagi bitim imzolandi. Xartiya imzolanishi bilan ShHT doirasidagi tashkiliy, huquqiy ishlar nihoyasiga etdi. ShHT ochiq tashkilot bo'lib o'zaro ishonch, tenglik, manfaatdorlik, hamjixatlik tamoyillari asosida faoliyat yuritmoqda.

2004 yil 17 iyun kuni Toshkentda ShHTga a'zo davlatlarning samimi bo'lib o'tdi. Unda ikki asosiy masala - xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Sammitida 2004 yil mart oyida O'zbekistonda sodir etilgan terrorchilik harakati na faqat O'zbekiston balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni izdan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Butun dunyoda terrorchilik kuchayib, yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo bo'lganligi, terrorchilarining bazalarini yo'qotish, odamlarni ongini zaharlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta'kidlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirish mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bu jarayonni yechimi sifatida quyidagilarni taklif etdi:

1. Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayrboshlash hajmini oshirish hamda kooperasiyani mustahkamlash.
2. Mintaqaning tranzit-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirish.
3. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash.
4. Davlat chegaralarini delimitasiya va demarkasiya qilish jarayonini tezda va uzil-kesil yakuniga yetkazish.
5. Mintaqada suv resurslaridan adolatli foydalanish.
6. Madaniy-gumanitar aloqalar, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik.

Bu dolzarb masalalarining yechimi mintaqada harbiy-siyosiy vaziyat barqarorligining shakllanishiga yordam beradi.

Afg'on muammosining vujudga kelishi. Afg'oniston Islom Davlati. Osiyoning janubi-g'arbiy qismida, O'rta Sharqda joylashgan davlat. Shimolda Turkmaniston (744 km), O'zbekiston (137 km) va Tojikiston (1206 km), g'arbda - Eron, janubda va sharqda - Pokiston, Hindiston va Xitoy bilan chegaradosh. Davlat chegarasining uzunligi 5529 km. Maydon - 652,2 ming kv. km. Aholisi - 35,4 milliondan ortiq kishi. Mamlakatda 30 dan ortiq til va lahjalar mavjud. Rasmiy tillari - Pushtin va Dari. Dindorlarning aksariyati (98%) musulmonlardir, shu jumladan. Sunniylar - 80%, shialar - 18%. Poytaxti Qobul shahri.

Markazlashgan Afg'oniston milliy davlati 1747 yilda paydo bo'lган. Loyi Jirg'ada (parlament) Afg'oniston shohi deb e'lon qilingan Abdali pushtin qabilasining xoni Ahmad Sadozay tomonidan tashkil etilgan (an'anaviy afg'on yig'ilishi, qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi). Qabila zodagonlari va eng yuqori ruhoniylar ovoz berishgan. Shoh bo'lgandan keyin Ahmad Sadozay o'zining Abdali qabilasini Durrani (marvarid) deb o'zgartirdi. Ushbu qabilaning yangi nomiga ko'ra butun davlat o'z nomini oldi - Durrani davlati (ba'zan uni imperiya deb atashgan). Qandahor uning poytaxtiga aylandi.

Durrani davlatining qulashi Buyuk Britaniyaning mustamlaka ekspansiyasi uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Afg'oniston erlarini keyinchalik Markaziy Osiyoga kirib kelish uchun tramplin sifatida ishlatish maqsadida, inglizlar XIX asr davomida ikki marta. Afg'onistonni bosib olib, Hindistondagi mulklariga qo'shib olishga harakat qildi.

Birinchi marta (1838-1842) ingliz qo'shinlari Qandahor, G'azni va Qobul shaharlarini egalladilar. Bunga javoban mamlakatda inglizlarga qarshi xalq urushi boshlandi. Bosqinchi qo'shinlar tarqab ketishdi, ularning qoldiqlari Qobulni tark etishdi. 1842 yilda amalga oshirilgan jazo ekspeditsiyasi ham behuda tugadi va inglizlar mag'lubiyatini tan olishlari kerak edi.

Mag'lubiyatga qaramay, Angliya Afg'onistonni mustamlaka mulki bilan bog'lash urinishlaridan voz kechmadi. Ikkinci Angliya-Afg'on urushi (1879-1880) ham Qandahor va Qobulni olish bilan boshlandi. 1879 yil may oyida Qobul amiri Yoqubxon inglizlar bilan shartnoma tuzishga majbur bo'ldi, unga ko'ra Qobul amirligi va aslida butun Afg'oniston Buyuk Britaniyaga qaram bo'lib qoldi. Bu aholining g'azabini qo'zg'atdi va yana Angliyaga qarshi urush boshlandi. 1880 yilda birlashgan afg'on otryadlari Mayvand yaqinida (Qandahor yaqinida) ingliz brigadasini mag'lub etdi va inglizlar tomonidan qo'lga kiritilgan Qobulni qamal qildi. Voqealarning bunday o'zgarishi Buyuk Britaniyani Afg'onistonni bosib olishdan voz kechishga va Qobul amiri bilan murosa qilishga majbur qildi.

Afg'oniston ichki ishlarda mustaqilligini saqlab qoldi, ammo tashqi siyosat Angliya nazorati ostiga o'tdi.

Afg'oniston oxirgi 100 yillikdagi dunyodagi notinch va bu notinchlik doimiy davom etgan davlatlardan biridir. Afg'onistondagi harbiy-siyosiy inqiroz va Tojikistondagi barqarorlikning yo'qligi to'laligicha Markaziy Osiyoning barqarorligiga ta'sir etmay qolmaydi¹. 1880-1901-yillarda Afg'oniston haqiqiy mustaqil davlat sifatida tarixida birinchi va oxirgi (hozircha) marta o'z siyosatini yurgizdi. Lekin bu holat uzoqqa cho'zilmadi, albatta. Uning Yevrosiyo qit'asining qoq markazida joylashganligi va qudratli imperiyalar orasida siqilib qolgani bu mamlakatning fojeali taqdiriga sabab bo'ldi desak adashmaymiz. Afg'onistonning geografik joylashuvi va xalqining xarakterli jihatlari Markaziy Osiyodagi ishlarda shunday siyosiy ahamiyatlilik berish mumkinki, uni deyarli maqtab ko'rsatishning iloji yo'q.

XIX-asrga kelib Afg'oniston dunyodagi ikki eng qudratli imperiyalar o'rtasidagi raqobat qurboni bo'ldi. Buyuk Britaniya o'zining dunyo dengizlaridagi hukmronligi bilan qudratli bo'lsa, Rus imperiyasi quruqlikdagi gegemonlikka da'vogar edi. Ruslarning asosiy maqsadi Hind yerlariga yo'l ochish bo'lsa, Buyuk Britaniyaliklar Ruslarning kuchayib ketishini oldini olishga Usmoniyalar Imperiyasi bilan birqalikda tish-tirnoqlari bilan harakat qilishayotgan edi. Ruslarning O'rta Osiyoda mustahkam o'rnashib olishmaganidan foydalangan Buyuk britaniya Afg'onistonga birinchi qadamni qo'yadi.

1914-yildagi 1-jahon urushining boshlanishi bilan, bu strategik o'yinlar ikki davlatning ham kun tartibidan olib tashlandi. Urushdan so'ng Buyuk Britaniya o'zining "Dengizlar Qiroli" mavqeini butunlay yo'qotdi, Rus imperiyasi esa inqirozga yuz tutib, "oktabr inqilobi" natijasida mamlakatni Kommunistlar o'z nazorati ostiga oldilar. Birinchi jahon urushi va ikkinchi jahon urushlari orasida Buyuk Britaniya urushdan ko'rgan talofatlarni qoplash va iqtisodiy depressiyadan chiqish bilan ovora bo'lib qoldi, Sovet Ittifoqida esa butun tuzimni o'zgartirish uchun reformalar bo'lib o'tdi. Xullas, Afg'oniston shu davrda o'z holiga tashlab qo'yildi. Bu bir tarafdan Afg'onistonning mustaqil davlat sifatida yashab turganiga imkon yaratgan bo'lsa, boshqa tarafdan Afg'onistonning dunyodan batamom uzilib qolishiga sababchi bo'ldi. Natijada Afg'on jamiyatni ilgarigidan ham ko'proq konservatorlik xususiyatini o'zida mujassam qila boshladi, afg'on diplomatiyasi esa deyarli yo'qlikka yuz tutdi.

Xalqaro munosabatlarda bugun konsensusning "Afg'oniston varianti" ham paydo bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Konsensusda "afg'on variant"ning xarakteri shundan iboratki, unda tomonlar kelishivi yuzakichilikka asoslanib,

¹ Каримов И. Узбекитан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. – М.: Дрофа, 1997. – С.25.

amalda o‘z bilgan yo‘llaridan qolishmaydi. Shuning uchun ham Afg‘onistondagi guruhlar o‘rtasidagi shu vaqtgacha imzolangan yoki kelishilgan bitimlar rasmiy va nazariy jihatdan benuqson bo‘lishi mumkin, biroq ularning amaliyotga yaramayotganligini afg‘on fojeasining serqirraligini ko‘rsatib turibdi¹.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng dunyo xaritasi keskin o‘zgardi. Oldingi qudratli davlatlar bo‘lmish Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya xalqaro maydonda o‘rinlarini AQSh va Sobiq Ittifoqga bo‘shatib berdilar. AQSh shu davrgacha o‘z qobig‘iga o‘ralish siyosatini olib borib, xalqaro o‘yinlarda deyarli qatnashmas edi, qatnashsa ham uning hududi Lotin Amerikasi va Tinch okeanidan chetga chiqmagan edi. Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng esa Sobiq Ittifoqning ulkan sotsialistik mamlakatlarga asos solishi uni o‘zining odatiy siyosatini xalqaro imperializm doktrinasiga o‘zgartirishga majbur qildi.

1947-yilda Hindiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Buyuk Britaniyaning va boshqa Yevropa davlatlarining Osiyodagi mustamlakalarini qo‘ldan berishlari Sobiq Ittifoq uchun o‘zining gegemonligini mustahkamlab olish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. 1940-yilda Xitoyda communistlarning hokimiyatga kelishi va Xitoyning Sobiq Ittifoq bilan tuzgan ittifoqi, tarixdagи eng katta va davomiy (hudud jihatdan) yagona ideologiya ostida birlashgan ittifoqni yaratdi. Sharqiy Yevropadan, Shimoliy Koreyagacha, Shimoliy Muz okeanidan Vietnamgacha bo‘lgan yaxlit hududni egallagan communistlar bloki, Yevropaliklarga va Amerikaliklarga katta qo‘rquv tug‘dirgan edi. Sovuq urush davomida AQSh va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari bu blokning nozik joylarini axtarishar edi. Bu strategik doktrinani amalga oshirishda Afg‘oniston va Pokistondagi nozik siyosiy ahvol va separatizm G‘arb davlatlari yumushlarini birmuncha yengillashtirdi. “Uchinchi dunyo mamlakatlarining ko‘p qismi tarixga shunday bo‘lib kirdiki, ular ko‘p yillar davomida nizolar hududi bo‘lib qoladilar”².

Sobiq SSSR davlatini Afg‘onistonga bostirib kirishi va fojeani boshlanishi

“Sovuq urush” davrida AQSH Sovet orbitasiga tushib qolishidan himoya qilishga harakat qildi. Richar Nikson vitse-prezident bo‘lgan vaqtida 1975-yilda Afg‘onistonga tashrif buyurdi, Prezident Ezinhofer esa 1959-yilda mazkur davlatga o‘z safarini amalga oshirdi. Prezident Kennidi 1963-yilda Zohir Shohni AQSHga taklif qildi. AQSH Sovetlar bilan kurashish uchun qishloq xo‘jaligi bo‘yicha va boshqa sohalarda ko‘mak berishga harakat qildi³.

¹ Жумаев Р., Убайдуллаев В. Конфликтология асослари. –Т.: Академия, 2000. –Б.127.

² Fukuyama. F. The End of History?// The National Interest. – New York, 1989. – № 16, Summer. – P.15.

³ Kenneth Katzman Afghanistan: Post-Taliban Governance, Security, and U.S. Policy. – New York: Congressional Research Service, 2013. – P.14.

1979-yil 27-dekabrda Sovet Ittifoqining Shtorm-333 operatsiyasi uyushtirildi. 27-dekabr og‘ir kun bo‘ldi. O‘sha vaqtida 105-bo‘linmaning bir qismi Qobulda o‘z strategik nuqtalarini egallashdi, boshqa qismlar esa janubiy Qobuldagি Darulomon qasrini o‘rab olishdi. Bu voqeadan bir necha kun oldin Afg‘onistondagi general-leytenant Paputin xavfsizlikni bahona qilib Aminni bu yoqqa kelishini maslahat qilgandi.

Sobiq Ittifoqga sodiq bo‘lgan va Pragadagi elchilik vazifasidan Afg‘onistonga kelgan Babrak Karmal prezidentlik lavozimiga o‘tkazildi. Karmal barcha a’loqlarda oddiy Ittifoq qo‘g‘irchog‘i bo‘lib qoldi. Islohotlarga va ko‘pgina hibsga olinganlarning ozodlikka chiqarilishiga qaramay, aholi B. Karmalni qo‘llab-quvvatlamadi. Aksincha, bosqinchilarga qarshi kurashga odatlanib qolishdi va uni yoqtirmay qo‘yishdi.

1979 yil 28-dekabrda Sobiq Ittifoq o‘z harbiy qismlarini Afg‘onistonga kiritdi. Tez orada bu qo‘shinlar soni 85 ming kishiga yetdi. Jahan jamoatchiligi Sobiq Ittifoqning bu harakatini qattiq qoraladi. Ayni paytda sovet – amerika munosabatlari yanada keskinlashdi. 1982-yildan Jenevada bu masalada BMT komissiyasi ishladi. Asosan Pokiston hududiga joylashgan muxolifatchi kuchlari AQSHning zamonaviy qurollari bilan qurollantirildi. Sobiq Ittifoq qo‘shinlari Afg‘onistonda 10 yil turdi va harbiy operatsiyalarda qatnashdi. Biroq u himoya qilgan rejim hech nimaga erisha olmadi. Xo‘s, nega shunday bo‘ldi? Chunki Afg‘oniston hukumati sovet nusxasidagi jamiyatni qurmoqchi bo‘lgan edi. Afg‘onistonda bunday jamiyatni qurishning esa iloji yo‘q edi. Ikkinchidan, afg‘on xalqi ko‘z o‘ngida yangi hukumat ateistik davlat armiyasini o‘z davlati hududiga kiritib katta gunohga botgan edi. Bunday hukumatni qo‘llash esa undanda katta gunoh bo‘lar edi. Shu tariqa Sobiq Ittifoq Afg‘onistonda harbiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Buni yaxshi anglab yetgan M.S. Gorbachyov Sobiq Ittifoq armiyasini Afg‘onistondan olib chiqib ketishga qaror qildi. 1989-yilning fevral oyida bu vazifa amalda bajarildi. Sovet hukumati Afg‘onistonga jami 600 ming askar olib kirgan bo‘lib, shundan 15 mingdan ortiq sovet jangchilari halok bo‘ldi.

1989-yil 15-fevralda Sobiq Ittifoq qo‘shinlarining Afg‘onistondan olib chiqib ketilishi urushni to‘xtatmadidi. Muhammad Doud (1974-1978 yy.) islohotlari davrida mamlakatda iqtisodiy hayot prinsplarining demokratik-burjua shakllari va ijtimoiy tabaqlanish vujudga keldi.

AQSHning SALT-2 shartnomasini imzolashdan bosh tortishi va G‘arbiy Yevropadagi AQSHning ballistik raketalaring o‘rnatalishi Sovetlarda G‘arb dunyosi bilan hech qanday kelishuvga erishib bo‘lmaslik taasurotini keltirib chiqardi. Sobiq Ittifoq quolsizlanish bo‘yicha G‘arb bilan baravarlikni tasdiqlaydigan muzokaralar olib borish va bitimlar tuzishdan ayniqsa

manfaatdordir, deb ta'kidlangan. Lekin, AQSHning hukmron doiralari xuddi shunday baravarlik, tenglik bilan kelishishni xohlamayaptilar, o‘z muskullarini ishga solish vaqtি keldi deb hisoblashmoqdalar. 1981-yil 1-yanvarda “Washington post” gazetasi “AQSH siyosatining o‘nlab ijodkorlari”dan intervyu olib: “Amerikaning hech bir hukumati hech mahal tenglikni e’tirof etishga tayyor turgan emas” deb yozdi¹.

1988-yil 14-aprelda Gorbachev BMT yetkazilgan qo‘sishnlarni olib chiqib ketish (Jeneva sulhi)ga rozi bo‘ldi. Mamlakatni Najibulloning kuchsiz hokimiyatiga qoldirib, qo‘sishnlarni olib chiqib ketish 1989-yil 15-fevralgacha to‘la amalga oshirildi².

1989-yilda Sovet Armiyasi Afg‘onistonni tark etdi. 10 yillik urush davomida Afg‘oniston deyarli butunlay vayron qilindi, mamlakat tashqi kuchlarning ta’siriga to‘laligicha tushib qoldi. Sovetlarning urushi Afg‘onistonni islomiy radikallashgan kuchlarning markaziga aylantirdi, ayniqsa bu hududda giyohvandlikni rivojlanib, narkotik tarqatadigan davlat bo‘lishiga olib keldi. Afg‘onistondagi bunday notinchlik va ahvolning murakkabligi uning joylashgan o‘rni bilan bog‘liqdir. 1980-yillarda bu hudud G‘arb va Sobiq Ittifoq o‘rtasidagi raqobat maydoni bo‘lsa, Sovet Ittifoqi parchalangandan so‘ng bu hudud islom dinining turli mahzablari orasidagi raqobatning va Afg‘onistondagi millatlar orasidagi kurashning qurboni bo‘ldi.

Sobiq Ittifoqning 1979-1989-yillardagi harbiy aralashuvi mamlakatdagi mavjud qarama-qarshilikni kuchaytirib o‘zining negativ rolini ijro etdi. Hamma oqibatlarni faqatgina sovetlarning aralashuviga bog‘lash juda ham oddiy qaror. Afg‘onistonning inqirozli statusining doimiy shakllanib qolishi oldinroq yuz bergen tarixiy rivojlanish natijasidir. “Bizning harbiy qarshiligidan ruslarning harbiy bosqinidan keyin emas, Doud hukmronligi davridan boshlangan”, - deb ta’kidladi Gulbuliddin Hekmatyoy³.

Afg‘onistondagi mojaroni rivojlanishi davrida tashqi kuchlarning ustuvor yo‘nalishlari evolyutsiyasi (1990-2020). XX asrning ikkinchi yarmida dunyoning ikki tizimi qarama-qarshiligi sharoitida Afg‘oniston geopolitik kurash obyekti bo‘lishda davom etdi. “Katta o‘yin” asosiy o‘yinchining almashishi bilan boshlandi, bu yerda va boshqa ko‘plab geopolitik teatrlardagi kabi Buyuk Britaniyaning o‘rnini AQSH egalladi⁴.

¹ Ovinnikov.R. Maxfiy xavfli siyosat. –T.: O’zbekiston, 1983. – B.41.

² Kenneth Katzman Afghanistan: Post-Taliban Governance, Security, and U.S. Policy. – New York: Congressional Research Service, 2013. – P.3.

³ Спольников В. Н. Афганистан: исламская контрреволюция. – М.: Наука, 1987. – С.28.

⁴ Афганистан и безопасность Центральной Азии. Вып. 1/ Под ред. А.А. Князева. – Бишкек: Илим, 2004. – С.3.

Najibullo hukumatining qulashidan keyin hukumat mujohidlar partiyalari o‘rtasida tashlab qo‘yildi. Kichik partiya (Afg‘on Milliy Liberal Front)ning rahbari, islomiy olim Sibhatullo Mujadeddi 1992-yil aprel may oyigacha mamlakat prezidenti bo‘ldi. 1992-yil boshida Qobul partizanlar tomonidan egallandi va 50 ta boshqaruv kengashidan tashkil topgan yangi hukumat tuzildi. Asosiy partiyalar o‘rtasidagi kelishuvlar natijasida 1992-yil iyun oyida Rabboni presidentlik lavozimini egalladi. U mamlakatni 1994-yil dekabr oyiga qadar boshqardi. Siyosiy hokimiyat yaxshi vakilsiz qulashini aytib, u o‘sha vaqtida iste’foga chiqishni rad etdi. Bu qaror mujohid liderlariga, shu jumladan, pashtun va konservativ islomiy partiya hisoblangan Hezb Islom partiyasining rahbari Gulbuddin Hekmatyorga ham qarshi qaratilgan edi. G‘olib partizanlar birlasha olmasligi ayon bo‘ldi va partizan kuchlari rahbari Gulbuddin Hekmatyor yangi hukumatga qarshi kurashni boshladi. Turli fraksiyalar o‘rtasida kurash davom etayotgan vaqtida Afg‘oniston har qaysi o‘zining boshqaruvchisiga ega bo‘lgan bir necha mustaqil mintaqalarga bo‘linib ketdi. Hekmatyor va turli ittifoq fraksiyalari Rabboniyni qulatish uchun kurash boshladilar. Agar Hekmatyor Qobulning g‘arbiy qismini vayron qilgan o‘qqa tutish ishlarini to‘xtatsa, Rabboni uni primer ministr bo‘lishiga rozilik bildirdi. Biroq, Hekmatyorning Rabboniyga nisbatan ishonchsizligi sababli u Qobulda bu lavozimni egallahini hechqachon taxmin qilmagan edi.

1994-yil boshlarida islom fundamentalist talabalarning Pashtun harbiylari, ya’ni Tolibonlar katta kuch sifatida vujudga keldi. 1996-yil 23-iyunda Florensiyada Yevropa Ittifoqiga (YI) a’zo mamlakatlarning davlat va hukumat boshliqlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Birinchi Prezidentimiz I.Karimov afg‘on muammosini tartibga solishda YIni faol ishtirot etishga chaqirgan¹edi.

1996-yil boshlarida Tolibonlar Afg‘oniston boshqaruviga ega bo‘lish uchun harakatni davom ettirayotgan bir vaqtida Rabboniy Hekmatiyorni bosh vazir etib tayinlash bo‘yicha hujjatni imzoladi. Sentabrda Tolibonlar Qobulni egalladilar va o‘zlarini Afg‘oniston Islom Amirligining qonuniy hukumati deb e’lon qildilar. Ular o‘zlarini egallab turgan mamlakatning uchdan ikki qismida islom qonun-qoidalarining qisman puritan (puritanlar ingliz XVI-XVII asrlardagi Protestantlarining mashhur guruhlari. Puritanlar bu ma’noda 1558-yildagi Elizaveta I ning ruxsatidan keyin ruhoniylarning Angliya cherkovini o‘z ichiga olgan harakat sifatida Marian surgunlarlaridan tashkil topgan)² shaklini joriy qilishdi.

1998-yil avgustda Tolibonlar butun mamlakatni boshqaruvini qo‘lga olish arafasida turib qolgan bir vaqtida 1998-yilda AQSHning Kenya va Tanzayadagi

¹Акмалов Ш. Национальная стратегия Республики Узбекистан в вопросах мирного урегулирования афганского конфликта. –Т.:2009. –С.14.

² <http://en.wikipedia.org/wiki/Puritan>

elchixonalarini portlatgan, Saudiya Arabistonida tug‘ilgan Tolibonlarning harbiy yetakchisi Usama bin Lodenning terroristik harakati AQShni diqqatini poytaxt Qobulga qaratdi. 1999-yil mart oyida BMTning tinchlik kelishuvi xati Tolibonlar va ularning asosiy dushmani bo‘lib qolgan etnik tojik va sobiq mujohidlar rahbari va Shimoliy Ittifoq kuchlari rahbari Ahmad Shoh Mas’udga yetkazildi. Noyabr oyida BMT Afg‘onistonga iqtisodiy sanksiyalar qo‘lladi; 2000-yil dekabrda BMT sanksiyalarga qo‘shimcha ravishda Tolibonlarga qurol-yaroq sotishni ta’qiqlovchi sanksiya ham joriy qildi.

2001 yilga kelganda Tolibonlar davlatning deyarli 90 % ini o‘z nazoratlari ostiga olishdi. Sentabr oyida Shimoliy Ittifoq rahbari Mas’ud arab junalisti sifatida niqoblangan yollanma qotil tomonidan o‘zini portlatishi natijasida halok bo‘ldi. Mazkur hujumdan ikki kun o‘tib, AQSH prezidenti tomonidan bin Lodenning hibsga olinishi talabi javobi sifatida Tolibonlar tomonidan egizak Dunyo Savdo Markazi binosi va Pentagon binosi portlatildi.

2001-yil 11-sentabrdan keying haftalarda AQSH hukumati terroristik harakatga Usama bin Lodenning Al Qoida guruhi javobgar ekanligini ta’kidladi. Al Qoida Afg‘onistoning Tolibonlar nomi bilan mashhur eng ashaddiy islomiy hukumati tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, ma’qullangan va mamlakatdan bohpana bergen. Prezident Bush Tolibonlardan bin Lodenni topshirishni va Al Qoida guruhini bo‘lib tashlashni talab qildi¹.

Qachonki Tolibonlar bin Lodenni topshirishdan bosh tortishgandan so‘ng AQSH 2001-yil oktabrida Tolibon va Al Qoida kuchlariga (bin Lodenning tashkiloti) qarshi harakatlarni boshladi. AQSH shunigdek, Shimoliy Ittifoq va boshqa oppozitsion guruhlarga moliyaviy ko‘mak berishni ham boshladi. Barcha jihatlar bo‘yicha vaziyat ancha yomon edi. Mamlakatga joylashtirilgan 20 ming amerikalik harbiylarning shaxsiy tarkibi tinch aholi xavfsizligini ta’minalash uchun emas, balki bin Lodenni va toliblarni qidirishga tashlandi. Amerikalik harbiy qismlardan tashqari mamlkatda Xalqaro ISAF² ning Qobul atrofida joylashtirilgan 6500 kishilik tarkibi va Qunduzda joylashtirilgan 250 kishilik Germanianing harbiy xizmatchilari mavjud edi³.

¹ www.choices.edu -U.S. Policy in Afghanistan

² Izoh –“International Security Assistance Force” (ISAF) NATO rahbarligida 2001-yil dekabr oyidagi Birlashgan Millatlar Xavfsizlik Kengashining 1386-rezolyutsiyasi tomonidan asos solingan Afg‘onistondagi xavfsizlik missiyasi.

³ Izoh –Harbiy xizmatchilar, ijtimoiy sohadagi ishchilar, injenerlar, shifokorlar va mintaqalarga yuborilgan davlat departamenti vakillaridan iborat bo‘lgan Birlashgan mintaqaviy qo‘mondonligini (JRT) tuzish, AQSH qo‘mondonligi fikri bo‘yicha, Hamid Karzayga uning hokimiyatini Kobul chegaralariga yoyish uchun yordam edi. JRTni butun mamlakat bo‘ylab joylashtirish ko‘zda tutildi – jumladan, Bomiyon, Mazori-Sharif, Hirot, Gardez, Jalolobod va Qandahorda. Ularning tuzilishi 2003-yil bahorida boshlandi. AQSHning Iroqqa hujumi arafasidagi Afg‘onistonning turli mintaqalariga JRT ning joylashtirish qarori amerikaliklarning Afg‘onistonni tashlab chiqib ketmoqchi emasligini ham namoyon qilardi.

So'nggi yillarda ro'y bergen voqealar Afg'oniston Markaziy Osiyoning uzviy qismi ekanligini yana bir karra tasdiqladi. Geosiyosiy nuqtai nazardan bu yerda Afg'oniston uchun ham, mintaqaning boshqa mamlakatlari uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lган mushtarak jarayonlar va tendentsiyalar ro'y bermoqda. Buning isboti tariqasida Afg'onistondagi mojaroni tartibga solishga xalqaro hamjamiyatni jalb qilishda muhim rol o'ynagan tuzilma - 6+2, 6+3, 5+1 guruhlarining eng faol a'zolari Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSh, Rossiya davlatlari bo'lganini eslashning o'zi kifoya deb o'ylaymiz.

Ushbu guruhning mohiyat e'tiborli anjumani 1997 yil Toshkentda bo'lib o'tdi. 90-yillar oxirida quvg'inda bo'lган afg'on arboblari - qirol Zokirshoh tuzgan «Rim guruhi» a'zolari Hamid Karzay, eng obro'li harbiy komandirlardan biri Abdulhaq Toshkentda ma'naviy va siyosiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi Afg'onistondagi «Tolibon» harakatiga qarshi kuchlarni birlashtirishda muhim omil bo'ldi. 2001 yil 11 sentyabr voqeasidan so'ng xalqaro terrorizmga qarshi ittifoqning shakllanishida Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lган Markaziy Osiyo mamlakatlari, avvalo O'zbekiston muhim rol o'ynadi. Bu mamlakatlar toliblar tuzumini va «Al Qoida» terroristik tashkilotining Afg'onistondagi tarmog'ini tormor keltirgan harbiy kuchlar harakatining yagona zonasiga aylandi. Afg'oniston qiroli Zokirshoh 2002 yil boshida 30 yillik quvg'indan so'ng o'z vataniga aynan Toshkent orqali qaytib keldi. Bu ikkala mamlakat ham bir geosiyosiy makonga mansubligining o'ziga xos ramzi bo'ldi.

O'zbekiston va Tojikiston delegatsiyalarining taklifiga ko'ra 2002 yil dekabrda Porto shahri (Portugaliya)da Afg'onistonga Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining hamkor maqomi berildi. O'zbekiston rahbariyatining taklifiga ko'ra Hamid Karzay 2004 yil iyunda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Toshkentda bo'lib o'tgan sammitida ishtirok etdi. Bularning barchasi Afg'oniston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida ro'y berayotgan jarayonlar doirasiga jalb qilinganligidan dalolat beradi¹.

Xalqaro ahamiyatga molik tahdidlar va xavfsizlik muammolari ham shubhasiz umumiyl xususiyatga ega. Markaziy Osiyoning narkobiznes bilan shug'ullanadigan barcha korchalonlarini birlashtiruvchi va Afg'onistonda giyohvandlik moddalarini keng miqyosda yetishtirishga asoslangan narkobiznesning yagona tarmog'i buning yorqin dalilidir. Bu ofatni biron-bir mamlakat yolg'iz yenga olmaydi. Muammoning yechimi butun mintaqa mamlakatlari bahamijhat harakat qilishini taqozo etadi. Mintaqada ekstremistlar va terrorchilar tashkilotlari o'rtasida aloqa va o'zaro yordam yo'lga qo'yilganligi ham shubhasizdir. O'zbekiston islom

¹ Сафоев С.С Марказий Осиёдаги Геосиёсат. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, Ташкент – 2005. 42-43бетлар.

harakatining asosiy kuchlari aynan Afg'oniston hududida jangari guruhlarga birlashgani va o'qitib-o'rgatilgani tasodifiy hol emas.

Geografik, etno-lingvistik va madaniy jihatlar Afg'onistonga Markaziy Osiyoning uzviy qismi sifatida qarash imkonini beruvchi muhim omillar hisoblanadi. Mintaqa mamlakatlarini umumiyl foydalanishdagi daryolar, yagona tizma tog'lar birlashtiradi. Afg'oniston aholisining katta qismini Markaziy Osiyo davlatlarining titul millatlari hisoblangan etnik guruhlar – tojiklar (Afg'oniston aholisining 27%), o'zbeklar (10%) va turkmanlar (3%) tashkil etadi.

AQSHning Afg'nistonni tark etishiga bir qancha faktorlar ta'siz ko'rsatdi.

Birinchidan, AQSHning bu mamlakatdagi harbiy harakatlari unga qarshi munosababni kuchaytirdi. AQSHning mazkur mamlakatdagi harbiy harakatlarning 9-yili butun mamlakat bo'ylab unga qarshi munosabatlar kuchayib ketdi.

Ikkinchidan, Afg'onistondagi muammo noharbiy yechimlarni talab etmoqda. Afg'oniston dunyoning to'rtinchi qashshoq davlati hisoblanadi, bunga 30 yillab davom etgan urush va uning oqibatlari sabab bo'ldi.

Uchinchidan, AQSH harbiylarining mamlakatdagi mavjudligi Tolibonlar harakatini yanada kuchayishiga sabab bo'ldi.

To'rtinchidan, Afg'onistonning mudofaa va xavfsizlik kuchlarining shakllantirilishi qolmaslik sababidir. AQSH harbiylari va NATO rejalar eng kamida 2-3 yil davomida Afg'on harbiylarini va xavfsizlik kuchlari mashg'ulotlarini davomiyligini ta'minlash. Ular mahalliy mudofaa kuchlarini 300-400,000 ga yetkazish tavsiya qildilar. Biroq Afg'onistonning yillik davlat budjeti 750 million dollarni tashkil qilgan holda, hukumat buncha harbiy xizmatchining oylik maoshini bera olmaydi.

AQSH mudofaa vaziri Leon Panetta va NATOdagi hamkasbi 2014-yildan keyin Afg'onistonda qoladigan harbiylar sonini 8,000 dan 12,000ga oshirishni ko'rib chiqdilar. "Biz Lissabon sammitida kelib oлganimizdek, 2014-yil oxirlariga qadar barcha majburiyatlarimizni to'laligicha Afg'on xavfsizlik kuchlariga topshiramiz. Bizning maqsadimiz o'zgarmaydi"¹.

«Tolibon» harakati 2021 yil iyul-avgust oylarida AQSh o'z armiyasini Afg'oniston hududidan olib chiqish fonida qisqa muddatda, bir necha hafta ichida deyarli butun Afg'onistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Qiziq jihatlaridan biri shuki, AQSh va G'arb davlatlari bu jarayonga deyarli aralashmadi. To'g'ri, ushbu masala bo'yicha BMT Xavfsizlik kengashi yig'ilishi o'tkazildi, G'arb mamlakatlarining ba'zilari o'z tashqi ishlar mahkamalari orqali muammo tinch yo'l bilan hal qilinishi bo'yicha chaqiriqlarini e'lon qilishdi. Lekin real ishlaydigan mexanizmlardan foydalanilmadi. Masalan, AQSh bu jarayonni to'xtatish niyatida

¹NATO Secretary General Anders Fogh Rasmussen, 2 April 2012

bo'lganida «Tolibon»ga nisbatan keskin pozitsiyasini e'lon qilishi va turli sanktsiyalar yoki «Tolibon»ni qo'llab-quvvatlashi gumon qilinadigan mamlakatlarga qarshi iqtisodiy va siyosiy choralar belgilashi ham mumkin edi. Bu esa jarayonni to'liq to'xtata olmasa ham, sekinlashtirgan bo'lardi.

Boshqa tomondan, AQSh o'z harbiylari chiqib ketishini oldindan e'lon qilgandi va bu aynan Jo Bayden administratsiyasining keskin qarori emas, balki federal darajada kelishilgan masala edi.

Pokiston 90-yillarda «Tolibon» shakllanishida katta rol o'ynagan, uning rahbariyatini tayinlash, mafkurasini ishlab chiqishda bevosita ta'sir ko'rsatgan. «Tolibon» paydo bo'lgan davrdan beri 27 yil o'tib ketdi. Hozirgi «Tolibon» o'sha 90-yillardagi kuch emas, ma'lum transformatsiya jarayonlari ro'y berdi. Ular oxirgi paytlarda ko'plab davlatlar bilan rasmiy uchrashuvlar ham o'tkazdi. Shu sabab «Tolibon»ni Pokistonga to'liq bog'lanib qolgan kuch sifatida e'tirof etishmoqda

Ikkinchidan, «Tolibon»ning ichida ham bo'linishlar mavjud. Harakat tarkibida ta'sirga ega bo'lgan rahbariyatdagilar ma'lum hududlarda o'z ta'siri va ofislariga ega. Hozirda ularning tasdiqlanganlari 3ta: Peshavor shu'basi, Kvetta shu'basi (bular Pokistonda) va Mashhad shu'basi (2010 yilda Eron hududida ochilgan).

Bulardan tashqari «Tolibon» ichida harbiy operatsiyalarga javob beradigan, bu ishlarga jalb qilinadigan, Haqqoniy boshchiligidagi guruh mavjud. Bu guruh ham harakat doirasida o'z avtonomiga va so'ziga ega. Ko'pchilik manbalarga ko'ra, aynan Kvetta shu'basi va Haqqoniy boshchiligidagi guruh bevosita Pokiston bilan aloqalar o'rnatgan. Shuni unutmaslik kerakki, «Tolibon» harakati shakllanishidan bugungi kundagi faoliyatigacha Pokiston juda katta ta'sirga ega, lekin uni to'liq nazorat qiladi, degan qarashlarga qo'shilmayman. Sababi, «Tolibon»ning ichida ham bo'linishlar bor, harakat vertikal ierarxiya emas, balki gorizontal ierarxiya. Bu shuni anglatadiki, ma'lum bir rahbariyat bor, lekin ular markazlashtirilgan boshqarish qobiliyatiga ega emas. Umumiylara mafkura va strategiya ishlab chiqiladi, hududlarda uni amalga oshirish bilan joylardagi mahalliy qo'mondonlar shug'ullanadi.

«Tolibon» hali rasmiy ravishda hokimiyatni to'liq olgani ham yo'q. Kobulni egallahdi va de-fakto Afg'oniston hududining 95 foizi «Tolibon» nazoratida. Yuridik jihatdan esa hali ularning hukumati tasdiqlanmadidi, ya'ni olti kishidan iborat o'tish davri hukumati tuzildi. Legitimizatsiya jarayoni to'liq tugamadi.

Nazorat uchun savollar

1. Yangi ming yillikda Markaziy Osiyoda geosiyosiy istiqbollar va xavfsizlik omillarini qanday baholaysiz?
2. O‘zbekistonning ShHTdagi isriqbollari qanaqa?
3. Xavfsizlik deganda nimani tushunish kerak?
4. MDH tashkilotining kuchi boshqa tashkiot bilan qanday farqlanadi?
5. Yangi geosiyosiy aktorlar jarayonda qanday rol o‘ynaydi?
6. Ko‘p vektorli siyosat deganda nimani tushunasiz?
7. Prezident Sh.Mirziyoyev ilgari surgan 6 diplomatiyani ahamiyatini tushuntirib bering?

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Асарлар. 4-жилд, -Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Барков А.В. Проблемь! гармонизации в Евразийском экономическом сообществе. // «Журнал российского права». 2003, № 8.
3. Гафарли М.С., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик тараққиёт асоси. -Т.: Ўзбекистон, 2001.
4. Истомин С.И., Моравек Я.И. Таможенний союз стран ЕврАЗЭС (комментарий в документах). «Экономика», -М.: 2001.
5. Лукин А., Мочульский А. Шанхайская организация сотрудничества: структурное оформление и перспективы развития. - Аналитические записки. -М.: МГИМО, выш. 2(4), февраль 2005.
6. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. Тўлдирилган учинчи нашри. -Т.: Шарқ, 2006.
7. Сафоев С.С Марказий Осиёдаги Геосиёсат. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, Тошкент – 2005. 42-43бетлар.
8. Гуломов С. ва бошқ. Мустақил Ўзбекистон. -Т.: Тошкент ислом университети, 2003.
9. Шишков Ю.В. Интеграционные процессы на пороге XXI века Почему не интегрируются страны СНГ. -М.: 2001. Гл. 7.
10. Юнусова М. П., Мўминов Х. М. Ўзбекистонда геосиёсат ва геосиёсий вазият асослари (Ўқув қўлланма) - Андижон: 2009. 39-40-бетлар

III-BO'LIM. GLOBAL GEOSIYOSIY VOQELIK - XXI ASRNING NAZARIY BILIMLARI

VII-bob. Global geosiyosiy, geoiqtisodiy tuzilmalar va xalqaro munosabatlar

7.1 Global geosiyosiy tuzulmasining shakllanishi: davrlar va modellar

7.2. Zamonaviy jahon sistemasi va uning geosiyosiy vogeligi

7.3. Zamonaviy geosiyosatning tuzilishi va undagi geoiqtisodiyotning o'rni

Tayanch iboralar: *geosiyosiy davrlar, siyosiy model, global lashuv, xalqaro tashkilotlar, geosiyosiy aktorlar, jahon siyosiy sistemasi, jahon iqtisodiy sistemasi, TMK, BMT, KShT, EAII, axborotni global lashuvi, axborotli jamiyat*

7.1 Global geosiyosiy tuzulmasining shakllanishi: davrlar va modellar

Yigirmanchi asrning oxirida shakllangan AQShning norasmiy ustunligi bilan dunyo tartiboti hozirda inqiroz holatida. Mavjud xalqaro institutlar global muammolarni hal qilish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, transmilliy terrorizmga qarshi samarali kurashish va h.k.larda cheklangan qobiliyatlarini namoyish etishdi. Xalqaro aloqalarni rivojlanishida aralash tendentsiyalar mavjud. Avvalo, turli xil aktorlar o'rtasidagi hamkorlik ustunlik qiladi. Shu bilan birga, jahon miqyosida o'z geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarini ta'minlashga intilayotgan bir qator yetakchi davlatlarning raqobati kun tartibida qolmoqda. Dunyoning ayrim mintaqalarida ta'sir doiralarini qayta taqsimlash, strategik resurslar va tovarlar va kapital oqimlarini boshqarish uchun kuchli aktorlar o'rtasida raqobat kuchayishi mumkin. Zamonaviy dunyo tartibini diagnostika qilish va uning rivojlanish tendentsiyalarini proqnoz qilish muammolari ilmiy jamoatchilikda qizg'in muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina mualliflar hozirgi dunyo tartibini aniq belgilashdan qochib, uni "post-bipolyar" deb atashadi. Jahon tartibini geosiyosiy o'lchovda o'rganish juda muhim va zarurdir.

Jahonning bugungi geosiyosiy tuzilmasi shakllangunga qadar insoniyat ming yilliklar bilan o'lchanadigan juda qiyin va chigal tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Ijtimoiy-siyosiy xarakteri, kishilarning moddiy va ma'naviy talablari, ehtiyojlarini qondirish zaruriyatiga bog'liq ravishda insoniy jamiyatlar va birlashmalar orasida turli-tuman munosabatlar maydonga kelgan, qonli urushlar olib borilgan, yirik davlatlar, impyeriylar barpo etilgan, so'ngra bu davlat va impyeriylar qulagan. Shunga qaramay, yer yuzida hayot davom etgan, kishilar eng qiyin sharoitlarga moslashgan, ulardan qutulishning turli yo'llarini izlagan, oldinga harakat qilishga, yangi-yangi manzilgohlar – qishloqlar, shaharlar va mamlakatlarni bunyod etishga qodir bo'lgan. Albatta, kishilar uzoq vaqt bir-biridan ayri-ayri holda, o'zaro aloqa qilmasdan yashay olmagan. Shuning uchun ham manzilgohlar muqarrar suratda

bir-biri bilan turli-tuman aloqaga kirishgan, savdo qilgan, urushgan va sulk tuzgan, bo‘lg‘usi munosabatlar borasida muayyan shartlar qo‘ygan va kafolatlar olgan. Bularning hammasi bugungi kunda xalqaro munosabatlar sistemasi deb ataladigan voqelikning kurtaklari edi.

Geosiyosat fanining paydo bo‘lishi bilan tadqiqotchilar uning ob’ekti va predmeti borasida har xil fikrlar va nazariyalarni ilgari sura boshladilar, jahonning kun sayin o‘zgaradigan makon konfigurasiyasini (geosiyosiy tuzilmasini) va uning asosida amalga oshiriladigan davlatlarning siyosatini tahlil etganlar va muhokama qildilar. Insoniyat jamiyatni jahonning geosiyosiy tuzilmasi yoki siyosiy tartibotning turli bosqichlari, sayyoraviy “hayotiy makonlar” ustidan nazoratning shakl va modellari va hokazo masalalarga bevosita qiziqa boshladi.

Agar o‘tgan ikki ming yil ichida yer kurrasining hududi va aholisi xarakteristikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jahon geosiyosiy tuzilmasining dinamikasini va muayyan o‘zgarishlarini aniq-ravshan ko‘rish mumkin. Jahonning aholi yerlashgan hamma hududlari (shaharlar, qasabalar, qishloqlar va boshqalar) quruqlikning atigi ikki foyizini tashkil etadi. Shunga qaramay, XXI asrdan oldinoq kishilar (davlatlar, davlat birlashmalari va shu kabilalar) sayyoraning quruqlik, dengiz, havo va hatto kosmik makonlari ustidan geosiyosiy va geostrategik nazorat o‘choqlarini barpo etishga muvaffaq bo‘lishdi.

Yer kurrasi aholisining o‘troqlashish xarakteristikasi shuni ko‘rsatadiki, taxminan 6 milliard kishining ko‘pchiligi Osiyo, Yevropa va AQSHning shimoliy va janubiy sohillarida yashaydi. Quruqlikning 15 foyizida bir kilometr kvadrat hududga 10 kishi to‘g‘ri keladi. Ayni chog‘da quruqlikning taxminan 50 foyizida bir kilometr kvadratga o‘rtacha bir kishi, quruqlikning 25 foyizida bir kvadrat kilometrga bir kishidan kam to‘g‘ri keladi, quruqlikning 10 foyizi bo‘lsa, umuman, yashashga yaroqsizdir. Vaholanki, o‘tgan ikki ming yil ichida Yerning makon ko‘rsatkichi, aytish mumkinki, deyarli o‘zgarmadi, aholi soni bo‘lsa, 230 milliondan 6 milliard kishiga etdi.

Insonlarning o‘z geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun daryolar va ularning oqimlaridan foydalanishlari jahon geosiyosiy tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatgan dastlabki muhim omillardan bo‘ldi. Shundan keyin kishilarning dengizchilik sirlarini kashf etishlari va dengiz yo‘li ochib byergan imkoniyatlar tufayli foyda olishlari sayyorada navbatdagi geosiyosiy sakrashga, insonlarning yanada kengroq makonlarga chiqishiga sababchi bo‘ldi. Qadimgi dunyoning Bobil, Misr, Rim va Vizantiya impyeriyalari, Karfagen, Hindiston, Xitoy, o‘rta asrlarda Arab xalifaligi kabi davlatlarning suv havzalari va dengiz sohillarida joylashgani jahon geosiyosiy tuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishda dengiz va dengiz naqliyotining rolidan guvohlik beruvchi asosiy dalillardan biridir.

Dengizchilik va dengiz kommunikasiyalarining rivoji dengiz vositasida yangi makonlarni o‘zlashtirish, turli makonlarni birlashtiruvchi yo‘llarni ochish, shuningdek bu yo‘llar ko‘magida ayrim-ayrim mamlakatlar o‘rtasida aloqa yo‘llarini barpo etish va intensivlashtirish uchun sharoit yaratdi.

Boshqa tomondan, dengizga chiqish sayyoraning yagona makonini (hududiy sistemani) yaratib, dengiz davlatlariga uning ustidan nazorat qilishning qo‘sishimcha imtiyozlarini yuzaga keltirdi, savdo yo‘llarini, xususan Yevropadan Hindiston, Sharqiy Osiyo va boshqa makonlarga yo‘l ochish, yangi-yangi savdo shyeriklarini topish va ular bilan aloqa o‘rnatish imkonini byerdi. Usmoniyalar Kichik Osiyo va Suriyani egallab olganlaridan va Yevropaning Sharqqa borish yo‘llarini batamom yopib qo‘yanlaridan keyinoq Yevropa davlatlari Atlantika yo‘nalishida yangi savdo yo‘llarini izlashga kirishgani tasodifiy emas.

XVIII – XIX asrlarda boshlangan sanoat inqilobi, kapitalistik munosabatlar, naqliyot-kommunikasiya vositalarining jadal rivojlanishi, shu negizda xalqlar va davlatlarning dengizga chiqishi ta’milanishi, quruqlik davlatlari o‘rtasida temir yo‘llarning qurilishi va h.k.lar jahoning hozirgi geosiyosiy tuzilmasiga asos soldi. XX asr boshidan katta qit’a makonlarini o‘zlashtira boshlagan AQSH va Germaniya kabi davlatlarning jahon impyeriyalari bilan raqobatga kirishishi, Rossiyaning ulkan hududlar ustidan nazoratni kuchaytirishi, sayyorada geosiyosiy va geostrategik vazifalar va maqsadlarning o‘zgarishi, umuman bashariyatning makon tasavvurlarining o‘zgarishi ayni naqliyot-kommunikasiya inqilobining (ayniqsa, temir yo‘llarning qurilishi) oqibatlari bilan bog‘liq bo‘ldi.

Hind okeani va O‘rta yer dengizini hamda Atlantika va Tinch okeanlarini bog‘laydigan Suvaysh va Panama kanallarining ishga tushirilishi yangi kontinental makonlarga aholini yerlashtirish va Yer kurrasida “yopiq doira”ni yaratish yo‘lidagi eng muhim qadam bo‘ldi.

Aviasiyani barpo etish, insonlarning o‘tib bo‘lmas tog‘lar, dengizlar, okeanlar, botqoqliklar va boshqa tabiiy to‘siqlardan oshib o‘tib, Yerga falakdan boqish imkoniyati yuzaga kelgani jahon geosiyosiy tuzilmasini shakllantirishga va insoniyatning geosiyosiy tasavvurlarini o‘zgartirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan keyingi vosita bo‘ldi. Bularning hammasi buyuk davlatlardan va ularga qarashli geostrategik markazlardan geosiyosiy xavfsizlik muammolariga yangicha yondashuvni ishlab chiqish va bu borada tegishli qadamlar tashlashni talab qildi.

1950 yillardan to 1991 yil oxiriga qadar ikkita harbiy-siyosiy va mafkuraviy blok o‘rtasidagi geosiyosiy, geostrategik va mafkuraviy qarama-qarshilik sharoitida dahshatli global falokat yoqasida turgan insoniyat bu kurashning ehtimol tutilgan oqibatlarini tahlil, tadqiq etish va oldindan ko‘rish yo‘li bilan geosiyosiy tafakkurni rivojlantirishga harakat qildi, bu bloklarning mamlakatlarini xatarli qarama-qarshilikdan voz kechishga chaqirdi. Albatta, o‘lim tahlikasi bilan tahdid

etaryotgan, bashariy falokat keltiradigan bu harbiy-strategik texnologiyalar fonida va jahon sistemasining yangi talablari oldida bir vaqtlar buyuk geosiyosiy kashfiyot hisoblangan “Hartland”, “Rimland”, “hayotiy makon” kabi nazariya va konsepsiylar kulgili bo‘lib qoldi.

Bugun yagona makonga aylangan jahon sistemasi va sayyoraning geosiyosiy tuzilmasi sayyoraviy xavf-xatarlar, texnik va texnologik taraqqiyotga nisbatan taxminan ayni vaziyatda turibdi. Bashariyat barcha geostrategik makonlarga – Yevropa qit’asi, Atlantika Amyerikasiga, Yevroosiyo, Tinch okeaniga va boshqalarga bir xil statusga ega hududlar deb qaraydi, ularni endi markaz yoki viloyat deb hisoblamaydi.

Tarixning har bir muhim bosqichida jahonning geosiyosiy tuzilmalari birmabir almashib turdi, davlatlar va davlat birlashmalari, mintaqaviy va mahalliy tashkilotlar, boshqa geosiyosiy aktorlarning global ta’siri ostida o‘zgardi. Bunday global ta’sirning xarakteri, shakllari va yo‘nalishlari ko‘p jihatdan davlat va davlat birlashmalari ega bo‘lgan strategik kuch-qudratning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadigan geosiyosiy, geografik, tarixiy, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, madaniy, gumanitar va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Jahon sistemasi va uning geosiyosiy tuzilmasi davlatlar va ular tomonidan tuzilgan bloklarning strategik qudrati va geostrategik kuchiga mos ravishda shakllandı, bu sistemada har bir davlatning statusi (sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy iyerarxiyada), uning jahon siyosatidagi o‘rni, moddiy va ma’naviy zahiralar taqsimotidagi roli yozilmagan qonunlar va tarixiy amaliyot asosida belgilandi.

Ilmiy adabiyotlarda tadqiqotchilar jahon sistemasi va uning geosiyosiy tuzilmasini turli-tuman yo‘nalishlarda tasnif etganlar. Shulardan biri bu – *sivilizasiyaviy* yondashuv bo‘lib, bu yondashuv inson jamiyatlari sosiomadaniy sistemalarining tashkiliy tomoni va birligini sivilizasiyaga xos asosini va shaklini nazarda tutadi. Geografik makon tarkibiga ko‘ra sivilizasiyani uch – mahalliy, mintaqaviy va global (masalan, sharq va g‘arb sivilizasiyasi yoki quruqlik va dengiz sivilizasiyasi va h.k.) turga ajratishadi.

Sivilizasiyani iqtisodiy tuzum va xalqning madaniyatidagi farqlariga ko‘ra ham tasnif qilishadi. Masalan, xulq-atvor normalari va an’analarga ko‘ra sivilizasiya tafovutlari aniqlanadi. Kishilarning hayot mazmunini qanday tushunishi, ularning mehnat, hordiq, taqdir, adolat yokiadolatsizlikka munosabatiga qarab sivilizasiyalar o‘rtasidagi farq aniqlanadi.

Keyingi vaqtarda, xususan amyerikalik siyosatshunos S.Xantington 1996 yilda “Tamaddunlar to‘qnashushi va jahon tartibotini qayta qurish” kitobini nashr ettingandan so‘ng jahon sistemasi va uning geosiyosiy tuzilmasining xususiy

nazariy konsepsiysi paydo bo‘ldi. Unga “sivilizasiyaviy yondashuvi” nomi berildi.

Xantingtonning ta’kidlashicha, agar XIX asr insoniyat tarixida makon uchun to‘qnashuvlar asri bo‘lgan esa, XX asr mafkuralar o‘rtasidagi kurash davri bo‘ldi, XXI asr bo‘lsa, tamaddunlar to‘qnashuvi asri bo‘ladi¹. U hozirgi jahon sivilizasiyalarining 6 turini – hinduizm, islom, yapon, pravoslav, xitoy va g‘arb (unga ilova sifatida Afrika va Latin Amyerikasi) sivilizasiyalarini ajratib ko‘rsatgan va yangi ming yillikda ayni mana shu sivilizasiyalar o‘zaro to‘qnashadi, degan fikrni ilgai surmoqda. Muallifning fikricha, insonlarning milliy tafovutlarga qaraganda, sivilizasiya farqlari ancha chuqur, pishiq va barqaror ildizlarga ega va milliy tafovutlarga qaraganda ularni yo‘qotish ancha mushkul bo‘ladi.

Yana bir yondashuv *taraqqiyot* yondashuvidir. Jahon sistemasi va geosiyosiy tuzilmaning yana bir tasnifi mamlakatlarni rivojlanishi va aholisining turmushi darajasiga ko‘ra guruhlash metodologiyasiga asoslanadi. Bu guruhlar tegishli ravishda birinchi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi dunyo deb nomlanadi.

Birinchi dunyo – AQSH, Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, Kanada, Yaponiya va Osiyoning ba’zi mamlakatlari shu guruhga kiritilgan. Bu tasnidfa mamlakatlar iqtisodiy va texnologik taraqqiyoti, kishilarning turmush darajasi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsuloti (YAIM), milliy daraomad hajmiga ko‘ra baholangan.

Ikkinchi dunyo – Yevropadagi sobiq sosialistik davlatlar, Rossiya, sovetlardan keyingi respublikalar, Xitoy, Shimoliy Koreya, Turkiya va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bu guruhga oid.

Uchinchi dunyo – Osiyo, Afrika va Latin Amerikasining 50-yillarda mustamlaka rejimlaridan ozod bo‘lgan va rivojlanayotgan mamlakatlari bu guruhdan joy olgan. Bu mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy hayotining ko‘pgina umumiy jihatlari – qoloq iqtisodiyoti, jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasi rivoji past darajada ekani, qishloq aholisining ko‘pligi, milliy ishbilarmonlikning zaifligi va h.k.larga ko‘ra bir guruhga birlashtirilgan. Odatta, bunday mamlakatlarning davlat boshqaruvida an’anaviy-patriarxal, urug‘chilik elementlari saqlanib qolgandir.

To‘rtinchi dunyo – Afrika, Osiyo, Latin Amyerikasining kambag‘al mamlakatlari – Gaiti, Somali, Habashiston, Sudan, Bangladesh va boshqalar bu guruhga kiritilgan. Agar 80-yillarda ularning soni 47 ta bo‘lgan esa, hozirgi vaqtida 30 taga tushdi. Bunday mamlakatlarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik daromad 500 dollardan kamroqni tashkil etadi.

¹ Хантингтон, С.Столкновение цивилизаций и преобразование мирового порядка // Новая постиндустриальная волна на Западе: антология. – М., 1999. – С. 537.

Yana bir yondashuv ***global*** yondashuvdir. Jahon sistemasi va geosiyosiy tuzilmaning yana bir tasnifiga “*global yondashuv*” nomi byerilgan. Taniqli Amerikalik siyosatshunos va sosiolog U.Vallyerstayn 1976 yilda geosiyosiy tuzilmaning ikkita: jahon impyeriyalari (bir davlat tuzilmasida siyosiy birlashgan turli aktorlar va ko‘pdan-ko‘p hududlar) va jahon iqtisodiy sistemalari (o‘xhash iqtisodiyotini rivojlantirayotgan, lekin siyosiy jihatdan bir davlatga birlashmagan mamlakatlar) shaklini farqlashni taklif qildi¹.

Yana bir yondashuv *markaz-viloyat* deb nomlanadi. Bu yondashuv ham amerikalik siyosatshunos U.Vallyerstayn tomonidan taklif qilingan. U jahon sistemasini barcha mamlakatlar bilan birgalikda uch qism: *yadro*, *yarim viloyat*, *viloyatga bo‘lgan*. Muallif *yadro* guruhiga jahonning eng katta va rahnamo mamlakatlarini: AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Gyermaniya, Yaponiya, Skandinaviya mamlakatlarini kiritgan. Bu mamlakatlarning kapitalizmga o‘tishi boshqa davlatlarga qaraganda ertaroq boshlangan va sanoat inqilobi jarayonida ular kapitalistik sistema rivojining cho‘qqisiga chiqqan. Ayni shu mamlakatlar yuksak texnologiya mahsulotlarini viloyat (pyerifyeriya) va yarim viloyatga eksport qilishadi.

Sanoat jihatidan yetarlicha rivojlangan hamda *yadro* va *viloyat* o‘rtasida joylashgan mamlakatlar bu guruhga kiritilgan. Vallyerstaynnning fikricha, Osiyo, Afrika va Latin Amerikasining kapitalistik taraqqiyot yo‘lini tanlagan, lekin sust rivojlangan, kambag‘al davlatlari shu guruhga oiddir.

Jahonga shakllanayotgan yangi geosiyosiy makon sifatida qaraydigan bu yondashuvga muvofiq, jadal rivojlanayotgan postindustrial Sharq va yuksak darajada rivojlangan g‘arbning transmilliy korporasiyalari bir mamlakat doirasidan chiqib, butun jahon bo‘ylab, o‘zining ta’sir markazlarini bunyod etadi. Bu esa jahon geosiyosiy tuzilmasini shakllantirishga butkul yangicha yondashuvni taqozo qiladi.

Bu yondashuvga muvofiq, jahon to‘rtta yangi geosiyosiy makonga bo‘linadi. Bular – postindustrial Shimol, yuksak darajada industrial rivojlangan G‘arb, jadal rivojlanayotgan Sharq va taraqqiyoti noindustrial turda bo‘lgan va jahonning xom ashyo bazasiga aylangan Janub. Mavjud tafovutlariga muvofiq, bu yondashuv jahonning yangi geosiyosiy sistemasini ikkita asosiy ta’sir doirasiga bo‘ladi:

1) yetakchi davlatlarning boshliqlarining “Katta yettilik” (Rossiya qo‘silganidan keyin u “Katta Sakkizlik”ka aylandi) tipidagi oliy darajadagi uchrashuvlarida qabul qilinadigan muhim strategik qarorlar;

¹ Валлерстайн И. Анализ мировых систем и ситуация в современном мире / Пер. с англ. П.М. Кудюкина; Под ред. Б.Ю. Кагарлицкого. СПб.: Унив. кн. 2001. — 416 с.

2) markazlashgan geosiyosiy mintaqalarning ko‘pdan-ko‘p suveren mayda davlatlarga parchalanib ketishi va jahonda ular geosiyosiy rolining oshishi (SSSR va Yugoslaviyaning qulashi, Falastin davlatining barpo etilishi va h.k.).

Jahon geosiyosiy tuzulmasining davrlari. Dunyoning geosiyosiy manzarasini geosiyosiy davrdan - barqarorroq va harakatchan bo‘lmagan hodisadan farqlash kerak. Bundan tashqari, geosiyosiy davr odatda ochiladi va yopiladi, ya’ni butun dunyo shartnomasi o‘zgarganda umuman yo‘q bo‘lgan keng qamrovli xalqaro shartnoma bilan belgilanadi.

Dunyoning geosiyosiy manzarasidagi o‘zgarishlarga doimiy ravishda (ba’zan faol, ba’zan sust) geosiyosiy jarayonlar xizmat qiladi, ular akkumulyatorlar singari geosiyosiy o‘zgarishlarni to‘plash kabi, jahon tarixining ba’zi bir daqiqalarida butun geosiyosiy manzarasini o‘zgartiradi, yangi xalqaro tizimni joriy qiladi va yangi geosiyosiy davrni ochish bilan yakunlanadi.

Birinchi xalqaro geosiyosiy tizim dunyoning Portugaliya va Ispaniya o‘rtasida mustamlakachilikka bo‘linishi edi (1494 yildagi Tordesilyas shartnomasi), bu Tordesillas geosiyosiy davrining boshlanishini belgilab berdi, bu davrda dunyoning ikkita geosiyosiy rasmlari almashtirildi: birinchisi - qarama-qarshilik va Portugaliya va Ispaniya o‘rtasida dunyoning bo‘linishi;

ikkinchisi - Ispaniya va Gollandiyaning qarama-qarshiligi davri. Portugaliyaning sobiq hukmdorini janubiy dengiz yo‘lini boshqarishdan siqib chiqarishi. Ikkinchisi geosiyosiy davr 1648 yilda Vestfaliya shartnomasi bilan ochilgan va ikkita dunyoqarashni o‘z ichiga olgan. Birinchisi, Angliyaning buyuk kuchlari soniga erishilgan o‘zgarishlarni qayd etdi. Angliyaning Gollandiyaga qarshi kurashi uning mohiyati va konfiguratsiyasini shakllantirdi; ikkinchisi Angliya-Fransiya qarama-qarshiliginini ta’kidladi. Shunday qilib, uchinchi va to‘rtinchi dunyo qarashlari Vestfaliyaning geosiyosiy davrini tashkil etdi.

O‘zgarishlarning navbatdagi davri 1815 yildagi Vena shartnomasida belgilangan yangi xalqaro tizimga olib keladi. Vena geosiyosiy davri dengizda hukmron bo‘lgan Buyuk Britaniya va Rossiya tomonlari yevroosiyo qit’asida raqobatdan iborat bo‘lgan dunyoning beshinchi manzarasıdir. Qrim urushidan so‘ng (1854-1856) dunyo oltinchi manzarasi bilan yetarli darajada namoyish etildi, uning mohiyati yevropaning ko‘p sonli kuchlari bo‘lib, u asta-sekin ettinchiga aylandi: Antanta Uchlik Ittifoqiga qarshi.

Keyingi geosiyosiy davr 1919 yilgi Versal shartnomasi bilan boshlanadi (Versal geosiyosiy davri). Bu yerda ham dunyoning ikki xil manzarasi yaqqol ko‘rinib turibdi. Urush tugaganidan so‘ng g‘olib mamlakatlar: Buyuk Britaniya, AQSh, Frantsiya, Yaponiya davlatlari bo‘lib, Germaniya, Italiya va Rossiya buyuk davlatlar safidan chiqarildi. Avstriya Vengriya va Usmoniyalar imperiyasi siyosiy xaritadan g‘oyib bo‘ldi.

"Ko‘p qutbli" dunyoning sakkizinchi manzarasi 1930 yillarning o‘rtalariga kelib, yakkalangan davlatlar Germaniya, Italiya va Rossiya harbiy va iqtisodiy kuchga ega bo‘lgan paytgacha va dunyo yangi blok konfiguratsiyasini qabul qilgunga qadar sodir bo‘ldi.

Dunyoning to‘qqizinchi manzarasi Fransiya va SSSR tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Antinomintern paktining (Germaniya, Italiya, Yaponiya) va Atlantika shartnomasining (Buyuk Britaniya va AQSh) qarama-qarshiligi edi. Ikkinci jahon urushidan so‘ng, Yaltadagi geosiyosiy davrda ikkita geosiyosiy dunyoqarash mavjud edi.

O‘ninchи geosiyosiy manzarasi - NATO va Varshava shartnomasi tashkil topishi, ya’ni ikki qutbli dunyo qarama-qarshiligini avj olishi, o‘n birinchi manzarasi - yangi “ko‘p qutbli” dunyo tartibi va sovuq urushning tugashidir. Demak, uning harakatlantiruvchi kuchlari geosiyosiy jarayonlar bo‘lgan dunyo zamonaviy davrda va industrializm davrida beshta geosiyosiy davrni yoki dunyoning jami o‘n bir geosiyosiy manzarasini bosib o‘tgan.

Tadqiqotchilar jahon geosiyosiy tuzilmasining shakllanishi va unga asoslangan yuqoridagi modellar ko‘pgina ob’ektiv qonuniyatlar va tabiiy omillarga bog‘liq, deb hisoblashadi. Bular quyidagilardan iborat:

birinchidan, o‘z geosiyosiy maqsadlarini ta’minalash uchun davlatlar va davlatlarning birlashmalari xalqaro maydonda boshqa aktorlar ustidan har tomonlama nazorat o‘rnatishga intildi. Bunda ular o‘z maqsadlariga erishish uchun barcha vositalardan (harbiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va h.k.) foydalandilar;

ikkinchidan, davlatlar va davlatlarning birlashmalari, yetakchi kuch markazlari o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun jahon miqyosida mustamlakachilik, istilo va boshqa aktorlarni nazorat ostida tutish hamda mustamlaka xalqlarini boshqarishning o‘ziga xos, muayyan ma’noda kelishilgan ilmiy-amaliy sistemasini yaratib, sayyora ustidan nazorat o‘rnatdilar;

uchinchidan, xalqaro geosiyosiy tuzilmani shakllantirish, faoliyati va uning ustidan nazorat qilish modellari kuch markazlari va asosiy aktorlar orasida ichki kuchlarni kelishish va zahiralarni bo‘lib olish sistemasiga muvofiq ravishda amalga oshirildi, ichki iqtisodiy, siyosiy va h.k. ta’sir vositalari faoliyatining asosiy qoidalari, normalari va funksiyalari birgalikda boshqarildi.

“Sovuq urush” davrida geosiyosiy munosabatlar. Ikkinci Jahon urushidan keyin BMTning tashkil etilishi, garchi xalqaro munosabatlar sistemasini tartibga solish, birgalikda yashashning madaniy normalarini qaror toptirishda jiddiy omil bo‘lgan esa-da, SSSR va AQSH boshchilik qilayotgan ikki sistema – sosializm va kapitalizm o‘rtasida “kim kimni” tamoyili asosida olib borilayotgan, keyinchalik siyosiy adabiyotlarda “sovuq urush” deb nom olgan kurashni to‘xtata olmadi. Ayni chog‘da 1950-1990 yillarda xalqaro munosabatlarning butun

murakkabligiga qaramay, mahalliy harbiy to‘qnashuvlarni istisno etganda, global urush chiqmagani bu davrning ijobiy tomoni bo‘ldi. BMT va uning Xavfsizlik Kengashining faoliyati, bahsli masalalarining muzokaralar va opyerativ aralashuv yo‘li bilan hal etilishi buning asosiy sababi edi.

1950-1953 yillarda Shimoliy va Janubiy Koreya o‘rtasida chiqqan urush va tegishli ravishda AQSH hamda Xitoy va SSSR o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi xalqaro munosabatlar sistemasining asosiy kafolati sifatida BMTni jiddiy sinovga duchor etgan birinchi hodisa bo‘ldi. Biroq BMTning jiddiy xatti-harakatlari va aralashuvi bilan ziddiyat hal qilindi.

1990 yillarning boshida xalqaro munosabatlar sistemasida juda jiddiy o‘zgarishlar yuz byerdi. Bu vaqtga qadar sistemaning ichki tuzilmasi va xarakteriga muhim ta’sir kuchiga ega bo‘lgan AQSH va uning ittifoqchilarining kuchayishi sharoitida SSSR va uning sosialistik bloki juda keskin inqirozga uchradi. 1945 yildan boshlab ikki blok o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy raqobat ham SSSR, ham uning ittifoqchilarining taraqqiyot potensialini to‘la quritib bitirdi, G‘arb davlatlariga qarshi kurashda to‘la mag‘lubiyatga olib keldi.

Davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni proletar inqilobi tamoyillari asosida olib boradigan sosialistik davlat boshqaruvi, kommunistlarning ichki siyosati jadal halokatga yuz tutdi. SSSR va sosialistik lagyerning boshqa mamlakatlari fuqarolari, milliy, diniy, jamoat va siyosiy tashkilotlari mavjud rejimga qarshi ommaviy harakat boshladи. G‘arb mamlakatlari o‘z aksilsoviet faoliyatida bundan mohirona foydalandilar.

AQSH va uning ittifoqchilar SSSRning kuchsizlanganidan foydalanib, bu vaqtgacha uning geosiyosiy ta’siri ostida bo‘lgan mamlakatlar va mintaqalarning ichki ishlariga aralasha boshladи. AQSH 1990-1991 yillarda sosialistik lagerning arab dunyosidagi asosiy ittifoqchisi bo‘lgan Iroqni tor-mor keltirib, SSSRni Suriya, Jazoir, Misr, Tunis va Liviyan dan asta-sekin siqib chiqara boshladи.

Dunyoning yangi geosiyosiy tuzilishi, bizning fikrimizcha, ba’zi rus va g‘arb tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, 2001 yil 11 sentyabr voqealaridan keyin emas, balki ancha oldin, haqiqiy geosiyosiy falokat - SSSRning qulashi paytida shakllana boshladи. Ushbu falokat shuni ko‘rsatdiki, global jarayonlarni faqat davlatlar orqali o‘tkazish va ularni ko‘qutublilik yoki markaziylilik nuqtai nazaridan tushuntirish mumkin emas. Garchi geosiyosat fanida klassik dominantlarni va yangi geosiyosiy koordinatalar tizimini birlashtirishga urinish mavjud bo‘lsa ham. Ushbu holatga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki global mashinalarning geosiyosiy ilm uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ushbu muammoni muhokama qilish xalqaro munosabatlarning barcha sub’ektlari uchun katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy geosiyosiy maktablar globallashib borayotgan dunyoni turli modellarini taklif qilmoqdalar¹. Biz shularni ba’zilarini tahlil qilib ko’ramiz. Bularnni birinchisi markazlashtiruvchi maktab bo‘lib, u I.Uallerstayn va J. Modelschi tomonidan ishlab chiqilgan “markaz – atrof-muhit” g‘oyasiga asoslanadi. G‘arbiy (dunyo shahri) sub’ektlaridan tashkil topgan jahon siyosiy va iqtisodiy yadrosi asosan g‘arbiy bo‘limgan mamlakatlar tomonidan namoyish etiladigan dunyo periferiyasida (dunyo qishlog‘arida) hukmronlik qiladi va ekspluatatsiya qiladi. Yarim periferiya (kam rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) tarkibiga Sharqiy Yevropa, MDH davlatlari, O‘rta yer dengizi va Yaqin Sharq kiradi.

G‘arbning ustun mavqeい xalqaro kapital ustidan nazorat, texnologik ustunlik va shu kabi ta’sirning davom etishini ta’minlaydigan majburiy ijtimoiy-iqtisodiy tuzulmalar bilan qo’llab-quvvatlanadi. Ushbu tuzilma asosan shtab-kvartirasi G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada joylashgan transmilliy korporatsiyalar (TMK)ni o‘z ichiga oladi. Markazlashgan geosiyosiy modelning rasm diagrammasi 1-shakda.

Yana bir model zonal geosiyosiy model deyiladi, uning namoyondalari jahon qudratining tabiiy markazlarini Shimoliy yarim sharning mo’tadil va subtropik kamarlariga joylashtiradilar. Bunda ular iqlimga dunyodagi geosiyosiy tuzilmalarni belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynashi aniq. Shimoliy Amerika va Yevropa davlatlari, shuningdek, MDH (Rossiya) va Yaponiya eng muhim subyekt sifatida kiradi.

J.Feyrgrevning fikricha, Osiyodagi musson zonasini ham Shimoliy yarim sharning energiya tizimining bir qismi bo‘lishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlari, bir tomondan, shimoliy mo’tadil mintqa (Shimoliy) mamlakatlari boyligi bilan boshqa tomon dan, tropik va ekvatorial yerkarning (Janubiy) boyliklari o‘rtasidagi XXI asrdagi katta farq haqida gapiradi. Bu zamonaviy dunyoning eng asosiya va xavfli bo‘linishini ta’kidlaydigan taniqli Shimol-Janub konseptsiyasini keltirib chiqardi. Siyosiy va iqtisodiy falokatlarning oldini olish zudlik bilan chora ko‘rishni talab qiladi.

Ushbu g‘oyalarning barchasi yangi geosiyosiy xaritalarni tuzishda ishlatilgan bo‘lib, ulardan eng mashhurlari R.Piters tomonidan ishlab chiqilgan. Shimoliy kuchlarga Xitoyni qo’shish G. Kissinger tomonidan "Diplomatiya" asarida tahlil qilingan “beshburchak”ning shakllanishiga olib keladi. Beshburchakni ichki ziddiyatlar bilan parchalanib ketgan, ammo baribir dunyoga nisbatan ustun mavqeni saqlab qolgan ulkan kuch to‘plami sifatida qarash

¹ Геополитика : учеб.-метод. пособие / Л. М. Гайдукевич [и др.]. —2-е изд., перераб. и доп. — Минск : БГУ, 2011. С.60-62

mumkin. Hozirda u barqaror holatda bo‘lib, u ham birdaniga portlashi, yoki barqarorlashishi mumkin.




Рис. 1. Централистская геополитическая модель




Рис. 2. Зональная геополитическая модель

Zamonaviy binaristik modelda (3-rasm) dunyo o‘z navbatida avvalgidek kuch va ta’sirning ikkita asosiy qutblari o‘rtasida bo‘linishi e’tirof etiladi. Binaristlar ta’kidlashlaricha, bu xalqaro munosabatlar tarixida har doim bo‘lgan: Ispaniya - Portugaliya, Buyuk Britaniya - Frantsiya, AQSh - Germaniya, AQSh - SSSR.

Binarizm tarafdarlarining fikriga ko‘ra, muhim "tushuntirish" nazariyasi bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, uning jozibadorligi sharoitga qarab kamayishi yoki ko‘payishi mumkin. Ularning fikriga ko‘ra, bunday holat XXI asrda Xitoyning kuchayishi bo‘lishi mumkin. Masalan, AQSh Milliy razvedka kengashining 2008 yil 20-noyabrdagi hisobotida shunday deyilgan: «Xitoy yaqin 20 yil ichida dunyoga eng katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agar hozirgi tendentsiyalar davom etsa, unda 2025 yilga kelib Xitoy o‘zining iqtisodiy qudrati bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi va yetakchi harbiy kuchga aylanadi ”

Yana bir model zamonaviy marginal nazariyadir. U dunyo geosiyosatining haqiqiy markazi zamonaviy Yevrosiyo hududi bilan chegaradosh ulkan yoyning chetida joylashgan deb hisoblaydi (4-rasm). Marginalistlar “quruqlik va dengiz” dunyosini ikkilamchilagini, uni mavhum va amalga oshirishga qodir emas deb hisoblashadi. Uzoq muddatli istiqbolda, ikkala dunyo ham asosan yoyda joylashgan markazga periferik joylashgan bo‘lib, zamonaviy xalqaro mojarolarning aksariyati butun yoyni (yoki uning bir qismini) o‘zining ulkan aholisi va resurslari bilan boshqarish istagi, shuningdek markaziy geostrategik pozitsiyani egallab keldi.




Рис. 3. Бинаристская геополитическая модель

Yana bir model trinaristik maktabi vakillarini yondoshuvi bo'lib, dunyodagi geosiyosiy makon, hech bo'limganda potentsial jihatdan, ikkita yirik kuch markazlari o'rtasida emas, uchtasi o'rtasida bo'lingan deb hisoblaydilar (5-rasm). Bu marginalistik maktabga ma'lum darajada o'xshashdir. Maktabning farqi shundaki, u strategik muvozanatning bir muncha vaqt saqlanib qolgan makrogenlar o'rtasida mavjudligini tasdiqlaydi. Uch omilli vaziyatning paydo bo'lishi, ikkilik kontseptsiya taxmin qiladigan global bo'linishga reaktsiya sifatida juftlangan kuchlar harakati sahnasida "uchinchi kuch" paydo bo'lishiga olib keladi.

Trinaristlar dunyoni ikkiga bo'linishini oldini olish uchun unga muqobil alternativani taqdim etishadi. Uchinchi markaz kuch bazasini mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan taqdirda, raqib tomonlardan biriga xavf tug'dirishi va, ehtimol, asosiy kuch markazi sifatida o'z o'rmini egallashi mumkin. Binobarin, trinarist konseptsiyasini nafaqat uchta kuch markazlari o'rtasida muvozanatni o'rnatishga urinish, balki ikkilik tizimni o'zgaruvchan kuchlarni siljishlarga moslashtirish usuli sifatida ham ko'rish mumkin. Bu esa yangi hayotni boshlashga imkon beradi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar fanida ular bunday modelning ishlashiga misol sifatida uchburchakni - XXR, Hindiston va Yaponiyada asosiy rol o'ynaydigan AQSh, Yevropa Ittifoqi va APEC¹ni keltirishadi




Рис. 4. Маргиналистская геополитическая модель




Рис. 5. Тринаристская геополитическая модель

7.2. Zamonaviy jahon sistemasi va uning geosiyosiy voqeligi

Hozirgi xalqaro va geosiyosiy munosabatlar juda murakkab sistemaga aylandi. Bu sistema ishtirokchilari soni to'xtovsiz ko'payib bormoqda, ularning qamrov doirasi kengaymoqda. Agar Vestfal sistemasidan XXI asr boshigacha bo'lgan davrda asosan davlatlar va davlat koalisiyalari xalqaro aloqalar qatnashchisi bo'lgan esa, hozirgi bosqichda ularning soni nohukumat tashkilotlari hisobiga bir necha barobar ortib ketdi. Hozirgi vaqtida jahon siyosatida milliy davlatlar bilan bir qatorda xalqaro transmilliy tuzilmalar, hukumatlararo va nohukumat tashkilotlari, davlat ichidagi mintaqalar faoliyat ko'rsatmoqda va ular

¹ Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi

alohida ajralib turibdi. Bu aktorlar XX asr oxiri – XXI asr boshlarida an'anaviy geosiyosiy sub'ektlarni xalqaro hayot maydonidan asta-sekin bir chekkaga surib, ta'sir ko'rsatish va boshqarishning strategik mexanizmlarini egallamoqda va ham ijobiy, ham salbiy (xalqaro terror, narkobiznes, diniy fanatizm va b.) rol o'ynamoqda, milliy davlatlar bilan birga xalqaro munosabatlар, xalqaro huquq va transmilliy globallashuvning asosiy aktorlariga aylanmoqda.

Taniqli siyosatchilar global boshqaruvning maqsadlari, vositalari, mexanizmlarini izlash va yangi dunyo tartibini o'rnatish bo'yicha yangi nazaryalarni yaratishga harakat qilmoqdalar. Bizning dunyomiz hozirgi kunda global terrorizm tarmog'iga o'ralgan va harbiy strateglar dizaynerlari tomonidan oltinchi avlod urushlari - tarmoq urushlarig deb nomlanadigan global jarayonga tayyorlanmoqda. Bunga mos qurollar yaratilishni e'lon qilishmoqda. Shu bilan birga, jahon siyosatida XIX-XX asrlar boshlarida paydo bo'lgan hokimiyat geosiyosatidan o'tish yo'li tobora aniq ko'rinish bormoqda. Mustamlaka kuchlari va jahon urushlari o'rtasidagi dunyoni global geosiyosatga qayta yo'naltirish ishlari olib borilmoqda.

Jahon geosiyosatining tub maqsadida geologik sivilizatsiyalar birligi sifatida global dunyoni yanada rivojlantirishning imperative – “katta makonlar” shakllanmoqda. O'zining butun tarixi davomida geografik determinizm printsipi va siyosiy geografiya metodologiyasiga asoslangan geosiyosat asoslari siyosiy fanlar tizimi doirasida nisbatan avtonom tarzda rivojlanib bormoqda. Dastlab geosiyosat asoschilarining nazariy konstruktsiyalari ancha cheklangan kontseptual apparatga asoslangan edi: ya'ni makon, davlat, hokimiyat, chegara. Geosiyosiy nuqtai nazardan olganda davlatlararo munosabatlarning barcha xilma-xilligi quyidagi fikrlar bilan izohlandi. 1) davlat tirik organizmga o'xshash fazoviy hodisadir. Ushbu fikr tegishli manzaralarni keltirib chiqardi: daraxt (F. Ratzel), inson qo'li (R. Challen), anakonda (A. Mexan); 2) davlatning vazifasi – hudud ustidan kuchli boshqaruv; 3) davlatning geostrategiyasi makonda to'g'ridan-to'g'ri hokimiyatni (harbiy va siyosiy) boshqarish.

Klassik geosiyosat XIX va XX asrlar boshlarida asosiy siyosiy aktorlari suveren davlatlar bo'lgan Vestfaliya dunyosining tuzilishiga mos keladigan nazariy tizim sifatida paydo bo'ldi. XX asr oxiriga kelib dunyo tubdan o'zgardi, chunki davlatlar bilan bir qatorda nodavlat va davlatlararo tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar va geosivilizatsiyalar ham jahon siyosatining aktorlari sifatida harakat qila boshladilar. Siyosiy aktorlarning o'zaro ta'siri siyosiy falsafa, geosiyosiy nazariya va xalqaro huquq assosida birgalikda hal qilishni talab qiladigan bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Bu birinchidan, bu siyosiy aktorlarning xalqaro maydondagi harakatlari uchun javobgarligidir. Chunki ular milliy manfaatlarga zid bo'lishi mumkin. Ular

milliy bo‘lmagan manfaatlarni (transmilliy korporatsiyalar) yoki buzg‘unchi maqsadlarni (xalqaro terroristik tashkilotlar) amalga oshiruvchi sub'ektlar bo‘lishi mumkin;

ikkinchidan, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan ko‘plab va geterogen aktorlarning faoliyati noaniqlik, dunyo siyosiy xaritasining xiralashishi va ularning harakatlarining oldindan aytib bo‘lmaydigan holatini keltirib chiqardi;

uchinchidan, aktorlarning bir davlat yoki mintaqqa doirasida bo‘ysunishi va harakatlarini muvofiqlashtirish buzilgan;

to‘rtinchidan, dunyoning siyosiy xaritasi tarixiy ravishda o‘rnatilgan etnik, konfessional, iqtisodiy va xo‘jalik parametrlarga ko‘ra davlatlarni birlashtirgan geosivilizatsiyalar bilan ifodalanadi. Biroq, xalqaro huquq normalari geosivilizatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solmaydi. Hozircha biz ular o‘rtasidagi munosabatlar turini bilamiz, faqat buni S. Xantington "sivilizatsiyalar to‘qnashuvi" deb ta’riflagan.

Bularning barchasi dunyodagi Vestfaliya tizimidagi tub siljishlarning ko‘rsatkichi va dunyo siyosati, xalqaro huquq va geosiyosat nazariyasining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan dunyoning yangi tizimining konturlarini aniqlash zaruratidir.

Belovejsk geosiyosiy davri Sovet Ittifoqi va jahon sotsialistik tizimi qulaganidan keyin keladigan davrdir. Sovuq urush tugab Qo‘shma Shtatlar bir qutbli dunyo barpo etish to‘g‘risidagi da‘volarini e’lon qildilar. Xususan, NATOning ta’sir doirasini kengaytirishda ifoda etildi. Jahon geosiyosati xaritasi tubdan o‘zgardi. J. Allen uni "Jahon siyosati atlasida" (Allen 2006: 33) quyidagicha taqdim etdi. Unda mintaqaviy geosiyosiy chegaralar va makro rayyonlar (mintaqa - mintaqqa, soha) o‘rtasidagi global geosiyosiy chegaralar aniq ko‘rsatilgan. Shunday qilib, xususan, Rossiya atrofida joylashgan Yevroosiyo kontinental makro mintaqasi (Yevroosiyo kontinental sohasi), muallif ta’kidlaganidek, tashqaridan iqtisodiy va madaniy ta’sirga kamroq ta’sir qiladi va siyosiy jihatdan yopiqdir. Bizning nazarimizda global geosiyosiy makon ikki qutbga bo‘linmoqda. Qo‘shma Shtatlar va G‘arbiy Yevropani birlashtirgan bitta "Atlantika" butun dunyo jarayonlarini (birinchi navbatda, AQSh tomonidan) nazorat qilinishini da’vo qiladigan “oltin milliard”ni o‘zida aks ettiradi.

Ikkinchisi - "Tinch okeani", uning asosiy generatorlari Yaponiya va Xitoydir. Bundan tashqari, Yaponiya "oltin milliard" mamlakatlaridan biri, ammo geosiyosiy jihatdan "Tinch okeani" qutbining ajralmas bo‘g‘ini. O‘z navbatida, Xitoy o‘z kontinental va dengiz ta’sir zonasini (shu jumladan Markaziy Osiyo, Avstraliya va hatto Lotin Amerikasini) jadal kengaytirmoqda. Shuning uchun yaqin yillarda jahon siyosatining asosiy mazmuni dialektika qonunlaridan birining harakatini to‘la ifoda etadigan ushbu ikki global kuch markazlari o‘rtasidagi

ziddiyatli potentsialning o'sishi bo'ladi deb taxmin qilish kerak. Ammo unutmasligimiz kerakki, agar rivojlanish manbai qarama-qarshi tomonlarning kurashi bo'lsa, unda yaxlitlikni saqlash sharti bu qarama-qarshi tomonlarning birligidir.

Jahonning iqtisodiy, madaniy va axborot hayotidagi integrasiya jarayonlarining sayyora siyosiy hayotida ham sodir bo'lishi – hozirgi jahon sistemasi geosiyosiy tuzilmasi va xarakteristikasiga ta'sir ko'rsatuvchi tendensiyalardan biridir.

Jahon siyosiy globallashuvining asosini: 1) milliy-davlat institutlarining ichki kompetensiyasi va xalqaro huquqlariga, bu kompetensiyalar va huquqlarni amalga oshirish mexanizmlariga yangicha yondashuv; 2) xalqaro siyosatni rejalashtirish va amalga oshirishga davlatlardan tashqari, bu masalalarga bevosita aloqador nohukumat aktorlarini jalb etish; 3) sayyora siyosiy integrasiyasining kuchayishi tashkil etadi.

XX asrning 70–80-yillaridan boshlab AQSH va G'arb davlatlarining homiyligi ostida jahonda minglab XHT va NHTlar barpo etildi, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishlari uchun sharoitlar yaratildi. BMT, EXHT, Yevro Kengashi, Yevro Ittifoqi, NATO, Jahon Savdo Tashkiloti, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon Banki, OPEK va boshqa shunga o'xshash xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi – Islom Konferensiyasi Tashkiloti, MDH, SHanxay Hamkorlik Tashkiloti, Osiyo Tinch okeani Iqtisodiy hamkorlik Tashkiloti, ASEAN, SHimoliy Amerika erkin savdo shartnomasi singari tashkilotlar bilan birga, ularning homiyligi ostidagi ko'pdan-ko'p xalqaro, mintaqaviy va milliy NHTlar hozirgi xalqaro siyosatga faol aralashmoqdalar, sayyora hayotini tashkil etish va boshqarishda ishtirok etmoqdalar.

“Mondializm” deb ataladigan bu jarayonni, umuman, ob'ektiv deb hisoblasalar-da, ayni chog'da ular bu AQSH va uning ittifoqchilari tomonidan rejalashtiriladigan, tartibga solinadigan va boshqariladigan jarayon deb baholaydilar. Boshqa so'zlar bilan aytganda, ular mondializmni sub'ektiv jarayon va “o'ylab olingen ssenariy” deb hisoblashadi. Bunda yagona dunyo siyosiy hayotining AQSHning kattalashtirilgan aksi sifatida tashkil topishi va dengiz sivilizasiyasining o'z qadriyatlarini jahonning boshqa xalqlari va davlatlariga zo'r lab tiqishtirishi tushuniladi.

Neoatlantistlar paydo bo'lishidan biroz ilgari, Ikkinchi Jahon urushidan keyin paydo bo'lган, ammo “sovuq” urush davrida e'tibordan chetda qolgan muhim bir geosiyosiy kontseptsiya haqida ham to'xtalish zarur. Dastavval sho'rolarni chalg'itish maqsadida ishlab chiqilgan, ammo negizida sog'lom fikr ham bo'lган bu kontseptsiya, yadroviy apokalipsis vasvasasi davrida ayniqsa har ikki tarafdagи xalqlar uchun bebaho qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lsada, har

ikkala tarafning mafkurasi buni bir-biriga oshkor qilishga yo'l qo'yagan. Bu dunyoni ziddiyat bilan emas, balki yagona hukumat bilan boshqarish lozimligi to'g'risidagi kelishuvchilik doktrinasidir. "Mondializm nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu kontseptsiyaga ko'ra davlatlar, xalqlar, millatlar va madaniyatlar integratsiyasi natijasida ular bitta dunyoga birlashib ketadilar"¹.

Jahon axborot makonining globallashuvi. Jahon transmilliy ommaviy axborot vositalari ayrim-ayrim mamlakatlarning milliy chegaralaridan oshib o'tib, yagona virtual axborot va targ'ibot makonini vujudga keltirdi. Qaysi mamlakatda, qaysi qit'ada yashashidan, qaysi millat, din yoki tilga mansubligidan qat'iy nazar, kishilar dunyoning istalgan bir nuqtasida o'zini qiziqtirayotgan hodisalarning mohiyati va keyingi oqibatlarini bir zumda bilib olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, jahon aviasiyasida ingliz tilining qabul qilinishi 200dan oshiq milliy davlatlar va ularning aviasiya kompaniyalarini ayni shu tilni o'rganishga va havo makonida shu tilda so'zlashishga majbur qilmoqda. Yoki elektron tarjima vositasining paydo bo'lishi va uning ommaviy axborot vositalariga kiritilishi kishilarga axborotni bir tildan ikkinchisiga bemalol tarjima etish va unga munosabat bildirish imkonini berdi.

Globallashtirish jahonda transmilliy matbuot, axborot va targ'ibot vositalarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi. Masalan, Britaniyaning VVS va Amerikaning "AOL-Time Warner" kabi mashhur axborot imperiyalari o'z tarkibiga kiruvchi o'nlab telekanallar, gazetalar, jurnallar, Internet media-tarmoqlari vositasida yuzlab va minglab axborotni jahonning istalgan bir nuqtasiga bir zumda etkazish va shu yo'l bilan jamoatchilik fikrini kerakli yo'sinda shakllantirishda g'oyat katta imkoniyatlarga egadir. Bu bahaybat transmilliy media-imperiyalardan har birining yillik byudjeti (taxminan 60-80 millard dollar) Rossiya, Turkiya va Eron kabi davlatlarning yillik byudjetiga tengdir.

Hozirgi vaqtda ingliz tilidagi OAVlari jahon geosiyosiy makonining 98 foyizini qamragan va, mohiyat e'tibori bilan, jahon jamoatchiligi fikrini shakllantirishni monopoliya qilib olgan. Ular faqat o'z mamlakati axborotini tarqatish va targ'ib etish vazifasini bajaribgina qolmaydi, balki ayni chog'da jahonning boshqa mamlakatlari ichki ishlariga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, milliy, ijtimoiy, diniy masalalarga, davlat va fuqarolarning o'zaro munosabatlariga aralashadi, amalda jahonning istalgan bir nuqtasida xalqaro jamoatchilik fikrini shakllantiish va boshqarishga, G'arbning transmilliy "qadriyatları"ni insoniyatga tizishtirishga harakat qiladi.

Globallashuv yuqorida aytib o'tilganidek, garchi umuman insoniyat taraqqiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob'ektiv jarayon bo'lsa-da, shunga

¹ Жалилов А.Т. Геосиёсат. Тошкент. Akademiya. 2020 й. 77 б.

qaramay, jahon siyosatining transmilliylashuvi va XXI asr boshidan virtuallasha boshlagan jahon geosiyosiy makonining chegarasiz yagona axborot maydoniga aylanishi aslo stixiyali tarzda va o‘z-o‘zidan yuz bergani yo‘q. Jahon sistemasining yangi tashkiliy shaklu shamoyili va geosiyosiy tuzilmasi ortida turgan AQSH va G‘arb dunyosining siyosiy markazlari umuman insoniyatga “sayyoraning kelajak hayot shaklini” borgan sari “mondializm” ko‘rinishida taqdim etishga, jahon jamoatchiligi fikrini o‘zlari targ‘ib va tashviq etayotgan pang‘oyalari, birinchi navbatda, panamerika va pang‘arb g‘oyalari tomonga yo‘naltirishga urinmoqdalar.

Hozirgi dunyoda pang‘oyalari (qaysidir bir sivilizasiya egasi bo‘lgan millatlar, davlatlar va jamiyatlarning milliy, diniy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa qadriyatlarining umumlashtirilgan normalari) global geosiyosiy model – insoniyatning “oliy va tanlangan manfaatlari namoyon bo‘lishi shakli” sifatida maydonga chiqadi va xalqaro geosiyosiy munosabatlarning virtual kuch maydoniga aylanib, turli axborot vositalari va transmilliy targ‘ibot kanallari orqali jahon siyosiy makoniga olib chiqiladi.

Hali bundan bir asr muqaddam taniqli nemis olimi K.Xaushofer “Geosiyosatda pang‘oyalari” asarida ilgari surgan va bashorat qilgan pang‘oyalari tendensiyasi XXI asr boshida o‘zini tamomila oqladi¹. Xaushofer o‘sha vaqtda jahon makonini bo‘lib olgan va ular ustidan to‘la nazorat o‘rnatgan geosiyosiy kuchlar kelgusida pang‘oyalari, g‘oya-konsepsiylar vositasida butun jahonni qamrab oladi, g‘oyalari eng kuchli bo‘lgan millatlar va davlatlar o‘z maqsadlari va qadriyatlarini Yer kurrasining “kelajak hayot shakli” ko‘rinishida boshqa makonlarga yoyadi, deb yozgan edi. Hozirgi kunda pang‘oyalarning zamonaviy ko‘rinishlari mavjud. Bular panamerikanizm, panslavyanizm, pansovetizm, panyevroosiyochilik, panislomizm, panturkizm va h.

Globallashuv jarayonlari mamlakat ichkarisida va xalqaro maydonda milliy hukumatlarning (boshqaruv organlari majmui sifatida davlat bo‘lishi shart emas) kuchini pasaytirmoqda. Hukumatlar o‘z korporatsiyalarini boshqarish imkoniyatiga ega emaslar. Transmilliy aktorlar, nodavlat tashkilotlar va tobora ko‘proq xalqaro ommaviy axborot vositalari davlatning o‘z mafkurasini tatbiq etishni qiyinlashtirmoqda. Blok tizimining qulashi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining, YXHT va boshqa xalqaro tashkilotlarning zaiflashishi bilan birgalikda uning umumiyligi boshqarilishi pasaydi, oldindan aytib bo‘lmaydiganlik va tartibsizlik darajasi oshib bormoqda.

Bir vaqtning o‘zida globallashuv jarayonlari va axborot inqilobi bilan bog‘liq holda xalqaro munosabatlarning institutsional bo‘lmagan demokratlashtirish mavjud. Jahon miqyosida, davlatlar qatori, noan'anaviy aktorlar

¹ Хаусхофер К. Панидеи в geopolitike // Хаусхофер К. О geopolitike. М., 2001, с.253.

ham tobora faollashmoqda: TMKlar, ommaviy axborot vositalari, bosim guruhlari, nodavlat tashkilotlar, intellectual mulk egalari, har xil harakatlar, davlatlararo tashkilotlar va boshqalar. Ular jahon taraqqiyotining siyosiy tendentsiyalariga tobora kuchayib bormoqda¹.

Ushbu belgilar nihoyatda ko‘p jinsli bo‘lib, ularning ta’siri noaniq va ba’zan ularni hisob-kitobi qiyinroq bo‘lmoqda. Shunday qilib, globallashuv jarayonida jahon siyosiy tizimi yanada murakkablashishga intiladi, nochiziqli, ko‘p o‘lchovli va ko‘p faktorli bo‘lib, u yangi tizimli xususiyatlarga ega, ular ham global rivojlanishning yangi resurslari, ham global xavfsizlikka yangi tahdidlardir.

Zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimining tubdan yangi axborot "o‘lchovi" ni o‘rganayotganda quyidagilarni bilib olish kerak:

- birinchidan, globallashuv xavfsizlik haqidagi tushunchani qanday o‘zgartirishi;

- ikkinchidan, axborot inqilobining dunyoda mavjud xavfsizlik tizimi uchun qanday oqibatlari bor. Taniqli amerikalik siyosatshunos, xavfsizlik nazariyasi sohasi mutaxassis M. Intriligator global beqarorlik va o‘zaro bog‘liqlik natijasida xavfsizlikni ta‘minlashning an‘anaviy usullari tobora kamroq moslashib bormoqda, shuning uchun dunyo hamjamiyati yangi xavfsizlikni mexanizmlarini ishlab chiqishi kerak, deb ta‘kidlaydi.

Hozirgi vaziyatda xavfsizlikni milliy, hatto xalqaro nuqtai nazardan emas, balki global sharhlash zarur. Shunday qilib, an‘anaviy milliy va xalqaro xavfsizlik tushunchalari sayyoramizning hayotiy manfaatlariga tahdidlarning yo‘qligi yoki ularni oldini olish sifatida ta‘riflangan global xavfsizlikning eng yangi kontseptsiyasi bilan almashtirilishi kerak.

Xavfsizlik zamonaviy dunyoda boshqa davlat hisobidan emas, balki boshqa jalg qilingan davlatlarning xavfsizligi bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Ya’ni boshqalarning xavfsizligini oshirish hech kimning o‘z xavfsizligini susaytirmaydi. Globallashuv jarayonida xavfsizlikning mazmuni va mohiyati an‘anaviy harbiy o‘lchovdan tashqarida kengaymoqda.

Global xavfsizlik sayyoramizning hayotiy manfaatlariga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa tahdidlarni qamrab olishi kerak, ya’ni noharbiy qismlarning roli ortib bormoqda. Xavfsizlikning an‘anaviy tor doiradagi ta‘rifi doirasida ham, suveren davlat yoki birlashgan Amerika Qo‘shma Shtatlari guruhining hayotiy manfaatlariga harbiy tahdidlarning oldini olishni o‘z ichiga olgan holda, global xavfsizlikning yanada kengroq muammolari mavjud².

¹ Подберезкин А. Глобальные процессы и международные отношения (Проект). http://www.nasled.ru/pressa/isdaniya/global_1/.

² Интригатор М. Определение «глобальной безопасности» // Разоружение. 1991. Т. XIV. № 4. С. 73–89

Dunyo miqyosida yangi axborot texnologiyalarining tarqalishi deb hisoblanadigan axborot inqilobining oqibatlarini, uning dunyo siyosiy jarayonining uchta tarkibiy qismiga ta'sirini (sub'ektlar, ya'ni jahon hamjamiyati; tarkib tomoni, ya'ni xalqaro munosabatlar va xavfsizlik) baholash, tadqiqotchilar ushbu hodisaning asosan quyidagi xalqaro ahamiyatga ega natijalarini ajratib ko'rsatmoqdalar:

- markazsizlashtirish, davlat chegaralarining shaffofligi, plyuralizm;
- xalqaro miqyosda harakat qiluvchi yangi aktorlarning (global axborot makonining tuzilmalari va sub'ektlari) paydo bo'lishi;
- jamoalarning ierarxik tuzilishini emas, balki tarmoqni shakllantirish;
- axborot xavfsizligi komponentining o'sib borayotgan roli;
- xalqaro mojarolarning mohiyatini o'zgartirish va ularni hal etishga yondashuvlar.

So'nggi yarim asr davomida insoniyatning iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi "axborot jamiyat" ning yangi ijtimoiy-siyosiy tuzilishini shakllantiradi. Universal o'zaro bog'liqlik va global miqyosda integratsiya, sanoat inqilobi bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlari bilan taqqoslanadigan axborot inqilobi kabi hodisa haqida gapirishga asos beradi.

XX asrning 60-yillari boshidan boshlab axborot uzatish vositalari va kanallarini birlashtirish va takomillashtirish, tarqatilgan kompyuter tarmoqlari, elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish uchinchi ming yillik ostonasida global axborot makonining paydo bo'lishiga olib keldi. zamonaviy postindustrial jamiyatning infratuzilmasi:

- siyosiy sohada hokimiyat emas, balki axborot omillari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda;
- iqtisodiyotda axborot mahsulotlari tovar munosabatlari tizimiga kiritilgan, ko'plab tijorat tuzilmalari paydo bo'lgan
- axborot ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, axborotlashtirish va axborotni himoya qilish vositalari;
- iqtisodiy salohiyatning axborot infratuzilmasi rivojlanish darajasiga bog'liqligi, shuningdek, iqtisodiyotning axborot ta'siriga nisbatan potentsial zaifligi o'sib bormoqda;
- axborot sohasida boshqaruvning barcha darajalarida: davlatlararo sub'ektlardan tortib alohida firmalar va banklarga qadar sifatli sakrash kuzatildi, bu menejmentni takomillashtirish va oshirish uchun eng keng imkoniyatlarni taqdim etadigan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq samaradorlik¹.

¹ Беляев Е.А. Информационная безопасность как глобальная проблема / Международная конференция «Глобальные проблемы как источник чрезвычайных ситуаций». Доклады и выступления / Под ред. Ю.Л. Воробьева М.: УРСС, 2000. С. 123–134

Boshqa nazariy qarashlarda zamonaviy dunyo, asosan, yagona iqtisodiy, siyosiy va madaniy makonning shakllanishi tufayli bir hil ko‘rinishga ega. Ba’zi tadqiqotchilar (F. Fukuyama va boshqalar) bu jarayonlarni g‘arb qadriyatları, institutlari va turmush tarzi modellarining tarqalishi bilan bog‘laydilar. Boshqalar - kompyuter axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan. Shunday qilib, amerikalik futurist E. Toffler quyidagi konturlarga ega bo‘lgan kompyuter-axborot sivilizatsiyasining shakllanishi haqida gapiradi: 1) axborot (moslashuvchan) texnologiyalar; 2) sinfiy o‘z ma’nosini yo‘qotadigan jamiyat; 3) fuqarolarning jamiyat hayotida ishtirok etishini ta’minlaydigan kutish demokratiyasi; 4) zamonamizning global muammolarini hal qiladigan transmilliy institutlar.

O‘z navbatida, kanadalik sotsiolog G.Maklvenning ta’kidlashicha, axborot-kompyuter asosidagi texnologik inqilob dunyonи "global qishloq" ga aylantiradi, elektron madaniyat ijtimoiy makon-vaqtinchalik tuzilmalarda umumiy ishtirok etishni ta’minlaydi¹.

Zamonaviy sharoitda dunyo hamjamiyatini tartibga solish bo‘yicha turli loyihibar ilgari surilmoqda. Ularning aksariyati yangi dunyo tartibini yaratish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ba’zi tahlilchilar va ekspertlar ushbu jarayon iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan va siyosiy jihatdan nufuzli mamlakatlar nazorati ostida o‘tishi kerak deb hisoblaydilar. Boshqalar hal qiluvchi rolni xalqaro tashkilotlar va institutlarga yuklashadi. Qanday bo‘lmisin, yangi dunyo tartibini yaratish xalqlarning milliy va madaniy o‘ziga xosligini, ularning davlatlari suverenitetini saqlashni shubha ostiga qo‘ymasligi kerak.

7.3. Zamonaviy geosiyosatning tuzilishi va undagi geoiqtisodiyotning o‘rnı

Agar eski geosiyosat davlatlarni, aniqrog‘i, eng ta’sirchan davlatlar - derjavalarни uning sub’ekt sohasi deb hisoblagan bo‘lsa, yangi geosiyosat davlatlar, transmilliy korporatsiyalar, jahon tashkilotlari, global miqyosdagi barcha zamonaviy sub’ektlar ta’sirini ham o‘rganadi. Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda geosiyosat asoslari tuzilmasining o‘zi muhim o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Geosiyosiy bilim sohalari bo‘yicha zamonaviy Yevropa siyosatini quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin:

1. Olimlarning geosiyosiy konstruktsiyalari va davlatlarning uzoq yoki unchalik uzoq bo‘lмаган o‘tmishdagi harakatlari yoki dunyo tuzilishidagi tarixiy o‘zgarishlarni o‘rganadigan geoxronosiyosat;

¹ <https://www.grandars.ru/college/sociologiya/mirovaya-sistema.html>

2. Geosiyosiy doktrinalar va harakatlarni iqtisodiy nuqtai nazardan o'rganadigan, iqtisodiy aloqalarni va kuchlarning iqtisodiy holatini dunyoni taqsimlash (birlashtirish) uchun asos qilib beradigan geoiqtisodiyot;
3. Geosiyosatni turli xil etnik guruhlarning o'zaro ta'siri, ularning yer yuziga joylashishi va ularning ko'chishi sifatida o'rganadigan geoetnosiyosat;
4. Geokonfessiologiya, dunyoni u yoki bu diniy ta'lilot hukmronlik qiladigan hududlarga ajratish, davlatlarning o'zaro ta'sirining barcha turlarini (hamkorlik, integratsiya, mojarolar, urushlar va boshqalar) birinchi navbatda konfessional omil orqali tushuntirish;
5. Siyosatning konfliktologik tarkibiy qismini birinchi o'ringa qo'yadigan, dunyoni mojaro zonalariga ajratadigan, iloji bo'lsa (yoki imkonsiz) xalqaro mojarolarni hal qiladigan geografik konfliktologiya;
6. Dunyoni qayta qurish bo'yicha ba'zi bir senariylarni, vaziyatlarni, nazariy jihatdan asoslangan farazlarni bashorat qiladigan geofuturologiya¹.

Shubhasiz, yaqinda geopolitikaning boshqa tuzilmalari paydo bo'lishi mumkin. Ushbu barcha tuzilmalar orasida iqtisodiyotni, aniqrog'i, geoiqtisodiyotni - dunyoda kuchlar ta'sirining iqtisodiy tarkibiy qismini, uning ta'sir doiralariga bo'linishini, dunyodagi davlatlarning iqtisodiy manfaatlari to'qnashuvini o'rganadigan geosiyosatning subdistiplinasini ajratib ko'rsatish kerak. Maydon, geosiyosiy maqomga bog'liqlik va kuchlarning iqtisodiy mavqeini va umuman olganda, dunyoning siyosiy va iqtisodiy tuzilishini taqsimlash yoki qayta taqsimlashni o'z vazifasi qilib oladi.

Geosiyosatning tarkibiy elementi sifatida geoiqtisodiyot geografik joylashuvi va xalqaro omillar ta'siridan kelib chiqqan holda jahon bozori, transchegaraviy iqtisodiy makon, turli mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi va o'zaro ta'sirini o'rganadi. U mamlakatning global geoiqtisodiy makon ichidagi o'rnini belgilaydigan davlatning geoiqtisodiy strategiyasini yaratish uchun hududiy tashkiliy vosita sifatida ishlaydi.

"Geoiqtisodiyot" atamasini birinchi bor qo'llagan odam XX asrning 80-yillarda AQShning Davlat departamenti va Milliy xavfsizlik kengashida maslahatchi bo'lib ishlagan Edvard Lyuttvak hisoblanadi. U o'zining mazkur tashkilotlar uchun tayyorlagan axborotlarida: "Geoiqtisodiyot – bu xalqaro raqobatda davlatlar o'rtasida bo'ladigan raqobat bo'lib, unda davlat "o'zining" kompaniya va boshqa xo'jalik birlashmalari uchun jahondagi "o'zga" kompaniyalarga nisbatan maksimal ustunlikni ta'minlaydi", – degan fikrni bildiradi.

¹ Исаев Б.А. Геополитика : учебник для вузов. СПб. : Питер. 2016. 494 с.

Tadqiqotchi R.Qobilovning fikricha “Geoqtisodiyot – bu muayyan bir elat, millat, xalq va davlatlarning qo’lay geografik o’rni, hududiy joylashuvi, ishlab chiqarish salohiyati, tadbirkorlik darajasi va kommunikatsion imkoniyatlari qarab o’zga elat, millat, xalq va davlatlar bilan integratsiyalashuvi asosida raqobat maydonida ustunlikni qo’lga kiritib ko’proq daromad topish, foyda ko’rish maqsadida olib borayotgan ijtimoiy - iqtisodiy faoliyatidir”¹.

Demak, geoqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy borliq sifatida elat, millat, xalq va davlatlar tomonidan olib borilayotgan geoqtisodiy siyosatning substratini¹ tashkil etadi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga kelib elat, millat, xalq va davlatlarning iqtisodiy faoliyatida geoqtisodiy siyosatning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishiga asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

1. XX asrning 80-yillari oxiriga kelib SSSRning parchalanib ketishi natijasida dunyoning ikki qutbga bo’linishiga barham berilishi oqibatida yangi geoqtisodiy makonlarning paydo bo’lishi;

2. Ilm-fan, texnika rivojining shiddatli tus olishi, axborot texnologiyalari oqimining tezlashuvi dunyoda yashayotgan xalqlar va davlatlararo o’zaro bog’lanishning kuchayishiga, xalqaro aloqa tarmoqlarining kundan-kunga kengayishiga, davlatlararo iqtisodiy aloqalarining chegara bilmas darajada rivoj topishi natijasida eski iqtisodiy makonlar o’rniga yangi optimal lokallashgan geoqtisodiy makonlarning vujudga kelishi;

3. Jahonning siyosiy xaritasida bir qancha mustaqil davlatlarning paydo bo’lishi va ularning o’zga davlatlarning iqtisodiyoti bilan integratsiyaga kirishishlari natijasida yangicha lokal geoqtisodiy o’choqlarning qaror topishi;

4. Jahonda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlarning yo’nalishini kutilmaganda o’zgartirib yuboruvchi yangidan paydo bo’layotgan iqtisodiy jihatdan mustaqil sub’ektlar gammasining paydo bo’lishi va ularning foyda orqasidan quvib chegara bilmas darajada faol harakat qilishi.

Italiya olimlari J. Karlo va P. Savona tomonidan tuzilgan geoqtisodiyot va geosiyosat o’rtasidagi asosiy farqlar quyidagicha:

1. Geosiyosat amaliy siyosiy faoliyat sifatida davlatning rivojlanishiga hissa qo’shishi mumkin bo’lgan hududlarga hokimiyat va ta’sirni tarqatishning asosiy maqsadini belgilaydi - bular “hayotiy manfaatlar zonalari” deb nomlanadi.

2. Geosiyosatda davlat o’z imkoniyatlarini to‘liq nazorat qiladi, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini biladi. Geoqtisodiyotda davlat iqtisodiy jarayonni qisman nazorat qiladi. Davlat faqat davlat maqsadlariga erishishda o’z hissasini qo’shishi mumkin, chunki iqtisodiy tizimda qaror qabul qilish markazlari ko‘p.

¹ Кобилов Р.Р. Ўзбекистон геоқтисодий сиёсатининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Самарқанд. 2021 56-бет.

3. Davlat milliy iqtisodiyotning global miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Davlat o‘z iqtisodiyotini jahon miqyosida qo‘llab-quvvatlashi, innovatsion rivojlanish darajasini, infratuzilmani va boshqalarni rag‘batlantirishi mumkin. Geoiqtisodiy raqobat siyosiy va strategik raqobat kabi berilgan¹.

Geoiqtisodiyot tuzilmasining o‘zi siyosatshunoslik tuzilishi singari, statik va dinamik asoslarni ham o‘z ichiga oladi². Geoiqtisodiyot statikasiga quyidagilar kiradi.

- dunyoning eng ta'sirli kuchlari o‘rtasida ishlab chiqarish va iqtisodiy taqsimot;
- dunyoning moliyaviy-iqtisodiy bo‘linishi dollarning, yevroning, rivojlanayotgan yuan zonasining, milliy valyutalar zonalarining ustunlik qiladigan zonalariga bo‘linishi;
- ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi mamlakatlar o‘rtasida dunyoning xom ashyo va ishlab chiqarish taqsimoti;
- energiya bilan ta'minlaydigan va energiya iste'mol qiladigan mamlakatlar o‘rtasida dunyoning energetik bo‘linishi;
- quroq-yarog va harbiy texnikani ishlab chiqaruvchi, iste'mol qiluvchi mamlakatlar o‘rtasida dunyonni taqsimlash;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradigan mamlakatlar va mahsulotlarni iste'mol qiladigan mamlakatlar o‘rtasida dunyoning bo‘linishi;
- qulay iqlimi va rivojlangan turizm infratuzilmasi bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida dunyoning bo‘linishi³, asosan sayyohlarni qabul qiladi va mamlakatlar, asosan, turistik oqimlarni boshqaradi.

Geoiqtisodiyot dinamikasiga dunyoning geoiqtisodiy tarkibida o‘zgarishlarni amalga oshiradigan barcha jahon iqtisodiy jarayonlari kiradi, shu jumladan:

- tovarlar oqimi;
- ishchi kuchi oqimlari;
- moliyaviy oqimlar;
- turistik oqimlar;
- sportchilar oqimlari va ularning muxlislari va boshqalar⁴.

Agar geoiqtisodiyotning fanlar tarkibidagi o‘rni va geosiyosat bilan geoiqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi haqida gapiroqradigan bo‘lsak, unda shuni ta’kidlashimiz kerakki, bugungi kunda geoiqtisodiyot geosiyosatning subdistiplinasi vazifasini bajaradi va siyosiy, iqtisodiy fanlarning tutashgan joyida joy egallaydi.

¹ Карло Ж., Паоло С. Геоэкономика. М.: Ad Marginem, 1997.

² Исаев Б.А. Политология. СПб. : Питер, 2005. 5-е изд. 7 с. (Краткий курс).

³ Игнатьева И.Ф. Туристская деятельность: организация, экономика, политика. СПб. : Д.А.Р.К., 2014. 136-153 с.

⁴ Игнатьева И.Ф. Пространство потоков: экономический и геополитический анализ туризма // Общество. Среда. Развитие. 2013. № 1 (26). С. 111–115.

Geoiqtisodiyot geosiyosatning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Biroq, uning mohiyati nafaqat bu bilan belgilanadi, balki geoiqtisodiyot iqtisodiyot, siyosatshunoslik, geografiya, tarix va boshqalar kabi zamonaviy ilmiy sohalar orasida alohida o‘rin tutadi. Geoiqtisodiyotga turli nuqtai nazardan qarash mumkin. *Birinchidan*, iqtisodiy fan tomonidan Geoiqtisodiyot iqtisodiy bo‘lim, iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish usuli sifatida qaraladi¹. Shu bilan birga, iqtisodiy fanning o‘zi doirasida, geoiqtisodiyotning o‘rni to‘g‘risida yakdil fikr mavjud emas.

Ikkinchidan, geoiqtisodiyotga geografiyaning bir bo‘lagi sifatida qarash mumkin, ya’ni. transmilliy iqtisodiy geosistemalarning shakllanish xususiyatlarini, xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan fazoviy (geografik) omillarni o‘rganishni o‘z predmetiga ega bo‘lgan geografik subdistiplina sifatida².

Uchinchidan, geoiqtisodiyotga rivojlanishning global, mintaqaviy, iqtisodiy modellari, davlatlar, mamlakatlarning iqtisodiy ittifoqlari o‘rtasidagi munosabatlarnini, dunyoning siyosiy va iqtisodiy tuzilishini o‘rganadigan siyosiy iqtisod deb qarash mumkin.

To‘rtinchidan, geoiqtisodiyot – bu geografik, iqtisodiy va siyosiy yondashuvlar, strategiyalarning kombinatsiyasi, ma'lum bir sintezidir. Siyosiy va iqtisodiy jarayonlar nafaqat bitta geomakonda, bir vaqt bo‘yicha ham birlashtirilgan. Bu zamonaviy geograflar va iqtisodchilarga o‘z tadqiqotlarida dala yondashuvini qo‘llashga imkon beradi. Bu geoekonomik ta’sir doiralarini barpo etishdan iborat bo‘lib, ular har doim ham davlat chegaralariga to‘g‘ri kelmaydi. Bu shuni anglatadiki, geoiqtisodiyot sub'ektlari nafaqat bitta makon-zamonda mavjud bo‘lib, balki ma'lum ta’sir doiralarini shakllantiradi. Boshqa sub'ektlarning maydonlari bilan o‘zaro ta’sir qiladi, bir-birini kuchaytiradi yoki zaiflashtiradi.

Beshinchidan, yuqorida aytib o‘tilganidek, geoiqtisodiyot geosiyosiy fanning tarkibiy elementidir. Biroq, ba’zi tadqiqotchilar geoiqtisodiyotni maxsus ilmiy soha sifatida joylashtiradilar. Ba’zi hollarda “geoiqtisodiyot” atamasi boshqa yaqin tushunchalar bilan almashtiriladi. Shunday qilib, G.D. Gloveli "geosiyosiy iqtisod" atamasidan foydalanishni taklif qiladi. E.G.Kochetov geoiqtisodiyotni global tadqiqotlar bilan bog‘laydi³.

Qo‘shma Shtatlardagi zamonaviy geoiqtisodiyot bosqichining asoschisi Edvard Lutvak taniqli amerikalik tarixchi va geosiyosatshunos, davlat

¹ Гловели Г.Д. Геополитическая экономия как традиция российской экономической мысли : автореф. дис. ... д-ра экон. наук. М., 2009. 4с.

² Борисова П.С. Эстония в европейском геоэкономическом пространстве : автореф. дис. ... канд. геогр. наук. СПб., 2005. 4 с.

³ Кочетов Э.Г. Геоэкономическая парадигма (основы высоких геоэкономических техно-логий по гармонизации мира и новое «поле» для межцивилизационного глобального договора /диалога/) [Электронный ресурс] // Безопасность Евразии. 2006. № 4. С. 560–578. Электрон. версия печат. публ. URL: <http://rudocs.exdat.com/docs/index-272488.html> (дата обращения: 21.04.2021).

to'ntarishlari va harbiy mojarolar bo'yicha mutaxassis hisoblanadi. Lutvak geosiyosatni iqtisodiy raqobatga asoslangan siyosat sifatida geoiqtisodiyotga qarama-qarshi qo'yadi. Uning nuqtai nazaridan, bugungi kunda yetakchi kuchlarning xatti-harakatlari "savdo grammatikasidagi ziddiyatlar mantig'I"ning mujassamlanishi sifatida amalga oshirilmoqda. Geoiqtisodiyot mudofaa va hujum usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Millatni birlashtirish uchun zarur bo'lgan geosiyosiy tahdid iqtisodiy tahdidga aylanib bormoqda. Ushbu munosabat va ushbu xatti-harakatlar, ayniqsa, Prezident Tramp rahbarligidagi AQShning zamonaviy tashqi siyosatida yaqqol namoyon bo'ldi.

Yevropada XX asrning 80-yillarida fransuz siyosatchisi va iqtisodchisi Jak Attali neomondialistik yondashuvning vakili, geoiqtisodiy kontseptsiyani qo'llab-quvvatladi. Jak Attali "geoiqtisodiyot" tamoyillari asosida tuzilgan geosiyosiy dualizmni, yagona dunyo hukmronligini bekor qilishni ta'kidlaydi. Dunyoning asosiy markazlari Amerika iqtisodiy makoni, Yevropa makoni va Tinch okeani mintaqasidir. «Ushbu uchta mondialist makon o'rtaida, Attalining so'zlariga ko'ra, alohida tafovutlar va qarama-qarshiliklar bo'lmaydi, chunki iqtisodiy va mafkuraviy turlar har qanday holatda ham bir xil bo'ladi. Faqatgina farq eng keng rivojlangan markazlarning sof geografik joylashuvi bo'ladi. Ular o'zlarining atrofida makon jihatdan yaqinlikda joylashgan kam rivojlangan hududlarni kontsentratsion ravishda tuzadilar. Bunday konsentrik qayta qurish faqat "tarixni tugshida" yoki boshqacha qilib aytganda, geosiyosat buyurgan an'anaviy haqiqatlarni bekor qilish bilan amalga oshishi mumkin»¹.

Geoiqtisodiyot va neomondializm, ya'ni bu Atlantizmga qarama-qarshi qutb yo'qligini anglatadi. Bu SSSR qulaganidan keyin mumkin bo'ldi. «Neomondializm - bu so'nggi modelda chap sotsialistik elementlar mavjudligini taxmin qilgan tarixiy mondializmning bevosita davomi emas. Bu mondializm va Atlantikizm o'rtaidiagi oraliq variantdir».

Global qamrovning maxsus ilmiy yo'nalishi sifatida geoiqtisodiyot zamonaviy fanlararo yondashuvlar – dunyoning tizimli tahlili, geosivilizatsiyalashgan modellashtirish, geostatik yondashuv va boshqalar bilan bog'liq. Geoiqtisodiyot fan sifatida nazariy va empirik tarkibiy qismlarga ega. Nazariy geoiqtisodiyot geosiyosiy va iqtisodiy qonunlarning ishlashini o'rganadi, o'ziga xos nazariya va yondashuvlarni yaratadi. Global iqtisodiy rivojlanishning ko'p o'zgaruvchanligini o'rganadi. Nazariy geoiqtisodiyotga missol sifatida olti burchakli geoiqtisodiy olam modelini rus geoiqtisodchisi A.I.Neklessa tomonidan asoslanib, global iqtisodiyotning kontseptual asosi sifatida keltiramiz.

¹ Геоэкономика Жака Аттали [Электронный ресурс] // Дугин А. Основы геополитики. Кн. 1. Электрон. дан. URL: <http://uchebnik-online.com/129/407.html> (дата обращения: 21.04.2021).

Amaliy geoiqtisodiyot amaliy muammolarni echishga, geoiqtisodiy tushunchalar va nazariyalarning o‘ziga xos ko‘rinishini o‘rganishga, aniq qiymatlarni aniqlashga, masalan, davlatlarning geosiyosiy holatini, ularning YaIM ko‘rsatkichlarini, ularning geoiqtisodiy ta’sirining aniq chegaralarini, geoiqtisodiy strategiyalarini va ularning natijalarini aniqlashga ko‘proq e’tibor beradi

Dunyoning geoiqtisodiy manzarasini maxsus tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ko‘plab mezonlar asosida qurish mumkin. Bunday mezon sifatida mamlakatlarning turli reytinglari va tasniflari mavjud. Mana ulardan ba’zilari. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha mamlakatlarning eng mashhur tasnifi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq taklif qilingan: iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari (aholi jon boshiga YaIM / YAIM, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi, asosiy ishlab chiqarish jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulotlar turlari, aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlari, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari); iqtisodiy o‘sish turi (ekstensiv, intensiv, bilim talab qiladigan); tashqi iqtisodiy aloqalar darajasi va xususiyati (iqtisodiyotning ochiqligi darajasi bilan belgilanadi); mamlakatning iqtisodiy salohiyati hajmi.

Geoiqtisodiyotning maqsadi turli davrlarning raqobatlashishi dinamikasi, inqirozga olib boruvchi yoki oldini oluvchi usul va yo’llarini o‘rganadi. Geopolitik raqobatning maqsadi jahondagi iqtisodiy liderlikni qo’lga kiritishdan iboratligicha qolmoqda. Jhon iqtisodiyotida yetakchilik qilish uchun geopolitik kuchlar tomonidan turli iqtisodiy ittifoqlar, tashkilotlar, alyanslar tuzilmoqda¹. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, Xalqaro savdo tashkiloti, Jhon banki, Xalqaro valyuta jamg’armasi, Yevraziya iqtisodiy ittifoqi, Yevropa iqtisodiy zonasasi, Yevropa rekonstruktsiya va taraqqiyot banki, Shanxay hamkorlik tashkiloti va hokazolar shular jumlasidandir. Bu ittifoqlarning asosiy vazifasi u yoki bu geopolitik kuchlarning manfaatlariga mos bo’lgan iqtisodiy vaziyatni, iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltirishdan iborat.

Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, biz ta’kidlab o’tganimizdek, mamlakat-larning iqtisodiy imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, iqtisodiy retsessiyani boshlab berdi. Natijada geopolitik kuchlar o’rtasida jahondagi iqtisodiy liderlik uchun kurash yangi pallaga kirdi. Jhon iqtisodiyotida yetakchilik qilish uchun iqtisodiy o’sishni ta’minalashga qodir barcha manba-lardan unumli foydalanish kerak, albatta. Ana shunday manbalarning eng asosiysi tabiiy resurslar bilan bog’liqligi bizga yaxshi ma’lum. Darhaqiqat, iqtisodiy taraqqiyot va farovonlikning asosiy manbai tabiiy resurslardir. Buning ustiga, tabiiy resurslarga ega bo’lgan davlat

¹ Ushbu mavzu bo‘yicha Рустамов Р. Р. Геополитик ракобат шароитида маънавий тарғибот системасидаги атрибутив ўзгаришлар: муаммолар ва ечимлар nomli dissertasyasidan foydalanildi (Самарқанд. 2019 54-60 бетлар)

jahon iqtisodiyotida ham mustahkam mavqega ega bo'ladi. Shuning uchun moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyingi davrda iqtisodiyotdagi geopolitik raqobat ayniqsa tabiiy resurslar - neft, gaz, suv, hosildor yer uchun kurashda yaqqol namoyon bo'ldi. Tabiiy resurslarni qayta bo'lib olishga, ularni arzon-garovga xarid qilish imkonini beradigan mexanizmlarni joriy qilishga intilish, tabiiy resurslarga boy mamlakatlarni (Venesuela, Saudiya Arabiston, Eron, Iroq, Quvayt, Suriya, Liviya, Nigeriya va boshqalar) o'z ta'sir doirasiga olishga urinish kuchaydi. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot manbai deb qaralgan tabiiy resurs rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tom ma'noda ijtimoiy-siyosiy muammoga aylandi.

Iqtisodiy liderlik uchun kurash tabiiy resurslarga egalik qilishga intilish bilan intiho topayotgani yo'q. Tabiiy resurslar bozoridan muxolif kuchlarni siqib chiqarishga intilish ham jahon iqtisodiyotida yetakchilik qilish ilinjidan o'zga narsa emas. Buning uchun turli mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy sanktsiyalar qo'llash tajribasi amalga oshirilmoqda. Masalan, keyingi 30 yilda Kuba, Venesuela, Eron, Rossiya, Shimoliy Koreya kabi ko'plab mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy sanktsiyalar qo'llanildi. Mazkur sanktsiyalar natijasida, bir tomonidan jahon neft va gaz bozoridagi muvozanat tubdan o'zgargan bo'lsa, ikkinchi tomonidan mazkur mamlakatlarning iqtisodiy potentsialiga jiddiy zarar yetkazildi. Eng tashvishlanarlisi, jahon bozoridagi tabiiy resurslarning narxi u yoki bu geopolitik kuchning manfaatlariga monand ravishda tez o'zgaruvchan xarakter kasb etdi.

Bugungi kunda avj olib ketgan yangi bozorlar uchun kurashni ham iqtisodiyot sohasidagi geopolitik raqobatning o'ziga xos shakli sifatida baholamoq kerak. Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda ayrim mahsulotlarning ichki bozor ehtiyojlaridan ko'proq ishlab chiqarilishi kuzatiladi. Ko'plab kompaniyalar o'z mahsulotlarini bir necha toifaga ("rivojlangan mamlakatlar uchun", "Osiyo mamlakatlari uchun", "Afrika mamlakatlari uchun" va hokazo) tasniflagan holda ishlab chiqaradilar. Mamlakat ichkarisida sotilmay qolgan yoxud sotilishi rejalashtirilmagan mahsulotni realizatsiya qilish uchun yangi bozorlarni egallash, undagi muxolif kuchlarni siqib chiqarish zarur bo'ladi. Shu tariqa bozor sifatida baholangan ayrim mintaqalarda turli iqtisodiy manfaatlarga ega bo'lган ikki geopolitik kuch o'rtasida raqobat yuzaga keladi. Buni, masalan, Yevropa energetika bozoridagi jarayonlarda ko'rish mumkin. Rossianing bu bozorni egallash uchun barpo etayotgan "Shimoliy oqim-2" gaz o'tkazgichi boshqa geopolitik kuchlarning keskin qarshiligiga uchradi. Bu kuchlar mazkur gaz o'tkazgichni hatto Yevropa energetik xavfsizligiga tahdid deya ta'kidladilar.

2018 yilda avj olgan AQSh va Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoy, AQSh va Kanada, AQSh va Meksika o'rtasidagi savdo urushi ham geopolitik kuchlarning

iqtisodiy liderlik uchun kurashi mahsulidir. Ma'lumki, davlatlar boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini amalgalashga oshirayotganda eksport bilan import o'rtasidagi muvozanatni saqlashga harakat qiladilar. Bunda ma'lum mamlakatdan import qilingan mahsulotlar miqdorining eksport hajmidan oshib ketishi xavfsizlikka tahdid sifatida, teskari balans esa iqtisodiy ustuvorlik manbai sifatida baholanadi. AQSh hukumati qator mamlakatlar bilan qilinayotgan savdodagi balansning mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga mos emasligini e'tirof etar ekan, import qilinayotgan ayrim mahsulotlarga 25 foizlik boj to'lovi joriy qildi. Tez orada Xitoyning javob choralarini ma'lum qilindi. Natijada ikki mamlakat 800 dan ortiq mahsulotlarga 68 milliard dollarga teng boj to'lovlarini belgiladi¹. Tez orada Yevropa Ittifoqining ayrim mamlakatlari, Kanada, Meksikada ham javob choralarini ishlab chiqildi. Shu tariqa turli geopolitik kuchlarning manfaatlari to'qnashgan keng ko'lamli savdo urushi boshlanib ketdi.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotdagi geopolitik raqobat nihoyatda murakkab xarakterga ega. Bu jarayonda targ'ibot sistemasini imkoniyatlaridan samarali foydalanilayotgani esa vaziyatni yanada chigallashtirmoqda. Yangi asr boshlariga kelib, iqtisodiyot va targ'ibot uyg'unlashib ketdi. Targ'ibot geopolitik kuchlarning jahon iqtisodiy sahnidagi pozitsiyalarini asoslab berishga, ular uchun maqbul bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni ulug'lashga xizmat qiluvchi vositaga aylandi. Buni postindustrial iqtisodiy munosabatlar targ'ibotida yaqqol ko'rish mumkin. Neoliberalizm nazariyotchisi, Nobel mukofoti laureati Milton Fridman o'zining 1962 yildayoq yozilgan "Kapitalizm va erkinlik" nomli asarida postindustrial iqtisodiy munosabatlar nazariy asoslarini ifodalab bergandi. Uning fikricha, mamlakat alohida, erkin individuumlarning yig'indisidan tashkil topadi. Bu individuumlar turli shaxsiy maqsadlar konsensusi bo'lgan milliy maqsadlarnigina tan oladi, turli shaxsiy vazifalar konsensusi bo'lgan milliy vazifanigina qo'llab-quvvatlaydi. Boshqacha aytganda, Fridman nazdida xalq emas, alohida individuumlar yig'indisi, milliy g'oya emas, manfaatlari konsensusi mavjud, xolos. Korporatsiya (yoxud davlat) esa o'z hissadorlari (yoxud ana shu erkin shaxslar) manfaatlarini himoya qiluvchi vositaga aylanmog'i kerak. Uning atigi bir mas'uliyati bor: hissadorlari uchun imkon qadar ko'proq pul topish; har qanday boshqa ijtimoiy mas'uliyat erkin jamiyat asoslarini yemirishga xizmat qiladi.

M. Fridman g'oyalarining tarafdarlari (masalan, yangi formatsiya siyosatdonlari nomini olgan R. Reygan, M. Tetcher, R. Xouk, B. Malrouni va boshqalar) hokimiyat tepasiga kelganlaridan so'ng eski jahon iqtisodiy sistemasi tubdan demontaj qilindi. Xususan, dollar butun jahon mamlakatlarining asosiy rezerv valyutasiga aylantirildi, BMT, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, jahon Banki va shu

¹ Каткова Е. "Крупнейшая в истории": Трамп развязал войну. <https://m.gazeta.ru>.

kabi xalqaro tashkilotlarning nufuzi oshirildi. Bu tashkilotlar esa global iqtisodiy modelni targ'ib qilishda bosh-qosh bo'ldilar. Dunyoning barcha rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlari AQSh va G'arbiy Yevropaga muxolif bo'lgan iqtisodiyot sifatida emas, mahsulotlarni sotish uchun bozor va xom ashyo donori sifatida e'tirof etiladigan bo'ldi. Mamlakatlar AQShda ishlab chiqilgan standartlar asosida toifalarga ajratildi, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar, normativlar joriy qilindi¹. Eng qizig'i, ushbu yangi jahon iqtisodiy sistemasi, uning huquqiy asoslarini ifodalovchi normativ hujjatlar ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali keng targ'ib qilinmoqda. Bunday vaziyatga xi洛f bo'lgan har qanday holatni yuzaga keltirgan, mavjud qoidalarni shubha ostiga olgan davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlar tarqatish tendentsiyaviy tus olmoqda.

Nazorat savollari

1. Hozirgi jahon sistemasining tasnifi va yangi geosiyosiy tendensiyalarni mohiyatini tushuntiring?
2. Jahon iqtisodiy hayotining globallashuvi deganda nimani tushunasiz?
3. Davlatning geoiqtisodiy manfaatlari sistemasini tasvirlan bering?
4. Jahon siyosiy makonining globallashuvi va suveren davlatlar huquqlari bir biriga qanday ta'sir qiladi?
5. Mondalizm va monosentrizm qanday g'oya hisoblanadi?
6. Jahon axborot makonining globallashuvini asosi nimada?
7. Globalashgan dunyoda pang'oyalar ahamiyati qanday?
8. O'zbekistonga qanday pang'oyalar tahdid solishi mumkun?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Беляев Е.А. Информационная безопасность как глобальная проблема / Международная конференция «Глобальные проблемы как источник чрезвычайных ситуаций». Доклады и выступления / Под ред. Ю.Л. Воробьева М.: УРСС, 2000. С. 123–134
2. Борисова П.С. Эстония в европейском геоэкономическом пространстве : автореф. дис. ... канд. геогр. наук. СПб., 2005. 4 с.
3. Валлерстайн И. Анализ мировых систем и ситуация в современном мире / Пер. с англ. П.М. Кудюкина; Под ред. Б.Ю. Кагарлицкого. СПб.: Унив. кн. 2001. — 416 с.

¹ Кошмаров М. Ю. Экономические теории и эволюция пропаганды.// Мир новой экономики, 2017, №4.- С.51.

4. Гловели Г.Д. Геополитическая экономия как традиция российской экономической мысли : автореф. дис. ... д-ра экон. наук. М., 2009. 4с.
5. Геоэкономика Жака Аттали [Электронный ресурс] // Дугин А. Основы геополитики. Кн. 1. Электрон. дан. URL: <http://uchebnik-online.com/129/407.html> (дата обращения: 21.04.2021).
6. Геополитика : учеб.-метод. пособие / Л. М. Гайдукевич [и др.]. —2-е изд., перераб. и доп. — Минск : БГУ, 2011. С.60-62
7. Жалилов А.Т. Геосиёсат. Тошкент. Akademiya. 2020 й. 77 б.
8. Интрилигатор М. Определение «глобальной безопасности» // Разоружение. 1991. Т. XIV. № 4. С. 73–89
9. <https://www.grandars.ru/college/sociologiya/mirovaya-sistema.html>
- 10.Исаев Б.А. Геополитика : учебник для вузов. СПб. : Питер. 2016. 494 с.
- 11.Исаев Б.А. Политология. СПб. : Питер, 2005. 5-е изд. 7 с. (Краткий курс).
- 12.Игнатьева И.Ф. Туристская деятельность: организация, экономика, политика. СПб. : Д.А.Р.К., 2014. 136-153 с.
- 13.Игнатьева И.Ф. Пространство потоков: экономический и геополитический анализ туризма // Общество. Среда. Развитие. 2013. № 1 (26). С. 111–115.
- 14.Карло Ж., Паоло С. Геоэкономика. М.: Ad Marginem, 1997.
- 15.Кочетов Э.Г. Геоэкономическая парадигма (основы высоких геоэкономических техно-логий по гармонизации мира и новое «поле» для межцивилизационного глобального договора /диалога/) [Электронный ресурс] // Безопасность Евразии. 2006. № 4. С. 560–578. Электрон. версия печат. публ. URL: <http://rudocs.exdat.com/docs/index-272488.html> (дата обращения: 21.04.2021).
- 16.Подберезкин А. Глобальные процессы и международные отношения (Проект). http://www.nasled.ru/presa/isdaniya/global_1/.
- 17.Рустамов Р. Р. Геополитик рақобат шароитида маънавий тарғибот системасидаги атрибутив ўзгаришлар: муаммолар ва ечимлар. Самарқанд. 2019 154 б.
- 18.Каткова Е. “Крупнейшая в истории”: Трамп развязал войну. <https://m.gazeta.ru>.
- 19.Кошмаров М. Ю. Экономические теории и эволюция пропаганды// Мир новой экономики, 2017, №4.- С.51.

XULOSA

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliv o‘quv yurtidagi Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi va Falsaфа yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, geosiyosat asoslari fani bo‘yicha birinchi urinish hisoblanadi. Ushbu fan bo‘yicha mamlakatimizda ham, chet ellarda ham to‘plangan tadqiqotlar tajribasini sarhisob qilindi. Geosiyosat fani - bu sintetik fan, u ko‘p qirrali siyosiy qarashlar, ziddiyatli vaziyatlarni yechimi, geosiyosiy qarashlarning asosiy yo‘nalishlarini qamrab oladi. Kitobda sayyoramizning turli geosiyosiy mintaqalari, eng murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va harbiy tizimlarning hozirgi holatining mohiyati, ularning geostrategik munosabatlarining haqiqiy istiqbollari to‘g‘risida bayon qilingan.

Geosiyosat fani geografik muhitning siyosiy omillaridan foydalanish yo‘li bilan unga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga, ularni o‘rganishga, davlatning iqtisodiy, ekologik, harbiy-strategik xavfsizligi ta’min etilishiga xizmat qiladi. Amaliy geosiyosat davlatning hudud muammolari, sarhadlari, aholisi bilan birga, u molik bo‘lgan strategik zahiralarning joylashtirilishi va foydalanilishiga oid barcha narsalarni o‘rganadi. Quruqlik va suvda voqelik oddiy siyosat doirasidan chiqib, global geosiyosatga aylandi. Dunyo yangi tartibotni istamoqda.

Geosiyosat XXI asrning yetakchi gumanitar fanlaridan biriga aylanmoqda. Xalqaro maydondagi barcha voqealarni quruqlik va dengiz sivilizatsiyalari o‘rtasidagi ob‘ektiv mayjud qarama-qarshiliklar doirasida ko‘rib chiqilib, ushbu fan sayyoralar tarixini tushuntirishning ko‘plab sub‘ektiv tomonlar qarshlarini tahlil qiluvchi amaliy fabdir. Bundan tashqari, geosiyosat nafaqat tor doiradagi olimlar va mutaxassislar fikrinini, balki Sovuq urush tugaganidan so‘ng o‘ziga xos mafkuralar vakuumiga tushib qolgan keng qatlamlarni ham jalg qiladi.

Dunyo globallashayotgan sharoitda xalqaro munosabatlarning barcha pog‘onalarida – davlatlararo, tashkilotlararo va hatto alohida shaxslararo aloqalarda milliy, mintaqaviy va jahoniy geosiyosiy vaziyatni to‘g‘ri baholash katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada mazkur o‘quv qo‘llanma faqat talabalar uchungina emas, balki davlat xizmatchilari, siyosatshunoslar, va keng o‘quvchi qatlami uchun ham ahamiyatlidir.

XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida biz butun dunyo geosiyosiy manzarasini o‘zgartirayotgan tub o‘zgarishlarga guvoh bo‘ldik. Bugungi kun geosiyosat oldida yangi geosiyosiy jarayonlar uzlusiz g‘alayonlar davrini ochadimi yoki uzoq muddatli barqarorlik davri - yangi geosiyosiy tartibni yaratadimi; agar shunday bo‘lsa, yangi dunyoda hukmron kuchlar va yirik to‘qnashuvlar qanday bo‘ladi; qaysi mintaqalar va davlatlar dunyo yadrosida qoladi?, degan savolni ko‘ndalang

qilib qo‘ymoqda. Aynan ushbu savollarga javob izlash davlatlarga va ularning siyosiy elitalariga munosib xulq-atvor chizig‘ini shakllantirishga imkon beradi.

Bugungi kunda geosiyosat nafaqat davlatlarning jahon arenasidagi faoliyatining strategiyasi, nafaqat bilimlarning fanlararo sintetik sohasi, balki dunyoning xalqaro manzarasini tushuntiradigan, ma’lum e’tiqod tizimini shakllantiradigan maxsus makon-zamon dunyoqarashidir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda o‘ziga xos hududiy mavqega ega va geosiyosiy nuqtai nazardan Osiyo mintaqasida muvozanatlari tashqi siyosat amalga oshirmoqda. Shuning uchun bu mintaqasi muvozanatlari tashqi siyosat, “katta o‘yin”larning xarakteri, maqsadini to‘g‘ri va chuqur anglashda mazkur fanning yutuqlari dolzarbdir.

MAVZULARGA DOIR TESTLAR

1. “Geosiyosat” fan sifatida qachon shakllangan?
 - a) XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida;
 - b) XX asr boshlarida;
 - c) XX oxirida;
 - d) XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida.
2. “Geosiyosat” atamasining ma’nosи nima?
 - a) yunon tilida “geo” – “yer” va “politicos” – “davlatni boshqarish san’ati;
 - b) fransuz tilida “geo” – “yer” va “politicos” – “davlatni boshqarish”;
 - c) ingliz tilida “geo” – “yer” va “polite” – ajoyib;
 - d) rus tilida “geo” – “yer” va “politika” – “boshqarish”.
3. “Politische Geographie” (Siyosiy geografiya) asarining muallifi kim?
 - a) Fridrix Ratsel;
 - b) Rudolf Chellen;
 - c) Mishel Fushe;
 - d) Iv Lakost.
4. “Geosiyosat” atamasi kim tomonidan fanga kiritilgan?
 - a) Rudolf Chellen;
 - b) Fridrix Ratsel;
 - c) Mishel Fushe;
 - d) Iv Lakost.
5. Davlat hayotning bir shakli sifatida” (“Der Staat als Lebensform”) asarining muallifi kim?
 - a) Rudolf Chellen;
 - b) Fridrix Ratsel;
 - c) Mishel Fushe;
 - d) Iv Lakost.
6. geosiyosat= siyosat+tarix+geografiya2 ushbu formula muallifi kim?
 - a) N. Starikov;
 - b) Y. Tixonrovov;
 - c) Mishel Fushe;
 - d) Iv Lakost.
7. “Geosiyosat” fanining obyekti bu ...
 - a) jahon siyosati, yagona tizim sifatidagi dunyoning geosiyosiy tuzilishi va xalqaro dunyoviy tartibot;
 - b) jahon siyosati;
 - c) geosiyosiy omillar;
 - d) geosiyosiy munosabatlar.

8. “Geosiyosat” fanining predmeti bu ...

a) xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal etish, geosiyosiy subyektlarning o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar;

b) jahon siyosati, yagona tizim sifatidagi dunyoning geosiyosiy tuzilishi va xalqaro dunyoviy tartibot;

c) xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal etish;

d) jahon siyosati.

9. Geosiyosatning asosiy aktorlari nimalar?

a) barcha javoblar to‘g‘ri;

b) klassik siyosiy aktorlar;

c) yangi geosiyosiy aktorlar;

d) hududiy aktorlar.

10. Klassik siyosiy aktorlar nimalar?

a) davlat, armiya, diniy tashkilotlar;

b) siyosiy partiyalar, elektoral geografiya, nodavlat tashkilotlar, iqtisodiy aktorlar, xalqaro moliyaviy institutlar, xalqaro mafiya, OAV, qurolli guruhlar.

c) inson;

d) barcha javoblar to‘g‘ri.

11. Yangi geosiyosiy aktorlar nimalar?

a) siyosiy partiyalar, elektoral geografiya, nodavlat tashkilotlar, iqtisodiy aktorlar, xalqaro moliyaviy institutlar, xalqaro mafiya, OAV, qurolli guruhlar;

b) davlat, armiya, diniy tashkilotlar;

c) inson;

d) barcha javoblar to‘g‘ri.

12. Tellurokratiya ... bu –

a) quruqlidagi kuch;

b) dengizdagi kuch;

c) kosmosdagi kuch;

d) davlatning kuchi

13. R. Chellenning fikricha davlatning qudratini belgilovchi omillar nimalar?

a) barcha javoblar to‘g‘ri;

b) ekosiyosiy, kratossiyosiy;

c) demossiyosiy, sotsiosiyosiy;

d) geosiyosiy.

14. R. Chellenning fikricha davlatni qudratini belgilovchi jihatlari nechta?

a) 5 ta;

b) 3 ta:

c) 4 ta;

d) 6 ta.

15. Demosiyosat – bu ...

a) davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarni, ularning turmush tarzini tadqiq qilish;

b) davlatning ijtimoiy jihatlarini o‘rganish;

c) davlatlarning hokimiyat va boshqaruv shakllarini va ularning davlatdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan munosabati muammolarini o‘rganish;

d) davlatni iqtisodiy kuch markazi sifatida o‘rganish.

16. Sotsiosiyosat – bu ...

a) davlatning ijtimoiy jihatlarini o‘rganish;

b) davlatni iqtisodiy kuch markazi sifatida o‘rganish;

c) davlatlarning hokimiyat va boshqaruv shakllarini va ularning davlatdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan munosabati muammolarini o‘rganish;

d) davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarni, ularning turmush tarzini tadqiq qilish.

17. Kratosiyosat – bu ...

a) davlatlarning hokimiyat va boshqaruv shakllarini va ularning davlatdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan munosabati muammolarini o‘rganish;

b) davlatni iqtisodiy kuch markazi sifatida o‘rganish;

c) davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarni, ularning turmush tarzini tadqiq qilish;

d) davlatni iqtisodiy kuch markazi sifatida o‘rganish.

18. “Davlatning qudrati=Tabiiy-geografik omillar+ho‘jalik+xalq+boshqaruv shakli” ushbu formula kimga tegishli?

a) R. Chellen;

b) F. Ratsel;

c) Mishel Fushe;

d) Iv Lakost.

19. Birinchi jahon urushi qachon tugagan?

a) 1918-yil 11-noyabrda Germaniyaning Antantaga taslim bo‘lishi bilan

b) 1918-yil 18-yanvarda Fransiya poytaxti Parij shahriga 27 davlat delegatsiyasi to‘planishi bilan

c) 1918 yil martda Sovet Rossiyasining urushdan chiqishi bilan

d) 1918 yil yozida “To‘rtlar ittifoqi”ning mag‘lubiyati bilan

20. 1-jahon urushidan so‘ng Osiyo va Tinch okean havzasidagi munosabatlarini tartibga solish maqsadida qachon va Vashington shahrida nechta davlat ishtirokida konferensiya o‘tkazildi?

- a) 1921-1922-yillarda, 9 ta
- b) 1919-1920-yillarda, 27 ta
- c) 1919-1920-yillarda, 27 ta
- d) 1921-1922-yillarda, 5 ta

21. 1-jahon urushidan so‘ng Osiyo va Tinch okean havzasidagi munosabatlarini tartibga solish maqsadida qaerda konferensiya o‘tkazildi?

- A) Vashington shahrida
- B) London shahrida
- C) Parij shahrida
- D) Rim shahrida

22. 1-jahon urushidan so‘ng Osiyo va Tinch okean havzasidagi munosabatlarini tartibga solish maqsadida nechta shartnomasi imzolangan?

- a) 3 ta
- b) 5 ta
- c) 4 ta
- d) 9 ta

23. Versal shartnomasiga ko‘ra, Fransiya qaerlarni o‘ziga qaytarib oldi?

- a) Saar viloyatini Elzas va Lotaringiyani
- b) Saar viloyatini
- c) Reyn daryosining chap sohilini
- d) Togo va Kamerunni

24. Talassokratiya – bu ...

- a) dengizdagi kuch;
- b) quruqlikda kuch;
- c) davlatning kuchi;
- d) kosmosdagi kuch;

25. Endemik maydon – bu ...

a) uzoq vaqlardan beri ma‘lum bir davlat tomonidan, ma‘lum bir milliy guruh tomonidan nazorat qilib kelinayotgan borliq bo‘lib, o‘scha borliqning aynan shu jamoaga tegishli ekanligini boshqa qo‘shnilar tomonidan tan olinishini nazarda tutadi;

b) bunday maydonda ma'lum bir milliy jamoa istiqomat qilsada, davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo'lib, yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo'ladi;

c) turli milliy jamoalarning yashashidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ko'proq davlatlar da'vegar bo'lgan geosiyosiy borliq;

d) geostrategik mintaqaning bir qismi.

26. Chorrahaviy maydon – bu ...

a) turli milliy jamoalarning yashashidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ko'proq davlatlar da'vegar bo'lgan geosiyosiy borliq;

b) geostrategik mintaqaning bir qismi;

c) bunday maydonda ma'lum bir milliy jamoa istiqomat qilsada, davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo'lib, yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo'ladi;

d) uzoq vaqtlardan beri ma'lum bir davlat tomonidan, ma'lum bir milliy guruh tomonidan nazorat qilib kelinayotgan borliq bo'lib, o'sha borliqning aynan shu jamoaga tegishli ekanligini boshqa qo'shnilar tomonidan tan olinishini nazarda tutadi.

27. Chegaraviy maydon – bu ...

a) bunday maydonda ma'lum bir milliy jamoa istiqomat qilsada, davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo'lib, yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo'ladi;

b) uzoq vaqtlardan beri ma'lum bir davlat tomonidan, ma'lum bir milliy guruh tomonidan nazorat qilib kelinayotgan borliq bo'lib, o'sha borliqning aynan shu jamoaga tegishli ekanligini boshqa qo'shnilar tomonidan tan olinishini nazarda tutadi;

c) turli milliy jamoalarning yashashidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ko'proq davlatlar da'vegar bo'lgan geosiyosiy borliq;

d) geostrategik mintaqaning bir qismi.

28. Geosiyosiy makon – bu ...

a) geostrategik mintaqaning bir qismi;

b) turli milliy jamoalarning yashashidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ko'proq davlatlar da'vegar bo'lgan geosiyosiy borliq;

c) endemic maydon;

d) chegaraviy maydon.

29. Geosiyosatning funksiyalari nimalar?

- a) barcha javoblar to‘g‘ri;
- b) gnoseologik funksiya, prognoz qilish funksiyasi;
- c) boshqaruv funksiyasi;
- d) mafkuraviy funksiya, skeptitsizm funksiyasi.

30. Gnoseologiya – bu ...

- a) bilish nazariyasi;
- b) geosiyosat predmeti;
- c) geosiyosiy jarayonlar;
- d) siyosiy munosabat.

31. Geosiysatning prognoz qilish funksiyasi nima?

- a) tadqiqotlar natijasida bashorat qilish;
- b) siyosiy muammolarni hal qilish;
- c) siyosiy jarayonlarda ishtirok etish;
- d) davlatlar o‘rtasida aloqani ta‘minlash.

32. Geosiyosat fanining uslublari nimlar?

- a) barcha javoblar to‘g‘ri;
- b) tizimli yondashuv uslubi;
- c) qiyosiy uslub, funksional uslub;
- d) tarixiy uslub, faoliyatli uslub.

33. Geosiyosiy davrlar nechta?

- a) 7 ta;
- b) 5 ta;
- c) 4 ta;
- d) 6 ta.

34. Geosiyosat fanining o‘rganish uslublari nechta?

- a) 5 ta;
- b) 6 ta;
- c) 4 ta;
- d) 3 ta.

35. “Davatlarning makoniy o‘sish qonunlari” asarining muallifi kim?

- a) R. Chellen;
- b) F. Ratsel;
- c) Mishel Fushe;
- d) Iv Lakost.

36. X. Makkinder fikricha dunyoning geosiyosiy davrlari nechta?

- a) 3 ta;
- b) 4 ta;
- c) 6 ta;
- d) 5 ta.

37. X. Makkinder fikricha geosiyosiy davrlari?

- a) barcha javoblar to‘g‘ri;
- b) kolumbgacha bo‘lgan davr;
- c) kolumb davri:
- d) kolumbdan keying davr.

38. Rossiyada Yevroosiyochilik harakatining asoschisi kim?

- a) L.N. Gumilov;
- b) O. Shpengler;
- c) O. Toynbi;
- d) A.G. Dugen.

39. Ikkinci jahon urushida nechta davlat ishtirok etdi?

- a) 61 ta;
- b) 32 ta;
- c) 58 ta;
- d) 21 ta.

40. “Sovuq urush” kimlar o‘rtasida yuz berdi?

- a) AQSH va SSSR;
- b) AQSH va Yaponiya;
- c) SSSR va Fransiya;
- d) SSSR va Germaniya.

41. “Sovuq urush” qachon boshlandi?

- a) 1945 yil;
- b) 1939 yil;
- c) 1991 yil;
- d) 1953 yil.

42. “Sovuq urush” qachon tugadi?

- a) 1991 yil;

- b) 1939 yil;
- c) 1941 yil;
- d) 1953 yil.

43. Qachon AQSh harbiy-havo kuchlari tomonidan Xirosima va Nagasakiga atom bombalari tashlandi?

- a) 1945 yil 6-9 avgust;
- b) 1945 yil 1-2 sentyabr;
- c) 1945 yil 9 may;
- d) 1945 yil 1-8 noyabr.

44. Qachon SSSR atom bombsini sinovdan o‘tkazdi?

- a) 1949 yil;
- b) 1939 yil;
- c) 1952 yil;
- d) 1953 yil.

45. “Marshal rejsi” bo‘yicha Yevropaning nechta davlatiga yordam ko‘rstildi?

- a) 16 ta;
- b) 20 ta;
- c) 10 ta;
- d) 5 ta.

46. “Varshava shartnomasi” qachon tuzildi?

- a) 1955 yil 14 may;
- b) 1953 yil 14 may;
- c) 1939 yil sentyabr;
- d) 1991 yil avgust.

46. “Varshava shatnomasi” ishtirokchilar kimlar?

- a) barcha jabvoblar to‘g‘ri;
- b) Bolgariya, Vengriya, GDR;
- c) Polsha, Ruminiya;
- d) SSSR, Chexoslovakiya, Albaniya.

47. NATO qchon tashkil topdi?

- a) 1949 yil 4 aprelda;
- b) 1953 yil dekabrdagi;
- c) 1955 yil 14 mayda;

d) 1991 yil 31 avgustda.

48. Bipolyar tizim – bu ...

- a) ikki qutubli dunyo;
- b) bir qutubli dunyo;
- c) ko‘p qutubli dunyo;
- d) notekis dunyo.

49. V. Vilsonning «14 moddasi» asosida Versal saroyida qaysi davlatlar bilan imzolanadigan shartnomaga matni tayyorlandi?

- a) Germaniya, Avstriya, Ruminiya, Bolgariya va Turkiya
- b) Germaniya, Avstriya, Vengriya, Bolgariya va Turkiya
- c) Germaniya, Avstriya, Ruminiya, Bolgariya va Turkiya va Polsha
- d) AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya va Fransiya

50. Versal shartnomasiga ko‘ra Millatlar Ittifoqi boshqaruvidagi «erkin shahar» deb olingan davlat bu

- A) Gdansk shahri
- B) Morelle okrugi
- C) Shlezvigning shimoliy qismi
- D) Vena shahri

51. Versal shartnomasiga ko‘ra Germaniya qaysi davlatga bo‘lgan da’volaridan voz kechishga majbur etildi?

- A) Avstriya
- B) Polsha
- C) Serbiya
- D) Daniya

52. 1 jahon urushidan keyin Germaniyaga nisbatan Komissiya reparatsiya miqdorini qachongacha belgilaydigan bo‘lgan?

- A) 1921-yilning 1-mayigacha
- B) 1921-yilning 2-mayigacha
- C) 1922-yilning 1-mayigacha
- D) 1921-yilning aprel-mayigacha

53. Versal shartnomasiga ko‘ra Germaniyaga qancha reparatsiya belgilanadi?

- A) 132 mldr oltin marka
- B) 142 mlnr oltin marka

- C) 132 mlrd oltin marka
- D) 32 mln oltin marka

